



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2017-yil, 2-son (102/1) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Iqtisodiyot, Huquqshunoslik

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
A. J. XOLIQOV, k.f.d.
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O'zFA akademigi	J. D. ELTAZAROV	- fil.f.d., professor
T. M. MO'MINOV	- O'zFA akademigi	D. I. SALOHIY	- fil.f.d., professor
SH.A.ALIMOV	- O'zFA akademigi	S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor
T.RASHIDOV	- O'zFA akademigi	T. SH. SHIRINOV	- tar.f.d., professor
S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi	M.D.DJURAKULOV	- tar.f.d., professor
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor	I. M. SAIDOV	- tar.f.d., professor
A. S. SOLEEV	- f.-m.f.d., professor	B. O. TO'RAYEV	- fals.f.d., professor
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor	A. S. BEGMATOV	- fals.f.d., professor
B. X. XO'JAYAROV	- f.-m.f.d., professor	J.YA.YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor
I. I. JUMANOV	- f.-m.f.d., professor	M. Q. QURONOV	- ped.f.d., professor
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor	N. SH. SHODIYEV	- ped.f.d., professor
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor	E. G'. G'OZIYEV	- psixol.f.d., professor
J. X. XO'JAYEV	- b.f.d., professor	SH. R. BARATOV	- psixol.f.d., professor
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor	B. Q. QODIROV	- psixol.f.d., professor
Z. F. ISMAILOV	- b.f.d., professor	R. A. SEYTMURATOV	- i.f.d., professor
S. B. ABBOSOV	- geogr.f.d., professor	B. X. TO'RAYEV	- i.f.d., professor
L. A. ALIBEKOV	- geogr.f.d., professor	X. X. XUDAYNAZAROV	- t.f.d., professor
A. A. ABULQOSIMOV	- geogr.f.d., professor		

MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

TARIX/HISTORY		
Po'latov Yu. E.	G'ildirak va arava: genezisi va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari xususida	4
G'oyibov B.S.	"Konfederatsiya" tushunchasi va uning ilk o'rta asr Sug'd davlatchiligida aks etishi	6
Mahmudov O.V.	"Hind hisobida qo'shish va ayrish kitobi"ni lotin tiliga o'girgan Rim papasi xususida	13
Zamonov A.T.	Buxoro xonligi qo'shinida qurol-yarog'lar ta'minoti (XVI asr)	17
Abdullaev A.	Amudaryo bo'limida (viloyatida) tashkil etilgan ayrim jazo organlari faoliyatiga doir (XX asrning 20-yillari)	23
Qodirov Q.	DND yoki ko'ngilli posbonlar tarixidan	26
Norbo'tayev P.P.	Qashqadaryo vohasi xalq baxshilari ijodida qadimiy e'tiqodiy inonchlar talqini	29
Maxmudov T.I.	Mirzo Ulug'bekning astronomiya fani rivojiga qo'shgan hissasi	32
Mamaragimov A.X.	Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston tajribasi fransiyalik mutaxassislar nigohida	36
Эштемиров Ж.	Коренные преобразования в социально-экономической и культурной жизни города Карши в годы независимости	41
Meliqulov B.	O'zbekistonda millatlararo totuvlikni ta'minlashda milliy madaniy markazlarning(MMM) o'rni	46
FALSAFA/PHILOSOPHY		
Abdullayeva S.S.	Jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'rta asrlar sharq mutafakkirlari ma'naviy merosining roli	49
Aliyeva Sh.R.	Shaxsning tabiatga axloqiy-estetik munosabati va uning ekologik madaniyat bilan integratsiyasi	52
Тошкuvatova P.Ш.	Философское осмысление роли семьи и её влияние на духовно-нравственное формирование личности.	56
Qahhorov P.X.	Demokratik davlat barpo etishda milliy mentalitetning o'rni	60
Zikirova N.Q.	Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari	64
Quvvatov S.I.	Mahallada turmush estetikasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	67
Xujayev M.I.	Zaki Validiy ilmiy merosida diniy falsafaning yoritilishi	71
Bo'tayev U.X.	Jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy institutsionallashuv: kompleks yondashuv	74
Shakirova Sh.Yu.	"Kanzul-maorif" asarining tadqiqi va Sanoiyning falsafiy qarashlari	78
Tillavoldieva M.X.	Globalashuv jarayonida O'zbekiston milliy mustaqilligini mustahkamlashning ayrim jihatlari	81
Xolmaxmatov A.X.	Yoshlar siyosatini amalga oshirishning ma'naviy asoslari	83
Bekpo'latov U.R.	Evolyutsiya jarayonlarida xaos va tartib simmetriyasi	87
Mavlonov Sh.	Globalashuv sharotida sharq va g'arb ma'naviy madaniyati integratsiyasi: muammo va istiqbolli vazifalar	91
G'affarova G.G'.	Axborot falsafasi paradigmasi	96
Ли E.B.	Структура творческого процесса	100
SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY		
Nazirov M.	"Siyosiy jarayon" kategoriyasiga oid kontseptual qarashlar va talqinlar	105
Jo'raev R.T.	Saylov madaniyati - siyosiy tafakkur belgisi	107
Djurayeva G.M.	Uzbek-Asean cooperation and its perspectives	110
Xalikulova H. Y.	O'zbekistonda imkoniyati cheklanganlarni himoya qilish tizimining yaratilishi (1991-2014 -yy)	117

IQTISODIYOT/ECONOMICS		
Qodirov M. Turayev B. Abdurahmonova T.	Inson kapitali va uni uzluksiz ta'lim tizimi bilan uzviy bog'likligi	121
Karjanov A.R.	Ijtimoiy sohada innovatsion jarayonlarni rivojlanish bosqichlari	126
Arabov N.U., Toshboyeva D., Shodiyeva Z.	Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish	130
Qurbonov S. Q.	Qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil etish omillari	135
Boltayev B., Yusupov Sh. B.	O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari	139
Qaxorov G'., Tursunov O.	Innovatsion rivojlanish sharoitida aholini ish bilan bandligi darajasini oshirishning asosiy yo'nalishlari	142
Davlatov N.	Innovatsion rivojlanish sharoitida korxonalar faoliyatida inson resurslaridan samarali foydalanish istiqbollari	146
Suyarov A.Sh.	Xalqaro ijtimoiy internet tarmoqlarining mehmonxonalar faoliyatidagi o'rni	151
Harzulaeva M.	Программа подготовки менеджеров к конструктивному взаимодействию в ситуации конфликта	153
Ruzibaev O.	The importance of new silk road trade	158
HUQUQSHUNOSLIK/LAW		
Muqimov Z.	Movarounnahr fiqh maktabi	163
UNIVERSITET HAYOTIDAN/UNIVERSITY LIFE		
		167
MUALLIFLARGA/FOR AUTHORS		
		178

UDK: 629.11.01: 903.27

**G'ILDIRAK VA ARAVA: GENEZISI VA IJTIMOYIY-IQTISODIY ASOSLARI
XUSUSIDA****Yu.E.Po'latov***O'zbekiston Milliy universiteti*

Annotasiya. Maqolada g'ildirakning paydo bo'lish tarixi, turli yozma va moddiy manbalarda hamda qoyatosh suratlaridagi tasvirlarida uchrashlari yoritilgan. O'lkamiz va unga tutash hududlarning xo'jalik, madaniy hamda iqtisodiy-ijtimoiy hayotida bu kashfiyotning tutgan o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: manzilgohlar, arxeologiya, xo'jalik, dehqonchilik, chorvachilik.

Колесо и арба: социально-экономические основы и генезис

Аннотация. Статья освещает историю появления колеса, сведения о них в разных письменных и материальных источниках, изображения на наскальных рисунках. Предпринята попытка осветить вклад нашего края и прилегающих территорий в данный процесс, роль этого изобретения в хозяйственной, культурной и экономически-социальной жизни нашей страны.

Ключевые слова: место находки, археология, хозяйства, земледелья, скотоводство.

Wheel and arba: social-economic basis and genesis

Abstract. This article illuminates the history of wheel's origin, given information in written sources and existing rock paintings in our country. Significant importance of this investigation in cultural and economic social life of our country is mentioned.

Keywords: location, archeology, economy, agriculture, cattle-breeding.

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bu g'ildirakning kashf etilishi bo'lib, bu kashfiyot keyingi texnik taraqqiyot uchun hal qiluvchi omillardan biri bo'ldi. G'ildirak va aravaning insoniyat hayotiga kirib kelishi mislsiz imkoniyatlar eshigi ochilishining ibtidosi sifatida e'tirof etilishga arziydigan muhim ijtimoiy hodisadir.

Janubiy Turkmanistondagi Oltintepa qadimiy shahar xarobalaridan topilgan sopol dan yasalgan tuya qo'shilgan arava haykali, Amudaryo xazinasidagi oltindan ishlangan aravalar, Afrosiyob devoriy suratlaridagi tasvirlar va boshqa ma'lumotlar aravaning qadimgi jamiyatda tutgan o'rnini anglashda muhim o'rin tutadi. G'ildirak va aravalar tasviri yurtimizning ko'pgina hududlaridan topilgan qoyatosh suratlarida ham uchraydi. Xususan, Samarqandning Qarnob qishlog'ida, Toshkent viloyatining Qoraqiyasoy, Navoiy viloyatining Sarmishsoy manzilgohlaridagi qoyatosh suratlarida g'ildirak va aravalarining sxematik ko'rinishdagi tasvirlari topilgan [1].

G'ildirak ko'rinishidagi, aniqrog'i ichki tarafida g'ildirakning ignalariga (spisa) o'xshash aylana tasvirlar ko'pgina qoyatosh tasvirlar mavjud manzilgohlarda uchraydi. Lekin hozirgi kungacha bu tasvirni izohlashda, uning g'oyaviy jihatlarini anglashda muammolar mavjud. Ba'zi olimlar bu tasvirlarni insoniyat tomonidan samoviy jismlar bo'lgan oy va quyoshning ilohiylashtirishi, ignalarni esa quyosh nurlari sifatida e'tirof etishadi. G'ildirakni harakatlantirishga bo'lgan undashni quyoshning inson ibtidoiy tasavvuridagi harakatlanishi deb baholashadi [2]. Misr, hind yoki yunon antik davr mifologiyasida ham quyosh xudolarining aravada harakatlanishini yuqoridagi tasavvurning davomi deya baholash mumkin.

Ilk g'ildirakning qayerda kashf etilganligi esa haligacha jumboq bo'lib kelmoqda. Yaqin davrlargacha o'rtasi o'yib olinib, orasiga yumaloq yog'och tiqilgan, ustida og'ir yuk yurishga mo'ljallangan ilk aylanalar haqidagi ma'lumotlar, mil. avv. 3000 ming yillikda Mesopatamiyaning shumerlarga oid bo'lgan Uruk shahri qazishmalaridagi topilmalarga borib taqaladi. Ushbu davrlardan boshlab shumerliklar o'z hukmdorlari qabrlariga g'ildiraklarini ham qo'shib dafn etishganligini, Suza, Elam, Ur shaharlaridagi qabristonlarda g'ildiraklar topilganligini ana'naviy ravishda insoniyat tarixidagi eng qadimiy g'ildirak deb ta'kidlab kelardik. Ammo keyingi vaqtdagi g'ildirakning vatani atrofida ham bahsli holatlar yuzaga chiqmoqda. Jumladan, Ruminiyadagi eneolit davriga mansub Kukuteni madaniyatiga tegishli bo'lgan, mil. avv. 4- mingyillikka oid manzilgohdan g'ildirak ko'rinishidagi sopol buyumlarning topilishi bilan bu boradagi bahslar davom etmoqda. Yana bir polyak arxeologi Parpolo Asko esa "voronkovid qadahlar" madaniyatiga oid Polshaning Bronochishye manzilgohidan topgan sopol ko'zda buqalar tortayotgan g'ildirakli arava tasvirini mil. avv. 3635-

3370 - yillarga oid deb atamoqda [3]. Yana manbalarga yuzlanadigan bo'lsak, Sloveniyaning Lyublyan barye nomli qishloqdan aylanasi 72 sm bo'lgan g'ildirak (mil. avv. 3350-3100 - yy.), Ukrainaning Zaporozhye viloyatining Dmitr qo'rg'onidan (5 ming yil avval), shu viloyatning Tyagun qabristonidan topilgan g'ildirak (5 ming yil avval), [4] hamda Shveysariyaning Presseause o'lkasidan topilgan Xorgen madaniyatiga oid deb kelinadigan g'ildirakka, dendroxronologik usul bilan mil. avv. 3200 - yil deb davrlashtirishga urinishlarni kuzatishimiz mumkin [5].

Aravaning asosi bo'lmish g'ildirak sekinlik bilan takomillashib bordi. Avvaliga uning aylanasi yuzasini temir bilan qoplashgan bo'lsa, takomillashish jarayonining keyingi bosqichlarida butunligicha temirdan yasala boshlandi. Ammo, uning asosiy vazifasi bu insonning og'irini yengillashtirish va xo'jalik ishlaridagi foydasi bo'lib qoldi.

Antropologik neoevolusionizm asoschilaridan biri bo'lmish Gordon Chayld bir qator ishlarida og'ir yuklarni siljitish uchun asosiy vosita g'ildirak birinchi bo'lib kashf etilgan va foydalanilgan markaz sifatida Shumer bo'lganligini ilgari suradi. O'z navbatida, A. Xeylsler Yevroosiyaning Yevropa qismidan g'ildirakli transport topilmalarining ro'yxatini keltiradi va ham G'arbiy Yevropa topilmalarining, ham Kavkazoldi va Qora dengiz oldi cho'llaridagi aravalarning bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda kelib chiqishini asoslab beradi [6].

Adabiyolarda g'ildirakli aravalarning kelib chiqishi haqida juft taxminlar mavjud: chanalardan – to'rt g'ildirakli arava, sudratma aravalardan – ikki g'ildirakli aravalar kelib chiqqan kabi. Ikki g'ildirakli aravalar – og'ir ikki o'qli to'rt g'ildirakli aravalarning yengillashtirilgan varianti sifatida rivojlandi. Katoklarni chanalar bilan birga qo'llashning eng qadimiy dalillari Urukda piktogrammalarda mavjud. G'ildirakli va g'ildiraksiz aravalar tasviri Uxtasar, Gegam tog'lari va Qobustondagi Yazil tepaligida hamda Dog'istonda, Buynaksdan Manas ovuligacha bo'lgan yo'ldagi qoyatosh rasmlari orasida uchraydi.

Aravaning prototiplaridan biri sifatida yanchish taxtasi shaklidan foydalanilgan bo'lishi mumkin, u O'rta yer dengizi havzasiga tutash ko'pgina mamlakatlarda, asosan, Janubiy Yevropada, Shimoliy Afrikada va Old Osiyaning ko'p qismlarida tarqalgan. Ushbu mintaqalarda qadim zamonlardan buyon donni yanchish chana ko'rinishida tuzilgan va Odessa viloyati hududidagi bolgar immigrantlarida hozirgi kungacha saqlanib qolgan asbob yordamida amalga oshiriladi. Uning ta'riflari Varron va boshqa lotin yozuvchilarida saqlanib qolgan. U Italiyada "tribulum" yoki "tribula" nomi ostida mashhur bo'lgan va oldi tarafdin tepaga qarab bir oz qayrilgan taxta yog'ochdan iborat bo'lgan. Yerga teguvchi quyi qismida chaqmoqtosh yo'nmalar yoki ba'zida (keyinchalik) – temir parchalari qo'yilgan. Bunday taxtaga aravaning o'grachasi yoki qandaydir og'ir narsa qo'yilgan yoki odam turgan va bu taxta arqon bilan otlar yoki buqalar yordamida nonni yanchish uchun xirmon bo'ylab tortilgan. Ushbu asbob haqida Injilda ham ma'lumot mavjud. Unda payg'ambar Isayya uni Isroil xalqi bilan taqqoslagan va quyidagi so'zlarni aytgan: "Men seni o'tkir, yangi va tishli g'alla yanchadigan tayoq qildim" [7].

Misrliklar esa nonni yanchish uchun poreg-aravadan foydalangan, u ikki qirrali qilib qo'yilgan va oldi uchida egilgan taxta (sirg'aluvchi g'ola) dan tuzilgan, ular ustida o'tirg'ich qilingan xari bilan birlashtirilgan. Aravaga juft ho'kiz qo'shilgan. Yanchish vaqtida don sirg'aluvchi g'ola yordamida hamda sirg'aluvchi g'ola xarilariga kiydirilgan va yerda dumalab yuradigan aylanalar va katoklar yordamida poxoldan ajratilgan.

Mesopotamiyaning janubiy qismida Urukning mil. avv. 3200-3100 yillardagi to'rt g'ildirakli usti yopiq aravalar yoki ho'kizlar qo'shilgan katoklar tasvirlangan sopol taxtachalar topilgan. Bitta aravada zambilda savlat to'kib o'tirgan odam ko'rsatilgan. Eramizdan avvalgi III ming yillik oxiriga kelib, aravalarning hamma turlari mukammallashtiriladi, g'ildiraklarda metall to'sin paydo bo'ladi. Birincha marta ko'ndalang plankali g'ildirakdan foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda, jangovor to'rt g'ildirakli aravalar Yaqin Sharqda hindyevropa ko'chmanchi qabilalarining kelishi bilan paydo bo'lganligi haqida fikr mavjud. Bu savol so'nggi qarordan hali ham ancha yiroq bo'lsada, Markaziy va Sharqiy Yevropada g'ildirakli transportning qadimgi tasvirlari eramizdan avvalgi 2750-2550 yillarga oid deb belgilangan Krakovdan 45 km shimoliy-sharqda joylashgan Bronochisdagi "Voronkasimon qadah" madaniyatining sopol idishida topilgan edi. Boshqa topilma Slovakiyadagi Boleraz guruhining Radoshina manzilgohidan kelib chiqadi. Ushbu to'g'riburchakli sopol buyumning o'z navbatida yoysimon tepa qismi bilan tugaydigan oldi devorchasida buqaning to'sh qismi va chetlari o'yib naqshlangan. G'ildiraklar yoki ularni mahkamlovchi tugunlar qayd etilmagan. Keyingi bosqichlardagi

Baden madaniyati qabrlarida geometrik naqshlar bilan bezalgan baland yon devorli tog'ora ko'rinishidagi to'rt g'ildirakli aravalarning o'ziga xos idish-modellari topilgan. Idishlar eramizdan avvalgi 2500-2200 - yillar atrofida deb davrlanadi. 1884 - yilda Germaniyaning Lone (Syushen) shaharchasida tosh quti topilgan, plitalarning birida planli proyeksiyada qilingan qiyin farqlanadigan juft ho'kizlar qo'shilgan ikki yoki to'rt g'ildirakli kichkina aravalar tasviri o'yilgan. Lonedagi aravalarning sanasi mil. avv. 2600-2200 - yillarga to'g'ri keladi. Lonedagi ho'kiz upryajkalari namoyishining keng tarqalgan tasviriy an'anasi e'tiborni tortadi. Ularni hayvonlarni qat'iy tepadan tasvirlashning kam uchraydigan rakursi ajratib turadi. Bunday turdagi tasvirlar Samarqand viloyatidagi Qarnob manzilgoxida xam uchraydi. Buqalar odatda o'roqsimon oldinga chiqib turuvchi shoxlari yoki ba'zida deyarli tasvirlanmaydigan tanasining ikki tarafida, xuddi hayvon yerga yoyilgandek qilib ko'rsatiladigan oyoqlaridir. Shimoliy Italiya va janubiy Fransiya petrogliflarida ko'proq keng tarqalgan o'xshash rakurs – ho'kizlarning alohida tasviri va yer haydash sahnalari bilan tasvirlangan. E. Anati ularni neolit va eneolit davriga oid deb hisoblaydi va o'rtacha mil. avv. 3800 yildan 2800 - yillar bilan davrlaydi [8].

Xullas, ho'kizli qo'sh bilan yer haydashning unday erta paydo bo'lishi (bu vaqtgacha balki, ulardan boshloqlarni yanchishda foydalanilgan bo'lishi mumkin) g'ildirakli transportga juda tez o'tilganligini taxmin qilishga imkon beradi. Saymali-Tosh petrogliflariga asoslangan holda qaralsa, g'ildirakli plug indoyevropaliklarning O'rta Osiyoga kelishidan ancha oldin paydo bo'lgan. Saymali-Toshdagi hamma rasmlar qatorini to'rt g'ildirakli aravalar bilan bir xil deb qarashga qarshi jiddiy e'tirozlar o'rta qo'yadi, chunki ularda juft ho'kizlar va ulov hayvonlaridan foydalanib yer haydab dehqonchilik qilishda qo'llanilgan ho'kizlarni ot bilan birgalikda qo'shga qo'shilgan tasvirlari ham mavjud. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki oddiy xo'jalik maqsadida qilingan kashfiyot shu darajada takomillashdiki, davrlar o'tgan sari kulolchilik, mashinasozlik, melioratsiya, energetika, kemasozlik, fabrika, tog' sanoati kabi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Adabiyotlar:

1. Хўжаназаров М. Наскальные изображения Ходжакента и Каракия. - Самарканд: Археология, 1995. -С.63.
2. Иванов С. Орнамент народов Сибири как исторический источник. - Москва, Ленинград, Акад. Наук, 1963, -с. 451-470.
3. Parpola Asko. The Cultural Counterparts to Proto-European. - New York, London: Routledge, 2005. P. 121–2.
4. Чередниченко Н. Н., Пустовалов С. Ж. Боевые колесницы и колесничие в обществе катакомбной культуры (по материалам раскопок в нижнем Поднепровье), Советская археология, 1991, № 1, стр. 206-216.
5. Кульбака В., Качур В. Индоевропейские племена эпохи палеометалу. - Мариуполь: Рената, 2000. 80 с.
6. Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок / Предисловие В. И. Авдиева; пер. с англ. М. Б. Граковой-Свиридовой. М.: Издательство иностранной литературы, 1956. -128 б.
7. <http://www.mk.ru/science/2011/06/16/597841-koleso-izobreli-ne-na-vostoke.html>
8. Шацкий Г.В. Рисунки на камне. - Ташкент: Гафур Гулом, 1973. - Б. 127. 59-60 расмлар.

UDK: 9 (575.1)

“KONFEDERATSIYA” TUSHUNCHASI VA UNING ILK O'RTA ASR SUG'D DAVLATCHILIGIDA AKS ETISHI

G'oyibov B.S.

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada muallif ilmiy adabiyotlar va manbalar asosida davlat shakllaridan biri bo'lgan “konfederatsiya” tushunchasiga izoh bergan va konfederativ boshqaruvning ilk o'rta asrlar Sug'ddagi davlatchilikda aks etishini ko'rsatib bera olgan. Shuningdek, muallif muammoga doir bir qator yangi xulosalarni ilgari surgan.

Kalit so'zlar. Davlat shakli, federatsiya, ma'muriy bo'linish, ittifoq, siyosiy mustaqillik.

**Понятие “конфедерация” и его отражение в государственности раннесредневекового
Согда**

Аннотация. В данной статье на основе научных литератур и источников дано пояснение понятию “конфедерации” один из видов государства и показано отражение его в государственности раннесредневекового Согда. Кроме того выдвинуто некоторые новые выводы по проблеме.

Ключевые слова: Виды государства, федерация, административное деление, союз, политическая независимость.

The conception of “confederation” and its reflection in the statehood of the early medieval Sogd

Abstract. In this article, on the basis of scientific literature and sources, the conception of “confederation” is explained as one of the state and its reflection in the statehood of the early medieval Sogd is shown. In addition, some new conclusions have been put forward on the problem.

Keywords: kinds of the state, federation, administrative division, union, political independence.

Kishilik jamiyatidagi muhim masalalardan biri bu davlat va uning turli xil shakllarining vujudga kelishi masalasi hisoblanadi. Davlat tiplari ilk ko‘rinishlaridan biri bu davlatning “konfederatsiya” shakli bo‘lib, bugungi kunda “konfederatsiya” tushunchasiga tadqiqotlarda quyidagicha ta‘rif berilgan. Ularga ko‘ra, “konfederatsiya” (lotincha *confederatio* – birlashish, ittifoq) davlatlar ittifoqi bo‘lib, u yangi davlatning vujudga kelishiga olib kelmaydi. “Konfederatsiya” nisbatan kam tarqalgan davlat tuzulishi shakli hisoblanib, uni tashkil etuvchi davlatlar o‘z mustaqilligini saqlab qoladi, o‘z hokimiyati, boshqaruv organlariga ega bo‘ladi, o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun konfederatsiyaga a‘zo davlatlar ma‘lum shartlarga rioya qilishadi. Konfederatsiya a‘zolari o‘rtasidagi shartlar belgilangan sohalarida faoliyat ko‘rsatadi (masalan, iqtisodiy, siyosiy, harbiy v.b.). Konfederatsiyaga ba‘zan davlatlarning federatsiyaga birlashish sari tutgan yo‘lidagi oraliq bo‘g‘in deb ham qaraladi [1].

Huquqiy jihatdan konfederatsiya a‘zolarini birlashtiruvchi bir qator qoida meyorlari va xususiyatlari mavjud[2]. Ular avvalambor quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ma‘lum bir g‘oya atrofida birlashish; uning yagona hududga ega bo‘lmasligi, ya‘ni, konfederatsiya hududi mazkur ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlarning hududidan tashkil topadi (konfederatsiya a‘zolari xohlagan vaqtda konfederatsiyadan chiqishi mumkin); konfederatsiyada faqat yagona maqsadlarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi muvofiqlashtiruvchi organlar shakllantirilishi mumkin; unda yagona fuqarolik mavjud emas, faqatgina konfederatsiya hududida shaxs maqomining bir-biriga yaqinligini ta‘minlab beruvchi normalar o‘rnatilishi mumkin[3]; federatsiyadan farqli ravishda konfederativ shakldagi davlatda hokimiyat organlarining bo‘linishi kuzatilmaydi, unda faqat yagona maqsadlarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi muvofiqlashtiruvchi organlar shakllantirilishi mumkin[4]; turli davlat boshqaruv shakllaridan farqli o‘laroq konfederatsiyaga birlashgan ma‘muriy birliklarning har biri o‘z armiyasiga ega bo‘lishi va ular umumiy qo‘mondonlik asosida birlashtirilishi mumkin; bundan tashqari federatsiyada – yagona pul tizimi mavjud bo‘lib, konfederatsiyaga kiruvchi har bir davlatda o‘z puli hamda ushbu pul tizimlari bu holatda bir-biriga yaqinlashtirilishi mumkin; federativ tuzulishdagi davlatda yagona markazdan boshqarish mavjud bo‘lib, konfederatsiyada esa muvofiqlashtirish bo‘lishi mumkin, lekin bu holat konfederatsiya a‘zolarining ixtiyoriy tan olishi orqalidir [5].

Konfederativ boshqaruv shakli qadim tarixiy ildizlarga ega. Konfederativ boshqaruvga asoslangan davlatlar Yevropada, xususan, Shveysariyada 1291- yilda vujudga kelgan bo‘lsa-da, mazkur davlat boshqaruv tipining ilk alomatlari Markaziy Osiyoda mil. avv. V-IV asrlardan boshlangan dastlabki ko‘chmanchi asosdagi davlatlarda *qabila ittifoqi* ko‘rinishida [6], milod boshlarida Markaziy O‘zbekistonning tarixiy-madaniy vohasi Sug‘dda *voha hukmdorliklarining ittifoqida* namoyon bo‘ladi [7].

Bugungi O‘zbekiston hududida tarixda mavjud davlatlarni o‘z xususiyatlariga ko‘ra bir necha tiplarga bo‘lish mumkin. Ularning ba‘zilari o‘troq va ko‘chmanchi madaniyatlar birlashuvi natijasida vujudga kelgan bo‘lsa (masalan, Qang‘ davlati), ba‘zilari bu hududda mavjud davlatlarni bevosita bosib olib, bo‘ysundirish asosida o‘z davlatlari boshqaruvini joriy etishga harakat qilishgan (masalan, Ahamoniylar davlati) [8]. Shuningdek, simbioz natijasida vujudga kelgan va hozirgi kunga qadar

tadqiqotchilar tomonidan davlat boshqaruv tuzumi kam o'rganilgan davlat tuzilmalari ham mavjud bo'lib, mazkur davlatlar sirasiga asli Markaziy Osiyodan Sharqiy Turkistonga borib joylashgan hamda xunnlarning hujumlari natijasida yana o'z ona yurtlariga qaytgan *Chjaovular* dominantligida Samarqand markazli Sug'd konfederativ davlatini ham misol qilish mumkin. Manbalarda nafaqat Samarqand, balki Xorazm va Buxoro hukmdorlarining *chjaovulardan* ekanligi keltiriladi [9]. Bundan tashqari, noiblik asosidagi mutlaq monarxiya tipidagi davlatlar ham Markaziy Osiyoda hukm surgan. Shunday davlatlardan biri mil. avv. III asr o'rtalaridan mil. avv. II asr o'rtalariga mavjud Yunon-Baqtriya davlatidir. Mazkur davlat tarkibidagi ma'muriy birliklarning boshqaruv shakli cheklangan monarxiya tipiga daxldor bo'lib, ularning hukmdorlari o'z nomidan tangalar zarb ettirishgan [10].

Qang' davlati Yunon-Baqtriya davlatidan so'ng tarix sahnasiga chiqqan. Dastlabki Qang' hukmdorlarining tanga zarbi xususida ma'lumotlar kam. Qang'ning ilk davrida Yunon-Baqtriya hukmdorlariga taqlidan tangalar zarb qilingan va ichki bozorda ishlatilgan. Qang' davlati tarkibidagi ma'muriy birliklar uchun umumqang' tanga zarbi bo'lmagan [11]. Har bir ma'muriy birlik o'z tanga zarbiga ega bo'lgan. Jumladan, Buxoro atrofi hukmdorlari o'z unvonlari va ismlari yozilgan Yevtidem tangalariga taqlidan tanga zarb ettirishgan bo'lsa, Markaziy Sug'd – Samarqandda Girkod tangalariga taqlid qilingan sug'diy hukmdorlar tangalari bosilgan [12]. Sug'dda tanga zarbi nafaqat Qang' davlati mavjudligi davrida, balki Xioniylar, Eftaliylar hamda Turk xoqonlari davrida ham davom etdi. Sug'd tarkibidagi ma'muriy birliklarning har birida mustaqil tanga zarbi mavjudligi masalasi uning konfederativ boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lgan.

Markaz bilan nisbiy bog'liqlikda mavjud bo'lgan holda faoliyat yuritgan, o'ziga xos noyob boshqaruv shakliga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari tarixida salmoqli o'ringa ega, ilk o'rta asrlarda o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqqan Sug'd (Zarafshon vohasi va Qashqadaryo vodiysi) tarixiy-madaniy o'lkasi boshqaruvi uchun ham konfederativ shakl xos bo'lgan. Bu haqda bir qator yozma (xitoy yilnomalari, Mug' tog'i sug'diy hujjatlari, arab tilli manbalar, arman manbalari) va numizmatik hamda arxeologik manbalar bizgacha yetib kelgan bo'lsa-da, Sug'ddagi konfederativ asosdagi boshqaruv shakli va uning xususiyatlari tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

O'z davrida Sug'dning konfederativ asosda boshqarilganligi doir ilk ishoralar eronshunos olim V.B. Xenning izlanishlarida keltiriladi [13]. B. Gafurov o'z tadqiqotida Sug'dning konfederativ asosda boshqarilganligiga e'tibor qaratgan. Lekin uning shakllanishi va ichki xususiyatlarini yoritmagan. Tadqiqotchi izlanishida Sug'dda konfederatsiya mavjudligi hech qanday izohsiz keltiriladi [14]. E.V. Rtveldze ham davlatchilik va davlat tuzilmalari borasidagi fikrlarida "konfederatsiya" tipidagi davlat davlatchilikning cheklangan monarxiya tipiga daxldor deb keltiradi. Konfederatsiya o'z tanga zarbiga ega bir necha mustaqil ma'muriy birliklardan iborat ittifoqni anglatishini va bunga misol tariqasida Qang' davlati va Yuejchilar ittifoqini keltiradi. Shuningdek, olim mustaqil tanga zarbini konfederatsiyaning asosi deb hisoblaydi [15]. Bevosita Sug'd tarixi yuzasidan izlanishlar olib borgan V.A. Livshis, M. Is'hoqov, A. Otaxo'jayev, G'. Boboyorov, Sh. Shoyoqubov kabi tadqiqotchilar ham "Sug'd konfederatsiyasi" iborasini ishlatishadi [16]. Muammoga doir umumiy ishlarda ham Sug'dning ittifoq yoki konfederatsiya ekanligi keltiriladi [17]. Lekin yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarida Sug'd tarixiga nima uchun konfederativ asosda qarash kerakligi masalasi ochiq qolgan.

Ta'kidlash lozimki, konfederativ boshqaruv shaklining Sug'ddagi holati o'z xususiyatlariga ko'ra, bugungi kundagi konfederatsiya tipidagi davlat boshqaruvidan ba'zi jihatlari bilan farq qilishiga ko'ra ajralib tursa-da mazkur mintaqadagi boshqaruv shakli davlatchilikning konfederatsiya tipiga aloqador deysishga yetarlicha asos bor.

Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, konfederatsiyaga birlashgan ma'muriy birliklarning shartlaridan biri avvalambor yagona maqsad yo'lida birlashish hisoblanadi. Bu haqda xitoy yilnomasi "Bey shi"da quyidagi ma'lumot keltiriladi: "Sug'd markazi Samarqand hukmdorlari qarorgohida ajdodlar ibodatxonasi bor, ular yilning oltinchi oyida qurbonlik qilishadi. Boshqa hukmdorlar qurbonlik keltirishda yordam berishadi. Buddha diniga sig'inishadi. Xu (ya'ni, sug'diy) yozuvidan foydalanishadi" [18]. Mazkur ma'lumot Sug'dda konfederatsiyaga birlashishning bosh omillaridan biri ittifoqqa birlashgan hukmdorlarning yagona xonadonga mansubligi va o'z ajdodlari ruhiga qurbonlik qilishlari bilan asoslanadi [19]. Ayni manbada keltirilgan "... Xe (Kushoniya) va Mi (Maymurg') hukmdorlarining kelib chiqishi Chjaovu sulolasidan ekanligi va ularning urug'i Kan (Samarqand)ga borib taqalishi" [20] haqidagi ma'lumot konfederatsiyaga birlashgan hukmdorlarni

asosan qarindoshlik rishtalari bog'lab turganligi ko'rsatadi. Sug'dda konfederatsiyaga birlashishning bosh sharti bu qarindoshlikni ko'rsatish maqsadida ajdodlar ruhiga qurbonlik keltirish hisoblangan.

Ikkinchidan, konfederatsiya hududining doimo bir xil turmaganligi borasidagi fikrlar ham Sug'd misolida ko'zga yaqqol tashlanadi. Xitoy yilnomalarida keltirilganidek, Sug'd konfederatsiyasi dastlab markaz Samarqand va uning atrofi hududlarini birlashtirgan bo'lsa, keyinchalik uning tarkibi Kesh, Panch va Fay kabi ma'muriy birliklar bilan yanada kuchaygan. Arab tarixchi-sayyohlarining Sug'd hududlari to'g'risida keltirgan ma'lumotlarining turli tumanligi ham mazkur konfederatsiyaning ba'zan kengayganligidan va ba'zan torayganligidandir [21]. Arab tarixchi-sayyohlaridan farqli ravishda xitoy yilnomalarida Sug'dning markazi bo'lgan Kan (Samarqand)ga bo'ysinuvchi hududlar qatoriga *Mu* (Marv?) *Unaxe* (Chorjo'y)ni ham kiritishganligi tadqiqotlar keltiriladi [22]. Bundan tashqari, Sug'd konfederatsiyasining teng a'zolaridan biri bo'lgan Panchning aksariyat manbalarda keltirilmaganligi [23] ham so'zsiz Sug'd konfederatsiyasi subyektlarining markazga nisbatan bir xildagi turmaganligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, 712 yil Sug'd markazi Samarqand arablar tomonidan egallanganidan so'ng, o'rtada tuzilgan shartnomaga muvofiq, konfederatsiya chegaralariga Kesh va Naxshab ham kiritilganligi qayd etilgan [24]. Ushbu holatda ham Sug'd konfederatsiyasi o'z mavjudligini yo'qotmaslikka harakat qilingan. Hatto ushbu sharoitda ham Sug'd ixshidi G'urak (710-738) Ishtixondan turib mamlakat boshqaruvini olib borishga majbur bo'lgan [25].



Uchinchidan, bugungi kunda "konfederatsiya"ga berilgan ta'rifga ko'ra, unda yagona fuqarolik mavjud emas. Faqatgina konfederatsiya hududida shaxs maqomining bir-biriga yaqinligini ta'minlab beruvchi normalar o'rnatilishi mumkin. Bu esa Sug'd misolida xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlar asosida yanada aniqlik kasb etadi. Jumladan, yilnomalarda Kan (Samarqand), Mi (Maymurg'), Shi (Kesh) kabi "Xu o'lkalari"dan Xitoyga kelib, o'z savdo koloniyalarini (faktoriyalar) barpo etganligi haqidagi qaydlar uchraydi [26]. Ushbu ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, samarqandlik, kushoniyalik, maymurg'lik va keshlik savdogarlar hamkorlikda faoliyat yuritib, Xitoyda o'z savdo manzillariga asos solishgan [27]. Shuning bilan birga ular qayerda bo'lmasin, Sug'dning qaysi hukmdorligidan kelganligiga qarab o'z jamoa maskanlarini barpo etishga urinishgan. Mazkur savdogarlar Sug'd fuqarosi sifatida emas, balki, o'zlari mansub hukmdorlikning fuqarosi sifatida qayd etilishi holati yuqoridagi fikrga asos beradi.

To'rtinchidan, Sug'dning konfederativ asosdagi boshqaruvini ko'rsatuvchi yana bir jihat davlat boshqaruv tizimining davlat hokimiyati (ya'ni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) organlariga bo'linmagan edi. Unda faqat yagona maqsadlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi muvofiqlashtiruvchi organ – "Oqsoqollar kengashi" mavjud bo'lgan [28]. Ta'kidlash o'rinliki, hukmdor ixshidlar "Oqsoqollar kengashi" oldida hisobot berishgan [29].

Beshinchidan, davlatning asosiy kuchi qo'shin bo'lib, urush xavfi tug'ilganda yoki harbiy yurish oldidan shahar, viloyatlarni muhofaza qilish maqsadida markazga konfederatsiya tarkibidagi hukmdorliklar o'zlarining qo'shini – chokarlari bilan xizmat qilgan [30]. Har bir hukmdorlik fuqarosi davlat oldida harbiy majburiyatga ega bo'lgan. Sug'dda harbiy xizmat uchun haq ham to'langan [31]. Mamlakatga tashqi dushman kuchlari hujumi davrida nafaqat konfederatsiya a'zolari, balki qo'shni ittifoqlarga ham qo'shin yetkazib berish sharti bo'lgan ko'rinadi. Masalan, Arab xalifaligi qo'shin tortgan vaqtda Buxoro malikasi ularga qarshi kurasha olmasligini anglab, Sug'd konfederatsiyasi hukmdori Tarxun (700 – 710)dan yordam so'raydi. Tarxun boshchiligidagi qo'shin yordamga keladi. Lekin yordamchi kuchlari mag'lubiyatga uchragach, malika ilojsiz Qutayba ibn Muslim bilan sulh tuzib, unga darvozalarni va tashqarida bo'lgan ko'shk eshiklarini ochadi hamda shaharni uning ixtiyoriga topshiradi [32]. Ko'rinib turibdiki, tashqi dushman hujumi vaqtida nafaqat konfederatsiya hukmdorlarining balki Sug'd konfederatsiyasining qo'shnilariga ham yordam berishga harakat qilganligi bunga yaqqol misol bo'ladi [33]. Shuningdek, Sug'd markazi Samarqandning yuechjilar tomonidan egallanishi [34], 437- yilda xioniyarning ushbu shaharni egallashlari [35], Tabariy ma'lumotlarida keltirilgan Janubiy Sug'dga Sosoniylar yurishlari [36], milodning 25-265 - yillarida Naxshab hududlariga kushonlarning yurishlari [37] Sug'd hukmdorlarining doimiy harbiy harakatlar olib borishlari uchun birlashishlarini taqozo etgan. Shuningdek, Arab xalifaligi bosqini arafasida, bosqin jarayonlarida Korzanch va Devashtich munosabatlari, Devashtich – G'urak aloqalari, ayniqsa, G'urak va Afshun munosabatlari natijasidan Sug'd hukmdorlarining bir-birlariga yordam berishga intilgani ma'lum bo'ladi [38]. Konfederatsiyaga birlashgan hukmdorlarning umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashishlari shart holat bo'lib, bunga amal qilmaslik xoinlik hisoblanilgan.

G'urakning arablarga qarshi kurashmaganligini Devashtich xoinlik deb hisoblagan. Mug' tog'i A-19 hujjatida *'γw'n'k* – “gunohkor, xoin” so'zining Devashtich tomonidan G'urakka nisbatan ishlatilganligi buni isbotlaydi [39]. Bundan tashqari, Nasaf hukmdorligini 734 – 737 yillarda boshqargan al-Ashkand Sug'd hukmdori G'urak bilan ittifoqchi bo'lgan [40]. Yuqoridagi ma'lumotlar esa konfederatsiya hukmdorlarining ittifoqqa birlashishlari zahirida tashqi dushman hujumini qaytarish sharti bo'lganligidan dalolat beradi.

Oltinchi asos esa konfederatsiya subyektlarining mustaqil iqtisodiy siyosati bilan bog'liq. Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda Sug'd Samarqand (markaz), Panch (Panjikent), Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi) kabi nisbatan yirik va Kushoniya (Kattaqurg'on), Maymurg', Kabudon, Fay kabi kichik hukmdorliklardan tashkil topgan edi. Sug'd konfederatsiyasining a'zolaridan Samarqand, Kesh, Naxshab, Panch, Kushoniyada tanga zarbi bo'lganligini isbotlovchi numizmatik manbalar mavjud.

Sug'd konfederatsiyasi ixshidlari tomonidan VII asr ikkinchi yarmidan to VIII asr o'rtalarigacha zarb qildirilgan xitoy taqlidi tangalarida sug'diy yozuvda *šyšpyr* – Shishpir (640-yy.), *βγwm'n* – Avarxuman (650-yy.), *twk'sp'd'k* – Tukaspadak (690-yy.), *trywn* – Tarxun (700-710), *'wyrk* – G'urak (710-738), *twyr'r* – Turg'ar (738-750) kabi hukmdorlari ismi [41], Keshda zarb qilingan tangalarning bir qanchasida sug'diy yozuvli *kšy'n'k γwβ 'xwrp't* – Kesh hukmdori Axurpat jumlasini [42], ot tasviri va yozuv (*βγγwβ* – “ilohiy hukmdor”), ikkinchi tomonida esa  shaklli tamg'a va uning ustida yozuv o'rin olgan Naxshab tangalari [43], sug'diy yozuvda *pnicyMR'Ycm'wky'n* – “Panch hukmdori Chamaukyon” jumlasini o'rin olgan va tanganing orqa tomonida esa  tamg'alar mavjud Panch tangalari [44] konfederatsiya hukmdorliklarining o'z tanga zarbiga ega ekanligini ko'rsatadi. Hatto Kushoniya hukmdorligining kichik mulki hisoblangan Samitonda ham tanga zarb qilinganligi numizmatik materiallar asosida oydinlashadi [45]. Shuningdek, Markaziy Osiyoning Choch, Ustrushona, Farg'ona, Toxariston, Xorazm, Buxoro (G'arbiy Sug'd) kabi konfederativ davlat uyushmalarining ham alohida mustaqil tanga zarbi bo'lganligi ma'lum [46].

Yettinchidan, federativ tuzulishdagi davlat yagona markazdan boshqarish qoidalariga ega bo'lib, konfederatsiyada esa muvofiqlashtirish mavjuddir. Lekin bu holat konfederatsiya a'zolarining ixtiyoriy tan olishi orqali amalga oshiriladi. Xususan, qadimdan Samarqand hukmdorlari konfederatsiya markaziy hokimiyatini boshqarishgan bo'lsa, Kesh kuchaygan vaqt uning hukmdorlari markazlik maqomi uchun da'vo qilishgan [47]. Shu bilan bir qatorda Panch hukmdorlari ham o'z davrida konfederatsiya markaziy hokimiyati taxti uchun kurash olib borishgan [48]. Bu haqda Mug' tog'i sug'diy hujjalarida keltirilgan “Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori Devashtichdan” deb boshlanuvchi maktublar ham muhim manba bo'la oladi [49].

Sug'd hukmdorliklarining konfederativ asosda boshqarilganligini ko'rsatuvchi asoslardan keyingisi ularning mustaqil tashqi siyosat olib borganliklari bo'lib [50], bu haqda manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, 437 yilda Samarqanddan, 642 - yilda Keshdan Xitoyga elchilar yuborilgan [51]. Arablar bosqini davrida G'urakning Xitoyga yuborgan elchiligi (719 - y.) [52], ayni shu davrda (719-721) Devashtichning Farg'ona, Choch, Turk xoqonligi bilan tashqi aloqalar olib borgan [53].

Sug'dda konfederativ boshqaruv uchun asos bo'lgan omillar tahlili bilan birga mazkur konfederatsiyaning xronologik chegarasini ham aniqlash muhim masaladir. Tanga zarbi nafaqat Sug'dda konfederatsiyasining vujudga kelishiga sabab bo'lgan muhim omillardan hisoblanadi, balki tangalar asosida konfederatsiyaning mavjud bo'lgan xronologik chegarasini ham aniqlash bir muncha ishonchli.

Mil. av. II asrga kelib Yunon-Baqtriya davlatidagi boshboshdoqliklar va tashqi kuchlar hujumi (mil. av. 175-145) natijasida davlatning parchalanishi kuchaydi. Ayni mana shu davrda Sug'd Yunon-Baqtriya davlatidan ajralib chiqadi. Lekin bu davrda hali sug'diy hukmdorlar Yunon-Baqtriya hukmdorlariga (asosan Yevtidem, Girkod) taqlidan yunon yozuvidagi tangalar zarb qilishgan [54]. Faqatgina asrimizning boshlariga kelib Sug'dda zarb etilgan tangalardagi yunon yozuvining o'rnini sug'diy yozuv egallagan [55]. Ana shu asosda Sug'dning o'z nomidan mustaqil sug'diy tangalar zarb qila boshlagan milodiy Iasrdan boshlab, to konfederatsiya hukmdorlarining o'rnini arablar tomonidan tayinlangan noiblar egallagan davrigacha, ya'ni, milodiy VIII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrni Sug'd konfederatsiyasining xronologik chegarasi deb shartli ravishda belgilash mumkin.

Xullas, Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan Sug'd tarixiy-madaniy o'lkasi o'zining geografik joylashuv, iqtisodiy salohiyatiga tayangan holda uni bo'ysundirishga harakat qilgan

saltanatlar tarkibida o'z ichki mustaqilligini saqlab qolishga harakat qilgan. Mazkur holat Sug'dning ma'muriy birliklarini konfederatsiyaga birlashishiga olib kelgan. Buning natijasida esa Sug'dda konfederatsiyaning ichki komponent qismlari shakllangan. Buni Sug'd hukmdorliklaridagi tanga zarbi, har bir hukmdorlikning o'z qo'shiniga ega bo'lganligi, konfederatsiya hukmdorlarining yagona xonadonga mansubligi, davlat boshqaruvidagi hokimiyat organlarining bo'linmaganligi, mustaqil tashqi siyosat olib borganliklari kabi misollar tasdiqlaydi. Bugungi kundagi "konfederatsiya" tushunchasi mutlaq mustaqillikka asoslangan ixtiyoriy ravishdagi manfaatlar birligini bildiradi. Sug'dda ham umumiy qonuniyat yuzasidan ushbu holat mavjud edi. Lekin zarur hollarda hukmdorliklarning markazga jipslashish yoki ba'zida xoliroq harakat olib borish xususiyatlari ham mavjud. Chunki tarixiy-hududiy birlik nuqtaiy-nazaridan bu tabiiy holdir. Shu jihatlariga ko'ra, Sug'ddagi konfederativ boshqaruv ko'rinishi bugungi konfederatsiyalardan qisman farq qiladi. Konfederativ davlat tuzilmasining ichki xususiyatlarini namoyish etuvchi mazkur holatlar, ularni o'zida mujassamlashtirgan Sug'd tarixiga konfederativ tuzilma sifatida qarash kerakligini taqozo etadi. Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud ilk o'rta asrlar davlat uyushmalari (Sug'd, Choch, Farg'ona, Buxoro, Ustrushona, Toxariston, Xorazm) orasida konfederatsiya parametrlariga Sug'd eng yaqin va to'liq javob beradi deb xulosa qilish mumkin.

Maqoladagi qisqartmalar:

СДГМ	– Согдийские документы с горы Муг
ИМКУ	– История материальной культуры Узбекистана
ТДШИ	– Тошкент давлат шарқшунослик институти
ТТК	– Türk Tarih Kurumu
АЕМА	– Archivum Eurasiae Medii Aevi
BSOAS	– Bulletin of the School of Oriental (and African) Studies

Adabiyotlar

1. Морозова Л.А. Теория государства и права. – М.: Изд. Эксмо, 2009. – С. 74.
2. Карнейро Р.Л. Теория происхождения государства//Раннее государство, его альтернативы и аналоги. –Волгаград, 2006. –С. 55-71.
3. Саидов А., Таджиханов У., Одилокorieв Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Основы государства и права. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 16-17.
4. Каримова О.А., Фафоров З.М. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 35.
5. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Тошкент: 1999. – Б. 16-17.
6. Крадин Н.Н. Империя Хунну. – М.: Логос, 2001. – С. 232-233.
7. Гойилов Б. Согдийская конфедерация: формирование и особенности // Отан тарихы. Ёлымы журнал. – Алматы, 2015. – №3. (71). – С. 47-54.
8. Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: УМЭД, 2005. – С. 54-55.
9. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.-Л.: Изд. АН СССР. – Том II. – 1950. – С. 311-318.
10. Мусакаева М. Монеты Гиркода // ИМКУ. 2004. – №34. – С. 76-88.
11. История Узбекской ССР. В четырех томах. С древнейших времен до середине XIX века. Том I. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 128-129.
12. Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. ... – С. 57.
13. Henning W.B. Sogdica. – London: James G. Forlang Fund, 1940. – vol. XXI. – P. 8-11; Henning W.B. The date of Sogdian Ancient Letters // BSOAS. – 1948. – vol. 12. – P. 176.
14. Гафуров Б. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Книга 1. – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 314-319.
15. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и права. – Ташкент: Адолат, 2000. – С. 56.
16. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб.: 2008. – 408 с.; Исхоков М. Суғдийна тарих чоррахасида. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 11; Исхоков М.М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 26; Отахўжаев А. Илк ўрта

- асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: ART-FLEX, 2010. – 219 б.; Бобоёров Ф. Ғарбий Турк хоқонлигининг бошқарув тизимида доир // *Sharqshunoslik*. – 2008. – № 13; Бобоёров Ф. Ғарбий Турк хоқонлигининг ўз вассалларини бошқарувида қўллаган усул ва воситалари масаласига доир // *O‘zbekiston tarixi*. – Тошкент, 2011. – №4. – Б. 3-15; Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2008. – Б. 45.
17. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 387; Сағдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. I-қисм. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 66-67; Кобзева О.П. Роль Великого шелкового пути в формировании этнического разнообразия Зарафшанской долины / Самарканд шахрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. Халқаро конференция материаллари. – Тошкент-Самарканд: Фан, 2007. – С. 164-165.
18. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. – С. 271-276.
19. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. – С. 274-275.
20. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. – С. 280-281.
21. Бартольд В.В. Энциклопедия ислама / Соч. – М.: Наука, 1965. – Т. III. – С. 487-489.
22. Шониёзов К. Қанг давлати ва қангلیلар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 54.
23. Vaissière de la É. Sogdian traders: a history. Translated by J. Ward. (Handbook of Oriental studies = Handbuch der Orientalistik. Section eight, Central Asia; v. 10). Brill. –Leiden-Boston: 2005. – P. 120;
24. Бабаёров Г., Кубатин А. К вопросу о монетах Согда с титулом “хатун” // Марказий Осиё халқлари тарихи манбашунослиги ва тарихшунослиги масалалари. V тўплам. 2-қисм. – Тошкент: ТДШИ, 2013. – Б. 106-107.
25. Kurat A.H. Kuteybe bin Muslim'in Hvarizm ve Semerkend'i zebti (higri 93-94-miladi 712) / Ankara Universitesi Dil va Tarih – Gografiya dergisi. – 1948. Cilt VI. – № 4. – S. 387-430.
26. Бартольд В.В. К истории арабских завоеваний в Средней Азии / Соч. – М.: Наука, 1964. – Т. II (2). – С. 380-388.
27. Mori M. Soğdlularin Orta Asya'daki Faaliyetleri. TTK, Belleten, Ocak. –Ankara: 1983. – S. 341-345.
28. Сағдуллаев А., Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотик тизими. – Тошкент: Akadimiya, 2012. – Б. 7.
29. Отахўжаев А. Илк ўрта аср Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: ART-FLEX, 2010. – Б. 67.
30. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука, 1970. – С. 23-38.
31. Beckwith C. I. Aspects of the Early History of the Central Asian Guard corpus of Islam // АЕМА. – Wiesbaden, 1984. – Том IV. – P. 36–38.
32. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... – С. 48.
33. Гардизий Абу Саид. Зайн ал-ахбар / перевод с персидского языка А.К. Арендса. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 42.
34. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. ... – Б. 112.
35. Rapin Cl., Isamiddinov M., Khasanov M. La tombe d'ime princesse nomade a Koktepe pres de Samarkand // *Akademie des inscriptions et belles lettres. Comptes rendus de seances*. – Paris: 2001. – P. 35-98.
36. Enoki K. On the nationality of the Ephtalites // *Memoirs of the Research Department of the Toyo Bunko*. – 1959. – № 18. – P. 34-40.
37. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux // *Сб. Тр. Орхонской эксп.* – СПб.: 1903. – Вып. 6. – С. 228-229.
38. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ... – С. 277.
39. Grenet F., Vaissiere de la E. The last days of Pandjikent // *Silk Road Art and Archaeology*. 8. *Journal of the Institute of Silk Road Studies*. – Kamakura, 2002. – P. 159-161.
40. СДГМ II. – С. 171.
41. История ат-Табари. ... – С. 225.
42. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. – М.: Наука, 1981. – С. 35-43.

43. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. .. – С. 306-308.
44. Смирнова О.И. О титуловании согдийских правителей. – М: ИВЛ, 1962. – С. 393-398.
45. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... – С. 230-231.
46. Гафуров Б.Г. Таджики. Кн. 1. ... – С. 318.
47. Бабаяров Г., Кубатин А. Очерки по истории нумизматике Западно-Тюркского кагантана. Часть I. LARLAMBERT Academic Publishing, 2014. – С. 89-92; Баратова Л. Древнетюркские монеты Средней Азии VI-IX века (типология, иконография, историческая интерпретация): автореферат диссертации на соис. ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент: 1995. – С. 18; Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... – С. 324-336; 336-341; 371-382; Мусакаева А.А. Туранские монеты III-VIII вв. – Ташкент: 2013; Шагалов В.Д., Кузнецов А.В. Каталог монет Чача III-VIII вв. Catalogue of coins of Chach III-VIII A.D. – Ташкент: Фан, 2006; Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука, 1977; Yana qarang: <http://www.zeno.ru> – Pre-Islamic Asia & North Africa – Central Asia.
48. Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Кеш // Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 66-67.
49. Grenet F., Vaissiere de la E. The last days of Pandjikent // Silk Road Art and Archaeology. 8. Journal of the Institute of Silk Road Studies. – Kamakura, 2002. – P. 155-196.
50. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ... – С. 84-120.
51. Goyibov B. From the history of relations between Sogd and India / South and Central Asia: insights and commentaries // Edited by A. Sengupta, M. Rakhimov // – New Delhi: KW Publishers Pvt Ltd, 2015. – P. 75-95.
52. Лившиц В.А. История изучения Согда / Рахмат-наме. Сборник статей к 70-летию Рахмата Рахимовича Рахимова. – СПб: Кунсткамера, 2008. – С. 198.
53. Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. – İstanbul: Selenge, 2007. S. 263-264.
54. СДГМ II. – С. 91-94.
55. Зеймаль Е.В. Древние монеты Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1983. – С. 269-273.
56. Эрнazarova T., Кочнев Б. Тангалар ўтмиш даракчилари. – Тошкент: Фан, 1977. – С. 9.

UDK: 651.926.07

«HIND HISOBIDA QO‘SHISH VA AYRISH KITOBIDANI LOTIN TILIGA O‘GIRGAN RIM PAPASI XUSUSIDA

Mahmudov O.V.

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada XII–XIII asrlarda Yevropada olib borilgan tarjima faoliyati tarixiga doir ilmiy adabiyotlar tahlil natijasiga tayanib, al-Xorazmiyning «Hind hisobida qo‘shish va ayrish kitobi»ni X asrda lotin tiliga tarjima etilishiga oid yangi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: al-Xorazmiy, Gerbert, Silvestr II, Malmsberlik Uilyam, hind hisobi, arab raqamlari, arifmetika, abak taxtasi, tarjima.

О Папе Римском переведивший книгу «Книга о сложении и вычитании в Индийском счете»

Аннотация. В статье на основе тщательного анализа научной литературы, посвященной истории переводов в Европе XII–XIII вв., даны новые сведения о переводе труда аль-Хорезми «Книга о сложении и вычитании в индийском счете» на латинский язык в X веке.

Ключевые слова: аль-Хорезми, Герберт, Сильвестр II, Вильям Мальмсберийский, индийский счет, арабские цифры, арифметика, доска абак, перевод.

About the Pope who translated «The Book of Addition and Subtraction in Hindu calculation»

Abstract. The article is devoted to history of translations in Europe in the XII–XIII centuries on the basis of careful analysis of the scientific literature, it provides new information about translation

of the work of al-Khwarizmi «The Book of Addition and Subtraction According to the Hindu Calculation» into Latin in the X century.

Keywords: al-Khwarizmi, Herbert, Silvestre II, William of Malmesbury, Hindu Calculation, Arabic numerals, arithmetic, board of abacuses, translation.

Olimlarga yaxshi ma'lumki, «Hind hisobida qo'shish va ayrish kitobi» – xorazmlik mashhur matematik, algebra fanining asoschi, riyoziyot, falakiyot va geografiya ilmlari taraqqiyotiga benazir hissa qo'shgan olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) qalamiga mansub. Bugungi kunga qadar, respublikamizda yaratilgan ilmiy adabiyot va tadqiqotlarning deyarli barchasida mazkur asarni Yevropada XII asrdan lotin tiliga tarjima qilinib, o'rganish boshlanganligi ta'kidlanadi.

Biroq, o'rta asr Sharq olimlari asarlarining G'arbdagi tadqiqi va tatbiqiga oid mavzu yuzasidan olib borayotgan izlanishlar davomida, al-Xorazmiyning «Hind hisobida qo'shish va ayrish kitobi»ni Yevropada ancha oldin, aniqrog'i, X asrdayoq lotin tiliga o'girilib, foydalanilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlarga duch keldik. Mutlaq haqiqatga da'vogarlik qilmagan holda bu boradagi ayrim mulohazalarimizni bayon etamiz.

Avvalo, asar xususida qisqacha to'xtalib o'tsak. Asar fan olamida «Al-Xorazmiy hind hisobi haqida» nomi bilan mashhur bo'lib [1], uning asl arabcha matni saqlanmagan. Bu nom asarning lotincha tarjimasini sarlavhasi – «Algoritimi de nemero indorum»dan olingan. Sohaga doir aksar ishlarda kitob nomi shartli ravishda «Arifmetikaga doir asar», «Qo'shish va ayrish kitobi» tarzida ham keltiriladi [3].

Tadqiqot davomida qo'lga qiritilgan ma'lumotlardan ayon bo'ldi-ki, al-Xorazmiy asarining to'liq nomi «Kitob al-jam va-l-tafriq bi-hisob al-Hind» ya'ni «Hind hisobida qo'shish va ayrish kitobi»dir. Bu haqda, Lennart Berggren o'zining o'rta asr lotin tilidagi manbalarga asoslangan ishida ma'lumot beradi [7].

«Hind hisobida qo'shish va ayrish kitobi»ning asosiy mohiyati shundan iboratki, unda muallif birinchilardan bo'lib, matematik hisob kitoblarda kichik yumaloq belgi – «nol»ni ishlatib, o'nlik pozitsion hisoblash tizimini shakllantirdi. Xorazmiyga qadar bu tizim hindlarda qo'llanilganligi* bois olim o'z asarini «hind hisobi» deb ta'riflagan. Xorazmiy bu risolada har qanday sonni 1 dan 9 gacha raqamlar va maxsus belgi – nol «0» orqali ifodalash mumkinligini isbotlab, butun va kasr sonlar bilan qo'shish, ayrish, ko'paytirish, bo'lish, kvadrat ildizdan chiqarish kabi arifmetik amallarni batafsil sharhlaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 945–1003 - yillarda yashagan olim Oriyaklik Gerbert (lot. Gerbertus) o'zining «Regule de abaco computi» («Abakda hisoblash qoidasi») nomli risolasida al-Xorazmiy arifmetikasidan keng foydalanadi. Asli fransuz bo'lgan ushbu olim nafaqat matematika, balki falsafa sohada ham ijod qilgan. Bundan tashqari, u davlat va din arbobi ham edi. Jumladan, olim 999 – 1003 - yillar oralig'ida Silvestr II nomi bilan Rim papasi sifatida faoliyat yuritgan. Fanda uning matematikaga doir yuqoridagi asaridan tashqari «Epistola ad Adelboldum de causa diversitatis arearum in trigono aequilatero, geometrice arithmeticeque expenso» («Tengyonli uchburchakda maydonlarini turlicha bo'lishining sababini geometrik va arifmetik usullarda aniqlash to'g'risida Adelbolduga noma»), «De geometria» («Geometriya to'g'risida»); astronomiyaga doir: «Epistola ad Constantinum monachum Floriacensem de sphaere constructione» («Qubbalarining tuzilishi to'g'risida Konstantin va ruhoniy Fleriga noma»), «Liber de asturlabia» («Asturlab haqida kitob»); falsafaga oid: «De corpore et sanguine Domini» («Xo'jayinlarning tanasi va nasli»), «De rationali et ratione uti» («Aqllilik va aqldan foydalanish») asarlari ma'lum [5].

Olim 980–982 - yillarda yozgan «Regule de abaco computi» («Abakda hisoblash qoidasi») nomli asarida qo'shish, ayrish, ko'paytirish, bo'lish kabi matematik amallarni bajarishda al-Xorazmiyning «Hind hisobida qo'shish va ayrish kitobi»ga tayanib 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarni ishlatadi [11]. Jumladan, Gerbert arifmetik va geometrik amallarni to'qqizta son (1–9) orqali bajarish uchun maxsus abak taxtasini yasaydi. Mazkur taxta 27 ta to'g'ri-to'rtburchakli qismdan iborat bo'lib, har bir qism 3 ta: C (centum) – yuzlik, D (decem) – o'nlik va S yoki M (singularis seu monad) – birlik sonlar uchun mo'ljallangan maydonlarga bo'lingan. (Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, abak taxtasi (lot. «Abacus») – bu arifmetik hisob kitoblarni bajarish uchun mo'ljallangan moslamadir. Taxminan, mil. avv. V asrda Qadimgi Yunoniston va Rimda ishlatila boshlangan. Biroq, ilk o'rta asrlarga kelib abak taxtasi muomaladan chiqadi. Aynan Gerbert uni fanga qayta joriy qilgan). Ammo, Gerbert o'z

asari va yaratgan moslamasida nima uchundir 0 (nol)dan foydalanmaydi. Nazdimizda, al-Xorazmiy nolni o'z asari orqali rasmiy muomlaga kiritgani hamda o'nlik pozitsion tizimi matematik hisob-kitoblarni soddalashtirishini tushuntirib berganligiga qaramasdan, yevropalik olim, aftidan, 0 (nol) dan foydalanish mohiyatini to'la anglab yetmagan.

Bu o'rinda, «Gerbertni al-Xorazmiy asarlari bilan qanday qilib tanishgan» degan savol paydo bo'lishi turgan gap. Bu albatta haqli savol, sababi, avvalroq ta'kidlaganimizdek, respublikamiz miqyosida e'lon qilingan tadqiqotlarda al-Xorazmiy asarlari Yevropada XII asrdan lotin tiliga tarjima qilina boshlanganligi ko'rsatiladi, Silvestr II esa X asrning ikkinchi yarmida yashagan.

O'rta asr tarixchilaridan Malmsberlik Uilyamning (1090 – 1143)* «Gesta regum Anglorum» («Ingliz qirollari tarixi») asarida keltirilishicha, «Gerbert monastir hayotidan qoniqmaganligi yoki shon-shuhratga bo'lgan intilishi sabab /har sohada taraqqiy topgan/ Ispaniyaga keladi va u yerda bir musulmondan astrologiya, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha dars olib, arab tilini o'zlashtiradi/ tarixdan yaxshi ma'lumki, Ispaniyaning chorak qismi XI asrga qadar Arab xalifaligi tarkibida bo'lgan/. Biroq, bir kuni u o'z ustozining turli fanlarga oid arabcha kitoblarini /bizningcha bular, asosan astronomiya va matematikaga oid risolalar bo'lgan/ o'g'irlab o'z vataniga qochib ketgan...» [4; 12].

Sohaga oid ilmiy adabiyotlarida Gerbertni 967–970 yillarda Ispaniyaning Kataloniya viloyatida yashaganligi hamda ayni shu davrda matematika, astronomiya va falsafaga taaluqli arab tilidagi bir qancha risolalarni, jumladan, «Hind hisobida qo'shish va ayirish kitobi» hamda «Aql to'g'risida»[5] (Yoqub al-Kindiy (800–873) asari. Yevropada «De intellectu» nomi bilan mashhur) kabi risolalarni lotin tiliga tarjima qilganligi [2] ta'kidlanadi. Hoyna-hoy bular olimni musulmon ustozidan o'g'irlab kelgan kitoblardir. Chunki, ayni davrda al-Xorazmiyning riyoziyotga doir ishlari musulmon olamida eng asosiy ilmiy manba hisoblangan.

Sanab o'tilgan ma'lumotlar al-Xorazmiy asarlarini X asrning ikkinchi yarmidayoq G'arbiy Yevropaga kirib borgani va asosiy manbalar qatoridan joy olganini ko'rsatmoqda. Sharq fani yutuqlarini G'arbdagi ilk tatbiqchisi bo'lgan Gerbert 999 - yilning 2-aprelida Silvestr II nomi bilan Rim papaligiga saylangach, al-Xorazmiy ommalashtirgan «arab raqamlari»ni mintaqada joriy qilish to'g'risida buyruq chiqaradi [10].

Biroq, o'nlik raqamlarni qo'llash to'g'risida rasmiy ko'rsatma berilganligiga qaramasdan, ular Yevropada to XII asrgacha, ya'ni al-Xorazmiy asarlarini Toledo maktabida tarjima etilgunga qadar keng tarqalmaydi. Shunday bo'lsada, aynan Silvestr II al-Xorazmiy ishlab chiqqan hisoblash tizimini ilk marotaba G'arbdagi matematika faniga tatbiq etgan olim edi. O'nlik pozitsion hisoblash tizimi va hozirgi raqamlarni Yevropada tarqalishida al-Xorazmiy risolasining Toledo maktabida yaratilgan lotincha tarjimalari hamda ular asosida yozilgan Batlik Adelardning (tax. 1070/80–1145/50) «Regulae abaci» («Abakda ishlash») [8], Leonardo Fibonachchining (tax. 1170–1250) «Liber abaci» («Abak kitobi»), Iordan Nemorariyning (XIII asr) «Algorismus demonstratus» («Algoritmni tushuntirish»), «De elementis arismetice artis» («Arifmetika san'ati negizlari»), «De numeris datis» («Sonlar asosi to'g'risida») kabi asarlari katta ahamiyat kasb etdi. Buning natijasi o'laroq, yevropaliklar qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish, kasrlar, kasrlarni ko'paytirish, ildiz chiqarish kabi amallarni bajarishda turli qiyinchiliklar tug'diruvchi, noqulay rim sifralarining o'rniga 0 (nol)dan 9 gacha raqamlarni qo'llashga o'tadilar. Bu haqda, G'arbdagi qiziq bir gap ham bor, unga ko'ra XIV asrga kelib, arab raqamlari rim sifralarini hatto qabr toshlaridan ham siqib chiqara boshlaydi [9].

Yuqorida keltirilganlar, o'rta asrlarda Yevropada matematikaga oid bilimlarning shakllanishi va taraqqiyotida al-Xorazmiyning hissasi beqiyos ekanligini tasdiqlovchi faktlardir. Aytish kerakki, bular yurtimizdan yetishib chiqqan bir nafar allomaning faqatgina bitta asari misolidagi ma'lumotlar, xolos. O'zbekiston o'nlab ana shunday mutafakkirlarning Vatani. Ular yaratgan nodir asarlar g'arb xalqlarining ham ma'naviy, ham intellektual salohiyati rivojida benazir o'ringa ega. Ayni masalalar navbatdagi maxsus maqolalar uchun mavzu bo'ladi. Bu borada ham tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan, oddiy o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan qiziqarli ma'lumotlar talaygina. Bizningcha, ulug' ajdodlarimizning Yevropadagi ilmlar rivojida tutgan o'rniga oid qimmatli ma'lumotlarni ta'lim sohasiga, jumladan, maktab darsliklariga ko'proq kiritish lozim. Afsuski, hozirda bunday qiziqarli ma'lumotlar asosan soha mutaxassislarigagina ayon bo'lib qolmoqda. Albatta, bunday buyuk ajdodlarimiz bilan qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi. Biroq, ayni vaqtda yoshlarimizni faqat

g'ururlanish tuyg'usi bilan emas, balki bobolarimiz yaratgan ana shu bebaho merosga o'z hissasini qo'shish ruhida tarbiyalamoq lozim.

* Hozirgi o'nlik sanoq tizimi taxminan V asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Mazkur tizim va raqamlar Arab xalifaligi hududiga VII asrning 70 yillarida hind astronomik jadvallari orqali kirib kelgan. Bungacha Sharqda raqamlar so'zlar va harflar bilan ifodalanar edi.

* Malmshberlik Uilyam – XII asrda ijod qilgan ingliz tarixchisi. Asli Angliyaning Uiltshir shahridan. 1139 - yilda «Glastonberg cherkovining o'tmishi» asarini, 1143 - yilda esa 3 qismdan iborat «Yangi tarix» nomli kitobini yozadi. Ikkinchi asar 1999 - yilda ingliz tilida yangi tahrirda [15] nashr qilgan. Biz fikr yuritayotgan «Ingliz qirollari tarixi» asari 5 ta kitobdan iborat bo'lib, uning dastlabki qismlari 1125 - yilda yaratilgan. Asar anglosaks qabilalarini Britaniya oroliga ko'chib kelishlaridan to qirol Genrix I (1100 – 1135) hukmronligining so'ngiga qadar bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga oladi. Asarning birinchi kitobi 1998 - yilda [13], ikkinchi kitobi esa 2002 - yilda yangi nashrda ingliz tilida Oksfordda chop etilgan [14]. Mutaxassislarning fikricha, Uilyamning ushbu asari o'rta asrlarda lotin tilida yaratilgan tarixga oid eng mukammal va ishonchli manba hisoblanadi. Yuqorida, Gerbert bilan bog'liq voqea tavsilotlarini keltirishda, asarning 1970 yilda e'lon qilingan rus tilidagi nashridan foydalanildi.

Adabiyotlar

1. Asar bilan tanishish uchun qarang: Мухаммад Ибн Муса ал-Хорезми. Математические трактаты. Книга об индийском счёте / Перевод с латинского Ю.Х. Копелевича и А.П. Юшкевича. – Ташкент: Фан, 1983.– С. 5–20.
2. Гаврюшин Н. К. Непогрешимый богослов. – Москва: Драккар, 2007. – С. 12.
3. Матвиевская Г.П., Розенфельд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII-XVII вв.). Т. 2. – Москва: Наука, 1983. – С. 41.
4. Мальмсберийский Вильям. История английских королей / Пер. Т.И. Кузнецовой – Москва: Наука, 1970.– С. 167 – 169.
5. Шишков А.М. Средневековая интеллектуальная культура. – Москва: Издатель С.А. Савин, 2003. – С. 44 – 52.
6. Ball W.W. A Short Account of the History of Mathematics. – New York: Dover Publications, 1960. – P. 20.
7. Berggren L.J. Episodes in the Mathematics of Medieval Islam. – New York: Springer Science and Business Media, 1986. – P. 7.
8. Burnett C. Adelard of Bath and the Arabs // Rencontres decultures dans la philosophie médiévale. Traductions et traducteurs de l'Antiquité tardive au XIV^e siècle. – Louvain-la-Neuve: Cassino, 1990. – P. 90–107.
9. Busard H.L. Jordanus de Nemore. De elementis arismetice artis: a medieval treatise on number theory. – Stuttgart, 1991.– P. 17 – 23.
10. Chamberlin E.R. Pope Silvester II, 999–1003 // History today. 1969. Issue. 3. –P. 127–135.
11. Darlington O.G. Gerbert the Teacher // American Historical Review. 1947 – P. 115–121.
12. Watt W.M. The Influence of Islam on Medieval Europe. – Edinburg: Edinburg University Press, 1972. – P. 83.
13. William of Malmesbury. Gesta Regum Anglorum (Deeds of the English Kings). Vol. I. / Edited and translated by R. A. Mynors. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
14. William of Malmesbury. Gesta Regum Anglorum (Deeds of the English Kings). Vol. II. / Edited by M. Winterbottom and R. M. Thomson. – Oxford: Oxford University Press, 2002.
15. William of Malmesbury. Historia Novella (The Contemporary History) / Edited by Edmund King, translated by K. R. Potter. – Oxford: Oxford University Press, 1999.

UDK: 94(623.4)

BUXORO XONLIGI QO‘SHINIDA QUROL-YAROG‘LAR TA‘MINOTI (XVI ASR)**Zamonov A.T.***O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz*

Annotatsiya. Maqolada XVI asrda Buxoro xonligi qo‘shinida mavjud bo‘lgan harbiy qurol-aslahalar: jang qurollari, o‘q otar qurollar, tanani muhofaza qiluvchi himoya aslahalari manbalardagi ma‘lumotlar asosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: qurol-yarog‘, qilich, nayza, kamon, to‘p, miltiq, sovut, qalqon, mudofaa.

Обеспечение оружием в войсках Бухарского ханства (XVIвек)

Аннотация. В данной статье анализируются исходя из источников существующие военные оружия в Бухарском ханстве в XV веке: боевое оружие, боеприпасы и стрелковое оружие и оружие обороняющие защиту тела.

Ключевые слова: оружия, сабля, мечь, ружье, щит, пушка, защита, лук, стрела.

Providing arms to the troops of the Bukhara khanate (XVI century)

Abstract. The present article analyzes existing military weapons which is based on sources in the khanate of Bukhara in the XV century: military weapons,ammunition and small arms and weapons defending the body.

Keywords: weapon, sword, gun, shield, gun, defence, bow, arrow.

Siyosiy qudrati ko‘p jihatdan qurolli kuchlarga bog‘liq bo‘lgan Shayboniylar davlatining dastlabki poytaxti hisoblangan Samarqandda XVI asrning birinchi yarmida qurol-yarog‘ yasash ishlari sezilarli darajada rivojlangan. XVI asrning ikkinchi choragida xonlik poytaxtining Buxoroga ko‘chirilishi munosabati bilan qurol-aslaha ishlab chiqaruvchi ustalar ham shu yerga to‘plangan. Bu yerda xon qo‘shinini qurollantirish uchun lozim bo‘lgan qurol-aslahaning asosiy qismi ishlab chiqarila boshlangan. Manbalardan birida, Abdullaxon II yurushda bo‘lgan paytda qo‘shini uchun ko‘plab qurol va aslahalar Buxorodan olib kelinganligi haqida ma‘lumotlar mavjud [13: 329].

XVI asrda Movarounnahr qo‘shinida mavjud bo‘lgan harbiy qurol-aslahalar turi ungacha bo‘lgan davrda bu darajada ko‘p va xilma-xil bo‘lmagan. Shu nuqtaiy nazardan ham mazkur qurol-aslahalarni 4 guruhga bo‘lib turkumlash maqsadga muvofiqdir: 1) Jang qurollari; 2) O‘q otar qurollar (chunki bu davrda o‘q otar qurollarning yangi turlari paydo bo‘ldi); 3) Tanani muhofaza qiluvchi himoya aslahalari; 4) Yordamchi aslahalar.

Jang (urush) qurollari. Jangda zarba berish uchun qo‘llaniladigan qadimiy qurol – cho‘qmordan ham foydalanilgan. U bir uchida tasma yoki zanjir bilan osilgan metall soqqa, ikkinchi uchida qo‘lga taqiladigan ilmoq bo‘lgan qisqa tayoq shaklida edi [6: 108].

Janglarda qilichning ahamiyati katta edi. Bobur qilichni o‘z davridagi barcha quroldan ustun qo‘yib, shunday ta‘riflaydi: “shashpar (olti qirrali gurzi), cho‘qmor, kestan, tabarzin va bolta tegsa bir yerga ta‘sir qiladi; agar qilich tegsa – boshdan oyoqqacha kesadi” [4:89]. Fazlulloh ibn Ruzbehxonning yozishicha, Bobur doimo qilich va qalqon bilan qurollanib yurgan [11:101]. Buxoro qo‘shinining deyarli barchasi xanjar va qilich bilan ta‘minlangan. Qilichlar yoysimon shaklda bo‘lib, ularning uzunligi jangchining beli baravarida bo‘lgan [2:69,79,87,127]. Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxon askarlarining aksariyati Yaman qilichi bilan qurollanganligi haqida ma‘lumot beradi [14:163].

Urushda boltalardan ham keng foydalanilgan. Yaqin masofadagi janglarda jangovar boltalar ham alohida ahamiyat kasb etgan. Muallifi noma‘lum “Tarixi guzidai nusratnoma” asarida yozilishicha, Shayboniyxon o‘g‘li Muhammad Temurga bolta olib, dushmanlarga qarshi urishga otlanishni amir qiladi [10:39]. Bundan tashqari, harbiy boltalar ko‘pincha qal‘alar qamali jarayonida darvoza qulflarini buzishda foydalanilgan [13:278]. Jang boltalari tabarzin [13:105] deb atalib, ular oddiy boltalardan dastasi uzunligi bilan farq qilgan.

Qo‘shinda nayza ham asosiy qurollardan biri hisoblangan. Asrlar davomida ularning shaklida ayrim o‘zgarishlar qilinib, takomillashtirilib borilgan. Ular asosan tekislikda, yuzma-yuz jang qilinganda qo‘llanilgan. Nayzalarning uzunligi odam bo‘yidan balandroq bo‘lgan hamda uning dastasi

qayin daraxtidan, uchi esa temir va po'latdan ishlangan. Buxoro qo'shinida "xatti nayza" deb atalgan nayza turi keng tarqalgan bo'lib, ular uzun va to'g'ri dastali bo'lgan. Arabiston yarimorolidagi Xatti manzilida ishlab chiqarilgan to'g'ri nayzaga qiyosan, barcha to'g'ri dastali nayzalar shu nom bilan yuritilgan [14:102,163].

O'q otar qurollar. Yozma manbalarda qayd etilishicha, eng asosiy jang qurollari o'q va kamon bo'lgan. Bu davrda kamonning asosi tashqi tomondan chandir, ichki tomondan silliq muguz (xo'kiz shoxi) yopishtirilgan yog'ochdan iborat bo'lgan. Ba'zida tutqichining o'rtasi va oxiri suyak (dandon) bilan qoplangan [6:108]. Ular qattiq kamon [13:306] deb atalib, uning o'qi uzoqqa otiladigan alohida, murakkab turi edi. Zahiriddin Bobur Sulton Xusaynning amirlaridan biri Muhammad Sayid Urusni "yoyi qattiq, o'qi esa uzun edi", - deb tasvirlaydi [4:136].

Shu bilan birga, murakkab tuzilishga ega kamonlarning turlari ham mavjud bo'lgan. Manbalarda ovda alohida, jangda alohida o'qlar ishlatilishi haqida ma'lumotlar uchraydi [13:198]. Kamondan o'q uzish nafaqat o't ochish qurollari paydo bo'lgunga qadar, balki undan keyin ham O'rta Osiyoda muayyan masofadan turib nishonga urishning asosiy usuli bo'lib kelgan.

Kamon va o'q qo'lda ko'tarib yuriladigan o'qotar qurollar qatorida qo'llanishining sababi shundaki, ilk davrlarda to'fang kamdan-kam hollarda kamondan ustunlik qilgan. Kamon va o'qlarni olib yurish uchun ustalar sadoq (bu davrda zihdon [13:201] deb atalgan) yasaganlar.

Ma'lumki, kamondan otish uchun o'q uyacha (chuqurcha) vositasida ipga mustahkamlangan. O'qlar turli shaklda bo'lishi mumkin edi. Yog'och, poynak va qush patidan yasalgan o'qlar keng tarqalgan. Yog'och o'qlar turli turdagi daraxtlardan tayyorlangan, jumladan, manbalarda qayindan, xadang (oq qayinga o'xshash qattiq daraxt, bu davrda undan o'q va aravalar g'ildiragi yasalgan [11:108]) yog'ochidan yasalgan o'qlar tilga olinadi [13:119]. O'qning uzunligi kabi unga so'qilgan patlar ham turli shaklda edi. O'q uzish uchun barmoqlarga maxsus, angishvonasimon zehgillar taqilgan [4:135]. "Abdullanoma" asarida, Dashti Qipchoq askarlari uch payli (uchta uyachali) kamondan bir kamon ipini tortish bilan uchtadan o'q uzishi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi [14:181; 13:165]. Bunday kamonlar odatda tekistlikdagi jang qilish paytida, raqiblar hali bir-birlariga yaqinlashib kelmagan jarayonda qo'l kelgan.

Neftga shimdirilgan matoni o'qqa o'rash orqali yondiruvchi o'qlar tayyorlangan. Qamal qilinganlar qal'a devorlaridan turib qamal qiluvchilarni o'qqa tutish uchun ulardan foydalanganlar. Qamal qilayotganlar esa qamal qilinayotgan shaharda yong'in chiqarish maqsadida yondiruvchi o'qlarni otganlar. O'qning o'rtacha qancha masofaga otilishidan amalda jang oldidan qo'shinning joylashgan o'rini, ba'zida esa umuman masofani aniqlash uchun ham foydalanilgan.

Shuningdek, o'q otar qurollar – taxshanlar ham qo'llanilgan [4:47]. Lekin taxshandozlar XVI-XVII asrlardagi harbiy to'qnashuvlarning ishtirokchilari sifatida kamdan-kam hollarda tilga olinadi.

XVI asrdan boshlab Movarounnahr hududida keng tarqalgan to'fanglar yog'och va metall bilan ishlangan bo'lib, ular O'rta Osiyo hududida ishlab chiqarilmagan. To'fang O'rta Osiyoga Eron va Turkiya hududlaridan keltirilgan. "Mir'otul mamolik" (mamlakatlar ko'zgusi) asari muallifining ma'lumot berishicha, Toshkent xoni Navro'z Ahmadxonga Turk sultoni 300 ta miltiq bilan qurollangan yanicher (yangi qo'shin)larni yuborganligi haqida ma'lumot beradi [9:122]. Uning ta'kidlashicha, Buxoro qo'shinlaridagi miltiqlar misdan quyilgan bo'lib, asar qahramonidan 40 ta temir miltiq olib qo'yilganligi aytiladi [9:103]. Usmonlilar imperiyasi sultonlari bilan shartnomaga ko'ra, yollanma turk mashshoq (harbiy muhandis)lari Abdullaxon II (1557-1598) va ashtarxoniyalar davrigacha zamonaviy usulda qo'shinlarni jangga tayyorlash mashqlari bilan shug'ullangan, qurollar esa Turkiyadan keltirilgan [8: 143, 151, 242].

Buxoro xonligida XVI asr birinchi choragidagi ko'plab harbiy to'qnashuvlarning ishtirokchisi va qahramoni Zahiriddin Boburning ma'lumotlariga qaraganda, o'tochar qurol – to'fang o'sha paytda Bajavr (Afg'oniston) aholisiga ma'lum bo'lmagan. Ular bunday qurolni hech qachon ko'rishmagan va jang boshlanganda, to'fang ovozi eshitib ham parvo qilmay, o'qning ro'parasida turishda davom etganlar. Faqat to'fangandozlar to'fangdan o'q otib, o'nga yaqin bajavrliklarni yer tishlatgandan keyingina, boshqalar dushman ochayotgan o'tdan o'z boshlarini qutqarish payiga tushadilar [4:164]. Afg'onistonning ba'zi bir joylarida to'fang faqat 1509 - yilda Bobur qo'shini bilan birga paydo bo'lganligidan kelib chiqsak, mazkur o'q otar qurol bu yerda keng tarqalmaganligi ma'lum bo'ladi.

1558 - yil Buxoroga tashrif buyurgan ingliz Antoniy Jenkinson shunday yozadi: "26 - dekabrda menga xon huzuriga kirish amr qilindi. Men unga rus podshohining maktubini topshirdim. Xon

a'yonlari oldida mendan bizning multig'imizdan otishga majbur etdi va o'zi ham ulardan otib, mashq qildi" [3:183]. Ushbu xabardan ma'lum bo'ladiki, mahalliy to'fanglar Antoni Jenkinson qo'lidagi multiqdan farq qilgan.

XVI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qo'lda olib yuriladigan o'q otish qurollarini texnik jihatdan takomillashtirish, qo'shinni, shu jumladan, yollanma lashkarlarni ham qurollantirishda muayyan rol uynay boshladi. Jumladan, Samarqand hokimi bo'lib turgan shayboniy Navro'z Ahmadxon (Baroqxon), shuningdek, uning o'g'li Bobo sulton qo'shinlari tarkibida multiqdan o'q otuvchilardan tashkil topgan yollanma askarlar guruhi xizmat qilgan [8: 143, 394].

To'fangandozlar otgan o'q qalqon, sovut, ba'zida hatto qalqon va sovutni ham baravariga teshib o'tgan.

Manbalar tadqiq etilganda, Abdullaxon II davrida quyilgan to'plarga nomlar berilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, Balxdan keltirilgan "Qora bug'a" [14:240], Movarounnahrning o'lkalarida quyilgan "Oqburyo to'pi" [8: 292], "Qubbali qozon (to'p)", "Jahongir qozoni", "Qora bahodir qozoni" (Qora bahodirdan neft yoqib otilgan bo'lishi, ehtimol) singari to'plar mavjud bo'lgan [13:293].

Muhammab ibn Arab Qatag'an Abdullaxon II davrida to'p yasash va otish bilan shug'ullanadigan maxsus shaxslar haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Qo'shinda Ustod Ruhiy ismli to'pchi harbiy muhandis bo'lib [8:328], uning boshchiligida zambaraklar yasalgan va undan qal'alar shturm qilingan. Ruhiy Abdullaxonning deyarli barcha janglarida, ayniqsa, qal'alar qamalida oldingi safda turib, to'pchiboshilik qilganligi bir necha marta eslanadi [13: 243, 256, 265, 276, 293, 298, 306, 308 va h.k.]. Muallifning voqealar bayonidan kelib chiqib fikr yuritiladigan bo'lsa, 1580 - yildan boshlab Ustod Ruhiyning janglarda ishtirok etganligi haqida birorta ma'lumot uchramaydi (Ustod Ruhiy 1879 yilda qal'alardan birining qamali paytida orqasidan nayza sanchilib, jarohat olgan. Shu jarohat natijasida Ruhiy vafot etgan bo'lishi, ehtimol). 1582 - yil iyul oyida Abdullaxonning Sabron (Janubiy Qozog'istonda) qal'asini egallash chog'ida Ustod Ruhiy (u vafot etgan edi)ning o'rniga to'pchiboshi bo'lgan Mirak yasovul alohida jonbozlik ko'rsatgan [14:84]. Shu yilning avgust oyida Yassi qal'asining egallanishida Qarog'oziy va Jahongiriy singari to'pchilar nomlari tilga olinadi [8:344]. Bundan ko'rinadiki, qo'shinda harbiy muhandislar soni keyingi davrlarda ko'payib borgan.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, XVI asrda O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarda artilleriya to'pi – zambaraklardan foydalanilgan va mahalliy ustalarning o'zlari zambaraklar yasay boshlagan.

Boburning yozishicha, eritilgan metall mis tarnov orqali maxsus qolipga quyilgan va keyin sovutilgan. Ishlab chiqarish jarayoni bir necha kunga cho'zilgan: avvaliga tayyorgarlik ishlari olib borilgan, so'ng eritilgan metallni qolipga quyishgan, shundan so'ng quyilgan qurolning qotishini bir necha muddat (bir-ikki kun) kutishgan [4:199]. Quyish jarayoni texnologiyasini yaxshi bilmaslik va mukammal texnikaning yo'qligi ustalarga mustaqil ishlashlariga yo'l qo'ymagan. To'p – otish oldidan stvolga zarur vaziyat yaratish va otish vaqtida otilgan o'tni yutish hamda bunda vujudga keladigan og'irlikni yerga uzatish uchun maxsus moslama (yoki aroba)ga o'rnatilgan [4:231]. Shu davrga tegishli miniatyuralarda to'plar asosan to'rt g'ildirakli va ularning g'ildiragi yog'ochdan yasalganligini ko'rish mumkin [2:121].

To'p quyuvchi ustalar rextagar deb atalgan [14:36]. Ish jarayonida ular yordamchi ishchi kuchidan foydalanishgan. XVI-XVII asrlarga oid manbalarda ko'rsatilishicha, Buxoroda bir necha rextagarlar bo'lgan. Rextagarlar mis va qo'rg'oshin qorishmasi bo'lgan bronzadan turli uy-ro'zg'or buyumlarini ham yasaganlar.

XVI asr oxirlariga kelib, artilleriya to'plarini yasash nisbatan takomillasha boshladi. Abdullaxon II buyrug'i bilan, 1587 yilda Gavharshod masjidida Hirot qal'asi qamali uchun quyilgan har yetti to'pdan biri 2-3 botmon (1 botmon taxminan 20-30 kg) og'irlikdagi toshni otar edi [14: 183, 234]. XVI asr oxirlariga kelib, harbiy harakatlarda asosan mahalliy ustalar yasagan to'plardan foydalanilgan. Yevropacha to'p – faranglar kamdan-kam hollarda eslatiladi. Undan otish o'ziga xos qiyinchilik tug'dirganligini manbalardagi ayrim voqealar sharhidan ham bilib olish mumkin.

XVI asrning birinchi choragida to'pni uni quygan ustaning o'zi otgan. Ammo Hofiz Tanishning bir yo'la yettita to'p quyilganligi haqidagi ma'lumoti XVI asr oxirlaridan to'p quyadigan usta asosan, to'p yasash bilan mashg'ul bo'lgan va faqat ayrim hollardagina o'zi undan o'q uzgan, degan xulosaga olib keladi.

Bundan tashqari, tosh arroda deb nomlangan zambarak turi bo'lib, u to'rtta g'ildirakka o'rnatilgan hamda qal'alar devorini shturm qilishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan va o'sha davr Buxoro o'lchov birligi bo'yicha bir botmon (20-30 kg) toshni ota olgan [13:223].

Buxoroda prox ombori – doruxona bo'lib, u ikki qavatli hujralardan iborat edi. 1586 - yilda bu omborda yirik portlash sodir bo'lganligi haqida “Abdullanoma”da ma'lumotlar keltirilgan. Xofiz Tanish doruxonaga kutilmaganda o't tushib, portlash yuz bergani va dahshatli halokatlarga olib kelganligini tasvirlaydi. Ombor bozor yonida, gavjum joyda joylashganligi tufayli portlash vaqtida ko'plab kishilar, shu jumladan, hunarmandlarning katta qismi halok bo'lgan. Yong'in ko'plab odamlar va savdo-hunarmandchilik binolarini yakson qilgan [14:211]. Shunday bo'lsa-da, artilleriya to'plari ishlab chiqarishda muayyan siljishlar bo'lgan. Shu bilan birga, zarbzhan, ra'd, zambarak, manjaniq, toshotar va boshqa avvalgi asrlarga mansub qurollar ham baravar ishlatilgan.

Himoya aslahalari. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Buxoro xonligi jangchilarining deyarli hammasi qurol-aslaha va harbiy kiyim-bosh bilan ta'minlangan. Shunday bo'lsa-da, dastlabki paytlarda Movaravounnahrda endigina kirib kelgan Dashti Qipchoq askarlarining hammasida ham sovut va himoya kiyimlari bo'lmagan. Muhammad Solihning guvohlik berishicha, shayboniy sultonlari lashkari safidagi sovutsiz jangchilar o'z tanasini kigiz bilan o'rab himoya qilganlar [7:89].

Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan qalqonlar ham turli-tuman ko'rinishda, rangi ham har xil bo'lgan [14:169]. Yog'och qalqonlar qal'alar qamali vaqtida qo'shin huzurida bo'lgan hunarmandlar tomonidan tayyorlanishi mumkin edi. Metall bilan ziynatlangan, nisbatan ishonchli qalqonlar ham tayyorlangan. Ularning ayrimlari chet mamlakatlardan ham keltirilgan bo'lib, manbalarda shayboniylar qo'shinidagi ayrim askarlar G'ilon qalqoni bilan himoyalanganini haqida ma'lumotlar mavjud [14:121].

O'zbekiston muzeylarida (Samarqanddagi O'zbekiston madaniyati davlat muzeyi, Toshkentdagi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi)da ham, charm qoplangan yog'och, shuningdek, charm va metallardan yasalgan qalqonlar mavjud. Charm qalqonlar ko'pincha rang-barang naqsh solingan xalqa shaklidagi metall qoplama bilan mustahkamlangan. Charm qalqonlarning aksariyati qora rangga bo'yalgan, faqat ayrimlaridagina qizil buyoq izlari ko'zga tashlanadi. Xofiz Tanish la'l rangidagi (to'q qizil) qalqonlar ham bo'lganligi haqida xabar beradi [13:140]. Bundan tashqari, muzeylar fondlarida o'yma naqshlar bilan bezatilgan turli kattalikdagi metall qalqonlar ham mavjud bo'lib, ular XVI asrga mansub miniatyuralarda tasvirlangan jangchilarning qalqonini eslatadi [2: 69,79, 87, 121, 127, 131].

Sovut va zirhlar (jiba, sovut, javshan, baktar) jangchi tanasini o'q-yoy va o'tochar qurollardan himoya qilgan. Sovut metall simlardan to'qilib, ichki tomoni yumshoq mato bilan qoplangan. Manbalarda Muhammad Shayboniy qo'shinining sovuti temirdan yasalganligi [12:129], Shayboniyxonning o'zi ham sovut yasash hunariga ega bo'lganligi [7:32] va o'zining sovuti qora rangda bo'lganligi [12:159] haqida ma'lumotlar mavjud.

Sovutning ichidan maxsus kamzul – hafton kiyilgan [12:159]. Shayboniylar qo'shini boshqalardan ajralib turishi uchun haftonlarining rangi odatda to'q qizil [13:329] rangda bo'lgan. Sovut yoy yoki to'fang o'qidan himoya qila olmasa-da, qilich, bolta, xanjar singari kesuvchi qurollarga qarshi himoya vazifasini o'tagan. Yoy, to'fang o'qlariga qarshi kiyiladigan javshanlar (temir nimcha) asosan, temir va po'latdan yasalgan [13:298].

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondlarida metall xalqadan qilingan, bir-biriga kiydirilgan sovutlar saqlangan bo'lib, ular kalta yengli ko'ylaklardir. XVI asr miniatyuralaridagi harbiylar kiyimi hamda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishidagi mavjud an'analar muzeylarda saqlanayotgan sovutlarni samarqandlik ustalar tayyorlagan namunalarga juda yaqin [2: 69,79, 87, 127], deb taxmin qilishga asos bo'ladi.

Shayboniylar qo'shinida Xitoy javshani bilan ta'minlangan askarlar ham ko'pchilikni tashkil qilgan [14:121]. Tana muhofazasi uchun xizmat qilgan yana bir libos – baktardir [14:280]. Baktar ham javshan singari temirdan yasalgan va har ikki tomoni baxmal bilan qoplangan. Shu singari zirhli liboslar bilan jangga kirishning ahamiyati katta bo'lgan. Manbalarda urushlardan birida zirhli kiyimsiz jangga kirilganidan ancha odam nobud bo'lib, ko'pchiligi yaralanganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud [4:47]. Jumladan, Abdullaxon II qo'shinida uzoq yillar to'pchiboshi lavozimida xizmat qilib, aksariyat janglardagi g'alabaga hissasini qo'shgan Ustod Ruhiy 1579 - yilgi janglardan birida “urush kiyimini kiymay jangga kirganligi uchun” nayza zarbidan halok bo'lgan [13:355].

Qo‘shinda chapar (sipar) va to‘ralar [13:186] ham mavjud bo‘lib, ulardan mudofaa va qamal janglarida qalqon sifatida foydalanishgan. Chapar ko‘pincha mudofaa janglarida foydalanilib, ular okop (maxsus mudofaa chuqurliklari) oldiga qo‘yib, uning ortidan o‘q uzishga mo‘ljallangan va u ko‘pincha simdan to‘qilgan yirik qalqon turidir. Movarounnahrda bu turdagi himoya qurollari Chingizxon bosqini arafasida mahalliy aholi qo‘lida mavjud bo‘lgan [1:136]. To‘ra esa odam bo‘yi baravar bo‘lib, u yog‘ochdan yasali, usti to‘qilgan sim bilan qoplangan qalqondir [4:68]. U qamal paytida mudofaachilar o‘qlari, otilgan tosh, g‘isht va boshqa qurollardan himoyalani, hujumga o‘tishga mo‘ljallangan o‘ziga xos himoya to‘sig‘idir.

Askarlarning boshlarini ham metall aslaha – dubulg‘a himoya qilgan. Dubulg‘a turli shaklda, ichkarisi kigizdan tikilgan, tashqi tarafi esa temir yoki po‘latdan ishlangan [13:298]. Yuqori tabaqa harbiylar – sarkardalar oddiy askarlarnikidan farqi sezilarli, uchi uzun, jezdan yasalgan dubulg‘alar – xudlarni kiyib jangga kirganlar [13: 114, 117].

Qurol turlari sohiblarining qaysi tabaqaga mansubligini ham yaqqol namoyon qilgan. Jang vaqtida yasalgan oddiy yog‘och hamda naqsh va suratlar bilan ziynatlangan qalqonlar o‘rta asrlarda yuqori tabaqaning turli qatlamlariga mansub namoyandalarining qurollanish belgilaridan edi [5:19].

Lashkar yo‘lboshchilari jangovar otlarining tanasi zirh bilan himoya qilingan. Ular bargustvon (kejm) deb atalib, asosan temir simlardan to‘qilgan. Bunday yopinchiqlar asosan qo‘shin boshliqlarining otlariga yopilgan.

Qurol-aslahalar, odatda, mahalliy ustalar tomonidan yasalgan, shuningdek, boshqa mamlakatlardan ham keltirilgan. Hofiz Tanishning qayd etishicha, Darband qurol-aslahalari ortilgan bir necha tuya Moskvadan Buxoroga kelgan (1583) [14:119]. Yozma manbalarda XVI asr oxirida Samarqandda qurol-aslahalar tayyorlashga ixtisoslashgan bir qator ustalar tilga olinadi. Bolalarning usta hunarmandlarga shogird tushishi munosabati bilan to‘zilgan “Majmuai vasoyiq” deb atalgan bitimlar to‘plamida jibatob usta va shogirdlar orasida tuzilgan shartnomalar ham mavjud. Mazkur bitimlardan biriga muvofiq, Mulla Temur Mulla Jonmuhammad o‘g‘li o‘z ukasi Ibodullani ikki yil ichida yarog‘-aslaha tayyorlash san‘atini o‘rganishi uchun Ustoz Muhammad Mo‘min jibatobga shogirdlikka beradi [6:113].

Samarqandda jibatob ustalarining faoliyati XVI asrning ikkinchi yarmida ayrim qurollarni ishlab chiqarish sohasida o‘rta osiyolik qurolsozlar ham muayyan yutuqlarga erishganligini ko‘rsatadi. Bu hunarni o‘rganish uchun kishilarning ularga ko‘plab shogird tushishi ham shundan dalolat beradi. Umuman olganda, samarqandlik jibatoblarning mahsulotlari mahalliy aholining badavlat toifasiga mansub harbiylar, shuningdek, boshqa shaharlar aholisi tomonidan sotib olingan.

Yordamchi aslahalar. Qadimdan harbiy yurishlarga chiqilganda tuyalar karvonida harbiy aslahalardan tashqari, jang, qamal, mudofaaga ko‘maklashadigan buyumlar ham doimiy ravishda olib yurilgan. Askarlarning o‘z uylaridan oylab, hatto yillab uzoqda yurishi va o‘zlari uchun maishiy hayotda zarur bo‘lgan buyumlar ta‘minoti o‘zlarining zimmasida bo‘lgan.

Ular harbiy aslahalardan tashqari, chodir (ularni olib yuruvchilar va tiklovchilar farroshlar deb yuritilgan), echki yoki qo‘y terisidan tayyorlangan po‘stak (tagiga to‘shab yotish uchun), ko‘rpa-to‘shak va boshqa maishiy asboblarning maxsus qopi partol deb atalgan [4:167]. Suzishda foydalaniladigan sol, qal‘a qamali uchun turli hajmdagi narvonlar, qop, ketmon, kurak, arra va boshqa buyumlar harbiylarning ko‘chma omborida mavjud bo‘lgan. Ko‘chma ombor qur deb atalgan bo‘lib [14:280], unda zahira qurollar ham bo‘lgan. Manbalarda qurning muhofazasi uchun alohida ahamiyat berilganligi va uning javobgarligi qurchi yoki qurboshi deb atalgan mansab egasiga birlashtirilganligi aytiladi [13:335].

Qal‘alar qamal qilinishi jarayonida bel kurak (devor tagidan lahm qazish uchun), bir necha ming ko‘zalar (neft to‘ldirib otish yoki lahm tagiga joylab, portlatish uchun), echki va qo‘y terisidan qilingan sollar (daryolardan suzib o‘tish uchun), har xil kattalikdagi shoti (narvon – qal‘a devoriga chiqish uchun), pishgan g‘ishtlar (sahrolarga tushilganda sardobalar qurish uchun), jang boshlanishi yoki qo‘shinni orqaga qaytarishni ma‘lum qilish vazifalarini bajaradigan musiqa asboblari (karnay, surnay, dovul, nog‘ora) [13:188, 231, 232, 292, 293] va boshqa yordamchi harbiy aslahalardan foydalanish bevosita askarlarning zimmasidagi vazifa bo‘lgan.

Qal‘alarni qamal qilib egallash jarayonida shotilarning ahamiyati katta bo‘lgan. Qal‘alarning ichki qismiga kirib olish uchun shoti va ulama narvonlardan (biri biriga ulab, uzunlashtirilgan narvonlar) foydalanilgan [13: 135, 346]. Har bir shoti 2-3 kishi yonma-yon chiqa oladigan darajadagi

kenglikda bo'lgan [4:83]. Qo'shinda shotilarning soni ham ko'p bo'lib, bir manbada, 60-65 shoti qo'yib, qal'a devoriga chiqilganligi aytiladi [12:143]. Bu holat qal'a devorini shiddat bilan egallash imkonini oshirgan.

Qo'shin ortida doimiy ravishda ug'ruq – xon va sultonlarning oila a'zolari va ularning anjomlari, shuningdek, zarur zaxira ortilgan maxsus karvon yurgan bo'lib [14:10], ularni qo'riqlaydigan alohida harbiy qism ham mavjud bo'lgan. Ug'ruqda chodir, saroparda (xon chodiridagi katta parda, u chodirni ikkiga bo'lishda qo'llanilgan) va xon hamda uning oilasi uchun mo'ljallangan turli asbob-uskunalar bo'lgan.

Yurish chog'ida duch kelinadigan daryolardan kechuv sol va gupsarlardan foydalanilgan holda amalga oshirilgan [14:20]. Gupsar – damlangan mesh bo'lib, u ko'pincha echki terisidan qilingan. Qurol-aslahalar esa kigizga o'ralib, ot dumiga bog'lagan holda olib o'tilgan [14:23]. Qo'shinda bu vazifaga jolabon [4:188] deb ataladigan solchi mas'ul bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, XVI asrda Buxoro xonligi qo'shinida harbiy qurollarning 30 dan ortiq turi mavjud bo'lgan va qo'shin to'la-to'kis harbiy aslahalar bilan ta'minlangan. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, askarlarning deyarli hammasida xanjar va o'q-yoy mavjud bo'lgan hamda ulardan foydalanish yaxshi o'zlashtirilgan. Tez-tez uyushtiriladigan shikor (ov)larda ham asosan o'q-yoy qo'llanilgan. Aynan shu davrdan boshlab xonlikda o'tochar qurollardan foydalanish boshlandi. Unga qadar mavjud bo'lgan naftandoz, ra'dandozlarning o'rnini to'p va to'fanglar egalladi. Ammo keyingi davrlarda (XVII-XIX) asrlar o'tochar qurollar bilan bog'liq islohotlar izchil davom ettirilmadi. Bunga sabab, harbiy mutaxassislarning yetishmasligi, tabiiy-aniq fanlarning kuchli rivojlanmaganligi, harbiylarning esa murakkab qurollardan ko'ra, o'q-yoy, qilich, nayza, bolta singari an'anaviy qurollarni ishlatish osonligi nuqtaiy nazaridan bu qurollar yanada takomillashtirilmadi. Natijada, XIX asr o'rtalariga kelib Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishlari boshlanishida bu an'ana o'z salbiy ta'sirini namoyon qildi.

Adabiyotlar

1. Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо / Турк тилидан Назарбек Раҳим таржимаси. -Т.: Мумтоз сўз. 2015.
2. Бобурнома. Миниатюралар. / Тузувчи ва сўз боши муаллифлари Х.Сулаймон ва С.Ҳасанов. -Т.: Ўқитувчи НМИУ, 2008.
3. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. /Перевод с английского Ю.В. Готье / Английские путешественники в Московском государстве в XVI в.–Л.: Полиграфкнига, 1937.
4. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
5. Курьилев В.П. Оружие казахов /Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. Сборник МАЭЛ. 1978.
6. Мукминова Р., Агзамова Г. Ўрта Осиё хонликларида ҳарбий иш / Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. -Тошкент: Шарқ, 2012.
7. Мухаммад Солиҳ. Шайбонийнома.-Т., 1989.
8. Мухаммадиёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-Билод. Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи И.Бекжонов, Д.Сангилова. -Т.: Янги аср авлоди, 2009.
9. Сейди Али Раис. Мирьотул мамолик. Таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.Зуннунова. - Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси наштиёти, 1963.
- 10.Таворихи гузида – Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений А.М.Акрамова. -Ташкент «Фан», 1967.
- 11.Фазлаллах ибн Рузбихан Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя). Перевод, предисловие и примечания Р.П. Джалиловой. –М, 1976.
- 12.Ғиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. / Форс тилидан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи И.Бекжонов. – Т.: Шарқ, 2011.
- 13.Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. / Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳақимжонов таржимаси, илмий муаррир, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов – Т.: Шарқ, 1-китоб, 1999.
- 14.Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. / Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳақимжонов таржимаси, илмий муаррир, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов – Т.: Шарқ, 2-китоб, 2000.

UDK: 94(575.1) A-15

AMUDARYO BO'LIMIDA (VILOYATIDA) TASHKIL ETILGAN AYRIM JAZO ORGANLARI FAOLIYATIGA DOIR (XX ASRNING 20-YILLARI)**Abdullayev A.***Nukus davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 20 yillarida Amudaryo bo'limida (viloyatida) tashkil etilgan ayrim jazo organlari haqida so'z yuritiladi. Asosan Adliya xalq komissariati va viloyat adliya bo'limi qoshida tashkil etilgan Taqsimlovchi komissiyasi hamda viloyat bol'sheviklar partiya tomonidan olib borilgan partiya sudlari faoliyati o'rganilgan. Turkistonda, shuningdek, Amudaryo bo'limida (viloyatida) ushbu jazo organlarining tashkil etilish jarayoni arxiv hujjatlari asosida o'rganilgan. Amudaryo viloyatida sobiq mustabid tuzum olib borgan qatag'on siyosati faktlar asosida ochib berilgan. Sobiq sovet tuzumi tomonidan o'lka xalqlarini bo'ysundirish uchun tizimli ish olib borilganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar:Turkiston, Amudaryo bo'limi, viloyat, Adliya xalq komissariati, Taqsimlovchi komissiyalar, partiya sudlari.

О некоторых аспектах деятельности карательных органов в Амударьинском отделе (области) (20-годах XX века)

Аннотация. В данной статье говорится о создании и деятельности некоторых карательных органов в Амударьинском регионе в 20-х годах XX века. В основном изучается работа Распределительных комиссии, созданные при Республиканском и областном Народном комиссариате юстиции, также Партийных судов партии большевиков. Деятельность этих карательных органов изучена на основе архивных материалов. Также, раскрыта на основе фактов репрессивная политика советского режима. Уделяется особое внимание системной работе советской власти на местах.

Ключевые слова:Туркестан, Амударинский отдел, область, Народный комиссариат юстиции, распределительные комиссии, партийные судьи.

About some aspects of activity of punitive bodies in Amudarya region (the twenties of the XX- century)

Abstract. The article deals with the formation and activity of some punitive bodies in Amudarya region in the twenties of the XX-th century. The work of distributive committee formed under republican and regional people's commissariat of justice and Party courts of Bolshevik parties are basically studied in the article. The activity of these punitive bodies is studied on the basis of archive materials. The repressive policy of the Soviet regime was disclosed on the basis of facts. A special attention is devoted to the systemic work of the Soviet power in places.

Keywords: Turkestan, Amudarya region, people's commissariat of justice, distributive committee, Party courts

O'lka tarixida XX asrning 20- yillari mahalliy aholi uchun tahlikali, ziddiyatlarga to'la davr hisoblanadi. «Markaz»ning dekret va qarorlari asosida Amudaryo bo'limida sovet hokimiyatiga xos boshqaruvni takomillashtirish, aholini bo'ysundirish, sovetcha yashashga ko'ndirish uchun insonga qarshi jinoyatning dastlabki jazo va ayblovlari organlari - Favqulodda komissiyalar, Davlat siyosiy boshqarmasi, Inqilobiy tribunallar, Adliya bo'limi qoshidagi Jazo bo'limlari va uning tarkibidagi Taqsimlash komissiyalari, partiya sudlari, o'rtoqlik sudlari hamda boshqalar tashkil etilgan.

Ahvol shu darajaga yetganki, xalq sudlari va ular qoshidagi tergov komissiyalari, inqilobiy tribunallar va ular qoshida favqulodda komissiyalar tashkil etilishiga qaramasdan hokimiyat organlari hamda ayrim shaxslarning qamoqqa olishga huquqi bo'lmasa ham o'zboshimchalik bilan odamlarni ommaviy ravishda qamoqqa olish bilan shug'ullangan, qamoqxonalar to'lib ketgan[1].

1919 - yil 7 - fevralda Amudaryo soldat, ishchi va dehqon deputatlari Soveti Ijroiyo qo'mitasida Pamshev raisligida, Chanchikov kotibligida A.Paradiyev, Grudinin, Luk`yanov, Piotrkovskiy, Zazulin, X.Yaugasharov ishtirokida Petro-Aleksandrovsk turmaxonasida qamalanganlar sonining ko'payib ketayotganligi, turmaxonada bo'sh kameralarning yo'qligi, harbiy bo'lim gauptvaxtasi uchun – harbiy

xizmatchilarni qamoqda saqlash uchun maxsus joy umuman yetishmayotganligi va bu haqda «Markaz»ga xabar berish zarurligi masalasi qarab chiqilgan[2]. Masala respublika darajasiga olib chiqilgan.

Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Sovetida[3] 1919 - yil 12 - mayda Adliya Komissariatining «Qamoqqa olishni amalga oshirish tartiblari haqida»gi Nizomi o'rganilgan. 27 - mayda esa, Turkiston Respublikasi Sovetlarining Markaziy ijroiyo qo'mitasining adliya bo'limi bo'yicha 151-sonli buyrug'i ham ushbu masalaga bag'ishlangan.

Ushbu buyruqda asosan Favqulodda komissiyalar, Xalq sudlari va xalq sudlari qoshidagi tergov komissiyalari, Inqilobiy tribunallar, shuningdek, Militsiya tergov qilishga, ma'muriy jarima to'latishga yoki qamoqqa olishga ruxsat bersagina amalga oshirishi mumkinligi qayd etilgan[4].

Ma'muriy qamoq yoki jarima undirish «ma'muriy qamoq va jarima undirish haqidagi alohida nizom» bo'yicha amalga oshirila boshlangan. Har bir qamoqqa olganlik haqida militsiya mahalliy deputatlar Sovetining Adliya komissariatiga qamoqqa olinganlik haqidagi qaror nusxasini berish bilan xabar berishi kerak bo'lgan. Qamoqxonaga qamoqqa olingan odam yuborilganda nima sababdan qamalganligi, gumon qilinayotganligi haqidagi aniq sabablari ko'rsatilgan qaror bilan yuborilishi ta'kidlangan. Agar qaror bo'lmasa bironta qamoqxonada odamni qamoqqa olishga haqqi yo'qligi ham ko'rsatilgan. Yuqorida ko'rsatilgan organlar qamoqqa olish kerak bo'lgan odamni ushlagandan keyin 2 soatdan kechiktirmay tegishli sud idorasiga barcha tegishli materiallar bilan topshirishi shartligi ko'rsatilgan. Agar qo'lga olingan odam 24 soat ichida so'roq qilinmasa, qamoqxonada boshlig'i ushbu qamoqni amalga oshirgan idoraga va mahalliy adliya bo'limiga zudlik bilan xabar berishga majburligi aytilgan[5].

Mazkur buyruq 1919 - yil 7 - iyulda Amudaryo bo'limining Birinchi uchastkasi xalq sudida o'rganib chiqilgan[6]. Ushbu buyruqning 9 bandida «Inqilobiy tribunal va xalq sudlari barcha qamoqxonalardagi tartiblarning qonunan bajarilishlari shartligi ko'rsatilgan»[7].

Shuningdek, Turkiston Respublikasi Adliya xalq komissariati 1921 - yil 28 - mayda N 13/9 raqamli qaror va 26 paragrafdan iborat Nizomi qabul qilgan. Unga asosan Adliya xalq komissariati va viloyat Adliya bo'limi qoshidagi Jazo bo'limlari tarkibida Taqsimlovchi komissiya tashkil etilgan. Taqsimlovchi komissiya sud tomonidan jinoyatchilarga berilgan jazo turiga qarab qamoqxonada va kameralarga taqsimlagan. Viloyatlardagi Jazo bo'limlari qoshidagi taqsimlovchi komissiya a'zolarini viloyat ijroiyo qo'mitasi tasdiqlagan[8].

Taqsimlovchi komissiya haftasiga bir marta majlis o'tkazgan. Majlisda kamida 5 odamdan kam qatnashmasligi, 2/3 ovoz bilan qarorlari tasdiqlangan va o'z devonxonasiga ega bo'lgan. Komissiya sud hukmi bilan qamalganlarning kelib chiqishi, sharoiti, sog'ligi va psixik holatini tekshiruvdan o'tkazgan.

To'plangan faktlarga asoslanib a) umumiy qamoqxonaga; b) reformatoriyaga[9]; v) dehqonchilik qishloqlariga; g) sinovchi muassasaga; d) jazolash-davolash muassasalariga; e) qamoqxonada tashqarisidagi erkinlik muassasasiga; j) alohida qamoqxonaga (izolyatorlarga), agar b, v, g, d, j punktlar bo'lmasa «alohida umumiy bo'lim» qamoqxonasida saqlangan. Agar komissiya, «qamoqdagi odam ta'sir etish me'yorlari va axloq tuzatishga muhtoj emas»ligi haqida xulosa bersa xalq sudi yoki inqilobiy tribunalgaga muddatidan oldin yoki shartli muddatidan oldin qamoqdan chiqarish mumkinligi haqida yozma ravishda xulosa bergan. Agar mahbus sababsiz ishlashdan bosh tortsa shu oydan boshlab komissiya xalq sudi yoki revolyutsion tribunalgaga qamoq muddatini cho'zish haqida rasmiy iltimos qilishi mumkinligi aytilgan[10].

Sud hukmining ijrosini nazorat qilish va rahbarlik Adliya xalq komissarining ahloq tuzatish mehnat bo'limiga yuklangan. Sud idoralari, inqilobiy tribunal va boshqa mahbus haqidagi komissiya qarori bilan ishni olgandan keyin 2 hafta ichida asoslangan qaror bilan yana taqsimlash komissiyasiga qaytargan[11].

Taqsimlash komissiyasining reestr ro'yxatga olish daftari yuritilgan. Unga mahbusning muddatidan oldin ozod etilganligi yoki ozodlikdan mahrum etmasdan majburiy mehnatga yuborilganligi haqida ma'lumot yozilgan[12].

1922 - yili 2 - dekabrda Oliy tribunalning 32243 sonli xatiga asosan qattiq yakalab, ajratib qo'yish uchun Butunrossiya markaziy ijroiyo qo'mita roziligini olish talab qilinmasligi haqidagi ko'rsatmasidan keyin Taqsimlash komissiyasining qarori bilan mahbusni boshqa axloqi

tuzatilayotganlar turkumiga o'tkazish mumkin bo'lgan. Ammo, qattiq yakkalab qo'yishni bekor qilish masalasi faqat Markaziy taqsimlash komissiyasi ruxsatidan keyingina amalga oshirilgan[13].

Sud hukmining ijrosini nazorat qilish va rahbarlik Adliya xalq komissarining axloq tuzatish mehnat bo'limiga yuklangan. Jazolash turlariga: RSFSR hududidan ma'lum muddatga yoki muddatsiz badarg'a qilish; Qattiq yakkalab qo'yish yoki usiz ozodlikdan mahrum qilish; Posbonlarsiz majburiy mehnatga jalb qilish; Shartli jazo berish; Mol mulkini to'liq yoki qisman musodara qilish; Jarima solish; Huquqiga shikast yetkazish; Amaldan bo'shatish; Jamoatchilik tanbehini berish; Zararkunandalikka chek qo'yish vazifasini yuklash kabilar kirgan.

Ma'lumotlar har oyning 5-kunidan kechikmagan holda Adliya xalq komissariati qoshidagi Axloq tuzatish mehnat bo'limining taqsimlash komissiyasiga yuborilgan[14].

1923 yil 23, 25 noyabrda Amudaryo viloyati sudining raisi M.E.Blinov, Batirbekova, Pavlushko, kotib N.Ye.Skachkova ishtirokida viloyat Taqsimlovchi komissiyasining muddatidan oldin qamoqdan ozod qilish yoki qilmaslik haqidagi bayonnomalari ko'rib chiqilgan[15]. Sovet hokimiyatining har xil siyosiy jazo organlaridan tashqari, kommunistik partiya ham aholi ustidan shu darajada nazoratni kuchaytirganki, hatto o'z sudlarini tashkil qilgan. Natijada, Amudaryo bo'limida partiya sudi ham faoliyat yuritgan. Qoraqalpog'iston partiya qo'mitasi qoshida viloyat nazorat komissiyasi tashkil etilgan va partiya sudlari amaliyotga kiritilgan va uning faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot tayyorlab, tahlil yuritgan. Partiya nazorat komissiyasining sud tizimi organlari bilan munosabati «yaxshi» yo'lga qo'yilgan. Sud jazo organlari tomonidan partiya a'zosining ustidan jinoiy ish qo'zg'atilsa, darhol viloyat partiya nazorat komissiyasiga o'z xulosasi haqida xabar bergan. Chimboy uezdi To'rtko'l shahridan 250 vyorst uzoqda joylashgan[16]. 1923 - yil fevraldan may oyigacha, ya'ni to'rt oyda 7 majlisda 150 ga yaqin ish, 33 masala nazorat komissiyasi sudida qarab chiqilgan. Shundan bitta odam javobgarlikka tortilgan. Nazorat komissiyasi «kommunist emas unsurlar» bilan tizimli ravishda ish olib borgan[17].

1923 - yil 23 - fevralda Amudaryo viloyat-shahar kompartiyasining ijroi byurosining majlisida viloyat kommunistik partiyasining nazorat komissiyasining bayonnomalari qarab chiqilgan. Bayonnomalarda: Qazibagarov komissiya a'zosi bo'la turib, odamlarni xo'rlagani, haqoratlagani uchun uni markaziy nazorat komissiyasi va partiya a'zolidan chiqarish markaziy nazorat komissiyasidan so'ralgan; Isayev «inqilobiy» tribunal tomonidan ishi yuzasidan aybdor deb topilib, qamoqqa olingan, uning aybi bir yoqli bo'lmagunicha partiya a'zolidan vaqtincha chiqarish kerakligi aytilgan; 53-son bilan qo'zg'atilgan «ayblov ishi» «sinfy ko'z qarash»ga oid bo'lib, boylar va savdogarlar bilan yaqinlashganligi tasdiqlanmaganligi uchun partiya safida qoldirilgan va ish harakatdan to'xtatilgan[18].

1924 - yil 3 - yanvarda O'rta Osiyoning milliy-hududiy bo'linishi masalasi ko'tarilganda, tashviqot mavsumida viloyat kompartiyasi qo'mitasining ko'rsatmasini bajarmaganligi uchun, 1922 yildan partiya a'zosi hisoblangan Kubenov Dusunbetga qattiq hayfsan, 1919 yildan partiya a'zosi E.Djamankoziyevga qattiq xayfsan berilgan. 1923 yildan boshlab partiya a'zosi hisoblangan Chimboy ijroi qo'mitasi raisi Kulimjayevning ishi nazoratda qoldirilgan[19].

Xullas, Amudaryo viloyat nazorat komissiyasi har oyda hisobot berib turgan. 1923 yil fevral oyida 5 marta sud majlisi o'tkazilgan va unda jinoyatning 9 turi bo'yicha 25 masala qarab chiqilgan. Ular yakkahokimlik, o'z lavozimidan foydalanishlik, poraxo'rlik, aholini butun Rossiya bo'yicha ro'yxatga olish jarayonida ro'yxatga olinmay qolganlik, ya'ni tartib me'yorini buzganlar, o'g'rilik, apellyatsiya, ishga ma'suliyatsizlik bilan qarash, savdogarlik, mastlik va tartibsizlik, ma'naviy axloqsizlik kabilar bo'yicha jazolanganlar. Nazorat komissiyasi qarorlarining turlari quyidagi mazmunda bo'lgan: vaqtincha jinoiy ish harakatdan to'xtatilsin; shartli ravishda partiya safidan chiqarilsin; shartli ravishda partiya safidan ikki oyga chiqarilsin; partiya safidan chiqarilib ishi sudga oshirilsin; qattiq hayfsan e'lon qilinsin; partiya safiga qayta tiklansin va aybsiz deb topilsin kabi[20] qarorlar bayon etilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sobiq sovet hokimiyati tomonidan tashkil etilgan jazo organlari fuqarolarni ommaviy ravishda kamsitish, sovetlarga qarshi guruhlarini yo'q qilish, ko'chirish, badarg'a qilish, turmaxonalar va konslagerlar tashkil etish kabilar bilan shug'ullangan bo'lsa, yakka hokim viloyat kommunistik (bol'sheviklar) partiyasi o'z sudini tashkil etgan. Sovetlarning sinfiylik nazariyasi amalga oshirilgan.

Adabiyotlar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. 113-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 1-varaq. (Bundan keyin QRMDA)
2. QRMDA. 12-jamg'arma, 1-ro'yxat, 32-yig'ma jild, 13-varaq; 13-yig'ma jild, 21-varaq.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. 23-jamg'arma, 1-ro'yxat, 144-yig'ma jild, 422-o-varaq.
4. QRMDA. 113-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 1-varaq.
5. QRMDA. 113-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 1, 1-varaq orqasi.
6. QRMDA. 113-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 3, 3-varaq orqasi.
7. QRMDA. 113-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 3, 3-varaq orqasi.
8. QRMDA. 12-jamg'arma, 2-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 2, 2-varaqning orqasi, 3-varaq.
9. Reformatoriya- yoshlar uchun alohida axloq tuzatish bo'limi. 1918-1919 yillarda faqat 11 oy amal qilgan. // См.: Энциклопедия. Объед. редакция МВД России, Москва. «Олма-пресс», 2002.
10. QRMDA. 12-jamg'arma, 2-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 2, 2-varaqning orqasi, 3-varaq.
11. QRMDA. 12-jamg'arma, 2-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 2, 2-varaqning orqasi, 3-varaq.
12. QRMDA. 12-jamg'arma, 2-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 9, 10-13-varaqlar.
13. QRMDA. 12-jamg'arma, 2-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 6-varaq.
14. QRMDA. 12-jamg'arma, 2-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 7, 9, 10-varaq.
15. QRMDA. 67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 6, 21-varaq.
16. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Arxivi. 501-jamg'arma, 2-ro'yhat, 14-yig'ma jild, 4-varaq. (Bundan keyin QRJKA)
17. QRJKA 501-jamg'arma, 2-ro'yhat, 14-yig'ma jild, 24, 26-varaqlar. 18. QRJKA. 501-jamg'arma, 2-ro'yhat, 14-yig'ma jild, 4-varaq.
18. QRJKA. 501-jamg'arma, 3-ro'yhat, 7-yig'ma jild, 5-varaq.
19. QRJKA. 501-jamg'arma, 2-ro'yhat, 14-yig'ma jild, 26, 27-varaqlar

UDK: 351.743

DND YOKI KO'NGILLI POSBONLAR TARIXIDAN

Qodirov Q.

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sobiq Ittifoq davrida jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jamoat tartibini saqlashda militsiya organlariga ko'mak va yordam bergan ko'ngilli drujinachilarning tarixi, olib borgan ish faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tarix, militsiya, ko'ngilli posbonlar, jamoat tartibini saqlash, hamkorlik, jinoyatchilikka qarshi kurash.

Из истории добровольно народных дружин ДНД

Аннотация: В данной статье освещается история и деятельность добровольных народных дружин, оказавших содействие и помощь органам милиции в борьбе с преступностью и охране общественного порядка в период бывшего Союза.

Ключевые слова: история, милиция, добровольные дружинники, охрана общественного порядка, сотрудничество, борьба с преступностью.

From the history of public volunteer bodyguards (PVB)

Abstract: In this article it is illuminated the fight against crime in the period of the Soviet Union as well as assistance to the police in order to keep public discipline and the history and work of volunteer bodyguards who helped.

Keywords: history, police, volunteer, bodyguards, keep public discipline, cooperation, fight against crime.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy davlatchilikning jahon andozalariga mos keladigan, eng ilg'or tajribalar asosida vujudga kelgan zamonaviy yangiliklar amalga oshirila boshlandi. O'tkazilgan islohotlar natijasida jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida ichki ishlar idoralari qayta

shakllandi va takomillashdi. Bugungi kunda mazkur tizimga jamoat yordami sifatida mahalla posbonlari birlashtirildi. Umuman olganda mazkur jarayon tarixda “ko‘ngilli posbonlar” faoliyati bilan yaqin bo‘lsada biroq, xizmat nuqtaiy nazaridan mutlaqo boshqadir.

Ko‘ngilli posbonlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1959 yil 12 fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va respublika Ministrlar Soveti “Ichkilikbozlikka qarshi kurashni kuchaytirish va o‘tkir spirtli ichimliklar bilan savdo qilishda tartib o‘rnatish to‘g‘risida” qaror qabul qildi [2:168].

Qarorda ichkilikbozlik qoralanib, partiya va sovet organlaridan, jamoat tashkilotlari va mehnatkashlar jamoalaridan ichkilikbozlikka qarshi tadbirlar o‘tkazish talab qilingan edi.

Mazkur qaror militsiya organlarini ichkilikbozlikka qarshi kurash vositalari bilan qurollantirdi. Sobiq KPSS Markaziy Komiteti bilan SSSR Ministrlar Soveti mehnatkashlarning jamoat tartibini muhofaza qilishdagi ishtirokining yangi tashkiliy shaklini rivojlantirishga har tomonlama yordam berib, 1959 - yil 2 - martda “Mehnatkashlarning mamlakatda jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki to‘g‘risida” qaror qabul qildi [2:177].

Mazkur qarorga asosan, shu yildan boshlab militsiyaga “yordamlashish brigadalari” tashkil etilib jinoyatchilarni qidirib topishga, kissavurlik va velosiped olib qochish kabi hollarga qarshi kurashga, shuningdek, port, vokzal, aeroport, istirohat bog‘lari va jamoat joylarda ommaviy tadbirlar o‘tkazish jarayonlariga keng jalb etila boshlandi. Ayrim viloyatlarda militsiyaga yordamlashish brigadalari sotsialistik mulkni muhofaza qilish bo‘yicha doimiy ish olib boruvchi komissiyalar qilib qayta tashkil etildi.

Ittifoqdosh respublikalarda mahalliy shart-sharoitlarni e‘tiborga olib turib jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ko‘ngilli xalq drujinalari tog‘risida nizomlar ishlab chiqildi [3].

Bu nizomlar mazkur ommaviy jamoat tashkilotlarini tashkil etishning va ular faoliyatining huquqiy asosi bo‘lib qoldi. Nizomlarda ko‘ngilli xalq drujinalari ilg‘or ishchilar, xizmatchilar, kolozochilar, studentlar va pensionerlardan tashkil etilishi ko‘rsatib o‘tildi. Huquqlar buzilishining oldini olish, har tomonlama tarbiyaviy ish olib borish ular faoliyatining asosiy mezonini qilib belgilandi.

Drujinachilar o‘z xizmat vazifalarini bajarishga kirishishdan oldin qo‘liga “DND” (Dobrovolnaya narodnaya drujina – ko‘ngilli xalq drujinasi) deb yozilgan qizil lenta, hamda ko‘kragiga “Xalqdrujinachisi” degan nishon taqishardi. Ular jamoat joylarida navbatchilik, ko‘chalarda patrullik qildilar, bezorilik, chayqovchilik, nazoratsizlikka qarshi kurash bo‘yicha reydlarda qatnashdilar. Mamlakat fuqarolarining osoyishta yashashlari, ishlashlari, dam olishlariga xalaqit berayotganlarga qarshi faol kurash olib bordilar.

Tarixga nazar tashlab, “Halq drujinachisi” – degan nomga e‘tibor berilsa, sobiq sovet hokimiyati uchun qo‘lida qurol bilan barrikadalarda revolutsion kurash olib borgan kishilardan qolgan. Ittifoqda sovet hokimiyati o‘rnatilgan vaqtdan boshlab, tartibni qo‘riqlashda jamoatchilik hamisha ishtirok etib kelgan. 1918- yildayoq fabrika va zavodlarda jamoat tartibini ta‘minlash uchun militsiyaga yordam ko‘rsatish otryadlari tuzila boshladi. Ular ishchi drujinalari deb atala boshladi. Kommunistlar, komsomollar, partiyasiz ilg‘or ishchilar drujinaga kirgandilar. Ana shu jamoatchilikning ilk otryadlari yangi davrda ko‘ngilli xalq drujinalari uchun namuna bo‘ldi.

Manbalarga tayanganda 1961-1970 - yillarda Butunittifoq bo‘yicha ko‘ngilli drujinachilar soni 14 millionga etganini ko‘rish mumkin [4:76].

Birgina 1965 - yilda Ittifoqda 4,5 millionga yaqin bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatgich 4,700 dan ortiq ko‘ngilli xalq drujinasi, 110 mingdan ortiq drujinachilar faoliyat olib borganlar [5].

1966 - yil 26 - iyulda SSSR Oliy Sovet Prezidiumining “Bezorilik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi [6].

Mazkur farmondan “Mamlakatda jinoyat va tartib buzishlarga o‘rin bo‘lmasligi hamda fuqarolarning mehnati va dam olishiga hech narsa halal bermaslik kerak” degan maqsad ko‘zlangan edi.

Shundan so‘ng Ittifoq va boshqa respublika do‘konlarida spirtli ichimliklarni sotish taqiqlandi, ayrim joylarda vaqti chegaralandi. Masalan, Toshkent shahri aholisi orasida ichkilikbozlikning oldini olish maqsadida spirtli ichimliklarni sotish vaqti cheklab qo‘yildi. Shunga qaramasdan drujinachilarning sa‘yi-harakatlari bilan 1966 - yilning ohiriga kelib militsiya bo‘limlariga va tibbiyot hushyorhonalari keltirilgan shaxslar miqdori ancha kamaydi. Kelganlarni esa ro‘yxatga olinib,

kasblarini hisobga olgan holda ko'chalar, hovlilar, jamoatchilik joylarni tozalashda, qurilishlarda bepul ishlab berish majburiyati yuklatildi.

Shuningdek, militsiya bo'limlari tomonidan bezorilik qilgan shahslarni o'n besh sutkaga qamab qo'yish joriy etildi. Kamerada saqlangan shaxsga militsiya organlari tomonidan ko'rpa-to'shak, sigaret chekish, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga ruxsat berilmay, ularga mazkur davr uchun ish joyidan ish haqi to'lanmasligi, militsiya organlari tomonidan beriladigan oziq-ovqat va saqlab turilganlik haqi undirib olish farmonida belgilandi.

Jazo muddatini o'tashdan bosh tortgan yoki belgilangan rejimni qo'pol ravishda buzgan shaxslarga militsiya organlarining tavsianomasiga muvofiq, sudya mazkur tartib buzuvchining qamoqda bo'lish muddatini o'ttiz sutkagacha uzaytirishi mumkinligi farmonda qayd etilgan edi.

Mazkur farmon drujinachilarning ish faoliyati yanada jadallashtirdi. Militsiya bo'limlari qoshida drujinachilarning markazlashgan shtabi joriy etildi. Unda rayon rahbarlari ko'ngilli drujinachilarga tezkor mahorat asoslarini, yangi qabul qilingan qonun hujjatlarning mazmun mohiyatini tushuntira borish bilan birga, qo'l jangi, sambo usullarini o'rgatishni tashkil etdilar.

Endilikda drujinachilar jinoyatchilar, bezorilar, ichkilikbozlar, to'polonchilarga qarshi kurashish bilan birga, militsiya xodimlari bilan hamkorlikda pasport rejimiga rioya etish jarayonida qatnasha boshladilar. Sotsialistik mol-mulkni talon-taroj qilishga qarshi kurash olib bordilar, oilaviy nizolarni hal etishda ishtirok etdilar.

Shu davrda sobiq KPSS Markaziy Komiteti, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi va SSSR Ministrlar Sovetining o'tkazgan yig'ilishlarining qarorlarida "Asosiy kuch jamoat joylaridagi bezorilik ko'rinishlarining oldini olishga qaratilishi kerakligi" ta'kidlanib borildi. Bu borada ko'ngilli halq drujinasining faoliyatini yanada takomillashtirish ularning saflariga g'ayratli, jasur, dovyrak, tashabbuskor yigit-qizlarni jalb etish to'g'risida fikrlar yuritildi.

Shundan so'ng, yildan yil ko'ngilli drujinachilar soni oshib boraverdi. 1966 - yilning oxiriga kelib, Toshkent to'qimachilik kombinatida "Uchqun", "Yulduz" firmalarining kanop fabrikasi xotin-qizlar jamoasidan 200 ga yaqini, Toshkent xalq xo'jaligi instituti talabalaridan 400 ga yaqin, fizkultura institutida 900 dan oshiq, Toshkent Meditsina institutida (Sanitariya fakultetida: 300 ta, stomatologiya fakultetida: 250 ta, pediatriya fakultetida 350 ta) 900 dan oshiq ko'ngilli drujinachilar faoliyat olib bordilar. Endi ular "Bugungi kunda bizga kim xalaqit berayapti", "Satira", "Komsomol projektori", "Boks" (Boyevoe okno komsomolskoy satiri) nomli hajviy oynomlar nashr ettirishdi, "Teleqidiruv" ko'rsatuvlarida ishtirok eta boshladilar, muntazam ravishda "Jamoat tartibini saqlash kunlari"ni o'tkazib turishdi [1].

Shu yillarda SSSR Jamoat tartibini saqlash ministrligi tomonidan "Namunali drujinnik" ko'krak nishoni ta'xis etildi va jamoat tartibini saqlashda faol yosh yigit - qizlar mazkur nishon bilan taqdirlanib borildi [7].

Drujinachilar tashabbuslari bilan ommaviy tadbirlar o'tkazish vaqtida korxonalar, tashkilotlar, zavodlar, o'quv yurtlari, maktablar, muassasalarda yig'ilishlar o'tkazib bordilar. Unda partiya, hukumatning jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan qarorlari bilan targ'ibot, ma'ruzalar, suhbatlarni tashkillashtirdilar.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida ichki ishlar idoralari va ularga ko'mak beruvchi posbonlar faoliyati tarixini o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Mazkur tizimda o'tkazilayotgan islohotlar va o'zgarishlar dastlab mamlakat tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, "kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" tamoyilini bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Дружиначиларга эътиборни кучайтирайлик. "Постда" газетаси. 1967 йил 14 январ.
2. История Советской милиции. Т.2. М. -1977.
3. Указ Президиума Верховного Совета СССР «Об основной обязанностях и правах добровольных народных дружин по охране общественного порядка» - Ведомости Верховного Совета СССР, 1974, № 22. ст. 326.
4. Веремеенко И.И. Оперативные отряды добровольных народных дружин. М., 1977.
5. "Постда" газетаси. 1965 йил 18 октябр.
6. "Постда" газетаси. 1966 йил 28 июл.
7. "Постда" газетаси. 1967йил 23 май.

UDK: 39 (575.1) 398.2 (575.152)

ETNOGRAFIK BILIMLARNING XALQ DOSTONLARIDA AKS ETISH JARAYONINI O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI (XX asrning 20 - 90 - yillari misolida)

Norbo'tayev P.P.

Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar"

E-mail: parda_1981@inbox.uz, qashqadaryo_moi@xtv.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada etnografik bilimlarining xalq dostonlarida aks etishi jarayonining o'rganilish tarixshunosligi masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: etnos, folklor, epos, baxshi, etnik komponent, qo'ng'iroq, qalmoq.

Историография изучения процесса отражений этнографических знаний на национальные легенды

Аннотация. В данной статье анализируется историография изучения вопроса отражения в народных дастанах этнографических знаний 20-90-х годов XX века.

Ключевые слова: этнос, фольклор, эпос, башши, этнический компонент, кунграт, калмик.

Historiography of studying the process of ethnographic knowledge's reflections on national folk

Abstract. Studying problems of reflection of historiography of ethnographic knowledge in folk dastans from the 20s to the 90s of the XXth century is analyzed in this article.

Key words: ethnos, folklore, the epos, bakhshi, an ethnic component, a Kungrat, a Kalmyk.

XX asrning 20-90 - yillarida xalq dostonlarini to'plash va o'rganish borasida jiddiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, V.M.Jirmunskiy [1], H.Zarifov[2], B.A.Karriyev[3], T.Mirzayev[4], M.Murodov[5], X.Ko'ro'g'li[6], O.Sobirov[7], J.Xoshniyozov[8], A.Qahhorov[9], M.Murodov[10], B.Sarimsoqov[11], N. Qurbonova[12], V.Sokolova[13], B.Putilov[14], I.Moldaboyev[15], R.Qidirbayeva[16], M. Seyidov[17] kabi olimlarning xalq dostonlarini tadqiq etishga qaratilgan ishlarida biz o'rganayotgan mavzuga yaqin ayrim masalalar tahlilga tortilgan edi.

Janubiy O'zbekiston xalq og'zaki ijodini o'rganishga kirishish 1929 - yildan boshlandi. Ikki voqea dostonchiligini ilk bor tadqiq etishga kirishgan folklorshunos H. Zarifov hisoblanadi. U Chiroqchilik Boysari, Rajab baxshilarni, kitoblik Abdulla shoir Nurali o'g'li, boysunlik Xoliyor yuzboshi Abdulkarim o'g'li kabi talantlarni aniqladi, repertuardagi asarlardan namunalarni yozib oldi[18].

XX asrning 40-60 - yillarida yaratilgan V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov ishlarida «Alpomish» dostonida tasvirlangan etnotoponim va etnonimlar bilan bog'liq etnografik materiallar o'rganilgan. Jumladan, «Alpomish» dostonining qo'ng'iroq versiyasi (o'zbek, qoraqalpoq va qozoq) da «qo'ng'iroq» va «qalmoq» etnonimlari turmush tarziga oid hamda unda Alpomish va Barchin 16 (qo'shtamg'ali) urug'li qo'ng'iroq etnik guruhiga mansubligi to'g'risidagi etnografik motivlar talqini folklorshunoslik jihatdangina badiiy tasvirlanadi.

T. Mirzayevning «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» nomli monografiyasida esa, dostonida nikohning qadimiy shakllari-ekzogamiya va «beshikkerti» odati haqidagi lavhalar qayd etilgan. Ishda «Alpomish» dostoni variantlarida nikoh shartlarining aks etish jarayonini tavsiflash yetakchilik qiladi.

O'zbek xalqi etnonimining etimologik va etnik tarkibidagi ayrim qatlamlarning nomlanishi, o'rni va makoni, xullas etnonimik xarakterdagi materiallarning folklor asarlarida aks etishiga doir mulohazalar V. A. Alekseyev, S.Y. Serov, G.G. Stranovich, I. N. Moroz, I. S. Gurvich, V. I. Vasilyev, T.B. Dolgix, V. P. Kobichev, T.D. Zlatkovskaya, R.S. Lipets kabi ixtisoschi olimlarning «Etnicheskaya istoriya i folklor» (M., 1974, Izd-vo "Nauka") nomli ilmiy to'plamda e'lon qilgan maqolalarini, shuningdek P.T. Vashenko, V.V. Popova, S.P. Baldayev, L.YE. Eliasov, M. Seidov va boshqalarning ayrim ishlari[19] fikrimizning dalili bo'la oladi.

Turkiy xalqlar, ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari folklorida ham ushbu masala bilan bog'liq e'tiborli tadqiqotchilar, ilmiy-nazariy va tarixiy-etnografik xarakterdagi maqolalar anchagina uchraydi. Bunday

ishlar sirasiga Y. A. Zuyev, S.M. Abramzon, V.P. Nalivkin, L.P. Potapov, L.S. Tolstova, T.A. Jdanko, A. Djikiyev, A.K. Karriyev, A.A. Raslyakov, S.G. Agadjanov, O. Bekbaulov, X. Yesberganov va boshqa bir qator etnograflar, tarixchi va folklorshunoslar tadqiqotlarini[20] ham kiritish mumkin.

Shuningdek, Janubiy O'zbekiston aholisi xalq og'zaki ijodini o'rganishga intilish 60-yillarning ikkinchi yarmi va 70-yillarda boshlangan. Ayniqsa, 1969 - yil iyul-avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi A. Navoiy nomli Adabiyot muzeyi va Qarshi Davlat pedagogika instituti o'zbek filologiyasi fakulteti o'qituvchi va talabalarining folklor-etnografik ekspeditsiyasi Janubiy O'zbekiston folklorini, xususan dostonchiligini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Folklorshunos olimlar Malik Murodov va Abdimo'min Qahhorov rahbarligidagi bu ekspeditsiya a'zolari:

a) Qarshi – G'uzor – Dehqonobod – Boysun – Sherobod – Angor – Termiz – Jarqo'rg'on – Qumqo'rg'on – Sho'rchi – Denov – Sariysiyo - Tojikiston:

b) Dehqonobod – Kuytan – Chorshangi – Chorjuy – Tallimarjon - Qarshi:

v) Qarshi – Qamashi – Chiroqchi – Yakkabog' – Shahrisabz - Kitob yo'nalishlarida juda katta hududda izlanish olib bordilar[21].

Qashqadaryo-Surxondaryo vohalaridagi dostonchilik jonli jarayonda davom etayotgani, navbatdagi izlanishlarga, monografik tadqiqotlarga olib keldi, bu hududdagi dostonchilik maktablari aniqlandi, ularning tarqalish doirasi o'rganila boshlandi, dastlabki tadqiqotlar yaratildi[22]. Tadqiqotlarda Qashqadaryo-Surxondaryodagi Sherobod, Shahrisabz, Qamay dostonchilik maktablari e'tirof etilgan.

XX asrning 70-yillari oxiri - 80-yillarning boshlarida O. Sobirov tomonidan nashr qilingan «Yozi bilan Zebo» dostonining yig'ma matni[23] da Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi hamda Farg'ona vodiysi, Qirg'izistonning O'sh viloyati O'zgan, Aravon, Olabuqa tumanlari, Qozog'istonning Turkiston shahri atrofidagi qishloqlarda ommalashgan variantlarida chorvador, dehqon va bog'bonlarning turmush tarzi bilan bog'liq ma'lumotlar borligi diqqatga sazovordir.

«Alpomish» dostonining qoraqalpoq variantlarini ilmiy tadqiq etgan J.Xoshniyozovning ishida esa, yuqoridagilardan farqli dostonida tasvirlangan chorvachilik bilan bog'liq lavhalar tarixiy-etnologik jihatdan tahlil qilinadi. Muallifning ta'kidlashicha, «Alpomish» dostonida «kamar» so'zining uchrashi[24] va uning hayvon terisidan tayyorlanganligi, junidan esa kiyim-kechak tikilgani to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Lekin ishda «Alpomish» dostonining qoraqalpoq versiyasida aks etgan etnografik motivlar bo'yicha umumlashma xulosalar chiqarilmagan.

O'zbek folklorining epik janrlari haqidagi kitobda [25] «Alpomish» dostoni haqida fikr yuritilib, Alpomish va uning otalari qo'ng'iroq elining qanjig'ali urug'iga mansubligi ta'kidlanadi. Ammo mazkur ma'lumotlarning tarixiy-etnologik manba asosida ilmiy tahliliga alohida urg'u berilmagan. Ishda Alpomish va Barchin o'rtasidagi nikoh shakli xususida so'z yuritilsa-da, mavzuga oid fikrlarning ilmiy tahlili etnologik jihatdan chuqurlashtirilmagan. Shuningdek, «Go'rug'li» turkumiga kiruvchi dostonlarda ibtidoiy diniy tasavvurlar-totemiz, animizm, fetishizm va shomonizm izlari saqlanganligi dalillangan.

80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarda ham biz tadqiq etayotgan mavzuga yaqin ishlar yaratildi. Masalan, B.Sarimsoqov monografiyasida xalq dostonlarida tavsiflangan mavsumiy marosim va so'z magiyasi bilan bog'liq etnografik materiallar atroflicha yoritiladi.

Xullas, XX asrning 20-90 yillarida o'zbek xalq dostonlari milliy mentalitet va mafkuradan kelib chiqqan holda etnografik masalalarni yorituvchi maxsus tadqiqot obyekti sifatida qaralgan emas. Biroq bu xalq dostonlari o'sha davrda noyob va qimmatli etnografik manba sifatida ilmiy tadqiqotlar doirasidan chetda qoldirildi, degani emas, albatta. Zikr etilgan adabiyotlar o'z mavzulari nuqtaiy nazaridan fundamental tadqiqot hisoblansa-da, aynan biz o'rganayotgan mavzu doirasida bo'lmay, ulardagi fikrlarning folklorshunoslik jihatigina bayon qilingan yoki boshqa mintaqa dostonlari materiallari sifatidagina tadqiqotga jalb etilgan edi.

Adabiyotlar

1. Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. - М., «Полиграфкнига», 1947. – С. 520; Его же. Вопросы генезиса и истории эпического сказания об Алпамыше. – сб.: «Об эпосе Алпамыше», – Т., 1959. – 28 с.; Его же. Народный героический эпос. - М.-Л., Гослитиздат, 1962. – 435 с; Его же. Книга моего

- деда Коркуда. - М.-Л., Изд-во Акад. наук СССР, 1962. – 299 с; Сказание об Алпамыше богатырская сказка. - М.: «Восточный литературы», 1964. – С. 335; Его же. Среднеазиатский народные сказители. - М.: «Наука», 1964. – С. 13; Его же. Тюркский героический эпос. – Л.: «Наука», 1974. – С. 727.
2. Zarifov H. 1916 yil milliy ozodlik qo'zg'olonining o'zbek folklorida aks etishi // Sharq yulduzi, 1946. № 7, 8. – B. 154-166; Yana o'sha. K izucheniya uzbekskogo narodnogo eposa // Voprosi izucheniya eposa narodov SSSR. - M., 1958. – S. 168.
 3. Karriyev B.A. Epicheskiye skazaniya o Ker-ogli u tyurkoyazichnix narodov. – M.: Nauka, 1968. –S.9-44.
 4. Mirzayev T. Alpomish dostonining o'zbek variantlari. – T.: «Fan», 1968. – B. 170; Yana o'sha. «Ochildov» dostoni haqida //O'zbek sovet folklori masalalari. - B. 107-111; Yana o'sha. Xalq baxshilarining epik repertuari. – T.: «Fan», 1979. – B. 151.
 5. Muradov M. Epos «Gor-ogli» – sokrovishnitsa dushi i chayaniy naroda. – Toshkent: O'zbekiston, 1990. – 28.
 6. Korogli X.G. Transformatsiya zaimstvovannogo syujeta / Folklor: poeticheskaya sistema. – M.: Nauka, 1977. – S. 106-125.
 7. Sobirov O. Kelinoy dostoni haqida. «Yozi bilan Zebo», «Kelinoy». – T.: 1962. – B. 66.
 8. Xoshniyazov J. Istoriko-folklornaya xarakteristika karakalpakskey versii eposa «Alpamis». – Nukus, 1978. - S. 193.
 9. Qahhorov A. «Kelinoy» turkumi dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari: Filol. fanlari nomz... diss.: - T., 1972. – B. 177; Yana o'sha. Yangi dostonlar: (Qashqadaryo va Surxondaryo xalq baxshilari repertuarlari asosida). – T.: «Fan», 1985. – B. 75.
 10. Murodov M. Ijod durdonalarini izlab. – T.: «Fan», 1967. – B. 66; Yana o'sha. Sarchashmadan tomchilar. –T.: «G'afur G'ulom», 1984. – B. 144; Yana o'sha. Epos «Gor-ogli» sokrovishnitsa dushi i chayaniy naroda. - T.: «Uzbekistan», I, 1990. – S. 149.
 11. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – T.: «Fan», 1986. – B. 213.
 12. Qurbonova N. O'zbek bolalar marosim folklori: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994;
 13. Sokolova V. Slavyanskiy folklor. - M.: «Izd-vo Akad. nauk SSSR», 1951. – S. 363; Yego je. Russkoye narodno-poeticheskoye tvorchestvo. - M.: «Izd-vo Akad. nauk SSSR», 1953. – S. 224; Yeyo je. Altayskiye geroicheskiy epos. – M.: «Nauka», 1985. – S. 256; Yeyo je. Traditsii i sovremennost v folklore. – M.: «Nauka», 1988. - S. 211.
 14. Putilov B. Prinsipi tekstologicheskogo izucheniya folkloru. – M.-L., «Nauka», 1966. – B. 303; Yego je. Russkiy i yujnoslavyanskiy geroicheskiy epos. – M.: «Nauka», 1971. – S. 315; Yego je. Metodologiya sravnitelno-istoricheskogo izucheniya folkloru. – L.: «Nauka», 1976. – S. 244; Yego je. Geroicheskiy epos i deystvitelnost. – L.: «Nauka», 1988. – B. 233.
 15. Moldobayev I. Epos «Janish i Bayish» kak istoriko-etnograficheskiy istochnik. – Frunze, «Ilim», 1983. – S. 169; Yego je. Otrajeniye etnicheskix svyazey kirgizov v epose «Manas». – Frunze, «Ilim», 1985; - S. 110; Yego je. Epos «Manas» kak istochnik izucheniya duxovnoy-kulturi kirgizskogo naroda. – Frunze, «Ilim», 1989. – S. 148.
 16. Kidirbayeva R. Genezis eposa «Manasa». – Frunze, «Ilim», 1980.– S. 279; Yeyo je. Varianti eposa «Manas», - Frunze, «Ilim», 1988. – S. 159.
 17. Cejidov M. Azerbajchan mifik tefekkurunun gajnaglari. – Baki: Jezichi, 1983. –B. 245-321; Yasha o'sha. Azerbajchan xalginin sojkokunu dushunereken. – Baki: Jezichi, 1989. – B.320.
 18. Jirmunskiy V.M. Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. – M.: 1947. – 33-72, 472.
 19. Qarang, Vashenko P. T., Dolgix B.O. Predaniya o totemicheskix nazvaniyax rodov u nganasan //SE. 1962. № 3; Popova V.V. Predaniye ob uryanxayskix rodax buryat-mongolov na Icheture// Buryatovedeniye. 1927. № 3-4. – S. 82-83; Baldayev S.P. Rodoslovnqe predaniya i legendq buryat. CH. I. Ulan-Ude, 1970; Predaniye o rasseleniya kudarinskix i kabanskix buryat//Izbrannoye. Ulan-Ude, 1961; Eliasov L.YE. Predaniye o rodoslovnix narodov Vostochnoy Sibiri//Baykalskiye predaniY. Ulan-Ude, 1966; Seidov M. Predaniye – legenda chukov (chunoy) i vopros o proisxojdenni osetin//Proisxojdenniye osetinskogo naroda. Ordjonikidze, 1967. – S. 186-187.

20. Qarang: Zuev Y.A. Drevnetyurkskiye genealogicheskiye predaniya kak istochnik po ranney istorii tyurkov. AKD. 1971; Abramzon S.M. Narodniye predaniya kak istochnik dlya izucheniya etnicheskoy istorii kirgizov sentralnogo Tyan-Shanya//Etnicheskaya istoriya narodov Azii. M., 1972; Nalivkin V.N. Predaniye o proisxojdении agalikov//Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva. Kazan, 1886. – S. 23; Tolstova L.S. Danniyе istoricheskogo folklorа i toponimii o proisxojdении etnograficheskoy gruppi «mitan»//Vestnik karakalpakskogo filialа AN UzSSR. 1968. № 2; Jdanko T.A. Istoricheskiy folklor karakalpakov kak istochnik izucheniya etnogeneza i etnokulturnix svyazey etogo naroda//Etnicheskaya istoriya i folklor. M., 1977; Djikiyev A. Narodniye predaniya o proisxojdении turkmen//Problemi etnogenezisa turkmenskogo naroda. Ashxabad, 1977. – S. 121-132; Istoricheskiye rasskazi i predaniya ob etnicheskix protsessax v yujnom Turkestane v XVII-XIX vv//Ocherk etnicheskoy istorii i formirovaniye naseleniya Yujnogo Turkmenstana. Ashxabad. 1977. – S. 112-113; Karriyev A.K., Raslyakov A. A., Agadjanov S.G. Problemi etnogeneza turkmenskogo naroda v istoricheskoy literature//Vsesoyuznoye soveshaniye po etnogenezu turkmenskogo naroda (Tezisi dokladov i nauchnix soobsheniy). Ashxabad, 1967; Karriyev A.K. Literatura i folklor kak istochnik dlya izucheniya etnogeneza turkmenskogo naroda. Tam je; Bekbaulov O. Otnosheniye predaniya ob Ayaxxane k istorii//AmudarY. 1971. № 10. – S. 122; Yesberganov X. Proizvedeniya folklorа i nekotoriye voprosi istorii karakalpakov (XVI-XVIII vv.)//Vestnik Karakalpakskogo filialа AN UzSSR. 1981. № 1.
21. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – T.: “Fan”, 2008. – B. 13.
22. Murodov M Sarchashmadan tomchilar. – T.: “G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1984; Mirzayev T. Xalq shoirlarining epik repertuari. – T.: “Fan”, 1979; Umir shoir Safarov va uning dostonchilikdagi o’rni // O’zbek tili va adabiyoti. – 1984. - № 4; Epos i skazitel. – T.: “Fan”, 2008; Saidov M O’zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – T.: “Fan”, 1969; Qahhorov A. Spetsificheskiye osobennosti sikla dastanov. Kelinoy. dis... kand. filol. nauk. – T.: 1971; Yangi dostonlar. – T.: “Fan”, 1985; Mamashukurov K. Ideyno xudojestvenniye osobennosti sikla dastanov «Nurali». – T.: 1985; Ergashev A. Sherobod dostonchilik maktabi. Filol. fan. nomz. diss. – T.: 1991.
23. Yozi bilan Zebo: Doston. Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi O.Sobirov. - T.: «Yosh gvardiya», 1978.
24. Xoshniyazov J. Istoriko-folklor naya xarakteristika karakalpakskoy versii eposa «Alpamis». – Nukus, 1978. - S. 193.
25. O’zbek folklorining epik janrlari. – T.: «Fan», 1981. – B. 157.

UDK:9:001

MIRZO ULUG‘BEKNING ASTRONOMIYA FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI
Maxmudov T.I.

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ulug‘bek ilmiy maktabi va uning Markaziy Osiyodagi ilm-fan taraqqiyotiga ko‘rsatgan tasiri xususida fikr yuritilgan. Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan madrasalar va ularning ilmiy faoliyati, madrasaning mashxur mudarrislari, rasadxona va undagi olimlar faoliyati va shularning negizida Markaziy Osiyodagi ilmiy yuksalish aspektlari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Madrasa, Mudarris, Markaziy Osiyo, Mirzo Ulug‘bek, Rasatxona, Rioziyot, Handasa, Buxoro Madrasasi, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Al-Koshiy, Tadris, Xonaqox.

Вклад Мирзо Улугбека в развитии астрономии

Аннотация. Данная статья посвящена научной школе Улугбека и её влияние на развитие науки в Центральной Азии. Приводятся сведения о построенных Улугбеком мадрасах. Раскрывается деятельность известных мудрарисов-преподавателей, кроме того имеется материал об обсерватории и ученых которая в нём творили. На основе изучения обширного фактического материала анализируется аспекте научного подъема всей центральной Азии.

Ключевые слова: медресе, мударрис, Центральная Азия, Мирзо Улугбек, обсерватория, астрономия, геометрия, медресе Бухара, Козизода Румий, Гиясиддин ал-Коший, тадриз, ханаках.

Contribution of Mirzo Ulugbek in the development of astronomy

Abstract. This article is devoted to a scientific school of Ulugbek and its influence in developing of science in Central Asia. There is an information about madrasah that were built by Ulugbek. The activity is revealed by famous wisemen- masters, besides there is a material about observatory and scholars, which were created in it. On the face of studying vast actual material is analyzed aspects of scientific raising of all Central Asia.

Keywords: madrasah, teacher, Central Asia, Mirzo Ulugbek, observatory, astronomy, geometry, madrasah Bukhara, Kozizoda Rumiyy, Giyosiddin al-Koshiyy, tadriz, khanakah.

Tarixga nazar tashlasak, ajdodlarimizdan bizga yuksak ma'rifat, ulkan madaniy-ma'naviy meros qolgan, ular bugun ham beqiyos qadr-qimmatga ega. Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak" [1]. Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Sharq - G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan.

Dunyo tamadduni markazlaridan biri bo'lgan Markaziy Osiyoda ilm-fan rivojlanishi ancha qadimgi davrga borib tarqaladi va o'rta asrlarda u o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. O'tmishda Markaziy Osiyoda juda ko'p davlatlar yuzaga kelgan, taraqqiy etgan va vaqti kelib o'z o'rnini boshqa bir sulolaga bo'shatib bergan. Yurtimiz tarixiga doir har bir davlatning taraqqiy etishi erishilgan ilm-fan yutuqlariga bog'liq. Shuning uchun ham ushbu masalani yozma manbalarga asoslanib qiyosiy tahlil etib o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo fani va madaniyati tarixida nihoyatda muhim bosqichni tashkil qiladi. Mirzo Ulug'bek bu davr ilm-fani, madaniyati va ma'rifatining yorqin vakilidir. O'sha davr tarixchisi Davlatshoh Samarqandiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro" ("Shoirilar zikri") asarida "Mirzo Ulug'bek handasa (geometriya) ilmida majastiykusho erdi" [2], - deb ta'kidlaydi. Ulug'bek Qadimgi yunon olimlaridan Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Gipparx (Ibbarxus) va Ptolemiy (Batlimus), Sharq olimlaridan Farobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va Nosiriddin Tusiyning ilmiy merosidagi astronomik tushunchalar bilan tanish edi [3]. U aniq fanlardan ma'ruzalar o'qigan, ilmiy bahslar uyushtirgan, astronomik kuzatishlar olib borgan, astronomiya, matematika va tarixga oid asarlar yozgan. Ulug'bek ilmiy akademiyasi musulmon Sharqi madaniyati va fani tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning rahbarligida shakllangan riyoziyot (matematika) va falakiyot maktabi fan tarixida alohida nufuzga ega bo'ldi [4].

Ulug'bek o'z saltanatida ma'rifat, fan va ta'lim ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, Buxorodagi madrasa eshigiga "Bilim olish har bir musulmon va muslimaning burchidir", degan shiorining bitilganligi buning yaqqol dalilidir. Ulug'bek Mavrounnahrni butun musulmon mamlakatlarining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi.

1417 - yilga kelib Samarqandda yuzdan ziyod olimlar to'plangan [5]. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, musavvirlar, geograflar bor edi. Ulug'bek mamlakatda fanni rivojlantirishni o'z dasturiga ko'ra amalga oshirdi va bu yaxlit fan va ta'lim dasturi edi. Mirzo Ulug'bek "o'zi va maslahatchilari tamonidan ishlab chiqilgan ilmiy dasturni amalga oshirish uchun" [6] ma'lum obyektlarni qurishni rejalashtirgan. Chunonchi hozirgi zamon ta'biri bilan aytganda, ta'lim markazi bo'lmish madrasa laboratoriyasini [7] - rasadxona va kutubxonalar majmui holda bunyod etish, dasturning asosiy elementlaridan bo'ldi. Ayni paytda ta'lim dasturida butun Movraunnahr hududida ilmiy salohiyatni ko'tarishdek katta g'oyani amalga oshirish ko'zda tutilgan va shu maqsadda qator madrasalar barpo etildi.

Buxoro (1417 - y.), Samarqand (1417-1420 - yy.) va G'ijduvon (1433 - y.) shaharlarida o'sha davrning oliy o'quv yurtlari - madrasalarining bunyod etilganligini bunga dalil qilib ko'rsatish mumkin. Keyinchalik Samarqandda Registon deb nom olgan joyda Ulug'bekning madrasasi bilan

yonma-yon Sherdor (1619-1636 - yy.) va Tillakori (1647-1660 - yy.) madrasalari barpo etildi. Madrasalar bunyod etish an'anasi Alisher Navoiy davrida Xurosonda ham davom etdi. Yana shuni alohida qayd qilish zarurki, Buxoro va Samarqand madrasalari XIX asrga qadar o'z vazifalarini bajarib keldi. Tarixiy manbalarga ko'ra Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi ikki qavatli, to'rt burchidagi salobatli to'rt gumbazli, to'rt minorali va har bir xonasi ikkiga ajratilgan bo'lib, unda yuzdan ziyod tolibi ilm ta'lim olgan [8]. Madrasalarda gumanitar va aniq fanlar yo'nalishida turli fanlar o'qitilgan; bilimga qo'yilgan talab nihoyatda yuqori bo'lgan. Buni 1420 yili Samarqanddagi madrasasining ochilishida Muhammad Xavofiyning chuqur mazmunli ma'ruzasini hozir bo'lgan to'qson olimdan faqat Ulug'bek va Qozizoda Rumiylargina tushuna olganligidan ham bilsa bo'ladi [9]. Madrasalar turli o'lkalardan kelgan olimlar maskani ham bo'lgan. Unda Markaziy Osiyoning turli huddudlaridan kelgan tolibu - ilmlarga o'qiladigan ma'ruzalarda bahs munozaralar uyushtirilgan va ilgari yashab o'tgan olimlarning asarlari sharhlanib, tadqiq qilinar edi. Madrasada asosiy ma'ruzalarni Qozizoda Rumiyy, Mirzo Ulug'bek, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, ustoz Ismoil, Movlono Ibrohim, Movlono Badriddini va boshqa olimlar o'qiganlar [10].

Ulug'bek o'zining fan va ta'lim dasturi asosida Samarqanddagi Ko'hak tepaligida o'sha zamon falakiyot ilmining barcha yutuqlarini o'zida mujassam etgan va o'rta asrlar falakiyot ilmining eng yuqori cho'qqisi namunasi bo'lgan hamda Ulug'bek akademiyasining markazi bo'lgan ulkan rasadxona majmuasini bunyod qiladi. Rasadxonada yigirmaga yaqin turli astronomik jihozlar, kutubxona, hisobxonalar mavjud bo'lib, yuzga yaqin xodimlar astronomik tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'lganlar.

Mirzo Ulug'bek 1424-1428-yillarda Samarqandda o'z atrofida to'plangan olimlarning bevosita ishtiroki bilan shahar yaqinidagi Obirahmat anhuri bo'yida rasadxona qurdirtdi. Doira shaklida bino qilingan bu ulkan imoratning aylanasi 47 m, balandligi 31 m bo'lgan. Boburning yozishicha, rasadxona uch qavatli bo'lgan. Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan qoplangan [11]. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, bu oliy imorat xonalarining devorlarida osmon gumbazi, samoviy jismlar, ularning joylanishi va o'zaro munosabati, sayyoralarning orbitalari, sobita (qo'zg'almas) yulduzlar hamda dengiz va okeanlar, tog' va dashtlar, iqlim mintaqalariga bo'lingan Yer kurrasi va hokazolar tasvirlangan. Rasadxona ichki devorlarida koinotu - yer kurrasining umumiy manzarasi tasvirlangan bo'lib, shu tufayli bu mavzu mahalliy aholi o'rtasida "Naqshi jahon" [12] deb yuritilgan.

Rasadxona qurilishida samoviy yoritgichlarni kuzatish va o'rnatish borasida xizmat qiluvchi uning asosiy qismi – sudsi faxriy qurilmasi va uni maxsus o'lchov asbob-uskunalar bilan jihozlashga alohida e'tibor beriladi. Sekstant G'iyosiddin Jamshid mutasaddiligida o'rnatiladi. Samarqand sekstanti o'sha davrda Sharqda ma'lum bo'lgan sekstantlarning eng kattasi bo'lgan. Ali Qushchi uning balandligi Istanbuldagi Avliyo Sofiya ibodatxonasining balandligiga (qariyb 50 m) qiyos qilgan. Ayni vaqtda Ulug'bek rasadxonasi qoshida boy kutubxona ham tashkil etilib, unda fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qariyb o'n besh jild kitob saqlangan.

Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta kichik hujralar quriladi. Uning etagida esa Ulug'bek o'zi uchun Bog'imaydon va Chinnixonona chorbog'larini barpo etadi. Vaqt o'tishi bilan hamda Markaziy Osiyoda va ayniqsa, temuriylar davlatining inqirozi tufayli ana shunday ulkan bino yo'qolib ketdi. Uni 1908 - yili rus arxeologi V.L.Vyatkin tasodifan topib oldi. U vazirga tegishli bir hujjatni o'rganayotganida uning yerlari Ulug'bekning rasadxonasiga borib taqalishi haqidagi ma'lumotga duch keladi. Keyingi arxeolog tekshirishlar hujjatning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Arxeolog V.L.Vyatkin 1908 - yilda Ulug'bek rasadxonasining xarobalarini topib, uning sekstanti yerosti qismini kovlab oladi. Ulug'bek rasadxonasi Movaraunnahrda o'z zamonasiga nisbatan mukammal asronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylangan edi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astranomlar – zamondoshlari o'rtasida "Aflotunu zamon" faxriy nomini olgan Qozizoda Rumiyy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, "o'z davrining Ptolomeyi" nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va ko'pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Demak, Ulug'bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratadi. Samarqandda Ulug'bek rahbarligi barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika, ayniqsa, astronomiya sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishdi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 ta sobita (qo'zg'almas) yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astarnomik jadvali tuziladi. Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi.

Ulug'bek maktabining erishgan eng muhim va zaruriy muvaffaqiyatlaridan biri matematika sohasida bo'ldi.

Rasadxona olimlari tomonidan uchinchi darajali yoyning algebraik tenglamasi yechilib, bir darajali yoyning sinusi aniqlandi. O'sha davrda aniq fanlarning rivojlanishi va shu fan sohasiga oid ilmiy asarlar yozilishi Ulug'bek maktabi ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishini belgilab berdi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid bir qancha nodir asarlar yaratildi. Garchi bu asarlarning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, saqlanib qolgan qo'lyozmalar o'sha davrda Samarqand astronomiya maktabi erishgan yutuqlarda va bu ilmgoh namoyandalarining jahon astronomiya fani rivojiga qo'shgan ulkan hissasidan dalolat beradi.

Samarqand rasadxonasida olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlarning samarasi, Sharq klassik astronomiyasining nazariy va amaliy masalalarini o'zida mujassamlashtirgan va uni yangi dalil-isbotlar bilan boyitgan shoh asar – Ulug'bekning “Ziji jadidi Ko'ragoniy” (“Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali”) nomli kitobidir. Bu asar 1437 - yilda yozib tugatilgan bo'lsa ham unga muallif umrining oxiriga qadar bajarilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida tuzatishlar va qo'shimchalar kiritib boradi.

“Ziji jadidi Ko'ragoniy” asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 sobita yulduzlarning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Asarning bosh muqaddima qismi astronomiyaning masalalari, Sharq xalqlaridagi yil hisobi usullari, astronomiyaning amaliyoti, sayyoralar nazariyasi hamda astronomiya va astralogiya masalalariga bag'ishlangan.

“Ziji jadidi Ko'ragoniy” ning ikkinchi qismi astronomiya va trigonometriyaning amaliy masalalariga mansub. Asarning bu qismi uchinchi darajali algebraik tenglama – yangi original uslub bilan muvaffaqiyatli ravishda hal qilinib, natijada aniqligi milliarddan bir bo'lgan to'qqiz xonali trigonometrik jadval tuzilgan. Shuni qayd qilish joizki, Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha zamondagi shunga o'xshash jadvallar orasida beqiyos darajada aniq bo'lgan. Maslan, falak al-burj tekisligining xatti ustuvoga og'maligi Ulug'bek jadvalida 23 daraja 30 daqiqa 17 soniyaga teng bo'lib, hozirgi hisob bo'yicha u 23 daraja, 30 daqiqa va qirq to'qqiz soniyani tashkil etadi. Bu ikki raqamlar o'rtasidagi tafovut hammasi bo'lib, minus 32 soniyaga teng xolos. Shuningdek, Ulug'bekning yil hisobini hozirgi aniq hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor yo'g'i bir daqiqayu ikki soniyaga farq qiladi. Bular o'n beshinchi asr uchun g'oyat yuksak aniqlik bo'lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir.

“Ziji jadidi Ko'ragoniy” uchinchi kitobining amaliy astronomiyaga oid qismida ekliptikaning ekvatorga og'maligi, osmon yoritgichlarining koordinatalarini aniqlash, yulduzlar va sayyoralar orasidagi masofalarni aniqlash kabi masalalar asoslab beriladi.

“Ziji jadidi Ko'ragoniy”ning 120 ga yaqin forsiy va 15 dan ziyod arabiy nusxasi mavjud. Ulug'bekning “Zij” asari tarix davomida musulmon mamlakatlarida keng tarqalib sharhlangan.

Ulug'bek shaxsi, uning ilmiy maktabi, Samarqand ilmiy muhiti Ulug'bekning safdoshi G'iyosiddin Jamshid al – Koshiyning otasiga yo'llagan maktubida yorqin aks egan. Mazkur maktubda Ulug'bekning ilmiy iqtidori, uning homiyligi va ishtirokidagi madrasa mashg'ulotlari, rasadxona barpo etishda bevosita rahbarligi, ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish, ilmiy markazni tashkil etish jarayonlari aniq bayon qilingan.

Ulug'bekning “Ziji jadidiy Ko'ragoniy” asaridan boshqa matematikaga oid “Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolai Ulug'bek” va tarixga oid “Tarixi arba' ulus” asarlari ham bo'lganligi ma'lum.

Umuman Samarqand astronomik muhitida Beruniyning “Qonuni mas'udiy”, Abdurahmon Sufiyning “Kitob al-kabokib as-Sabita” (“Sobit yulduzlar kitobi”), Mahmud al-Chag'miniyning “Al-mulaxxas fil-hay'a” (“Qisqacha Astronomiya”), Nosiriddin at-Tusiyning “at-Tazkirai an-Nosiriya fi ilm al-hay'a” (“Nosiriyning folakiyot bo'yicha xotiranomalari”), Qutbiddin Mahmud ibn Ma'sud Sheroziyning “at-Tuhfa ash-shohiya fil-hay'a” (“Shoh tuhfasi”), Qozizoda Rumiyning “Sharh al – mulaxxas fil hay'a” (“Qsqacha astronomiya sharhi”) asarlari amaldagi qo'llanmalar bo'lgan.

Mirzo Ulug'bekning o'zi yirik astronom va matematik bo'lib, o'z atirofidagi olimlar bilan hamkorlikda ijod qilgan. Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Mirim Chalabiy, Birjandiy, Nizomiy al-Ko'histoniy, Abdulqodir ibn Hasan Ro'yoni kabi Ulug'bek ilmiy maktabi vakillari O'rta Osiyodan tashqarida ham mashhur bo'lganlar. Keyinchalik Samarqand olimlari

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalib, u yerlarga o'zlari bilan ilm-fan yutuqlarini olib borganlar.

Abdurazzoq Samarqandaniy o'zining "Matla' sad'ayn" asarida yozishicha, Ulug'bek va Shohruh davrida Samarqand bilan bir qatorda Hirot ham Sharqning yirik ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan va u Alisher Navoiy davrida gullab-yashnagan [13]. Albatta bunda eng avvalo Ulug'bek ilmiy maktabining xizmatim beqiyos katta bo'lgan.

Ulug'bek davrida Movraunnahr va Xuroson hududidagi ijtimoiy taraqqiyot yuksak madaniy va ilmiy yuksalishga olib kelingan va u hozirgi fanda Renesans – uyg'onish davri deb qayd etilgan. Ulug'bekning astronomiya maktabi o'rta asrlar va yangi zamon musulmon Sharqi va Yevropa astronomiyasining rivojiga munosib ta'sir ko'rsatadi.

Ulug'bekning davlat arbobi, buyuk olim sifatida qoldirgan ma'naviy merosi mustaqil mamlakatimiz yoshlari qalbida halollik, poklik, imon-e'tiqod, vatanparvarlik g'oyalarining shakllantirishda ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Ularning halol mehnat, go'zallik va sevgiga bo'lgan munosabatlarini takomillashtirib, komil inson bo'lib yetishishiga yordam beraveradi, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'rtaasrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidadagi roli vaahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -Toshkent, 2014.
2. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ush – shuaro. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. -T., 1996. – B 10 .
3. Ahmedov A. Ulug'bek. -T., 1991. – B 49.
4. Matvievskeya G.P., Sokolovskaya Z.K. Ulug'bek. -M., 1997. – st 5 .
5. Ahmedov A. O'sha asar. – B 51.
6. Keren L. Ulug'bek maktabi va uning usmonli turklar astronomiyasiga qo'shgan hissasi // Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanning materiallari. Toshkent – Samarqand, 1994. – B 208 .
7. Abdullaev V. Navoiy Samarqandda. -T., 1968. – B 58 .
8. Bartold V.V. Ulug'bek i ego vremya. Soch. -M., 1964. St – 126.
9. Matvievskeya G.P., Sokolovskaya Z.K. O'sha asar. – st 29.
10. Ahmedov A. O'sha asar. – B 54.
11. Zahridin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 45.
12. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent, 1989. – B. 346-347.
13. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tilidan tarjima va so'zboshi va izohlar muallifi A.O'rinboyev. 2-jild. 1 qism (1405-1429 - yil voqealari). – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 379-380.

UDK 323.2

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA O'ZBEKISTON TAJRIBASI FRANSIYALIK MUTAXASSISLAR NIGOHIDA

A.X.Mamaragimov

Samarqand davlat chet tillar instituti

E-mail: akmal_72@ bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, yangilash hamda modernizatsiya qilishning muhim strategiyasi, barcha sohada keng ko'lamli islohotlar, jumladan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot hamda so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va taraqqiy toptirish, demokratik bozor islohotlari hamda iqtisodiyotni liberallashtirish ahamiyati ochib berilgan.

Kalit syzlar: Fuqarolik jamiyati, modernizatsiya, demokratlashtirish, konsepsiya, liberallashtirish, tizim islohotlar, inson huquqlari instituti.

Формирование и развитие гражданского общества, опыт Узбекистана во взглядах французских специалистов

Аннотация. В статье освещается концепция по углублению строения и развития гражданского общества в стране модернизация системы судебно-правовых реформ, управлении государственной власти, обеспечении информационно и свободы слова развитие закона выборов, развитие строение институтов гражданского общества и либерализация экономических а также демократичных рыночных реформ.

Ключевые слова: Гражданское общество, модернизация, демократизация, концепция, либерализация, система, реформы, институты по правам человека.

Structure and development of civil society, experience of Uzbekistan in the views of French specialists

Abstract. This article includes the concepts of deepening structure and development of civil society in the country modernization system of judicial and laws reforms, control of public power, development of structural institutions of public society and liberalization economical and democratic bargaining power.

Keywords: Development of civil society, modernization, democratization, concepts, liberalization, system, reforms, institutions of public society.

Fuqarolik jamiyati deganda insonlarning o'z iqtisodiy va siyosiy hayot shaklini erkin tanlash huquqini kafolatlaydigan, mafkuralar xilma-xilligi ta'minlanadigan fuqarolar davlat hokimiyati tizimining samarali ishlashini to'liq nazorat qiladigan jamiyat tushuniladi [1].

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2010 yilning noyabrida ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mamlakatni yangilash hamda modernizatsiya qilishning muhim strategiyasi uchun mustahkam poydevor qo'ydi. Ushbu hujjat doirasida O'zbekistonda barcha sohada keng ko'lamlı islohotlar, jumladan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot hamda so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va taraqqiy toptirish, demokratik bozor islohotlari hamda iqtisodiyotni liberallashtirish amalga oshirilmoqda[2].

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq sud-huquq tizimida islohotlar o'tkazish, uni tom ma'noda inson huquqlari himoyasini kafolatlaydigan institutga aylantirish va sud hokimiyatiga haqiqiy mustaqillik berilishiga katta e'tibor qaratdi. Bularning natijasi o'laroq, 2008 - yil 1 - yanvarida Respublikada "Xabeos korpus" instituti joriy etildi, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish yo'lida o'lim jazosi bekor qilindi. Mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi sud-huquq tizimini ham isloh etishni ko'zda tutadi. Biz O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi rolini shu yilning o'zida o'tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvlar, davra suhbatlari va tadbirlarda mutaxassislar orqali tajriba almashdilar.

2013 - yil oktyabrida O'zbekiston fuqarolik jamiyati shakllanishining monitoring qilish mustaqil institutining bir guruh mutaxassislari jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklikning tashkiliy-huquqiy asoslari taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonini monitoring qilish usullari bo'yicha xorijiy amaliyotni o'rganish maqsadida Fransiyada bo'ldilar. Mazkur safar doirasida Parij shahrida qator amaliy uchrashuvlar o'tkazilgani barobarida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan davra suhbatı tashkil qilindi. Shuningdek, yurtimiz delegatsiyasi BMT Mingyillik maqsadlarini amalga oshirishga nohukumat tashkilotlarini jalb qilish bo'yicha Butunjahon forumida ham qatnashdi [3].

Fransiya tashqi ishlar vazirligi globallashtirish, taraqqiyoti va sheriklik bosh boshqarmasining fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik missiyasi, Yevropada istiqbolni belgilash va xavfsizlik instituti, milliy boshqaruv maktabi, siyosiy fanlar instituti huzuridagi siyosiy innovatsiyalar jamg'armasi hamda xalqaro tadqiqotlar markazining ekspert va mutaxassislari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlar chog'ida fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti vakillari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar haqidagi ma'lumotlarni hamkasblari bilan o'zaro tajriba almashdilar. Safar

doirasida O'zbekistonning Parijdagi diplomatiya missiyasida "Davlatning fuqarolik institutlari bilan hamkorligi mexanizmlarini tashkiliy-huquqiy tashkiliy jihatdan takomillashtirish: O'zbekiston va Fransiya tajribasi" mavzusiga bag'ishlangan davra suhbatini ham bo'lib o'tdi. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti hamda Fransiya hamkorlik va texnikaviy taraqqiyot agentligi (ASTEB) tomonidan uyushtirilgan ushbu tadbirda taniqli jamoat arboblari, fuqarolik jamiyatini o'rganish bo'yicha ekspertlar, ikki mamlakat fuqarolik institutlari vakillari hozir bo'ldilar. Davra suhbatini qatnashchilari O'zbekistonning fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash sohasidagi tajribasi bilan yaqindan tanishdilar.

Takidlash joizki, yurtimizda mazkur jabhadagi huquqiy asosni yanada mustahkamlash yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar fransiyaliklarda katta qiziqish uyg'otdi. Mahalliy ekspertlar e'tibor etganidek, O'zbekistonda belgilab olingan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish modeli jamiyat va davlat boshqaruvida fuqarolik institutlarining o'rni hamda ahamiyatini mustahkamlash, jamoatchilik tuzilmalari va davlat organlarining ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorligini yanada rivojlantirishni nazarda tutgan holda mamlakatimizning jadal va barqaror huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga davlatning nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan hamkorligi ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga hamda fuqarolik tajribasida yuz berayotgan jarayonlarning chuqur tizimi tahliliga asoslangandir [4].

Tadbirda fransiyalik ekspertlar e'tiboriga respublikamizning ikki viloyatida hayotga tadbiriq etilayotgan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" gi qonun loyihasining huquqiy sinovi borasidagi O'zbekiston tajribasi taqdim etildi. Munozaralar chog'ida ikki mamlakatning fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik institutlar faoliyatining konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslarini shakllantirish, ularning davlat boshqaruvi hamda xalqaro hamkorligidagi tashabbuslarini faollashtirish masalalari bo'yicha batafsil fikr almashildi.

Fransiyalik mutaxassislar qayd etganidek, Fransiyada davlat, nohukumat tashkilotlarini hukumat siyosatini shakllantirishga faol jalb qiladi, vazirlik va idoralar huzurida tashkil etilgan kengashlar faoliyatining boshqa shakl va usullari orqali fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'yadi. Ular O'zbekistonning fuqarolik jamiyatini shakllantirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishdagi o'rni hamda ahamiyatini yuksaltirish, davlat muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida faol aloqalarni o'rnatishdagi ijobiy tajribasini yuqori baholadilar.

"Toshkent-Paris" elektron jurnali bosh muharriri, raqamli nashrlar uyi va "dizayn" mediakompaniyasi prezidenti Sot Silavi d'Izari fikr bildirganidek, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini har tomonlama rivojlantirish, axborotga ega bo'lish erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish sohasida yetarli shart-sharoitlarni yaratishga katta ahamiyat berilayotgani alohida tahsinga sazavor.

"Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonun loyihasining huquqiy eksperimenti amalga oshirilayotgani ham fuqarolarni davlat va jamiyat boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilinishidagi ishtirokini kengaytirishga imkoniyat yaratadi hamda aholining siyosiy-huquqiy madaniyati yuksalishiga xizmat qiladi. Ochiqlikni ta'minlash borasida mazkur qonunda ommaviy axborot vositalariga alohida ahamiyat qaratilgani esa demokratik taraqqiyotning eng zamonaviy tamoyillarini ifodalaydi.

Fransiya hamkorlik va texnikaviy taraqqiyot agentligining (ASTEB) Markaziy Osiyo bo'yicha dasturlari direktori Paskal Bernar, bo'lib o'tgan davra suhbatini fransiyalik hamkorlarning O'zbekiston fuqarolik institutlari bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashdan manfaatdorligini yana bir bor tasdiqlaganini ta'kidladi [5].

Hozirgi paytda ASTEB va fuqarolik jamiyati shakllanishining monitoring qilish mustaqil instituti o'rtasida hamkorlik haqida memorandum loyihasi ishlab chiqilayotgan bo'lib, u o'zaro sheriklikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi, - dedi u. Shu bilan birga, Yevropa komissiyasi ishtirokida O'zbekistonda ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan loyihalarni hayotga tadbiriq etish borasida ham ish olib borilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining eng muhim instituti, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini aks ettiradigan mexanizm hisoblanadi, - deydi taniqli kinorejissor, produser va senariynavis Rejis Gezenbash – «o'zimning kasbiy tajribam bilan o'rtoqlashish uchun

taqdim etilgan imkoniyatdan juda mamnun bo'ldim. Aminmanki, mening malaka va ko'nikmalarim O'zbekistonda milliy jurnalistikaning yanada rivojlanishiga ko'maklashadi».

Yevropada istiqbolni belgilash va xavfsizlik instituti prezidenti Emmanuel Dyupyuning so'zlariga qaraganda, jamoat tashkilotlari davlatning hamkori sifatida faoliyat yuritayotgani borasida O'zbekistonda to'plangan tajriba Fransiyaning bu sohadagi tajribasiga yaqindir. Uning e'tirof etishicha, bo'lib o'tgan davra suhbat tadbir qatnashchilariga fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiyotini monitoring qilish usullarini qiyoslash, jamoat birlashmalarining mamlakat hayotida tobora ortib borayotgan o'zni masalalarini o'rganish hamda ularning davlat boshqaruvi organlari bilan hamkorligini tahlil qilish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Takidlash joizki, fuqarolik jamiyati taraqqiyotga ko'maklashish, fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti uchun ham, bizning institut uchun ham yakdil maqsad sanaladi, - dedi E.Dyupyui. Shunday ekan, bo'lib o'tgan tadbir va uchrashuvlar o'zaro hamkorlikning yanada kengayishiga xizmat qilishga aminman.

Parijda o'tkazilgan davra suhbatlari yakunlariga ko'ra, fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti bilan tizimli tarzda tajriba va axborot almashinuvi, ikki mamlakat ommaviy axborot vositalari va elektron nashrlarida fuqarolik jamiyatining taraqqiyoti haqida tahliliy maqolalar chop etishga o'zaro ko'maklashish, Fransiya va O'zbekistonda qo'shma konferensiya, seminar hamda davra suhbatlarini tashkil etish va o'tkazish, fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institutiga Yevropada istiqbolni belgilash va xavfsizlik instituti hamda Fransiya va Yevropa ittifoqining fuqarolik jamiyati taraqqiyoti masalalari bilan shug'ullanuvchi boshqa tahliliy markazlari bilan aloqalarni rivojlantirishda ko'maklashish singari masalalarga doir hamkorlik to'g'risidagi memorandumni imzolash yuzasidan kelishuvga erishildi.

Qayd etilganidek, O'zbekistonda belgilab olingan bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish strategiyasi o'zbek xalqining tarixan shakllangan milliy va madaniy xususiyatlari hamda ilg'or xalqaro tajribani chuqur o'rganishga asoslangan bo'lib, mamlakat barqaror taraqqiyotining kafolati sanaladi. O'zbekistonda fuqarolik institutlarining mamlakatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta'minlash borasida to'plangan tajriba xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Yuqorida bildirilganidek, fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institutining mutaxassislari xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari va uyushmalari, chet el nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan birgalikda Parijda bo'lib o'tgan BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga nohukumat tashkilotlarini jalb qilish bo'yicha Butun jahon forumida ham qatnashdilar.

Mazkur tadbir Fransiya hamkorlik va texnikaviy taraqqiyot agentligi Fransiya rivojlanish agentligi hamda Parij meriyasi tomonidan o'zaro hamkorlikda tashkil etildi.

2013 yil sentyabrda Toshkentda fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, BMT taraqqiyot dasturi YuNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi tashabbusi bilan "BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish vazifalarini takomillashtirishning ishtiroki: O'zbekiston tajribasi" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazilganini qayd etish joizdir. Ma'lumki, mazkur anjuman ishi Fransiya, Latviya, Italiya, Gretsiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi singari mamlakatlardan kelgan mutaxassislar, xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholangan edi. Toshkentda bo'lib o'tgan ana shu konferensiya yakunlari bilan tanishar ekan, Butunjahon forumi ishtirokchilari O'zbekistonda jamiyat va davlat qurulishi sohasida izchil islohatlar, iqtisodiyotdagi chuqur hamda tizimli o'zgarishlar, kuchli va manzilli ijtimoiy siyosiy fuqarolik institutlari rolini mustahkamlash zarur.

O'zbekiston va Fransiyaning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi tajribasi 2016 - yil martida Parijda muhokama etildi[6].

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassislari yaqinda ikkinchi marta Fransiyada bo'lib qaytdi. Safar davomida mamlakatimiz delegatsiyasi O'zbekistonning Parijdagi elchixonasida o'tkazilgan "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish holati va istiqbollari: O'zbekiston va Fransiya tajribasi mavzuidagi davra suhbatida" ishtirok etdi.

Tadbirda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslari hamda mexanizmlarini rivojlantirish davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik institutlarining o'rnini kuchaytirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan atroflicha fikr

almashildi. Xususan, O'zbekistonda mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar bilan Fransiya tomoni batafsil tanishtirildi. Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda uning asosida "Ekologik nazorat to'g'risida", "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingani tilga olindi[5].

Ma'lumki, ushbu hujjatlar tegishli masalalar hal etilishida davlat organlarining nodavlat-notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini tartibga soladi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassislaridan tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kunda taraqqiy topgan demokratik davlatlarning, jumladan Fransiyaning fuqarolik institutlarini rivojlantirish sohasidagi tajribasini o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yevropada pragnozlash va xavfsizlik instituti Prezidenti Emmanuel Dyupyui o'z chiqishida O'zbekiston "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalda hayotga tatbiq etayotganini hamda mamlakatda qonun ustuvorligi va qonunchilikka rioya etish ta'minlayotganini e'tirof qildi. U O'zbekiston rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va modernizatsiyalash siyosati tufayli hozirgi paytda nafaqat davlat, balki nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlangan tizimi hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ham ekologik barqarorlik fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, ta'lim, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, fuqarolar hamda tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bahs-nizolarni bartaraf etish fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, huquqiy maslahatlar berishda, shuningdek, boshqa dolzarb masalalarning hal etilishida faol qatnashayotganini bildirdi [7].

Yevropada prognozlash va xavfsizlik instituti eksperti, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining maslahatchisi Amal Shevro O'zbekistonda mustahkam qonun asosida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va qullab-quvvatlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga yuqori baho berdi. U davlatning nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa tashkilotlari bilan hamkorligi shakllari, tamoyil hamda mexanizmlarining rivojlangan tizimi yaratilganini, ularning huquq va mas'uliyati, hukumat jamg'armalari uyushmalar hamda harakatlarning muhim ijtimoiy vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan faoliyati erkinligi kafolatlanganligini qayd etdi.

- Fransiyada zamonaviy huquq fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishdan bir qadar orqada qolmoqda - dedi u.

- Turli tabaqalardagi ko'pgina birlashmalar faoliyati sohasi hanuzgacha mohiyatan 1901 yil iyulda qabul qilingan "Assotsiativ shartnoma to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinmoqda.

Bu qonun hozir ham Fransiyada turli yo'nalishda ish olib boradigan uyushmalar faoliyatining asosiy doirasini shakllantiradi.

A.Shevro O'zbekistonda ijtimoiy naf keltiradigan nodavlat tashkilotlari hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga ko'maklashadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan chora-tadbirlarni yuksak baholadi.

- O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, ilm-fan, ayollarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ekologiya va atrof muhit muhofazasi singari barcha asosiy sohalarni qamrab olgan, - dedi ekspert, «o'ylaymanki, bu notijorat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlarning ko'pchiligini yagona nom bilan, ya'ni mamlakat barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tashkilotlar, deb tasniflash mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining keng qamrovli davlat siyosatiga ham muvofiq keladi».

Sarbonna, Parij universitetining shaharsozlik va rivojlanish instituti direktori o'rinbosari, barqaror taraqqiyot bo'yicha ekspert Jan-Antuan Dyupra O'zbekiston va Fransiyaning fuqarolik jamiyati hamda demokratik institutlarni rivojlantirish evolyutsiyasini bir biriga taqqoslar ekan, mamlakatimiz chorak asr davomida bu sohada salmoqli muvaffaqiyatlarga erishganini ta'kidladi. "Holbuki, Fransiya ana shunday institutlarni 200 yil davomida qurgan" dedi u.

Ekspertning fikricha, O'zbekiston bu borada ajoyib taraqqiy na'munaga - "mahalla" deb ataluvchi noyob demokratik institutga ega. Bu institutning mamlakatdagi barcha demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishi kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga hamda uning davlat bilan konstruktiv muloqotini qurishga imkon beradi.

Parijdagi Erkin universitetining huquq, iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti katta o'qituvchisi Per-Emmanuel Dyupoi o'z chiqishida O'zbekiston va Fransiya atrof-muhit muhofazasi hamda ekologiya

barqarorlikni ta'minlash sohasida fuqarolik jamiyatining rolini tahlil qilar ekan, O'zbekistonda ekologiya masalasi fuqarolik jamiyati e'tiborida turgan eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolganini aytdi. Olimning qayd etishicha, bu O'zbekiston ekologik harakati turli nodavlat tashkilotlari va jamoatchilik vakillari faoliyatida ham ko'rinib turibdi.

- Keyingi yillar davomida bu butun dunyoda dolzarb tamoyilga aylandi, -dedi u.

-Bundan o'n yil burun atrof-muhitga ta'sir o'tkazadigan iqtisodiy yoxud infratuzilma manfaatlariga aloqador masalalarning hal etilishida jamoatchilik umuman qatnashmas edi.

Bunday loyihalar uchun barcha mas'uliyat hukumatning tegishli organlari zimmasida edi. Hozirgi paytda hukumat ham xalqaro huquq ham jamiyatning nodavlat tashkilotlari va fuqarolar uyushmalarining bunday loyihalar nazoratida yanada faol ishtirok etishini tan olmoqda hamda qo'llab-quvvatlamogda, deb ta'kidladi.

Xulosa qilib aytganda, fuqorolik jamiyati shakllanishini va rivojlanishini monitoring qilish mustaqil instituti hamda Fransiya hamkorlik va texnikaviy taraqqiyot agentligi tomonidan uyushtirilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari O'zbekistonning fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash yurtimizda mazkur jabhadagi huquqiy asosni yanada mustahkamlash sohasidagi tajribalari fransiyalik mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otdi. O'zbekiston va Fransiya davlatlarining fuqorolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik institutlar faoliyatining konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslarini shakllantirish, ularning davlat hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda samarali omil bo'ladi.

O'zbekiston va Fransiyaning fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish borasida tajriba almashuvining muhokama qilinishi Parijda va Toshkentda o'tkazilgan tadbirlar ikki davlat o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Fransiya tomoni yurtimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasiga ustuvor darajada ahamiyat qaratdi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. 2011 - yil, 4 - iyul Oliy majlis to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan nutqi. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari "O'zbekiston ovozi" gazetasi 2011 yil, 4 iyul.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. "Zarafshon" gazetasi 2011 - yil, 24 - yanvar.
3. O'zbekiston va Fransiya tajribasi, "Xalq so'zi" gazetasi, 2013 yil 17 oktyabr.
4. "Xalq so'zi" gazetasi. 2013 - yil 17 - oktyabr.
5. "Xalq so'zi" gazetasi. 2013 - yil 17 - oktyabr.
6. "Xalq so'zi" gazetasi. 2016 - yil 22 - mart.
7. "Xalq so'zi" gazetasi. 2016 - yil 22 - mart.

UDK: 332.15

КОРЕННЫЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ГОРОДА КАРШИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ Эштемиров Ж.

Каршинский инженерно-экономический институт

Аннотация. В данной статье рассматриваются коренные преобразования в социально-экономической жизни города Карши. Приводится анализ проводимых реформ и их результаты в социальной и экономической сфере.

Ключевые слова: Город, независимость, реформа, историческое наследие, культура, махалля, реставрация, промышленность, облик, колледж, памятник, юбилей, предпринимательство,

Иstiqlol yillarida Qarshi shahrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarishlar

Аnnotatsiya. Makolada istiklol yillarida Karshi shaxrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy va iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: shahar, mustaqillik, qayta tiklanish, tarixiy meros, madaniyat, mahalla, ishlab chiqarish, qiyofo, kollej, obida, yubiley, ishbilarmonlik.

Radical changes in socio-economic life of the city of Karshi in the years of independence

Abstract. In the article are risen radical changes in socio-economic life of the city of Karshi in the years of independence. Conducting analyzes on going reforms in the social and economic spheres and their results.

Keywords: city, independence, reform, historical heritage, culture, mahalya, restoration, industry, appearance, college, monument, jubilee, entrepreneurship.

Исследуя знаменательный этап новейшей истории города Карши, как годы независимости, следует подчеркнуть, глубокие социально-экономические, политические, духовные изменения, происходящие в нашей стране с обретением независимости, эффективность и результативность проводимых по пути строительства правового демократического государства реформ во многом зависит от успешного их осуществления во всех городах и кишлаках нашей страны. Независимость дала нам возможность глубоко изучать историческое наследие нашего народа, древние национальные традиции, жизнь и деятельность наших предков, историю наших городов.

Коренной перелом в жизни каршинцев связан с обретением Узбекистаном независимости. Город Карши, которому недавно исполнилось 2700 лет, за последние 15 лет стал неузнаваемым. Один из ярких центров согдийской культуры, внесший свою незаменимую лепту в развитие мировой цивилизации, прославившийся своими учеными-мыслителями, философами, поэтами и музыкантами, ныне занимает достойное место в ряду лучших городов Центральной Азии.

За годы независимости Карши обновился всесторонне. Сегодня город занимает площадь 75,51 км² – 0,26 % территории Кашкадарьинской области. В состав его входят поселок городского типа Шайхали и 62 махалли.

Современное политико-экономическое значение Карши, а также его богатое историко-культурное наследие, его особое место в истории мировой цивилизации стало основанием для принятия решения Генеральной конференцией ЮНЕСКО об участии в торжествах, посвященных 2700-летию Карши.

В связи с этой знаменательной датой Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов подписал специальное постановление, благодаря которому древний город Карши вновь стал молодым. В преддверии юбилея была проведена огромная работа по реставрации и восстановлению исторических памятников, сохранению его историко-архитектурного облика. Так, новую жизнь приобрели такие памятники архитектуры как мечети Кок Гумбаз и Хожи Убайд Жаррох, Каршинский мост, медресе Абдулазиза и Бекмир и многие другие.

Именно в годы независимости началась работа по возрождению имен великих ученых и мыслителей, живших на этой земле, которые в недалеком прошлом были преданы забвению. Сегодня благоустраиваются священные места, связанные с их жизнью и деятельностью, проводится детальное изучение их богатого духовного наследия.

Деятельность махалли по новой системе, одной из первых внедренной в Карши, стала еще одной приметой города. На практике получила подтверждение важность этой системы, включавшей в себя сохранение мира и стабильности, обеспечение безопасности людей.

Благодаря проводимой под руководством Президента И.Каримова работе возрождается духовное наследие нации, новый облик приобретают древние города, празднуя свои юбилеи. В 2006 году под эгидой ЮНЕСКО на международном уровне отмечено 2700 ление древнего Карши. Город Карши нынче в строительных лесах. На основе постановления Кабинета Министров «О подготовке проведения 2700 ления города Карши» от 29 сентября 2004 года здесь идет невиданное в его истории строительство.

К юбилею не только реставрируются архитектурные памятники города, но и идут благоустроительные работы, сооружаются многочисленные объекты – жилые дома, учебные заведения, административные и общественные здания, расширяются узкие улицы. Ныне

столичный город Кашкадарьи занимает территорию в 0, 1 тыс. кв.км., в котором проживают 217,9 тысяч жителей .

Своеобразной особенностью развития города в годы независимости являются специфические демографические изменения. Год за годом растет население и трудовые ресурсы города. К примеру, в 1992 году население города составляло 175, 8 тыс. человек, в том числе 75,8 тысяч трудоспособного населения, то в 2002 году эти показатели составляли соответственно 213,1 тысяч человек и 110 тысяч человек, а к 2005 году население города достигло 217, 9 тысяч человек, в том числе трудоспособное население составило 120, 5 тысяч человек. Это свидетельствует о большом производственном, научном, духовно-просветительском потенциале города. В силу этого разработан генеральный план города, рассчитанный на 500 тысячное население.

В городе создана прочная материально-техническая база, успешно реализуется инвестиционная программа, строятся новые предприятия, модернизируются старые, развиваются новые отрасли промышленного производства, производящие конкурентоспособную продукцию, основанные на инвестиционной политике. Так, 20 совместных предприятий города производят продукцию на 1 миллиард 300 миллионов сумов. Среди них такие предприятия, как узбекско-британское «Мевалар камалаги», узбекско-сингапурское «Каршиёг».

В ноябре 1996 г. узбекско-турецким трикотажным предприятием в Карши сдана в эксплуатацию трикотажная фабрика, акционерным обществом «Каштекс» с турецкой кампанией «Язтекс» построен крупный текстильный комплекс. С 1997 г. работает Узбекско-индонезийское совместное предприятие «Кашкадарётелеком».

По инициативе Президента Ислама Каримова при участии американских компаний «Дрессер», «М.Ю. Кологг» и японской «Нишо Иваи» была построена Кокдумалакская компрессорная станция которая ежедневно производит 4,2 миллиона кубометров газа. Газохимический комплекс «Шуртангаз» также является объектом, имеющим стратегическое значение. В целом в области добывается 88 % природного газа и 92 % нефти страны.

Такие промышленные гиганты, как Талимарджанская ГРЭС и «Мубарекгаз», ныне являются гордостью экономики не только области, но и всей страны.

Указ Президента И. Каримова «О создании Каршинского отделения Среднеазиатской железной дороги» и его реализация, вступление в строй 223-километровой железной дороги «Гузар-Байсун-Кумкурган» открыло новые возможности для развития и освоения богатых минеральных ресурсов и полезных ископаемых края.

Значительное место в экономике Карши занимают легкая и пищевая промышленность. В городе действуют хлопкоочистительный завод, масложировой завод, швейная фабрика, комбинаты строительных материалов и металлообработки.

Сегодня в городе действуют 556 крупных предприятий, 44 акционерных общества, 761 объектов бытового обслуживания, большое количество предприятий торговли и общественного питания.

За годы независимости в городе произошли широкомасштабные социально-экономические изменения. Город принимает активное участие в процессах перехода к рыночным отношениям, внося свой вклад в укрепление экономики и приращении национального богатства нашего государства. Если в 1994 году в городе функционировало 30 промышленных, 247 малых и 10 совместных предприятий, выпустивших продукцию на сумму 1919,345 тыс.сум, то к началу 2005 года в городе насчитывается 4224 предприятий, в числе промышленных - 604, строительных – 622, торговых и предприятий общего питания –1709. По своей территории, производственным мощностям, темпам развития Карши занимает достойное место среди крупных городов страны. Здесь функционируют мясной, мукомольный, молочный, текстильный комбинаты, маслоэкстракционный, хлопковый заводы, завод термопласт, крупные предприятия стройиндустрии и другие производственные объекты. Надо отметить, что из года в год увеличиваются темпы промышленного производства. Если производство валового промышленного продукта в 2002 году составляло 109 миллиарда 398,0 млн. сум, то в 2004 году -134 миллиарда 475, 4 млн.сум. Стабильная положительная динамика производственного роста продолжается.

Анализ результатов осуществленных работ по углублению экономических реформ показывает, что в 2005 году в городе объем производства валовой промышленной продукции вырос на 6,2 процента, производства товаров народного потребления на 13,4 процента, валовой сельскохозяйственной продукции на 7,8 процента, оборот розничной торговли на 9,1 процента, оказание денежных услуг населению на 60,8 процента. Доля негосударственного сектора в производстве промышленной продукции составляет 98,6%. На долю города приходятся 19,2 % промышленной продукции, 48% товаров потребления, производимых в области.

В условиях независимости своеобразной особенностью новых подходов к уровню и качеству развития экономики города является привлечение иностранных инвестиций и создание совместных предприятий. Большой интерес у зарубежных предпринимателей вызывает потенциал города, темпы развития современной индустрии. Если в городе в 1994 году функционировало 10 совместных предприятий, то к 2005 году их число выросло до 17, со стороны которых было произведено продукции и оказано услуг на сумму 14,7 млрд сум, экспортировано продукции на 2,2 млн. долларов США. Только в 2005 году было освоено капитальных вложений на сумму 43311,4 млн сум, из которых 5302,5 млн сум приходятся на долю иностранных инвестиций. Привлечение инвестиций в свою очередь способствует модернизации производства. К примеру, за счет привлечения иностранных инвестиций для совместного предприятия "Cotton Road" было закуплено современное оборудование, произведенное за рубежом на сумму 4,5 млн долларов США. Результатом этих позитивных изменений в экономике города явилось то, что предприятия Карши за годы независимости наладили выпуск товаров на экспорт. Если в 2000 году выпуск продукции на экспорт составляло 4,4 тыс. долларов США, то в 2004 году внешний торговый оборот города Карши составил 35965,1 тыс. долларов США, из которых 2098,3 тыс. долларов США приходились на товары для экспорта; в 2005 году было достигнуто положительное сальдо в внешнеторговых операциях на 23,2 млн долларов США, а также на 9,3 млн долларов США экспортировано продукции.

За годы независимости в городе Карши произошли положительные сдвиги в важном направлении развития рыночных отношений как приватизация, развитие малого и среднего бизнеса, формирование класса собственников. Так, в 1992 году валовой доход малых предприятий, фирм, ширкатов составил 203 млн. сум, 3,5 тыс. человек получили дополнительный доход. В 1994 году из 247 малых предприятий 55 занимались строительной деятельностью, 24 – деятельностью бытового обслуживания, 17 – производством товаров народного потребления, 15 – торгово-посреднической деятельностью. В 2005 году за счет расширения сферы частного бизнеса и создания условий для его развития в городе уже действовало 3762 субъектов малого бизнес, для финансовой поддержки которых было выделено 7 млрд 661 млн сум кредита, а также на основе развития малого бизнеса было создано более 3386 новых рабочих мест.

Если в 2004 году денежные средства из всех источников приватизации составили 836,6 млн. сум, то в 2005 году этот показатель вырос до 1 млрд 106 млн. сум. За счет развития частного сектора, малого и среднего бизнеса, предпринимательства удовлетворяются потребности населения города на многие товары народного потребления. К примеру, частное предприятие "Азамат" выпускает детскую мебель, предприниматель Бахриев Р. наладил выпуск различного вида полумягкой мебели, частное предприятие "Комилбек Н" – кондитерскую продукцию, малое предприятие "Батош – Спутник" – необходимое для строительства рубероид, частная фирма «Садбарг» - карбит, ООО Махсудий – полиэтиленовые пакеты, ООО SASK маркет – полипропиленовые мешки и т.д.

Одной из положительных тенденций этой сферы является то, если в начальные годы развития малого бизнеса, частного предпринимательства, субъекты предпринимательства основное внимание уделяли сфере торговли, то к настоящему больше обращаются к сферам производства и бытового обслуживания.

Особое внимание в годы независимости уделяется социальной сфере как важному приоритетному направлению в программе экономических реформ. Только в 2005 году на мероприятия по социальной защите и повышение благосостояния населения города было выделено 1301,6 млн. сум, что на 423 млн. сум больше по сравнению с 2004 годом. В целях

улучшения условий жизни городского населения в эти годы наблюдаются положительные сдвиги в росте объемов строительства жилья, газификации и обеспечении питьевой водой. Так, только в 2005 году было введено в эксплуатацию 30,0 тыс. кв.м. жилого фонда, проложено 23,4 км водопроводных и 28,8 км газовых магистралей. Эти показатели, являясь обычным социально-экономическим мероприятием, на деле свидетельствуют об создании всех возможностей для повышения жизненного благосостояния населения города, улучшении условий для плодотворной работы и хорошей жизни, на основе программы развития социальной инфраструктуры области сфера мероприятий этого направления работ расширяется. В то же время сохраняется проблема полного обеспечения питьевой водой и газобеспечения населения города. В целях изучения положения дел в социальной сфере областным хокимиятом в 2005 году был проведен социологический опрос среди 900 респондентов из 52 махаллей города Карши. 50 процентов респондентов положительно оценили мероприятия по благоустройству города, в то же время 24 процента респондентов указали на проблемы безработицы, 21 процента - на недостатки в коммунальном обслуживании, 30 процентов - в сфере медицинского обслуживания, 19 процентов - на недостаточное внимание проблемам молодежи. Конечно такие результаты свидетельствуют о необходимости улучшения дел в этой сфере и решении имевшихся проблем.

Большое внимание в Карши уделяется поддержке предпринимательства, созданию рыночной инфраструктуры. В этих целях открыты 15 банков, 9 страховых компаний, пять информационно-консалтинговых центров, торгово-промышленная палата, филиалы республиканской фондовой и биржи недвижимости, бизнес-фонд, бизнес-инкубатор и многие другие структуры.

Все это доказательство того, что Карши в течение почти 3 тысячелетий несет знамя цивилизованного и развитого города, и является одним из модернизированных и успешно развивающимся мегаполисов страны. Чтобы понять значение города и области для страны достаточно вспомнить, что 10,2 % всей сельскохозяйственной продукции: 10,6 % хлопка, 11,1 % зерна, 19 % каракуля, заготавливаемых в стране приходится на долю Кашкадарьинской области.

В связи с юбилеем города в Карши осуществлено строительство более 30 крупных объектов и отреставрировано 9 исторических памятников, полностью реконструированы, а также благоустроены площадь Независимости, здания и сооружения, прилегающие к ней, Центральный парк культуры и отдыха имени Алишера Навои, городской детский парк; сооружены спортивный колледж "Олимпийских резервов", Банковский колледж, стадион, закрытый спортивный манеж, 2 плавательных бассейна и спортивный комплекс, колледж Информационных технологий. Естественно, созидательный труд строителей, благоустроителей и других послужил основой коренного изменения облика города Карши.

Литература

1. Кашкадарьинский ГА, ф.1, 1оп.1, с. 29.
2. Отчет Кашкадарьинского облстатуправления. Карши, 2005.
3. Кашкадарьинский ГА, ф.1, оп. 4, д.1021, с. 7.
4. Отчет Кашкадарьинского облстатуправления Карши, 2005.
5. Отчет Кашкадарьинского облстатуправления Карши, 2005.
6. Отчет Кашкадарьинского облстатуправления Карши, 2005.
7. Насаф, 2006 йил, 16 – 28 феврал.
8. Насаф, 2000 йил 16- 30 сентябр.
9. Насаф, 2006 йил 16- 28 феврал.
10. Кашкадарье ҳақиқати, 1992 йил, 6 июн.
11. Кашкадарьинский ОГА, ф.1, оп. 4, д. 2021, с. 8.
12. Насаф, 2006 йил, 16 - 28 феврал.
13. Насаф, 2005 йил, 18 март.
14. Насаф, 2006 йил, 16 - 28 феврал.
15. Насаф, 2005 йил, 18 феврал.
16. Насаф, 2005 йил, 1 июл.

UDK 09(575.1)

**O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA’MINLASHDA MILLIY
MADANIY MARKAZLARNING(MMM) O‘RNI****B. Meliqulov***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida tashkil topgan Respublika baynalminal madaniyat markazi hamda Milliy madaniy markazlarning millatlararo totuvlik, hamjihatlikni saqlash va bag‘rikenglik munosabatlarini mustahkamlash borasida faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik yillari, madaniy markaz, millatlararo totuvlik.

**The role of the national cultural centres in providing for peaceful national coexistence in
Uzbekistan**

Abstract. In this article are analyzed intercultural culture centers of the republic which was established in the Republic of Uzbekistan in the years of independence and an accord between the nations of National culture centers, to keep the unity and to strengthen the tolerance connection activities.

Keywords: independence years, cultural center, international friendship.

**Место национальных культурных центров в обеспечении межнационального согласия в
Узбекистане**

Аннотация. В данной статье анализируется Республиканский интернационально культурный центр образованный в Республике Узбекистан в годы независимости, а также деятельность по укреплению отношения межнациональной толерантности и дружественности различных национальных культурных центров.

Ключевые слова: годы независимости, центр культуры, межнациональная дружба.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgiland. Bugungi kunda ko‘p millatli davlatlar qatoriga kiradigan O‘zbekiston uchun millatlararo munosabatlarni takomillashtirish masalasi, mamlakatda tinchlik, barqarorlikni ta‘minlash, fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim o‘rin tutgani sababli davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda bugungi kunda 137 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib kelmoqda 2015 - yil ma’lumotlariga ko‘ra, respublika aholisining umumiy soni 31 mln 22500 kishi tashkil etib, shundan 81,8 foizini o‘zbeklar, 18,9 foizini boshqa millat vakillari, jumladan tojiklar 4,7 %, ruslar 3,3 %, qozoqlar 3,1 %, qoraqalpoqlar 2,1%, tatarlar 0,9 %, qirg‘izlar 0,9 %, koreyslar 0,5 % hamda turkmanlar 0,6 % dan iborat [1, 166].

O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning madaniyat markazlarini tuzish g‘oyasini shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A Karimov boshlab bergan edi. Bu ish 1989 - yilda boshlangan bo‘lib, 1992 - yilda baynalminal madaniyat markaziga aylantirildi Bugungi kunda Markaz milliy-madaniy markazlarning faoliyatini uyushtirib, O‘zbekistonda yashovchi milliy guruhlarning madaniy ehtiyojlarini o‘rganib, qondirish borasida davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko‘maklashmoqda Markazning vazifalari: milliy-madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam berish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, respublikada yashovchi xalqlar va milliy guruhlarning milliy an‘analari, urf-odatlar va rasm-rusumlari, madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishga ko‘mak berish, yaqin va olis xorijdagi milliy hamda baynalmilal madaniy markazlar bilan aloqa va hamkorlik o‘rnatib, rivojlantirish, millatlar va elatlarni baynalmilal ruhda jipslashtirish, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishga yordam berishlardan iboratdir [2, 180].

Hozirgi paytda mamlakatimizdagi millatlararo ahillik va totuvlikni ta'minlashda xizmatlari katta bo'lgan 27 millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin milliy madaniy markaz (MMM) faoliyat olib bormoqda. Ularning 14 tasi respublika milliy madaniy markazi maqomiga ega.

Milliy madaniy markazlar Respublika viloyat, shahar, tumanlarida faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishiga, har birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda. Respublika baynalmilal madaniyat markazi ularning faoliyatini muvofiqlashtirib, amaliy va uslubiy yordam berayotgani alohida diqqatga sazovordir.

Milliy-madaniy markazlarning asosiy vazifalari uch yo'nalishga ega: 1) har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish; 2) mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish; 3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, tarixi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash. Ana shu uch yo'nalishda olib borilayotgan faoliyat modernizatsiyalashayotgan ijtimoiy hayot va millatlararo munosabatlarni rivojlantirish talablariga muvofiqdir.[1, 156].

Milliy-madaniy markazlarga tajribali, taniqli olim, ziyoli, san'atkorlar kela boshladilar, ular tomonidan professional va badiiy havaskorlik uyushmalari tuzila boshlandi. Ayniqsa, rus, koreys, qrim tatar, turk, qozoq, nemis, tojik, uyg'ur guruhlarining faoliyati juda samarali bo'layapti. Bunday markazlar qoshida u yoki bu millat tilini, adabiyotini o'rganuvchi kurslar ham ochila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekanligi, belgilab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub turli diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining teleradio kanallari orqali 10 ta tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozorbayjon) ko'rsatuv va eshittirishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizdagi gazetalar 10 ta tilida (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz) jurnallar esa 8 ta tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman) bosilmoqda.

Shu bilan birga, yurtimizda o'rta va oliy ta'lim 7 tilida: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida amalga oshirilmoqda [3,].

Respublikaning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Rus milliy madaniy markazi tashkil topganligining 10 yillik yubileyi munosabati bilan yo'llagan tabrigida shunday degan edilar: "Bugungi kunda bizning mamlakatimizda milliy madaniy markazlar tomonidan odamlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash, ertangi kunga bo'lgan ishonch muhitini shakllantirishga, yosh avlodni bizdan ko'ra aqlli, ma'rifatli, kuchli va albatta baxtli bo'lishi shartligi ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirgan ijobiy va ko'pqirrali ishlariga baho berish mushkuldir" Davlatimiz rahbari tomonidan milliy madaniy markazlar faoliyatiga bunday yuqori bahoning berilishi ularga yanada katta mas'uliyat yuklagan edi[1,159].

2017 - yil 24 -yanvarda Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazi tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati katta madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Mazkur tadbirda Respublika Baynalmilal Markazi hamda MMM vakillarining xalqimizning birligi va jipsligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shayotgani munosabati bilan, 20 nafardan ziyod tashabbuskor va fidoyi yurtdoshlarimizga Vatanimizning yuksak mukofotlari topshirildi [3]

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2017 - yil 7 - fevralda «O'zbekiston Respublikasini

yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni [4]butun xalqimiz tomonidan ko'tarinki ruhda, qizg'in kutib olindi

Mazkur farmon xalqimiz xohish-istaklarini o'zida mujassam etgani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi Bugungi kunda ushbu strategiyaning mamlakatimiz taraqqiyoti, aholi farovonligini oshirishdagi o'rni muhim bo'lgani holda, farmonning beshinchi ustuvor yo'nalishi - xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish masalalarini o'z ichiga oladi Jumladan, ustuvor yo'nalishning 5.1 – bandida fuqorolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, deya belgilab qo'yilishi respublikada millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi[4].

Albatta, kelgusi besh yillikdagi O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalarining alohida kiritilishi bejizga emas Dunyodagi globallashuv jarayonlari avj olayotgan paytda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik munosabatlarining ahamiyati nechog'lik muhim ekanligi ayon bo'ladi

Keyingi yillarda Respublika Baynalminal madaniyat markazi, MMM lar hamda bir qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash bo'yicha ko'plab tadbirlarni amalga oshirmoqda "16 noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni", Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Navro'z, Xotira va qadrlash kuni, shuningdek, turli millat va e'tiqod vakillarining an'anaviy bayramlariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar, matbuot konferensiyalari, davra suhbatlari, badiiy kechalar va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda Mazkur tadbirlar millatlararo munosabatlarda barqarorlik, totuvlik, tinchlik va bag'rikenglik kabi yuksak fazilatlarini xar bir xalq ongiga singdirishda mustahkam poydevor bo'lib kelmoqda

Qisqa xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalqlarining jipsligi va hamjihatligi mustaqillik, erkinlik, demokratiya va insonparvarlik g'oyalariga hamda bozor munosabatlariga asoslangan rivojlangan jamiyat qurish yo'lida eng muhim omillardan hisoblanadi. Ko'pmillatli, ko'p madaniyatli O'zbekiston Respublikasi uchun fuqarolar o'rtasidagi tinchlik-totuvlik hamda millatlararo hamjihatlikni saqlab qolish, ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishlari, qiziqish va layoqatlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, madaniyatlari, an'ana hamda qadriyatlarni saqlash, rivojlantirishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklanib, mustahkamlanib bormoqda.

Adabiyotlar

1. Musayev O O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. -Toshkent: Istiqlol nuri, 2016 – B.232
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003 y., 180-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvda so'zlagan nutqi //www.gov.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //www.gov.uz

UDK: 340:152.3

JAMIYAT HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O'RTA ASRLAR SHARQ MUTAFAKKIRLARI MA'NAVIIY MEROSINING ROLI**S.S.Abdullayeva***Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*

Annotatsiya. Mustaqillik yillarida yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. O'rta asrlar sharq mutafakkirlari ilmiy ijodida ham huquqiy madaniyatni targ'ib qilish masalalariga ahamiyat qaratiladi. Ushbu maqolada yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaktirishda sharq mutafakkirlari boy ilmiy merosi qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, yoshlar, huquqiy madaniyat, ahloq-odob normalari, sharq mutafakkirlari ilmiy merosi, huquqbuzarlik, huquqiy himoya.

Роль средневековых мыслителей в развитии правовой культуры общества

Аннотация. В период независимости стало актуальным повышение правовой грамотности молодежи. В произведениях среднеазиатских мыслителей и учёных было уделено внимание правовой культуре. В статье даны мнения и взгляды среднеазиатских ученых, направленные на правовую культуру молодежи.

Ключевые слова: независимость, молодежь, правовая культура, нормы морали, научное историческое наследие восточных мыслителей, правонарушение, правовая защита, правовая ответственность.

The role of medieval thinkers in the development of the legal culture of society

Abstract. In period of independence there was an actual increase of legal literacy of youth. In works of the Central Asian thinkers and scientists has been paid the attention on legal culture. In article are given opinions and sights of the Central Asian scientists directed on legal culture of youth.

Keywords: independence, youth, legal culture, norms of morals, scientific historical heritages of eastern thinkers, the right infringement, legal protection, legal responsibility.

O'zbekistonda yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangi fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyatining huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini barpo etishda jiddiy yutuqlarga erishildi. Bu borada islohotlarning davomi sifatida 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Tashkil etilgan ushbu xalqaro anjumanda AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Misr, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Rossiya, Ozarbayjon kabi ellikka yaqin mamlakatdan olimlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, oliy ta'lim muassasalari professorlari, ilmiy markazlar va institutlar mutaxassislari, ekspertlar ishtirok etdi. YUNESKO Bosh direktorining o'rinbosari, Osiyo va Tinch okeani mintaqaviy byurosi direktori Xubert Gizen o'rta asrlar Sharq allomalarining dunyo tamaddunida tutgan o'rni, ilm-fan va san'at rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritdi. Mamlakatda milliy qadriyatlarni tiklash, boy tarixni o'rganish, fan va ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratayotgan e'tibori uchun prezidentimizga minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Biz mutafakkirlarimizning qutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning ma'naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz. Boshqacha aytganda, biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy Hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz», – deb ta'kidlangan edi.[1]

Bugungi kunda respublika aholisining 60 foiziga yaqin qismini tashkil etuvchi yoshlarning huquqiy madaniyati masalasini va uning yozma tarixiy an'alarini tiklash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois talaba-yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning nazariy jihatlarini ilmiy

o'rganish ajdodlarimizdan qolgan boy yozma manbalarga murojaat qilishni taqozo qiladi. Ma'lumki, X-XV asrlarda Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo va Eron mintaqalarida Arab xalifaligining siyosiy ahamiyati zaiflashuvi jarayonida birin-ketin Buvayxiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, keyinroq, Temuriylarning mustaqil va qudratli davlatlari vujudga keldi. Bag'dod, Qohira va Damashq bilan bir qatorda Buxoro, Samarqand, Hirot, Isfaxon, Sheroz shaharlari fiqh va madaniyat markazlariga aylandi. Bu davrda xalqlarning o'z davlatchilik tarixiga qiziqishi, o'z milliy davlatchilik an'analarini tiklashga intilishi kuchaydi. Masalan, Bolasog'unlik Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xorazmiy kabi shoir, mutafakkirlar turkiy tilda ijod qilib, ularda o'z xalqlarining milliy davlatchilik an'analarini, fiqh an'analarini, axloqiy, ma'naviy merosini tiklashga intildilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida mo'g'ullar istilosiga qarshi ozodlik harakati natijasida buyuk sohibqiron Amir Temur davlatining vujudga kelishi bilan Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat, adabiyot, me'morchilik va qurilishda katta yuksalish yuz berdi. Amir Temur va temuriylar davri huquqiy madaniyati fiqhning ahamiyatga molik yutuqlarini yaratdi. XV asrda milliy davlatchilik, adolat, hukmdor va fuqaro huquqiy munosabatlarining badiiy talqini Alisher Navoiy ijodida o'z kamoliga yetdi.

Sharq mamlakatlarida vujudga kelgan ijtimoiy-huquqiy tafakkurda davlatchilik g'oyalarning keng tarqalishiga zamin yaratdi. Fuqaro huquqiy tafakkurida eng ezgu orzu-umidlar, tenglik, birodarlik, adolatli podshoh ideali, baxt-saodatga eltuvchi mukammal davlat to'g'risidagi ta'limotlar o'zining nafaqat falsafiy, balki huquqiy ifodasini ham topdi.

Bu davrdagi huquqiy hurfkrilik asosida davlat va jamiyatga yangicha qarash shakllandi, davlat, jamiyat va har bir fuqaroning huquq va burchlari yangicha talqin etila boshlandi. Ayniqsa, davlatning eng yaxshi tuzumlari, davlat qurilishining eng yaxshi shakllarini izlashda o'rta asrlardagi podshohning ilohiy irodasi haqidagi umumiy gaplar o'rniga tenglik va adolatga asoslangan barkamol davlat tuzumi ideali mutafakkirlarga ilhom berar edi. Shu munosabat bilan huquqiy, ma'naviy-axloqiy va siyosiy falsafaga e'tibor kuchaydi. Xuddi shu ehtiyojlardan kelib chiqib, sharq mutafakkirlari Aflotun va Arastu asarlarini - «Davlat», «Qonunlar», kabi asarlarni tarjima qilish va sharhlashga kirishdilar.

Ibn Sinoning fikriga ko'ra "kishilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun ham qonunlarga ehtiyoj sezilar ekan, ularni qabul qilishi lozim".[2] Qonunlarni xalqqa yetkazish va ijro etish uchun esa, avvalo xalq bu qonunlarga ishonish kerak. Ibn Sinoning eng yirik asarlaridan biri «Ash-Shifo» inson va jamiyatni ma'naviy poklash, ijtimoiy-huquqiy illatlarni qanday davolash muammolariga bag'ishlangan. Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlarining insonlar ahil yashaydigan jamiyat qurish, ijtimoiy illatlarni yo'qotishga intilishlar ularning gumanistik ruhidan - insonga mehr-muhabbatidan, insonlarning baxt-saodatga erishish muammolarini hal etishga urinishlari bu mutafakkirlarning barcha uchun bir xil amal qiluvchi adolatli qonunlar haqidagi kambag'al - dehqonlarning orzu-armonlarini aks ettirdi. Allomaning boshqa asarlari ham rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan. [3]

«Kitob al ahl al-madinat al-fozila» (Fozil shahar odamlarining qarashlari haqida risola) asarida Forobiyning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, davlat tuzilish va komil inson xususida qarashlari batafsil bayon qilingan. Uning fikricha, insonning bu olamga kelishi va yashashidan maqsad - baxt-saodatga erishishdan iboratdir.

Fozil jamoa o'zining huquqiy mukammalligi, yashash qonuniyatlari bo'yicha koinotga qiyos qilinadi: koinotaro turli hodisalar va narsalar o'rtasida uyg'unlik, hamjihatlik va hamkorlik Sababi Avval (Xudo) faoliyatining natijasi ekan, xuddi shuningdek, jamiyatda ham turli toifalar o'rtasidagi hamjihatlik va mutanosiblikka Birinchi imom - hukmdor faoliyati, namunali ishlari tufayli erishiladi. Mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit sotsial organizmning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan funksiyalariga ega bo'lib, shu vazifalarni bajarish bo'yicha ixtisoslashgandir. Bularning ichida eng mukammal shaxs, davlatni idora qiluvchi Birinchi rahbar hisoblanadi. U jamiyatdagi boshqa toifalarning mavjudligi va yashashlarining sababchisi, ularning to'g'ri tashkil etilishi, o'zaro uyg'unligi va tartibga solinishining ham sababchisidir.[4] deydi Forobiy.

Forobiy yoshlarni tarbiyalash muammosi haqida gapirar ekan, ularni nazorat qilish va saqlash muammosini ham ko'taradi. Ushbu vazifalar nafaqat pedagogikada, balki huquqni muhofaza qilish faoliyatida ham zarur. Yoshlar bilan ishlash murakkab, lekin ular nazorat qilinmas ekan, yomon fe'l-atvor shaharni tanazzulga olib keladi. Hukmdor odamlarning va jamiyatning ruhiy holatini shu

darajada o'rganmog'i lozimki, «unga nafsning qanday holatida odamlar fazilatli ishlarni qila olishi, shahar ahlining kamchiliklari va illatlarini qanday bartaraf etilishi, qanday san'at yo'llari bilan shahar ahli qalblarida yaxshi fazilatlarini shakllantirish mumkin ekanligi hamda bu fazilatlarini qanday vositalar yordami bilan saqlab qolish mumkinligi ayon bo'lishi kerak». [5]

Axloqiy fazilatlar va illatlar (huquqbuzarlik) odamlarning kundalik turmushida ko'p takrorlangan xatti-harakatlari natijasida shakllanadi. Yaxshi harakatlar oqibatida fazilatlar paydo bo'ladi, yomon ishlar - turli axloqiy illatlarni keltirib chiqaradi: «Odam bolasi onadan fazilat yoki razolat sohibi bo'lib tug'ilmaydi, xuddi shuningdek, odam to'quvchi va yozuvchi (kotib) bo'lib olamga kelmaydi. Lekin odam tug'ma ravishda (tabiatan) fazilat yoki razolat bilan bog'liq holatiga moyil bo'lishi mumkin. Mana shu holatdan kelib chiqqan holda odam fazilatli yoki illatli harakatlarga moyil bo'ladi. Lekin uning qaysi yo'nalishda borishi tarbiyaga bog'liqdir». [6] Demak, potensial jihatdan har bir odamda fazilat yoki razolatga moyillik mavjud. Ammo tarbiya natijasida undagi fazilatli sifatlarni rivojlantirish, kamol toptirish mumkin, yoki, aksincha, uning tabiatidagi salbiy sifatlar (razolat) bir tomonlama ustunlik qilishi mumkin. Shu boisdan hamma odamlar bir xil darajada komilikka erisha olmaydi: fazilatga moyil odamlar tarbiya natijasida tobora kamol topadi, razolatga moyil kishilarning esa kamol topishi va ma'naviy yuksalishi ancha sust bo'ladi.

Yusuf Xos Hojibning mashhur asari «Qutadg'u bilig» («Bilimlar bulog'i», «Baxt-saodat keltiruvchi bilim») uning barcha asarlari orasida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu asar o'sha zamon turkiy tilida (uyg'ur tilida) juda mohirlik bilan yozilgan bo'lib, nafaqat falsafiy, balki noyob huquqiy yozma manba hamdir. Asar mazmunida davlatni idora qilish, huquqiy ongli jamoa qurish vositalari qanday bo'lishi kerak, mansab sohiblarining jamiyat (davlat) manfaatlariga munosabati qay tartibda bo'lishi kerak, degan muammolarga alohida e'tibor berilgan. [7]

«Qutadg'u bilig»da huquqiy ta'lim-tarbiya, ma'rifat, turli ijtimoiy tabaqalar va kishilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, davlatni boshqarish xususida bahs qilinadi. «Qutadg'u bilig» asarining bir muhim xususiyati shundaki, unda ko'pgina huquqiy istilohlar, masalan, davlatchilik, davlatni idora qilish, ma'muriyat, ichki va tashqi siyosat, amal va mansab, amaldor shaxslar va boshqa qator masalalarga oid sof turkiy terminlar uchraydi. Bu istilohlar Qoraxoniylar saltanati va davri huquqiy tizimini o'rganishimiz uchun benihoya qimmatli ahamiyatga egadir.

O'zbek xalqining huquqiy madaniyati tarixida xotin-qizlar huquqi alohida e'tiborga sazovor. «...O'rta Osiyo xalqlarining urug'chilik-qabilaviy hayoti sharoitida ayollar asosan yuqori martabalarini egallab, juda hurmat-izzatda bo'lganlar. Qadimiy zamonlardagi O'rta Osiyo xalqlarining adabiy yodgorliklari, xalq og'zaki ijodi etnograf M.O.Kosvenning «Matriarxat» asarida, shveysariyalik olim I.Ya.Baxofen «Onalik huquqi» kitobida, ingliz tadqiqotchisi R.Briffolt uch tomlik «Onalar» asarida ilgari surgan ko'pgina odilona g'oyalarni tasdiqlaydiki, bu g'oyalar ibtidoiy madaniyatning (olovni o'zlashtirish, hayvonlarni qo'lga o'rgatish, o'simliklarni parvarish qilish, turar joy bunyod etish, kiyim-kechak, poyabzal, sopol idishlar va hokazolar yasash) asoschilari sifatida ayollarning jamiyatda kattagina rol o'ynaganliklari haqidadir. V.Briffolt fikriga ko'ra, ayol kishi jinslar o'rtasidagi, kekxa va yosh avlodlar o'rtasidagi munosabatlar xususida dastlabki axloq normalarini barqaror etgan.

O'zbek huquqiy madaniyatining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan amaliy davlatchilik an'alariga, xususan Sohibqiron Amir Temur zamonasiga borib taqaladi. U o'z «Tuzuk»larida qayd etganidek, davlatni dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladi. Sohibqironning o'zi qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda ahli musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, yaxshi va savob ishlarga undagan. Musulmonlarga tavsif, hadis, fiqhdan dars bersinlar, deb shaharlarga fiqh olimlarini va mudarrislarni muntazam yuborib turgan.

Milliy davlatchiligimizda oqil podshohlarimiz davlatni adolatli, qonun-qoidalar chegarasida boshqarganlar. Bu xususda jahongir Amir Temur yozadi: «... Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon etkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi». Bizning davrimizda o'sha qonun-qoidalar tuzuklarga birlashib, mukammallashib, qonunlarda jamlangan. Qaysi mamlakatda qabul qilingan qonun-qoidalarga hamma baravar amal qilsagina, saltanat mustahkam bo'ladi, xalq farovonligi oshadi, u haq-huquqidan to'la foydalanishga erishadi. Shu qonun kuchiga ega bo'lgan vazifalar allaqachon amalda qo'llanila boshlandi. Bu qonun oldida barcha teng javob beradi. Agar qonun amalda tatbiq etilmasa, u xalq oldida hech qanday obro'-e'tiborga ega bo'lmaydi. Qonun hamma uchun teng bo'lsa, u ma'naviy, tarbiyaviy kuch-qudratga ega bo'ladi. Shuning uchun ham «fuqaro-jamiyat-davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona

huquqiy yechimi topilmoqda. Bu yechim qonun va huquqlarning barcha uchun barobarligida yaqqol ko'rinadi.

Jahon huquq madaniyati yutuqlaridan ijodiy saboq olib, o'rganib, o'z davlatchiligining boy merosiga tayanib, huquqiy davlat qurishga azm-u qaror qilgan xalqimiz boy huquqiy madaniyat tarixiga ega.

Har bir yosh avlod jamiyatning siyosiy, huquqiy, axloqiy madaniyatini egallaganda, o'zidan avvalgi avlodlarning ijtimoiy-siyosiy tajribalariga tayanadi va ularni o'z ongidan o'tkazadi, yaxshilarini olib, faoliyatida tadbiq qiladi, bu bilan o'zining madaniyatini yuksaltiradi. Yoshlarda huquqiy, siyosiy axloqiy madaniyatni qaror toptirishda avvalo ularning dunyoqarashlarida, tafakkurida umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda milliy istiqlol mafkurasi ham singishi lozim. Ana shu dunyoqarash shakllangandan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy, siyosiy, ahloqiy madaniyat shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish zaruriyati tug'iladi. Chunki huquqiy, siyosiy madaniyat va huquqiy himoyaning mavjudligi jamiyat demokratlashuvining asosiy kafolatlaridan biridir.

Islom dinning asosi bo'lgan Qur'oni Karim va Hadisi sharif, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Naqshband, Ahmad Yassaviy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Marg'iloniy va boshqa allomalar asarlarida olg'a surilgan insonparvarlik, halollik, poklik, millatni sevish, vatan bilan g'ururlanish, mehnatsevarlik, hurfikrlik kabi g'oyalarni yoshlar ongiga singdirmoq lozim.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Olloh qalbimizda, yuragimizda. -T.: O'zbekiston. 2000.12-B.
2. Sagadeev A.V. Ibn-Sino(Avitsena).-M.:Misl,1984.-S.201.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993;
4. Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 1993.
5. Farabiy. O'sha asar, 174-B.
6. Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-ата, 1975, 180-С.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. -T.: «Fan» 1971. 24-25-B.

UDK: 37.033

SHAXSNING TABIATGA AXLOQIY-ESTETIK MUNOSABATI VA UNING EKOLOGIK MADANIYAT BILAN INTEGRATSIYASI

Aliyeva Sh.R.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbekona ahloqiy-estetik munosabatlar sharq mutafakkirlari qarashlari hamda zamonamizning yirik ilm etakchilari fikrlari asosida tahlil qilinadi. Ahloqiy-estetik munosabatlarning ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonidagi uyg'unligi yoritiladi. Ekologik madaniyatni namoyon qilish - jamiyatdagi har bir insonning ahloq-odob va ma'naviyatining in'ikosi sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ahloqiy tarbiya, estetika, ekologiya, tabiat, oqilona munosabat, muomala, ta'lim, qadriyat, buyuk davlat, kelajak.

Морально-эстетическое отношение личности к природе и интеграция с экологической культурой

Аннотация. В этой статье раскрыто морально-эстетическое отношение личности через призму взглядов восточных и современных мыслителей. Экологическая культура - по - казатель нравственных норм личности, раскрыта гармония связи между экологической культурой морально-эстетическими нормами.

Ключевые слова: моральное воспитание, эстетика, экология, природа, разумное обращение, отношение, образование, ценность, великое государство, будущее.

The morally-aesthetic relation of the person to the nature and ecological - cultural integration

Abstract. In this article is explained the morally-aesthetic relation of the person via Eastern and modern thinkers views. Occurrence and development cultural-ecological the relation between the person and morally-aesthetic norms.

Keywords: Moral upbringing, aesthetics, ecology, the nature, the reasonable reference, the relation, education, value, the great state, future.

Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirish – bevosita tarbiya masalalari bilan bog‘liq jarayon. Ma‘lumki, tarbiyaning bosh vazifasi inson borlig‘ini kamol toptirishdan iborat. Zero, axloqiy, estetik, ma‘rifiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy kabi barcha tarbiya shakllarida inson muammosi yotadi. Insonning ekologik madaniyati uning axloqiy va estetik tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o‘z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda.[1] Axloqiy tarbiya insonning shaxs bo‘lib etishuvini ta‘minlaydigan uzluksiz jarayon bo‘lib, u insonni fazilatlarini boyitishga va illatlardan xalos etishga xizmat qiladi. Jamiyatda fazilatli kishilarning ko‘payishi ekologik madaniyat taraqqiyotiga ta‘sir ko‘rsatadi, ekologiya sohasidagi bilimlarning rivojlanishini tezlashtiradi.

Axloq va odob normalari ijtimoiy munosabatlar, ta‘lim-tarbiya asosida shakllanadi. Shu sababli ham insonda tabiiylikka nisbatan ijtimoiylik, tarbiyalanganlik ta‘siri kuchlidir. Ta‘lim–tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti–harakatlarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ma‘naviyat bilan bog‘lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi. Shu bois axloqiy tarbiya asosan quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- insonlarning yuksak axloqiy g‘oyalarga sodiqligini hamda sha‘n va qadr–qimmatini saqlashni oliy axloqiy xislatlar deb tushunishini ta‘minlash;

- axloqan pok, ma‘nan boy, vijdonli, mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonlarni yetishtirish;

- yuksak axloqiy madaniyat sohibi, ekologik ong va ekologik madaniyatni namoyon etish tuyg‘ularini mustahkamlashdan iborat.

Inson kamoloti ko‘p qirralidir. Uning buyukligi, donoligi avvalo, ma‘naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma‘naviyatga ega bo‘lgan insongina jamiyat hamda tabiat muammolarini aqli va zakovati bilan yechishga harakat qiladi, tabiatga oqilona yondashadi. Chunki inson o‘z atrofidagi odamlar ta‘sirida kamolotga erishadi. Zotan, inson tabiatning bir qismi bo‘lib, undagi muammolardan chetda turolmaydi.

Insonlarga xos bo‘lgan ekologik-axloqiy normalari, uning mezonlari tabiat muammolarining o‘zgarishi, kuchayib borishi va hayotiy ehtiyojlar ta‘sirida o‘zgarib turadi. Ta‘lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti–harakatlarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni axloq va nafosat bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi.

Abdulla Avloniy axloqqa shunday ta‘rif beradi: “Axloq, bu – xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillikning, badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadilar. Lekin bular kishida o‘z – o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma‘lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”.[2]

Jamiyat taraqqiyotini inson ma‘naviy kamoloti bilan bog‘lashga intilish hamma tarixiy davrlarga xosdir. Jamiyat ma‘naviy kamolotining muayyan davri, bosqichida va turli sharoitlarida diniy e‘tiqodlar ma‘naviy muhitni barqarorlashtirib turuvchi omil bo‘lishini insoniyatning tarixiy taraqqiyoti juda ko‘p marta isbotlab bergan. Birgina misol sifatida islom dinida jamiyat hayoti uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan axloq va huquq mezonlarini Ollahning irodasi, jannat rohati–yu, do‘xax azobi bilan bog‘lab, inson shuuriga, imon–e‘tiqodiga singdirish maqsadi qanchalik katta o‘rin egallaganligini ko‘rish mumkin.

Yosh avlodda yangi g‘oyalar asosida, axloqiy-estetik tarbiyaga asoslangan ekologik madaniyatni anglash, unga asoslanish uchun oddiy istak kifoya qilmaydi, balki muayyan ma‘naviy saviya ham kerak. Bu saviyani shakllantirish aniq tarbiyaviy, ma‘rifiy ishlarning maqsadi kishilarni

mavjud sharoitlar va vaziyatga moslashtirish bilan emas, balki istiqbol uchun kurashga, faollikka safarbar etish zarurdir.

Yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirish uning axloqiy hamda estetik tarbiyasi bilan bog'liq. Zero axloqiy va estetik tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biridir.. Yaxshi fazilat nafaqat shaxs, balki jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma'noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo'lgan kishilar tabiat go'zalligiga o'z hissalarini qo'shadilar, ekologik bilimlarning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug' olamga shunchaki kelmaydi. Faylasuf olim Erkin Yusupovning fikricha: "Axloq borasida tubanlashish oson, lekin yuksalish qiyin, axloqiy bo'hronga qarshi kurashishdan ko'ra uning oldini olish oson. Qayta oyoqqa turish qiyinligini anglagan kishi yiqilmaslikka harakat qiladi". [3]

Inson bu yorug' olamga shunchaki kelmaydi. Hazrat Navoiy ta'biri bilan aytganda, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi. Shunday ekan komillikka tomon yo'nalish bevosita ma'naviylik tomon borish demakdir. Shu o'rinda "komillik" tushunchasiga to'xtab o'tishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Ma'lumki, "komillik" tushunchasining xilma – xil talqinlari bor. Diniy ta'limotlarda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi. Insonning kamolotga erishuvi Haqqa talpinishidir. "Hujjatul Islom" Imom Abu Homid al-G'azzoliy «Kimyo'i saodat» asarida yozadilar: «Inson farishta va hayvon orasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat, faqat insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot hislati mavjud».[4] Demak insonni tarbiyalash, moddiy - hayvoniy hirslarni barham ettirib, ilohiy – rahmoniy sifatlarini ko'paytirish mumkin. Komil inson - jamiki insonlarning haqiqatidir, ya'ni odamiylar odamiysidir. Najmiddin Komilov aytganidek, "Komil inson - bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutloq ruhga tutash, fayz-u karomatdan serob, surat-u siyrati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo–lim pokiza zot". [5]

Komillikning har bir davrga xos ijtimoiy mezonlari mavjud. Buning boisi shuki, odamzod aqliy, axloqiy va estetik, ruhiy va jismoniy iqtidori, iste'dodi, salohiyati jihatidan bir–biridan farqlanadi. Darhaqiqat bir–biridan farqlanuvchi insonlarni axloqiy-estetik tarbiya orqali komillikka yetkazish mumkin.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: "Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga etgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif".[6]

Aziziddin Nasafiy kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib olgan. Buning biri – axloq bo'lsa, ikkinchisi – o'z - o'zini tanish. Shu ikki asosning bor yoki yo'qligiga qarab u odamlarni uch toifaga ajratgan.

Birinchi qism odamlar - aslida axloqiy xislatlar bilan bezanmagan va o'z – o'zini tanimagan odamlar. Ikkinchilari -aslida axloqiy hislatlar bilan bezangan, ammo o'z – o'zini tanimagan odamlar. Uchinchi toifa odamlar - aslida axloqiy xislatlar bilan bezangan va o'z – o'zini tanigan odamlar.

Shu tariqa, komil insonning o'ziga xos axloq qoidasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlariga ega bo'lish har bir odamni tabiatga axloqiy munosabatda bo'lishi deb qarash mumkin. Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xarakterga ega. Ammo masala qanday qo'yilishidan qat'iy nazar, ekologik, axloqiy-estetik bilimlarga ega bo'lgan inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Inson to'g'ri tarbiya topmasa, uning xatti–harakatlari tabiatga zarar keltiradi. Hazrat Mirzo Abdulqodir Bedil ta'kidlaganlaridek, "Agar me'mor dastlaki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, devor yulduzlarga etsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi". Bundan ko'rinib turibdiki, tabiatda yuzaga kelayotgan barcha muammolar yechimi ma'naviy–axloqiy jihatdan yetuk kishilarning fidokorona, halol mehnati, hamkorligi, iymon–e'tiqodi asosida ro'yobga chiqadi.

Ekologik, axloqiy va estetik tarbiyani shakllantiradigan, mustahkamlaydigan va uyg'unlashtiradigan bir qator vositalar mavjud. Ular tabiatni axloqiy va estetik tarbiyaviy asoslari bilan uzviy bog'langan holda ijodiy yondashuv asosida qaror topadi.

Ekologik, axloqiy va estetik tarbiya vositalarining bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalardir. Odatda har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan ekologik axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya

bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi ekologik zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bolaning atrof-muhitga yaxshi ko'z bilan qarash, suvni iflos qilmaslikka, maysalarni yulmaslikka, daraxt shoxlarini sindirmaslikka o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar ekologik, axloqiy va estetik tarbiyasida televideniye, radio, kompyuter, internet, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Barkamol avlod ekologik, axloqiy va estetik tarbiyasida ota-onaning, do'stlarining, ustozining shaxsiy namunasi ham katta rol o'ynaydi. Ota-ona madaniyatli inson bo'lsa, bu fazilat farzandlarining kamol topishida hamda uning yurish-turishida, fe'l-atvorida, kiyinishida, oilada, mahallada, insonlar bilan muomalasida, atrof-muhitni asrab avaylashi, tabiatga bo'lgan munosabatida o'zini oqilona yondashishida barcha xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bu fazilatlar insonning tabiatga bo'lgan botiniy munosabatining zohiriy ifodasidir. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun ta'lim yoki tarbiyachining o'zi ekologik, axloqiy va estetik tarbiyalangan bo'lishi kerak. Haqiqiy ustozlikning mohiyati ulug' hayot taqozo etayotgan axloqiy fazilatlarini yosh avlodning ekologik ongiga, madaniyatiga, eng muhimi, uning kundalik xatti-harakatiga aylantira bilishidir.

Tabiatga axloqiy yoki estetik munosabatda bo'lishlik darajasi insonlarning xatti-harakatlaridan, muomalalaridan ham sezilib turadi. Axloq inson qalbi xazinasidagi eng katta boylik hisoblanadi. Tildagi chiroyli so'zlar hamma vaqt ham dildagi yaxshi niyat, go'zal maqsadlarning ifodasi bo'lavermaydi. Donishmandlarning "Yuziga boqma, so'ziga boq" – degan hikmatlari ayni haqiqatdir. Muomala esa insonlarni ekologik harakatlarda bir-biriga bog'lovchi, yaqinlashtiruvchi, tabiatni asrash yo'lidagi katta-kichik xayrli ishlarga undovchi fazilatdir. Insonning go'zal hayot kechirishida, tabiatning bir qismi ekanligi hamda unda o'z o'rnini topa olishida, boshqalarning hurmat ehtimomiga erishishda muomalaning o'rnini kattadir. Insonning shirinso'zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so'zga boyligi, chechanligi, ma'nodorligi uning o'qimishli, bilimdonligini ko'rsatadi. Go'zal muomala inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha achchiq so'z, qo'pol muomala inson qalbini larzaga soladi. Shirin muomalada bo'lish ham katta san'at. Shirin so'z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. So'z, yuz va ko'z tilning ko'rki hisoblanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, boshqalarga go'zal muomalada va shirinso'z bo'la olgan insongina tabiatga ham axloqiy va estetik munosabatda bo'ladi.

Yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal qilish kishilarning ma'naviy kamoloti bilan chambarchas bog'langan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham O'zbekistonda barkamol avlod ekologik, axloqiy va estetik madaniyatini uyg'un rivojlantirish – obod turmush tarzining ma'naviy asosidir.

Ta'lim-tarbiya ishlarining zaminida barcha davrlarda ham muayyan manfaatlar bilan bog'langan maqsadlar yotadi. Ma'rifat ma'naviyatning mohiyatini, ahamiyatini o'rganish, targ'ib etish, ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar tizimidir. Har qanday sharoitda ham jamiyatning ma'naviy kamoloti, insonlarning ekologik madaniyatining shakllanishi ma'lum maqsadlar bilan bog'langan ma'rifiy tadbirlar orqali amalga oshadi.

Insoniyatning tabiat hodisalarini mohiyatiga etishga harakat qilishi axloqiy va estetik tarbiyaga asoslanadi. Zamonning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoiy, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli siymolari ekologik tarbiya bilan shug'ullanadilar. Yuksak ekologik ong va madaniyat sohibi odatda davr uchun, tabiatning buguni va kelajagi uchun o'ta muhim bo'lgan g'oyalarni ko'tarib chiqadi va shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib borishga qodir.

Tabiatning ochilmagan qirralari kashf qilinar ekan, u ma'naviy, axloqiy va estetik ong va ta'lim-tarbiyaning yangi qirralarini keltirib chiqaradi. Axloqni takomillashtirishga ehtiyoj sezmaslik esa ekologik bilimlarning tanazzul belgisidir.

Ekologik madaniyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil - bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham o'z asarlarida ta'lim-tarbiya haqida shuni ta'kidlagan edilar: " Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini va asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi".[7]

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil qiladi. Shu boisdan kelajak avlodni ekologik, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash va yoshlarda tabiatga bo'lgan ratsional munosabatni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. I.A.Karimovning «Buyuk davlat, buyuk

kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak» [8] degan qat'iy va betakror so'zlarini asos qilib olmoq lozim.

Yoshlarimizning ekologik madaniyat ruhida, jahon miqyosida o'z mavqeini hamisha saqlab qoladigan – shu muqaddas his- tuyg'ularni teran idrok etadigan, xullas shaxsiy manfaatlarini, el yurt manfaatlarini bilan uyg'un deb biladiganlarni etishtirishga majburmiz. Agar biz bugun yoshlarimizni ona tabiatni asrab avaylash yo'lidagi munosib shaxslar sifatida yetishtirishga bel bog'lagan bo'lsak, buyuk istiqbolimiz, taraqqiyotimiz global ekologik-siyosiy munosabatlar tizimidagi jahon miqyosidagi o'rnimiz hamisha o'z qo'limizda bo'ladi. Bu bizning oliy maqsadimiz desam xato bo'lmaydi.

Go'zal axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan kishilar ekologik bilimlarni o'rganishga ham, tabiatga oqilona munosabatda bo'lishga ham, odamlarga foydasi tegadigan kasb-hunarni egallashga ham rag'bat qilmaydilar. Shu sababli ekologik madaniyat rivojining barcha bosqichlarida avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalab, ularga ta'lim berish davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov ham shunday degan edilar: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi". [9]

Xullas, fan ham bevosita, ham bilvosita axloq bilan bog'liq va aynan shu bog'liqlik tabiiy-texnikaviy fanlarni insoniyashtirish vazifasini bajaradi",- degan g'oyatda o'rinli fikrni bildiradi. Shunday ekan bilim, ilm, iste'dod, tajriba asosida shakllangan ma'naviyat tabiatga bo'lgan axloqiy munosabati va faoliyatiga o'ziga xos yo'nalish, imkoniyat beradi.

Istiqbol g'oyalariga chuqur e'tiqodli, dunyoqarashi teran, ma'naviyati boy xalqgina o'zining buyuk kelajagini bunyod etishga qodir bo'ladi. Fuqarolari jismonan sog'lom, ruhan pok, axloqan yetuk bo'lgan mamlakat farovonligi va taraqqiyot yo'lidan ilm, fan va ma'rifatni rivojlantirish yo'lidan dadil bora oladi. Bunday mamlakat xalqi o'zidan keyingi avlodlarga ozod va obod yurt, mislsiz boyliklarni eng muhimi – ona tabiatga, ona tuproqqa, insonga cheksiz mehr - muhabbat va sadoqat tuyg'ularini meros qilib qoldiradi. Zero, ma'naviyat va ma'rifat tarix va taraqqiyot g'ildiragini olg'a harakatlantiruvchi millatni ulug'lik pillapoyalaridan yuksaklikka ko'taruvchi kuch bo'lib kelgan.

Adabiyotlar

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati., 2010. – 318 B.
2. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. -T.:, O'qituvchi, 1992 . 14-B.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. -T.:, Universitet, 1998, 82-B.
4. Komilov N. Komil inson haqida to'rt risola. -T.:, O'zbekiston 1997. 172-B.
5. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -T.:, Yozuvchi, 1996. 143 -B.
6. Shu asar. 147-B.
7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.:, Ma'naviyat, 2008. 61- B.
8. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida -Toshkent. O'zbekiston 1998 .162 -B.
9. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.:, Ma'naviyat, 2008. 62-B.

UDK: 377.3.02

ФИЛОСОФСКОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ РОЛИ СЕМЬИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ

Р.Ш. Тошқуватова

Самаркандский государственный университет

Аннотация. В статье семья рассматривается как важнейшая часть социального бытия. Анализируется роль семьи в духовно-нравственном значении для человека и общества. В качестве предмета изучения выступают способы функционирования семьи в плане духовно-нравственной реализации семейных отношений в условиях современной действительности. Проблема рассматривается через призму духовности, выполняющей роль исходной основы в методологических функциях изучения человека и общества.

Ключевые слова: семья, философское осмысление, духовность, гуманизм, статус, нравственные ценности, Навруз, «сумалак», «алла», ценности.

Oilaning falsafiy talkini va shaxs ma'naviy-axlokiy shakllanishiga ta'siri

Annotasiya. Oila ijtimoiy borlikning asosiy kismidir. Makolada inson va jamiyatning ma'naviy-axlokiy rivojlanishida oilaning urni bekiyosligi, shaxs ma'naviy barkamolligini shakllantirishda oilaning funksional uslublari kursatilgan. Shark va Garb falsafiy tafakkurining asarlarida kadriyatlarining oiladagi axlokiy negizlarni shakllantirish jarayenlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, falsafiy talkin, ma'naviyat, insonparvarlik, status, axlokiy kadriyatlar, Navruz, «sumalak», «alla», kadriyatlar.

Philosophical understanding of the role of the family and its influence on the spiritual and moral formation of the individual

Abstract. In the article the family is considered as the most important part of social life. The role of the family in the spiritual and moral significance for man and society is analyzed. As a subject of study are the ways of functioning of the family in terms of the spiritual and moral realization of family relations in the conditions of modern reality. The problem is considered through the prism of spirituality, which fulfills the role of the initial basis in the methodological functions of studying man and society.

Keywords: family, philosophical comprehension, spirituality, humanism, status, moral values, Navruz, "sumalak," "alla," values.

**Красивым быть, не значит им родиться,
Ведь красоте мы можем научиться.
Когда красив душою человек,
Какая внешность может с ней сравниться?
Омар Хайям.**

Проблемы семьи достаточно широко исследуются специалистами различных областей гуманитарного знания. Они представлены в социально-философском, социологическом, этическом, психологическом ракурсе. Что касается философской интерпретации проблем семьи, то она включает различные подходы, толкования и оценки. Представители многих философских школ прямо или опосредованно касались проблем семьи.

Философский статус понятие «семья» приобретает в работах Платона и Аристотеля. Семья интересовала этих философов древности прежде всего с позиции ее отношения к общему социальному порядку и, преимущественно, к государству. В концепциях Ф. Бэкона, Т. Гоббса, И. Канта формируется понимание семьи, навеянное парадигмами естественного права. В этом лоне семья воспринимается как неотъемлемая компонента естественных прав человека. Гуманистическая направленность философских идей Ж.-Ж. Руссо предопределила рассмотрение семьи в контексте категорий нравственности и свободы. Философская основа понимания брака и семьи с позиции общественной и индивидуальной необходимости заложена в трудах Г.В.Ф. Гегеля. Традиция анализа семьи как элемента системы социальных отношений берет начало в античной философии. В проекте идеального государственного устройства, изложенном в трактате «Государство», Платон вводит институт брака и жесткий контроль со стороны государства за репродуктивным поведением с целью поддержания демографической стабильности. В «Законах» он последовательно продолжает линию государственного контроля в сфере брачно-семейных отношений, рассматривая вопросы их регламентации на уровне государственной политики. Единым для его философской концепции предстает «постулат об определяющей и доминирующей роли государства в формировании брака и семьи и их последующем функционировании» [1].

Аристотель видел в семье исходную ячейку и основу государства. «Интересы государства являются истиной и сущностью интересов семьи и общества. Семья представляет собой первую форму общения, возникшую естественным путем для удовлетворения

«повседневных надобностей» [2]. Она оправдывается у Аристотеля двумя обстоятельствами: стремлением к деторождению и инстинктом самосохранения.

В Новое время проблемы семьи поднимаются в работах Ф. Бэкона, Т. Гоббса и Д. Юма. Ф. Бэкон выражает предпочтительное отношение к безбрачию, которое дает больше шансов и возможностей для совершения общественно полезных поступков. Т. Гоббс необходимым условием считает обязательное санкционирование брака государством, предусмотренное гражданским законодательством. Его сущность отражена в понятии «законный договор». Философ Д. Юм ратует за ограничение и полное исключение развода. Мораль – приобретенная характеристика личности; она формируется в процессе воспитания. Поэтому особое внимание родителям необходимо уделять развитию морально-нравственных качеств личности.

Система нравственных ценностей складывается в обществе на основе его экономических и социальных отношений, зависит от степени развития духовной культуры народа. От того, какими ценностными ориентирами руководствуется в своей повседневной жизни семья, что она считает наиболее важным и определяющим в жизни, а что второстепенным, незначительным, зависит и нравственный мир растущих в семье детей. И хотя каждое поколение вносит в систему нравственных ценностей что-то свое, есть и устойчивая иерархия таких ценностей, передающаяся от поколения к поколению. Есть элементарные нравственные ценности, имеющие общечеловеческий характер, которые человек должен, впитать с молоком матери: ценность человеческой жизни и недопустимость убийства, защита чести и достоинства личности, забота о слабых, безнравственность посягательства на честь женщины, уважение к старшим, нравственная защищенность. « Социологические исследования, опросы молодежи свидетельствуют, что интересы общества, ценности труда, образования граждане нашей страны неизменно выдвигают на первый план.»³ Большое место среди ценностных ориентиров занимают создание собственной семьи, рождение и воспитание детей, материальная обеспеченность, здоровье; дружба и товарищество. Те же исследования показали, что вплоть до окончания высшей школы молодые люди сохраняют в основном ту систему ценностных ориентаций, которая сложилась у них в рамках родительской семьи. Таким образом, нравственные ценности семьи обладают большой устойчивостью, и тем ответственнее роль семьи в формировании духовного богатства, нравственных качеств молодежи.

В условиях глобализации парадоксальность ситуации определяется, с одной стороны, кризисом современной общественной жизни, а с другой, - возрастанием на этом фоне национального самосознания, интереса к духовной жизни народов. В связи с этим как никогда остро ощущается необходимость коренного улучшения нравственной атмосферы. В отличие от других воспитательных институтов семья закладывает не только базисные основы, но и оттачивает грани личности через последовательное приобщение её к вечно живым и непреходящим духовным ценностям, что в свою очередь расширяет возможности для нравственной образованности и воспитанности человека, формирования его мировоззрения и обогащения внутреннего мира. Поэтому любое пренебрежительное отношение к семье ведет не только к снижению ее престижа, но и, как следствие того, к потере духовно-нравственных традиций, формированию эгоистического сознания, потребительского отношения к миру, разрушению гуманитарной сферы отечественного образования. Закладывая первооснову духовно-нравственного воспитания личности, семья, исходит из духовно-нравственных и социально-культурных норм общества в целом. Наличие противоречий между этими нормами в реальной жизни еще более повышает роль семьи как посредника между обществом и личностью и влияет на формирование ценностных ориентаций подрастающего поколения.

Духовные ценности узбекского народа, его традиции, обычаи, нравы в течение многих поколений играли и играют сегодня решающую роль в становлении личности, в формировании духовно-нравственных качеств подрастающего поколения. В них сосредоточены такие гуманистические ценности, которые не подвержены старению. В то же время они создают этническую специфику народа, украшают его духовный облик. Сейчас, в период глобализации, важно не растерять те духовные ценности прошлого, которые были накоплены многими

поколениями, так как в воспитании молодёжи невозможно обойтись без использования опыта народа в этой области.

Узбекский народ любит и умеет радоваться жизни, поэтому различные праздники проводятся с большим размахом, под зажигательную музыку национальных оркестров, с песнями, плясками. Один из значимых событий в году - праздник Навруз - время весеннего равноденствия, наступления нового года, пробуждения природы и начала посевных работ. Каждая семья тщательно готовится к этому событию: приводят в порядок свое дома, сады огороды, сажают и белят деревья. Непременным атрибутом Навруза является **сумаляк** - первое блюдо нового года, которое готовится из проросших пшеничных зерен. Весь процесс приготовления к празднику имеет воспитательное значение. Молодёжь приучается к труду, узнаёт много интересного о духовном наследии своего народа. Кроме того, по традиции во время праздника Навруз все поссорившиеся должны мириться, посещать больных и стариков, проявлять милосердие. Нравственные контуры узбекской семьи формируются именно через такие народные традиции. Духовно-нравственное формирование личности, одна из сложных, актуальных проблем современности, без решения которой не возможен дальнейший прогресс нашего общества.

Формирование нравственных ценностей освещается и в трактатах великого учёного средневековья Абу Райхона Беруни. Он ставит проблему чистоты тела и духа. «Если в семье существует чистота и дисциплина, то существует нравственная чистота», указывая, что на воспитание молодого поколения влияет среда, в которой он вырос. В своем произведении «Канон Масуда» – книге для потомков, большое значение уделялось нравственному воспитанию и труду. Великий узбекский поэт Алишер Навои оставил богатое духовное наследие. В его произведениях широко поставлен вопрос нравственного воспитания и обучения,

Коль можешь ты свершить благое дело,
Коль у тебя семья и дети есть,
Смотри, чтоб время зря не пролетело...

Ты породил детей, но должен знать
Как с малых лет им воспитанье дать

Почет и честь не в знатности и званье,
А в скромности и честном воспитанье... [4].

Таким образом, основные принципы узбекской семьи - это святость брака, ответственность родителей за воспитание детей и долг детей перед родителями, взаимное уважение и согласие, защита семейной чести и достоинства. Традиции являются неотъемлемой частью образа жизни и культуры. За годы независимости Узбекистана исторические культурные ценности и самобытные национальные традиции, в том числе связанные с институтом семьи, не только сохранились, но и получили дальнейшее развитие в нашем обществе.

В узбекских семьях сохраняется высокий авторитет и уважение к родителям. Продолжает расти число граждан, убежденных в необходимости получения родительского благословения для вступления в брак. Каждый второй житель страны уверен, что для создания семьи нужна материальная независимость молодожёнов и взаимная любовь. Однако сыновья после женитьбы поселяются вблизи родительского дома, чтобы помогать родителям, с которыми обычно остаётся младший сын.

Семья счастлива с детьми. Ребенок в течение значительной части своей жизни находится в окружении семьи. В процессе общения у ребёнка с первых дней жизни начинает формироваться структура личности, складывается своё ощущение мира, своя система отношений. До сих пор сохранилась традиция узбеков исполнять колыбельную песню - Алла.

Ласковые слова и нежная мелодия благотворно действуют на него. Становясь старше, он начинает осознавать смысл песни, понимать наказания и пожелания матери.

Отношения, обстановка и атмосфера семьи – вот что важно для ребёнка, как для формирования успешной личности. Поэтому всемерная поддержка и укрепление этого важного социального института, особенно молодых семей стало в Узбекистане одним из приоритетов государственной политики в годы независимости.

Актуальность значения обеспечения семейного благополучия проявляется сегодня в реализации целевых программ - «Здоровая мать- здоровый ребенок» «Потребительские кредиты молодым семьям», в деятельности научно-практического центра «Оила» и других ННО.

Таким образом, семья – не только важнейшая социальная ценность, но и ценность духовная, нравственная, глубоко философская, которая представляет собой особый целый неповторимый мир. Повторим ещё раз простую истину. Все люди приходят в мир через семью. Социализация человека начинается от семьи и идёт через разные формы обучения и образования, поднимаясь к соответствующим высотам через усвоение общей культуры. В этой общей культуре воспитания и образования человека достойное место занимает литература, искусство и философия. Философия семьи и брака была, есть и останется той научной проблемой, которая всегда стояла в центре внимания крупнейших мыслителей.

Литература

1. Великие мыслители о великих вопросах: Современная западная философия./Пер. с англ.- 2001..
2. Алексеев П.В. Социальная философия.- М., 2000. -С.45-46
3. Алишер Навои. Избранные произведения Кн.1.-Т., 2013. -С.6.
4. Алексеев П.В., Панин А.В. Хрестоматия по философии. -М.,1999. -С.69

UDK.130.11

DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHDA MILLIY MENTALITETNING O'RNI

Qahhorov P.X.

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada milliy mentalitetning ta'rifi, uning tavsifi, milliy mentalitet bilan demokratik jamiyat qurishning aloqalari, demokratik islohotlar o'tkazishda milliy xususiyatlarning ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati qurishda milliy mentalitetdagi eng ijobiy jihatlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi masalasiga alohida urg'u berilgan

Kalit so'zlar: Mentalitet, milliy mentalitet, ma'naviyat, dogmatizm, demokratik jamiyat.

Роль национального менталитета в построении демократического общества

Аннотация. Определение национального менталитета его ссылка, связь строительства демократического общества с национальным менталитетом, его роль в проводимых демократических реформах важный аспект построения демократического общества. В статье особое внимание обращено на использование положительных черт национального менталитета в строительстве гражданского общества.

Ключевые слова: менталитет, национальный менталитет, духовность, догматизм, демократическое общество.

Role of national mentality in building democratic society

Abstract. Definition of national mentality its reference, the connection building democratic society with national mentality, conducting democratic reforms are spoken in this article. This special attention was paid to the use of positive features of national mentality in building civil society.

Keywords: mentality, national mentality, spirituality, dogmatism, democratic society.

Mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi millatimiz taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Ana shunday imkoniyatlardan biri milliy-ma'naviy hayotimizni qayta tiklash

uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar hisoblanadi. Bugun xalqimiz mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan ana shu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda o'zligini anglamoqda, urf-odat, an'ana va o'zining mentalitetiga xos bo'lgan qadriyatlarni tiklamoqda.

Shuning bilan birga ulardan mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishda foydalanmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, "Biz rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini o'rganishda davom etamiz, demokratik qadriyatlarga hamisha sodiqmiz. Shuning uchun demokratiya haqida gapirganda, biz, avvalambor, eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, eng muhimi, ular qo'lga kiritgan yutuqlarni o'zlashtirishni nazarda tutamiz"[1].

Sobiq sho'rolar tuzumi davridagi kommunistik mafkura tazyiqi milliy mentalitetimizni zo'ravonlik bilan o'zgartirish, g'ayri ilmiy, g'ayri milliydunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan siyosat natijasida milliy ma'naviy va madaniy qadriyatlarimiz, milliy merosimiz, urf-odat, udum, an'analarimiz toptaldi va bu tajovuzkor siyosat xalqimiz ruhiyatidan begonalashish holatini yuzaga keltirdi. Marksizmni o'ziga mafkuraviy qurol qilib olgan bolshevizm uni dogmalashtirib ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik qoidalarini ifodalovchi ideal ijtimoiy tuzumga bog'liq ishonchni "ilmiy asos" sifatida kommunistik totalitarizm xizmatiga yo'naltirdi. Bu utopik g'oya muntazam ravishda faollik bilan olib borilgan targ'ibot va tashviqot orqali ommaga singdirildi, natijada puch gaplar, shiorlar va bir qolipdagi iboralar yordamida aholi batamom karaxt holatiga tushib qoldi. Ishonish shart emasdi. Bo'lakcha gap aytmadan talab qilindi va bu talab hamma joyda bajarilardi. Nazariy jihatdan kommunizm har qanday talqin va taxminlarga, ularning haqqoniyligini tajriba yo'li bilan tekshirishga imkon bermaydigan tushuncha va mulohazalarga asoslanardi. Kommunizm o'zbek xalqi mentalitetiga, milliy mentalitetga yot edi. Birinchi Prezidentimiz bu siyosat oqibati va asoratlari haqida to'xtalib: "Ma'lumki, biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma'naviyatni rivojlantirishga mutlaqo yo'l qo'yilmagan. Aksincha, xalqimizning tabiati, yashash tarziga yot bo'lgan kommunistik mafkurani har qanday yo'llar va zo'ravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan o'zgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi"[2].

Birinchi Prezidentimiz mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish konsepsiyasini ishlab chiqar ekanlar, uning milliy mentalitetimiz bilan bog'liq ekanligiga alohida e'tibor bergan edilar. Bu bejiz emas albatta. Chunki davlat o'z hududida demokratik jamiyatni o'zgalarning andozalariga asoslangan holda qura olmaydi. Har qanday jamiyat mamlakat aholisining mentaliteti, uning ruhiyati va tarixiy tajribasini hisobga olmas ekan, u demokratik jamiyat qurish yo'lidagi maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishning tamal toshlarini qo'yishning dastlabki kunlaridayoq "Yapon mo'jizasi" yoki "Koreys mo'jizasi" haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda "yapon xarakteri", "koreys tabiati" degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o'rinda, avvalo, mazkur xalqlarga mansub ma'naviy fazilatlarini nazarda tutadi. Ya'ni bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma'naviyat negizida yanada toblangan, kamolga yetgan," [3] – degan g'oyalarni alohida ta'kidlagan edilar.

Aslida milliy mentalitet bilan demokratik jamiyatning qanday aloqasi bor, bugun dunyoda yuksak taraqqiyotga erishgan davlatlarning demokratik jamiyat qurishdagi tayyor "model"laridan foydalangan holda mamlakatimizda demokratik jamiyat quraversak bo'lmaydimi? – degan savolni qo'yib unga javob izlashga harakat qilamiz. Buning uchun eng avvalo "milliy mentalitet" tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish zarur bo'ladi. "Milliy mentalitet" tushunchasiga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilib kelinmoqda. Ana shular qatorida tadqiqotchi F.S.Atamuratovanning quyidagi ta'rihi bizning mavzuimiz mohiyatiga mos tushadi. U shunday yozadi: "Milliy mentalitet har millatga xos bo'lgan ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichida shakllangan ijtimoiy ong, ruhiyat, dunyoqarash, urf-odati, qadriyatlari, turmush kechirish an'analari, aqliy qobiliyati, ma'naviy dunyosi, tabiati, ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabatlari majmuasidir"[4]. Keltirilgan bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, milliy mentalitet millat shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvining natijasida, uning butun tarixi bilan yuzaga keladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, millatni undan ayri holda tasavvur ham etib bo'lmaydi. Undan mahrum bo'lgan millat o'zligidan ham mahrum bo'ladi va o'zining mustaqil davlatini shakllantirishga qurbi yetmaydi. Bu g'oyaning naqadar to'g'ri ekanligiga yuqorida keltirilgan ta'rifdagi ayrim tushunchalar

mazmuniga chuqurroq e'tibor bilan qarasaq yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Jumladan "... ruhiyat, dunyoqarash, urf-odati, qadriyatlar, turmush kechirish an'analari, aqliy qobiliyati, ma'naviy dunyosi tabiati, ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabatlari...[5]" kabi tushunchalarni olib ko'raylik. Millat o'zini mustaqil borliq sifatida mavjudligini his etishga ongi va salohiyati etar ekan, ularni rivojlantirishga harakat qilishdan hech qachon to'xtamaydi. Bunga qanchalik to'siq va qarshiliklar kuchaygani sari millatning ularni mustahkamlashga intilishi ham kuchayib boraveradi. Demak, har qanday demokratik jamiyat qurmoqchi bo'lgan mamlakat eng avvalo o'z xalqining mentalitetini hisobga olishi obyektiv qonuniyat hisoblanadi. Qachonki milliy mentalitet qurilayotgan demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lib singib borsagina u kutilgan natijani qo'lga kiritishi mumkin bo'ladi.

Bugun mamlakatimizda demokratik jarayonlar rivojlanishida xuddi ana shu umumiy qonuniyatlarga amal qilinayotganligi uchun ham katta yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Ayni paytda o'zbeklar uchun demokratik qadriyatlar yangilik emas, u o'zining butun shakllanishi jarayonida bu qadriyatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirib kelmoqda. Jumladan, asrlar davomida shakllangan jamoatchilik fikri ustuvorligining amal qilinishini olib ko'raylik. Uning mahalla instituti orqali amal qilinishi umumiy qadriyatimiz darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining asosi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi – mahalladan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida demokratik saylovlar asosida ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylashdan iborat konstitutsion huquqlar bayon qilingan. Xalqimizda "Mahalladan chiqding, yurtdan chiqding",- degan naql bor. Uning ma'nosi shuki mahallada jamoatchi tomonidan o'rnatilgan va e'tirof etilgan axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy me'yorlarga amal qilmaslik yoki oxir oqibatda, u yoki bu oila yoinki insonning mahalla ahli oldida obro' e'tiborining barbod bo'lishiga va uning ma'nan yakkalanib qolishiga olib keladi. Mahallada jamoaviylik an'anasi kuchlidir. Shuning uchun mahallada yashayotgan insonlar uning qoidalariga amal qilib yashashga harakat qiladilar. Ya'ni jamoatchilik, ko'pchilikning fikrini hisobga olib hayot kechirish demokratik qadriyatlarning muhim yo'nalishi sifatida xalqimiz ongida asrlar davomida rivojlanib kelmoqda. Xalqimizning ongi va hayotida demokratik qadriyatlarning rivojlanishi haqida fikr yuritganda uning hokimiyat bilan bo'ladigan munosabatlari haqida ham alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. "Demokratiya fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzumdur. Demokratiya, davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiyaning asosiy talablari: ko'pchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va krnunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, davlat boshlig'i va vakolatli organlarning saylab qo'yilishi. Har bir davlatda, millatda o'ziga xos qadriyatlar, mentalitet, an'analar mavjuddir. Ular jamiyatdagi demokratik jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Binobarin demokratik muassasalarni shakllantirishda mazkur omillar, albatta, hisobga olinadi"[6].

2017-yilni Prezentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishining o'zi xalq va hokimiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda yana bir qadam bo'ldi. Bu borada o'zbeklarning hokimiyat bilan bo'ladigan munosabatlari azal-azaldan o'zaro hurmat darajasida rivojlanib kelganligini ko'ramiz. Xalqimizning demokratiyani hokimiyatsiz tasavvur eta olmasligi mentalitetimizdagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. "Zero, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur"[5]. 2017 - yil 8- yanvar prokuratura xodimlari bilan bo'lgan yig'ilishda Prezident Sh.M.Mirziyoev jamiyatda ijtimoiy adolatning zarurligi masalasiga o'z e'tiborini qaratdi. Adolat tamoyillariga amal qilish ham demokratik jamiyatning muhim belgisidir.

O'zbeklar tabiatining muhim jihatlaridan biri – ularning mulohazakorligi, og'ir bosiqliqi, yetti o'lchab bir kesishidir. O'zbekistonda shoshma-shosharlikni yoqtirishmaydi va bugungi o'zgarishlarni, deylik, chet davlatlardagi singari qabul qilmaydilar.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishda milliy mentalitetimizda uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan demokratik qadriyatlarni qaytadan tiklash va ulardan samarali foydalanish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'z-o'zini boshqarish instituti bo'lgan mahallaning rolini yangi bosqichga ko'tarish borasida bir qator

qonunlar qabul qilindi va hayotga tatbiq qilinmoqda. Shuning bilan birga xalqning hokimiyat boshqaruvida keng ishtirokini ta'minlash maqsadida saylov tizimi izchillik bilan takomillashtirilib borilmoqda, parlamentning ikki palatalik shakli vujudga keltirildi, hokimiyat bilan ommaning o'zaro hamjihatlikda faoliyat olib borishini kengaytirish maqsadida jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlarining huquqlari bosqichma-bosqich kengaytirilmoqda, hamda ularning faolligi oshishiga e'tibor berilib kelinmoqda. Buni biz 2016-yil 4-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov jarayonida ham ko'rdik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, saylov jarayonida 5 ta xalqaro tashkilot hamda 46 ta davlatdan 600 nafarga yaqin kuzatuvchilar ishtirok etdilar. Jumladan, ilk bor Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining 32 ta mamlakatga mansub 200 nafarga yaqin tarkibdagi to'laqonli missiyasi kuzatuvchilari qatnashdilar. Barcha chet ellik kuzatuvchilar tomonidan saylov tenglik va adolat prinsiplari asosida, ochiq va oshkora o'tgani bir ovozdan tan olindi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan har bir ishda milliy mentalitetimizga xos bo'lgan bosiqlik, vazminlik, jamoaviylik, ko'pchilikning maslahatiga e'tibor bilan qarash, o'zaro hurmat kabi qadriyatlarimizga amal qilinmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda demokratik qadriyatlar bosqichma-bosqich barqaror rivojlanib bormoqda. Demokratik jamiyat qurishda O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitetga asoslanib, demokratik islohotlarni o'tkazishgina kutilgan natijani berishi mumkin. Demokratiyani xalq mentalitetiga tayanilib, uning ongida, qalbida va faol ishtirokida shakllantiriladi. Ayni paytda milliy mentalitet ham demokratik qadriyatlar bilan hamohang o'zgarib rivojlanib boradi. Bu mustaqillik yillarida millatimiz mentalitetida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarda o'z ifodasini topmoqda. Buni xalqimizning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok qilishga bo'lgan intilishi, o'zini jahonda yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarda amal qilayotgan demokratik qadriyatlar darajasiga erishishda faolligining oshib borayotganligida ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. "O'zbek milliy mentalitetida demokratik dunyoqarashni takomillashtirishda an'anaviy tizimning ming yillar davomida shakllanib kelgan demokratik tamoyillarini yanada jonlashtirish, uning ta'sir mexanizmlari va tarbiya vositalaridan foydalanish demokratik jarayonlarni tabiiy, jamiyatni milliy xususiyatlariga mos ravishda amalga oshirilishiga vosita bo'ladi"[8].

Xullas, demokratik jamiyat qurishning muhim shartlaridan biri – u xalqning asrlar davomida shakllanib kelgan o'ziga xosligini hisobga olish, uning mentalitetidagi eng ijobiy jihatlaridan samarali foydalanishdir.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015. – 106- bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008 4-bet
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008 27-bet.
4. Atamurodova. F. Mustaqillik sharoitida o'zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar (fasafiy tahlil). Toshkent,2010. – 30- bet.
5. Bekmurodov M.B. O'zbek mentaliteti. Toshkent, 2011. 21-bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-tom. 249-bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – Samarqand gazetasi. №99 2016-yil 10-dekabr. 2-bet.
8. Madayeva Sh. O. O'zbek mentalitetida demokratik tafakkurning shakllanish xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. -Toshkent. 2009. 230-231-bet.

UDK: 327

MARKAZIY OSIYODA INTEGRASIYA JARAYONLARI

Zikirova N.Q.

*O'zbekiston Milliy universiteti**E-mail: zikirova2014@mail.ru*

Annotasiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyodagi mustaqil respublikalar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari, ularning ikki tomonlama va ko'p tomonlama jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil respublikalar, Markaziy Osiyo, integratsiya, iqtisod, do'stlik, hamkorlik, kichik biznes, tadbirkorlik, MDH, eksport.

Интеграционные процессы в Центральной Азии

Аннотация. В данной статье раскрываются интеграционные процессы в Центральной Азии, и их двухсторонние и многосторонние особенности.

Ключевые слова: Независимые республики, Центральная Азия, интеграция, экономика, дружба, сотрудничество, малый бизнес, предпринимательство, СНГ, экспорт.

Integration Processes In Central Asia

Abstract. In this article integration processes in Central Asia, both their bilateral and multilateral features reveal.

Keywords: Independent republics, Central Asia, integration, economy, friendship, cooperation, small business, business, CIS, export.

Totalitar tuzumning tarqalishi bilan Markaziy Osiyodagi mustaqil respublikalar milliy taraqqiyot yo'llarini izlashga kirishdi. Ular mazkur yo'llarni ilg'or davlatlar erishgan demokratik o'zgarishlarda deb topdilar. Ular ichida O'zbekiston Respublikasi birinchilardan bo'lib 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida demokratik huquqiy davlat qurishni strategik maqsad qilib tanlaganini e'lon qildi[1]. Undan keyin 1994 - yil 6-noyabrda Tojikiston Respublikasi[2], 1995 yil 5-mayda Qirg'iziston Respublikasi[3], 1995 - yil 30-avgustda Qozog'iston Respublikasi[4] demokratik taraqqiyot yo'lidan borishni Konstitutsiyalari orqali ma'lum qildi. Turkmaniston Respublikasining Konstitutsiyasi 1995 - yil 12-dekabrda qabul qilingan va o'zini neytral davlat deb atagan[5]. Shunday bo'lsada, Turkmaniston ham demokratik qadriyatlarga sodiqligini, ikki tomonlama va ko'p tomonlama integratsiyani qo'llab quvvatlab keladi.

Markaziy Osiyo xalqlari azaldan bir-biri bilan yonma-yon, do'stlik, inoqlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatib yashagan. Ularning nafaqat hayot tarzi, dini, urf-odatlar, etnomadaniyatlari, shuningdek orzu - tilaklari, qismati ham mushtarakdir. Shuning uchun ham mustaqillik arafasida, integratsion aloqalar keskin muammolardan biriga aylanayotganda besh Respublika rahbarlarining 1990 - yil iyunida Olmaotada o'tkazilgan uchrashuvida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi hamkorlikni, integratsiyani chuqurlashtirish yo'lidan borish obyektiv zarurat ekani ta'kidlangan[6].

1993 yil Toshkentda o'tkazilgan sammitda umumiy bozor tashkil etish haqida Protokol imzolandi va Olmaotada mintaqaviy gazeta chop etishga, Toshkentda maxsus teleko'rsatuv uyushtirishga kelishib olindi. Mintaqaviy aloqalar shunchalik kuchli ediki, ularsiz hech bir Respublika o'z iqtisodiy muammolarini mustaqil hal qila olmas edi. Buni 1994 - yil 11 - yanvarda O'zbekiston va Qozog'iston tomonidan tuzilgan "Yagona iqtisodiy makon" ham tasdiqlaydi. Mazkur uyushmaga keyinchalik Qirg'iziston ham qo'shildi. Endi bu uchala respublikalar o'rtasida tovar va ishchi kuchlarni erkin tarzda siljishi, byudjet, kredit, bank xizmatlarini unifikatsiyalash imkoni yuzaga keldi. 1994 - yil 8 - avgustda O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston siyosiy organ – Davlatlar aro kengash haqida qaror qabul qildilar. Bu kengashga Respublikalarning Prezidentlari va bosh vazirlari kiritildi. Bosh vazirliklar, tashqi ishlar vazirlari va mudofa vazirlarining kengashlari tashkil etildi. Kundalik vazifalarni olib boruvchi Davlatlar aro kengashning Ijro qo'mitasi 1994 - yil 5 - avgustdagi Bishkek sammitida esa Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi[7].

Shunday bo'lsada, "bu integratsiya rejalashtirilgandek samara bermadi"[8]. Buning obyektiv vasubyektiv sabablari mavjud edi. Masalan, Qirg'izistondagi holatni tahlil qilgan falsafa fanlar doktori

B. Siddiqov, respublika iqtisodiy ishlab chiqarish aloqalarining uzilishi davlat boshqaruvini demontaj qilishi, bozor iqtisodiyotiga tayyor emaslik, ijtimoiy – iqtisodiy hayotga salbiy ta'sir etgan, deb ko'rsatadi[9].

Qirg'izistonning Rossiya ortidan borib “shokovaya terapiya” o'tkazishga intilishi inflatsiya, ishsizlikning oshishiga, ichki mahsulotlar yetkazib berishning keskin kamayishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston esa bozor iqtisodiyotiga asta – sekin o'tish strategiyasini qo'lladi. Natijada 1996 - yilga kelib Markaziy Osiyo Respublikalari rivojlanishida o'ziga xoslik aniq namoyon bo'la boshladi. Agar O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishida o'z imkoniyatlariga tayangan bo'lsa, Qirg'iziston va Qozog'iston tashqi yordamga, fuqarolar to'qnashuvlari ichida qolgan Tojikiston esa Rossiyadan yordam so'rashga majbur edi [10,c75-77].

1996 - yildan keyingi bosqichlarda mustaqil davlatlarning ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishga intilishi kuchayishi kuzatildi. Bu Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N. Nazarboyevning Yevrosiyo ittifoqini tuzish taklifi real voqelikka aylanmagaligida aniq namoyon bo'ldi.

Turkmaniston Respublikasi esa mintaqaviy integratsiyadan uzoqda bo'lish, hech qanday ittifoqqa qo'shilmaslik yo'lini tutdi. Shuning uchun ham G.Saidazimova ta'kidlaydi: “Integratsiya jarayonlarining ishtirokchi davlatlari dunyodagi boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarida mintaqaviy munosabatlarni ustuvor yo'nalishi sifatida belgilamadilar. Hammasi bunga obyektiv shart sharoitlar hali shakillanmagan”[8, s 83].

Shuningdek, to'laqonli integratsiya uchun aholining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli va bozor iqtisodiyotiga kirishish imkoni yaqin bo'lishi darkor, har xil “start” ga ega subyektlar integratsiyada teng ishtirok etolmaydi. Masalan, aholi nochorligi, qashshoqligi uning ijtimoiy - iqtisodiy ahvoriga va bozor iqtisodiyotiga kirishishi, demak, integratsiya jarayonlariga ham, salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Aktinson-Micklewright hisob – kitobiga ko'ra, 1993 – 1994 yillarda aholi nochorligi, qashshoqligi O'zbekistonda 47% ni tashkil etganida, Qozog'istonda 50% ni, Turkmanistonda 57% ni, Tojikistonda aholinig yarmidan ko'pi, Qirg'izistonda 84% ni tashkil etgan [10,s 83].

Mazkur holat integratsiya jarayonlariga ta'sir etmay qolmaydi, albatta.

Ayniqsa mustaqillikgacha yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning Qozog'istonda 12%, Tojikistonda 40% Moskva ajratadigan mablag' evaziga chiqarilgan, mazkur taminotning to'xtatilgani aholi ahvolini yanada nochor qilib, uning integratsiyada teng imkoniyat bilan qatnashishiga to'sqinlik qilgan.

1996 -yil dekabriga kelib O'zbekiston va Qirg'iziston, 1997 - yil aprelda O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy, 1998 - yil fevralda O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy – Janubiy Korea hamkorligi o'rnatiladi. Mazkur hamkorlikka O'zbekiston – Qirg'iziston ikki tomonlama integratsiyasi asos qilib olinadi. Endi ikki tomonlama integratsiya Sharqiy – Janubiy Osiyo mintaqasi bilan bog'lanadi. 2010 - yilga kelib bu integratsiya doirasi Yaponiya, Vetnam, Tailand, Singapur, Eron, Hindiston va Pokiston tomon kengayadi. Endi bu aloqalar mustaqil davlatlarning manfaatlarini ifoda etadigan o'zaro hamkorlik prinsipiga qurilgan ko'p tomonlama integratsiya jarayonlariga aylanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish xususiy mulkning shakllanishi, biznes va tadbirkorlik subyektlarining faol harakati, tashqi investisiyalarni jalb qilish kabilarga bog'liq. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, aynan kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotga, aholining aniq talab va ehtiyojlariga tez moslashadi, yangi texnologiyalarni hayotga joriy etadi, iqtisodiy faollikni, ishbilarmonlik muhitini yaratadi. Manfaatdorlikka qurilgan kichik biznes va tadbirkorlik kishilarni tinmay ishlashga, izlanish, yangi-yangi narsalarni, xizmat turlarini yaratishga undaydi. [11,s.9-11].

Shu nuqtaiy nazardan biznesga aholinig, jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi tizim sifatida qaraladi. [12, c.120-125].

Kichik biznes va tadbirkorlikning YaIM hissasi AQSh va Germaniyada 50-55%, Buyuk Britaniyada 55-60%, Italiyada 57-60%, Yaponiyada 52-55%, Xitoyda 60-65% ni tashkil etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy bandlikni ta'minlashi 50-70%, mamlakatlar korxonalaridagi soni 97-99% dan iborat[13, c.567-570].

Jahon tajribasiga tayangan holda Markaziy Osiyo Respublikalarida ham kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash boshlandi. Bugun kichik biznes va tadbirkorlik ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy integratsiyaning muhim subyektlari sifatida harakat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan. Prezident I.A. Karimov ushbu strategiyani quyidagicha belgilab beradi: “Erkin

tadbirkorlik uchun iqtisodiy va xususiy shart - sharoit yaratish zarur. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun hamma yo'lni ochib berish kerak. Ularning xom - ashyo resurslaridan foydalanishlariga keng yo'l ochib berish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulot mamlakatning o'zida ham, uning tashqarisida ham sotiladigan bozorni kafolatlovchi tizimni barpo etish darkor" [14, c.12]. Mazkur strategik ko'rsatma mahsuli sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi 1998 - yili 17.5 % ni, 2000 - yili 31 % ni, 2005 - yili 38.2 % ni, 2010 - yili 52 % ni tashkil etgan. Bugun bu ko'rsatkich 75 % dan ortib bormoqda [15.c.33]. To'g'ri, kichik biznes va tadbirkorlikning tashqi savdosi, eksporti 2010 - yili 1990 - yilga nisbatan 10 barobarga oshgan[16.c.59]. Ammo bu ko'rsatkich MDH ga nisbatan 40.1 % ni tashkil qilgan holda [16.c.60], Markaziy Osiyo Respublikalarida 15-17 % dan oshmaydi. Masalan, 2009 - yili O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining Qozog'istonga eksporti 6.2 % dan iborat bo'lgan [15.c.240]. Bugun bu ko'rsatkich 6.3 % atrofida, demak, deyarli o'zgarmagan. Qirg'iziston va Tojikistonga chiqariladigan tovarlar eksporti undan ikki marta kam. Shuning uchun ham mutaxassislar, O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarida "Sobiq Ittifoq Respublikalari emas, balki uzoq chet mamlakatlar ustuvorlik qilmoqda", deb ko'rsatadilar [16.c.60].

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining ko'proq mablag' topish maqsadida G'arb mamlakatlari, Xitoy, Singapur, Yaponiya, Rossiya bilan eksport – import aloqalarini kengaytirishga intilayotgani kuzatiladi. Mazkur mamlakatlarda chiqarilayotgan yangi uskunalar, texnika va mobil aloqa vositalari tashqi savdo - sotiqni jonlantirib milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ammo mintaqaviy integratsiyada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining hissasi hali ustuvor o'rin egallaganicha yo'q.

Haqiqatdan ham Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasida tuzilgan do'stlik, hamkorlik, bir birini qo'llab-quvvatlash borasidagi shartnomalar mintaqada tinchlik va osoyishtalikni saqlash kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov MDH rahbarlarining 2014 - yil 14 - oktyabrdagi Minsk sammitida ta'kidlaganidek, O'zbekiston barcha Respublikalar bilan ko'p tomonlama hamkorlik qilishga, mavjud aloqalar va integratsiya asosida "MDH makonida to'laqonli erkin savdo – sotiq zonalarini shakllantirish va uni tezroq ishga tushirish tarafdori, bu esa "avvalo" o'zimizga – hamkorlikdagi davlatlarga bog'liq" [17].

Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlariga faqat milliy va mintaqaviy omillargina ta'sir etayotgani yo'q. Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv, AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi va Rossiyaning jahonda ustuvor mavqeni egallashga intilayotgani, ayrim davlatlarning Markaziy Osiyoda o'z qiziqishi borligini ochiq namoyon qilayotgani integratsiyaga yo'nalish berishi turgan gap. Murakkab, ziddiyatlarga to'la globallashuv va "madaniyatlar to'qnashuvi" real voqelikka aylanayotgan hozirgi sharoitda etnogenezi va etnomadaniyati mushtarak bo'lgan o'lkamiz xalqlari o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik va totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan integratsiyani davom ettirishimiz, qo'llab – quvvatlashimiz burchimizdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 3 bet.
2. Конституция Республики Таджикистан. – Душанбе, 2004. – с.5.
3. Конституция Республики Киргизистан. – Бишкек, 1996. – с.4.
4. Конституция Республики Казахстан. –Алматы, 2001. – с.6.
5. Конституция Республики Туркменистан. – Ашгабад, 2004. – с.3.
6. Goble Paul. Central Asians Form Political Bloc // RFE – RL Research Report, 13 July 1990.
7. Саидазимов Г. Интеграция в Центральной Азии: реалии, вызовы, возможности // Центральная Азия и Кавказ, 2000, №3 (9). – с.81.
8. Ўша жойда
9. Сидиков Б. Некоторые вопросы социокультурной политики государств Центральной Азии (на примере сотрудничества Кыргызстан и Узбекистана) – Ташкент: «Ёзувчи»; 2000, - с. 55 – 57.
10. Помфрет Р. Перспективы и стратегии развития // Центральная Азия, Перспективы человеческого развития. Региональное бюро по странам Европы и СНГ. 2010.С. 83.
11. Хизриг Р., Питрес М. Предпринимательство. – Москва; ЭКОНОМИКА, 1991, С. 9-11.
12. Рыночная экономика. – Москва: СОИТЕКС,1999. С.120-125

13. Ланцева М.Г. Малое предпринимательство. – Москва: ИНФРАМ, 2008.
14. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
15. Kichik biznes va tadbirkorlik. – Toshkent: “ADIB NASHRIYOTI” MChJ, 2011.
16. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистана за годы независимости (1990 – 2010) и прогноз 2011 – 2015 гг. – Ташкент: Ўзбекистон. 2011.
17. “Правда Востока”, 2014 г., 14 октября
18. Многоликая глобализация. Под ред. П Бергера, С. Хантингтона. – Москва: АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004.

UDK: 18

MAHALLADA TURMUSH ESTETIKASINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Quvvatov S.I.

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada mahallada turmush estetikasini shakllantirish xususida fikr yuritilib, yosh avlod ongida estetik madaniyatni shakllantirish, shuningdek bu boradagi muammolar falsafiy tahlil qilingan. Mahallaning turmush estetikasini shakllantirishdagi roli ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: mahalla, estetika, turmush estetikasi, estetik madaniyat, turmush, oila, tarbiya, go‘zallik, ulug‘vorlik.

Особенности формирования эстетики быта в махалле

Аннотация. В статье анализируется проблема формирования эстетики быта в махалле, проблемы формирования эстетической культуры молодежи с философской точки зрения, роль махалли в развитии эстетики быта.

Ключевые слова: махалля, эстетика, эстетика быта, эстетическая культура, быт, семья, воспитание, красота, величие.

Particularities of Aesthetic life formation in mahalla

Abstract. In this article is analysed the problem of forming aesthetic life in mahalla, problem of forming aesthetic culture of yough from philosophical point of view, the role of mahalla in the developed aesthetic life.

Keywords: mahalla, aesthetic, aesthetic life, aesthetic culture, existence, family, education, beauty, greats.

Eng qadimiy qadryatlarimizdan hisoblanib kelayotgan, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, uning turmush tarzini o‘zida to‘la mujassam etgan mahallaning jamiyatdagi o‘rni mustaqilligimiz tufayli qayta tiklandi. O‘zbek mahallasi xalqimizga xos donishmandlik timsoli sifatida tarixda ham o‘z jozibasi, xalqchilligi, hayotiyliigi, betakrorligi bilan dunyo ahli tafakkurini o‘ziga jalb qilgan. Moziydan tortib hozirgacha xalqimiz o‘zining ko‘pgina ezgu amallarini, yaxshi, xosiyatli, barakatli tadbirlarini, hayotiy muhim masalalarini mahallada oqsoqollar, faollar, aql zakovati, adolatli nazorati bilan amalga oshirib keladilar.

“O‘zbekistonda mahalla bo‘lib, jamoa bo‘lib yashashning necha ming yillik tarixi bor, – deb ta’kidlaydi, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov, – biz bu an’analarni yangi mazmun bilan boyitmoqdamiz. Bu davrda mahalla joylardagi o‘zini-o‘zi boshqarish tizimining tayanchi sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Bu jamiyatimiz bugungi hayotining eng samarali, ayni paytda milliy va xalqchil ko‘rinishidir”[1,16]. Shu boisdan tarixan ma’lumki, mahallalar ezgulik beshigi, tarbiya o‘chog‘i, milliy udumlar, urf-odatlar va an’analar shakllangan maskan bo‘lib, odamlarni o‘zaro mehr-oqibatli, saxovatli qilib tarbiyalashda, o‘ziga xos jamoaning shakllantirilishida juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbek mahallalari o‘zida jamoaviylik ruhi, insonparvarlik, o‘zaro yordam, insofu-diyonat, rahmdillik kabi insoniy tuyg‘ular asosida shakllangan katta oiladir.

Bugungi kunda mahallaning ma’naviy sohadagi dolzarb masalalaridan biri bu yoshlar tarbiyasi hisoblanadi. “Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda – deydi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Respublikamiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi

ma'ruzasida, – Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq”[2,3]. Darhaqiqat, tarbiya yo hayot, yo mamot masalasidir. Ayniqsa tarbiyaning asosiy yuki ota-onaning zimmasiga tushadi. Shu bilan birgalikda mazkur jarayon mahalla bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Mahalla insonlarni ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, shuningdek, estetik tarbiyalashda ham boshqa davlat va nodavlat tashkilotlariga nisbatan alohida mavqega ega, chunki mahalla aholiga eng yaqin ijtimoiy maskan hisoblanadi.

Yoshlarimizning ma'naviy olamida ma'naviy bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish lozim bo'ladi. Bunda yoshlarni “ommaviy madaniyat” ko'rinishidagi ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda doimo sergak va hushyor bo'lib yashashimiz lozim. Yoshlarni “ommaviy madaniyat” ko'rinishidagi ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda turli xil profilaktika tadbirlarini o'tkazishimiz kerak, shunda yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanadi. Mafkuraviy immunitet shakllangan yoshlarda yot va zararli g'oya va mafkuralarga qarshi kurash mahorati shakllangan bo'ladi. Demak, yoshlarni turli xildagi ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda biz ko'proq mafkuraviy profilaktika asosida estetik immunitetni oshirishga doir tadbirlarni jamiyatning barcha qatlam va jabhalarida o'tkazsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu masalaning nechog'lik dolzarb ekanligini esa Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlaridan ham bilib olsak bo'ladi: “Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi[3,116].

Har bir jamiyat a'zosining ilk hayoti oiladan boshlanadi. Oila esa o'z navbatida mahalladagi turmush estetikasi asosida shakllanadi. “Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor, – deya ta'kidlaydi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, – farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi”[4,56]. Ana shu farzandlar mahallada shakllangan turmush estetikasini o'zlashtirib voyaga yetadi.

Darhaqiqat, farzandini dunyoga keltirgan har qaysi ota-ona uning jismonan sog'lom, aqlan teran, yetuk, komil inson bo'lib yetishishi va baxtli hayot kechirishini xohlaydi. Kelajakda farzandlarini jamiyat hayotida o'z o'rnini topib, unga rahmatlar olib kelishlarini va bundan g'urur tuyg'usini tuyushni istashadi. Aksincha, yaxshi tarbiya topmagan farzandlar qilmishi ota-onaga la'nat olib kelishi hech kimga sir emas. Bu oiladagi, mahalladagi tarbiya masalasidir.

Tarbiyaning boshqa ko'rinish va shakllari bilan bir qatorda, oilada, farzand kamolotida estetik tarbiya ham muhim rol o'ynaydi. Estetik tarbiya mahalla, xususan, oila turmush tarzining alohida motiviga aylanishi kerak. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot tufayli, ayniqsa keyingi asrlarda insoniyat turmush tarzi tarkibiga nihoyatda rang-barang omil va vositalar kirib keldi. Elektr, televideniye, zamonaviy transportlar, kompyuter texnologiyasi, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari, internet kabi ijtimoiy-texnikaviy kashfiyotlar uning tabiatini o'zgartirib yubordi. Shu bilan birga inson faoliyati, hayotiy muhitining tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida chuqur nomutanosibliklar ham yuzaga keldi.

Hozirgi globallashgan, hayot suratlari tezlashgan, axborot asrida har bir oilaga, kishilarga yetib kelayotgan turli axborotlarni nazorat qilib turishning iloji yo'q. Yoshlar kundalik hayot tarzida axborot texnologiyalaridan, internetdan, ommaviy axborot vositalaridan o'ziga kerakli bo'lgan va bo'lmagan ma'lumotlarni olishayapti. Buning ta'sirida ularning ongiga milliylikimizga to'g'ri kelmaydigan, sharqona turmush tarziga zid bo'lgan g'oyalar, qarashlar ta'sir o'tkazmoqda. Ko'r-ko'rona g'arb madaniyatiga taqlid qilish: kiyinishda, o'zaro muomalada, ota-onaga va do'stlarga, umuman, hayotga bo'lgan munosabatda ko'zga tashlanayapti. Hayotga yengil qarash (ichkilikbozlik, giyohvandlik, tamaki chekish, internet kafelar, tungi ko'ngilochar maskanlarda vaqt o'tkazish va boshqalar) yosh o'smirning o'z hayoti yo'lini topishida ko'p qiyinchiliklarga duch keltiradi. Bunday holatlar oiladagi xotirjamlikka va barqarorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun ham mazkur muammoli vaziyatning

yechimini topishda, eng avvalo, sogʻlom turmush tarzini har bir ota-ona oʻz oilasida amalga oshirish kerak.

Oila va mahallada sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda estetik tarbiya, xususan, turmush estetikasining oʻrni alohida ajralib turadi. Farzand dunyoga kelgandan to voyaga yetgunga qadar, uning ehtiyojlarini qondirish va tarbiyasida ota-ona birdek masʼul boʻlishi maqsadga muvofiqdir. Goʻzallik insonlarni hayotga, zavqlanishga, yashashga undovchi beqiyos kuchdir. Yosh bolani goʻzallikka chorlash, avvalo, unga chiroyli ism qoʻyishdan boshlanadi deyish mumkin. Chunki voyaga yetayotgan oʻsmir unga qoʻyilgan ismidan magʻrurlanib, qoniqib, oʻz ismiga mos inson boʻlishga harakat qiladi. Bu oʻrinda Kaykovusning quyidagi fikrlarini taʼkidlab oʻtish mumkin: “Ey farzand, agar farzanding boʻlsa, unga yaxshi ot qoʻygʻil, nedinkim, otadan farzand haqlaridan biri, unga yaxshi ot qoʻymoqdir”[5,31]. Turmushda oʻziga qoʻyilgan ismdan qoniqmay xafa boʻlib yuradigan, hatto ismini oʻzgartirishga qaror qilgan kishilar uchraydi. Bu esa uning siqilishiga, odamlardan oʻzini olib qochishiga, tushkun kayfiyatli boʻlishiga olib keladi. Biz mana shunday insonlarni uchratganimizda uning ismining ham turmush estetikasidagi oʻrnini tushuntirib berishimiz kerak boʻlsa, koʻnglini koʻtarishimiz estetik tarbiyaning muhim belgisi sanaladi.

Shuningdek, farzand tarbiyalayotgan ota-onalar farzandlarining tashqi olamga boʻlgan munosabatlarini doimo kuzatib borishlari joiz. Bolaning qaysi ranglarga qiziqishi, qanday musiqalar uning kayfiyatiga qay darajada taʼsir oʻtkazishini, qaysi ertaklarni yoqtirishini bilish juda muhim. Bunday omillar bolaning tabiatga va jamiyatga boʻlgan ilk estetik munosabatini belgilab beradi. Toʻgʻri, baʼzi oilalarda estetik tarbiyaga alohida eʼtibor qaratilmaydi. Bolaga rangli qogʻoz va qalamlar, rasmi kitoblar, ertak kitoblar olib berish yoki tabiat qoʻyniga olib chiqib unga chiroyli manzaralarni koʻrsatish qiyin yumushday tuyulishi mumkin. Bu vaziyatda eʼtiborsiz qolgan bola oʻzining ruhiyatidagi estetik ehtiyojini qondirolmaganidan, yuzaga kelgan boʻshliqni koʻchadan – internet kafelardagi yovuz oʻyinlar orqali toʻldiradi. Bu birinchidan.

Ikkinchidan, farzandiga estetik tarbiya berish tugul, umuman unga eʼtibor qaratmasdan oʻz holiga tashlab, faqatgina moddiy ehtiyojlarni qondiruvchi baʼzi ota-onalarning bu qarorlari endigina ongi rivojlanayotgan bolaning hayotga boʻlgan munosabatida gedonistik qarashlarni shakllantirishi mumkin. Bu borada quyidagi fikrlar oʻrinlidir: “Farzandga adab, hunar oʻrgatmakni meros deb bilgʻil. Agar sen xoh unga adab oʻrgatgʻil, xoh oʻrgatmagʻil, turmush mashaqqatlarining oʻzi unga oʻrgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha-kunduz uni tarbiyalaydurlar”[6,33].

Saʼdiy esa bolaga tarbiyani yoshlikdan berish kerakligini alohida taʼkidlaydi:

Kimga yoshlikdan berilmas odob,
Ulgʻaygach boʻladi, baxtsiz dili gʻash.
Hoʻl novda egilar qay holda egsang,
Quruqni toʻgʻrilar faqat oʻt-otash[7,1].

Demak, har bir oilada ota-onalar oʻz bolalariga tarbiyani yoshlikdan, bolalikdan berib borishlari va uni oʻz qoʻllarida mustahkam ushlashlari, shuningdek, farzandlariga har jabhada oʻrnak va namuna boʻlishlari lozim. Tarbiya jarayonida xushmuomalalik, rostgoʻylik, halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi axloqiy meʼyor va tamoyillar bilan bir qatorda goʻzallik, ulugʻvorlik tushunchalarini bolaning ongiga singdirib borish lozim. Xususan, ota-onaning farzandlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda unga ertak kitoblar, rangli qogʻoz va qalamlar, plastilinar, bolaning yoshiga mos boʻlgan multfilmlar toʻplamini olib kelib bolaning ixtiyoriga berishlari bu jarayonda juda muhim sanaladi. Shuningdek, bolaning tabiat qoʻynida boʻlishi, uning goʻzalligidan bahramand boʻlishi natijasida uning ruhiyatida tabiatga muhabbat va goʻzallik tushunchasi shakllanishiga olib keladi. Shundagina odob, xulq, madaniyat, xususan, estetik madaniyat shakllanib boradi. Turmush estetikasi esa estetik madaniyat bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ular bir-birini taqozo etadi.

Bilamizki, mahallaning shaxs estetik tarbiyasida tutgan oʻrni juda muhim sanaladi. Mahalla bugungi kunda birinchidan, shaxsning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga yordam bersa, ikkinchidan, axloqiy-estetik dunyoqarashining shakllanishiga koʻmaklashadi. Shuningdek, mahalla shaxs nafosatli tarbiyasiga yaqindan taʼsir koʻrsata olishi bilan boshqa omillardan ajralib turadi. Mahalla obodligi, koʻrkamligi, kishilarning ahilligi, oʻzaro muomala munosabatlarining qay darajada

ekanligi, avvalo, o'sha mahalladoshlarning madaniyati, xususan, estetik madaniyati asosida belgilab beriladi.

Mahalla toza, ozoda, sarishta bo'lsa nafaqat o'sha mahallada yashaydigan kishilarning, balki shu mahallaga kirib qolgan begona kishining ham ko'zi quv naydi, kayfiyati ko'tariladi, ruhiyatida o'zgacha his-tuyg'ular junbushga keladi. Bu holat esa, go'zallik, ulug'vorlik tushunchalarini kishi ongida shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mahalladoshlarning o'zaro muomala munosabatlaridagi xushmuomalalik fuqarolar o'rtasidagi mahalliychilik yoki millatchilik kabi salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

Shuningdek, mahallada turli badiiy tadbirlar (mashhur shoirlar, yozuvchilar, san'atkorlar, sportchilar bilan uchrashuv kechalari) ning uyushtirilib turilishi ham turmush estetikasini shakllantirishga yordam beradi (masalaning qiziq tomoni shundaki, san'atkorlarni televideniye yoki radioda ko'rish, eshitish mumkin. Jonli muloqot esa boshqa masala). Mahallada umumxalq bayramlarini o'tkazish, hasharlar uyushtirish, obodonlashtirish ishlarini olib borish mahalla a'zolarini jipslashtirib, ular o'rtasidagi mehr-muhabbatni mustahkamlaydi. Bu esa jamiyat ulug'vorligining bir ko'rinishini ifodalaydi.

Mahallani tashkil etadigan oilalarda sog'lom turmush tarzi shakllangan bo'lishi jamiyatning ma'naviyatini, farovonligini, mustahkamligini belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Turmushda uchraydigan salbiy holatlar (ichkilikbozlik, tamaki chekish, giyohvandlik, o'zaro urush-janjallar yoki axloqsizlik) shu oilada yashayotgan kishilarga, ayniqsa yosh bolaning tarbiyasiga noto'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Natijada bolaning ruhiyatida pessimizm, beqarorlik, loqaydlik, xudbinlik kabi motivlar avj oladi. Bu holatning oldini olishning nechog'lik muhim ekanligini shu yoshning keyingi hayotida uchraydigan salbiy holatlarda (ichkilikka, tamakiga, giyohvandlikka mukkasidan ketishi yoki jinoyat ko'chasiga kirib qolishi) ko'rishimiz mumkin.

Mahallada bolalar va yoshlar uchun turli sport maydonchalarini bunyod etish, mahalla kutubxonasini shakllantirish, mahallada faollar zali yoki klublarni qaytadan ta'mirlash, turli fan va kasb to'garaklarini tashkil etish, mahalla bog'ini barpo etish orqali yosh avlodning bo'sh vaqtini to'g'ri, unumli tashkillashtirish mazkur masalaning yechimi desak, ehtimol, to'g'ri bo'lar. Chunki mehnat qilgan, sport bilan shug'ullangan bola jismonan sog'lom bo'lishi barchamizga kundek ravshan. Uning ruhan sog'lom bo'lishi, yuksak ma'naviyatli bo'lishining bir tomoni esa uning estetik tarbiyasiga borib taqaladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni taqdim etish lozim deb topdik:

- birinchidan, mahalla yoshlarda turmush estetikasi va estetik tarbiyani shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi;
- ikkinchidan, mahalla o'ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko'rkamligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta'minlab beradi;
- uchinchidan, san'at, madaniyat, ma'rifat arboblari va sportchilar ishtirokida amalga oshadigan turli mavzudagi suhbatlarni, uchrashuvlarni uyushtirish orqali estetik madaniyatni shakllantiradi;
- to'rtinchidan, mahalla bolalar va yoshlar uchun turli sport maydonchalarini bunyod etish, mahalla kutubxonasini shakllantirish, turli fan va kasb to'garaklarini tashkil etish, mahalla bog'ini barpo etish orqali yosh avlodning bo'sh vaqtini to'g'ri, unumli tashkillashtirib beradi;
- beshinchidan, mahalla turli dabdabaga va isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan turib urf-odatlar, an'analar, marosimlar, to'y-u tantanalarni chiroyli, tartibli o'tkazishni ta'minlab beradi va shu orqali shaxs estetik madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan maskan bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Muloqot – 1998. -№5. – 16-b.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Samarqand gazetasi, №99, 2016-yil 10-dekabr, 3-bet
3. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008, 116-b.
4. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008, 56-b.

5. Kaykovus. Qobusnoma. T.: "Istiqlol", 1994. 31-b.
6. R. Saidov, M. Ahmedov. Oila bir gulshanki.... T.: "O'qituvchi", 1996, 33-b.
7. Sa'diy. Guliston. Bir dasta gul. (elektron manba)
http://kutubxona.com/Sa'diy_Guliston(murojat etilgan sana 22.12.2016)

UDK: 291.1

ZAKI VALIDIY ILMIY MEROSIDA DINIY FALSAFANING YORITILISHI

Xujayev M.I.

O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: mumin_81@mail.ru

Annotatsiya. O'tmish allomalarimizning boy ma'naviy, falsafiy merosini o'rganish hamda ularning haqqoniy mohiyatini kelajak avlod ongiga tulaqonli etkaza bilish bugungi kun ilmiy jamoatchili oldida turgan eng ahamiyatli vazifa hisoblanadi. Shu ma'noda tarixchi, sharqshunos olim, yetuk faylasuf, o'z davrining jonkuyari bo'lgan jadidchi Ahmad Zaki Validiyning boy ma'naviy-ilmiy merosi hamda dunyoqarashini tahlil etish orqali o'sha davr madaniyati va ma'rifati haqida ulkan tasavvurga ega bo'lamiz. Maqolada Ahmad Zaki Validiyning islom diniga bo'lgan yuksak hurmat-e'tiqodi va ilmiy falsafiy qarashlarini bayon etilgan.

Kalit so'zlar: islom, shajara, jadid, ilmiy asar, Ahmad Zaki Validiy, Boshqirdiston, tarix falsafasi, ijod.

Раскрытие религиозной философии в научном наследии Заки Валиди

Аннотация: Изучение богатейшего духовного, философского наследия прошлых поколений, а также их значение в формировании знаний в сознании будущего поколения считается важнейшей задачей современного научного сообщества. В этом аспекте особо актуализируется анализ и изучение богатого духовно-научного наследия, а также мировоззрение историка, востоковеда, философа, джадида Ахмад Заки Валиди, внесшего значительный вклад в развитие культуры и просветительства своего времени. В статье рассматриваются высокое религиозное уважение к религии ислам, а также научно-философские взгляды Ахмад Заки Валиди.

Ключевые слова: ислам, родословная, джадид, научное произведение, Ахмад Заки Валиди, Башкортостан, философия истории, творчество.

The disclosure of religious philosophy in scientific heritage of Zaki Validiy

Abstract. Studying of richest spiritual, philosophical heritage of past generations and their meaning in formation of knowledge in consciousness of future generation is one of the important tasks of modern scientific society. In this meaning the analysis and studying of rich spiritual-scientific heritage the world outlook of historian, orientalist, philosopher, jadidist Akhmad Zaki Validiy who made a significant contribution in perception and development of culture and enlightenment of his time is especially actualized. In this article the high religious respect in Islam and scientifically philosophical views of Akhmad Zaki Validiy are considered.

Keywords: Islam, genesis, jadidist, scientific work, Akhmad Zaki Validiy, Bashqortostan, philosophy of history, creative work.

Tarixchi, sharqshunos, islomshunos, faylasuf, jadidchi olim Ahmad Zaki Validiyning hayoti va ijodini o'rganar ekanmiz olimning tarix, falsafa, islom ilmiga nihoyatda ulkan meros qoldirganligini guvohi bo'lamiz.

Ahmad Zaki Validiy asarlarini o'qigan olimlar juda yuqori baho beradilar – bulardan biri Abdulhamid Sulaymon O'g'li Cho'lpondir, Cho'lpon Zaki Validiyning asarlarini o'qib unga xat yozib Andijonga taklif qiladi. 1913-yilda talaba Nazir To'raqulov bilan Cho'lponning otasining uyida bo'lishganini ta'kidlaydi Validiy o'z "Xotiralar"ida yozadi.[1]

Xususan, Validiyning bizning o'lkamizda yashab ijod qilgan allomalar ijodiga oid fikr va mulohazalarini bildirib, Alisher Navoiy asarlarini o'rganar ekan, Alisher Navoiy va qozoq shoiri

Abaylarning falsafiy fikr va dunyoqarashlari olim yashagan muhit olimlariga ta'siri borligini ta'kidlaydi.

Validiyning fikricha kitoblar insonlar hayotida aniq fikr va xulosalarga kelish uchun va hamma vaqt zamon bilan hamnafas bo'lishlari uchun eng yaxshi vosita deb fikr yuritadi. Shuningdek, boshqirdlar o'z tarixlarini bilishi uchun Volkov va Vlasovlarning asarlarini hamda "Turmush" jurnalida yozishicha (1915 - yil 28 - aprel) Boshqirdlar shajaralari haqidagi ma'lumotga ega bo'lishlari kerakligi haqida ma'lumot beradi.[2]

Olim otasining madrasasida dars berib yurgan vaqtida bir xonani "laboratoriya" ga aylantirganligini yozadi. Uyi bilan madrasa orasida morze* ishlatganligini, madrasa talabalariga ilmi hay'at ya'ni astronomiyadan dars berganligini va bu darslarda Flamaryondan va Husayn al – Jisr nomli suriyalik* olimning asaridan foydalanadi. Shuningdek, darslarni Ahmad va Said ismli ikki kishining savol - javobi shaklida yozadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki bu o'sha davrga xos bo'lgan bir yangi pedagogik texnologiya sifatida tushunishimiz mumkin.

Bu borada Validiy ma'lumotlarni Boshqirdiston uchun yangilik ekanligi uchun talabalar ham qiziqishini, shuningdek, Validiy yozgan birinchi ilmiy asar bo'lganligini, lekin otasiga ma'qul kelmaganligini izohlaydi, chunki otasi yerning aylanishiga ishonmasdi. Validiy buni isboti uchun globusning kattarog'ini yasaydi va quyosh atrofida yerning aylanishini ko'rsatish uchun talabalarga qorong'u xonada chiroq atrofida aylantirib ko'rsatadi. Yerni yumaloq qilib yasash uchun yelim o'rnida xamir ishlatadi. Validiy afsus bilan yozadik: "Yozda madrasadagi xonamga qo'yilgan bu globusni sichqonlar yeb, mening shuncha mehnatim bekor ketdi. Otam bundan xursand bo'lib "Yerning aylanishiga sichqonlar ham ishonmaydi", deb qotib – qotib kuldilar deydi.[3]

Validiyning falsafiy qarashlarida islom dini ham muhim o'rinni egallaydi. Olim fikricha, islom dini insonning ichki (botiniy) va tashqi (zohiriy) hayotini tartibga solishni maqsad qilgan din hisoblanadi.

Islom diniga Validiy falsafiy yondashar ekan, falsafiy jihatdan millatning ruhiyatini aks ettirishi va hayotiyiligi bilan inson ruhiga mos kelishini izohlaydi.

Professor Begali Qosimov Validiy haqida shunday deydi: "Har bir o'zbekning qalbida faxr g'urur tuyg'usini o'yg'otish uchun tarixni bilish kerak. Jadidlarimiz shuning uchun tarixni va millatni tanishga alohida e'tibor qaratadilar. Bu borada Zaki Validiyning kitoblariga katta e'tibor bor. Ayniqsa ikki kitobini "Umumturk tarixiga kirish" va "Bugungi turk eli – Turkiston va uning yaqin tarixini" ni shoshilinch tarjima qilish kerak." [4]

Validiy yozadiki: "Nalivkin Toshkanda dorilmu'mininda muallimlik etgan vaqtda erli xotunli bu ikkovi sartlar orasida (Namangon uyazi Nanay qishlog'ida) uzoq vaqt turib, ularni o'rganganlar. So'ngdan yana bir necha yillar qozoqlar bilan birga sahroyi bo'lib, ko'chib yurib, qozoqcha va qozoq ma'ishatini inasidan ibina (ignasidan ipigacha) qadar o'rganganlar. Bizning Rusiya mamlakatida eng so'nggi vaqtga qadar Sharqni o'rganish ishlari ruhoniylar, xalqlar, poplar, missionerlar qo'linda keldi."

Rossiyadagi o'zga tilliklar orasida hukumat xristianlik dinini tarqatish maqsadida missionerlar tarbiyalaganlar. Ularga inorodeslarning tillarini o'rgatdi. Bular o'zga tillarni ozroq bilib olgachda bir-ikki kitob chiqarganlar, ham shuning bilan Yevropadagi "Sharqshunoslar"lar bilan bir o'rin olganlar. Ular ham hukumat ishlarida nasib etishlari edi. Bu hol Rossiyada inorodeslarni o'rganishning bir tarafli (odnostoronnyy) ham bir vaqt buyuk bo'lishina ham inorodeslar bilan rus xalqi orasida diniy dushmanliklarning zo'r bo'lib turushiga sabab bo'ladi.[5]

Bu qarashlarda Validiy shunday fikrga keladiki, "Mustashriq" lar orasida birinchi o'rin olib, ilmi borasida ular ham hukumat ishlarida aralashganliklarini va G'arb va Sharq falsafasidagi bu qarashlar missionerlikning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi va bunda Farg'ona aholisi va xotinlari turmush tarzlari haqida ma'lumot beradi.

1. Yerli xalqning dini to'g'risida.
2. Turmushlari, ham uy asboblari.
3. Xotinlarning tashqi ko'rinishlari, ham kishilari to'g'risida.
4. Xotinlarning ishg'ol eta turgan ishlari ham ish asboblari.
5. Yerli xotinlarning sajiyasi (xarakteri), odatlari, muhabbatna munosabati.
6. Qursoqli bo'luvi ham bola tug'diruvi.
7. Yosh qiz, uni yovchilash (sovchilash), nikoh, to'y.

8. Ko'p xotin oluv, taloq, ersiz qoluv, ham xotinlarning o'limi.
9. Nihoyat xotinlar orasida buzuqlik to'g'risida yozilgan.

Ilmiy faoliyati davomida Validiy Maksim Gorkiy nashr qiladigan "Russkiy letopises" jurnalida ishlovchi ba'zi muharrirlar va idealistlar hurfikrli ziyolilar, yanayam to'g'rirog'i, socialist inqilobchilar bilan tanishadi. Gorkiy Rossiyaga tobe millatlar antologiyasini nashr etishga qaror qilganligini aytadi. Shuningdek Ukraina, Fin, Arman va Gruzini adabiyoti va tarixi yozilayotganligini, "Rossiya musulmonlari" to'plamini tayyorlashni Gorkiy Valiydiyga topshiradi. Buning uchun Peterburg Umumiy kutubxonasida mavjud bo'lgan Rossiyada chop etiladigan musulmonlar nashrini, masalan, Ismoil Gaspirinskiy va Ozarbayjonda Hasanbek Malikov, Fattoh Oxundov va boshqalarga oid barcha nashrlarni hamda ruslarning Turkistondagi nashrlarini ko'zdan kechiradi. 1916 yil qishida shu ish bilan shug'ullanganlanadi.[3.1]

Maksim Gorkiy bir safar Validiy Sankt-Peterburgning Finlyandiya yo'lidagi Mustamiyakiyda joylashgan yozgi uyiga taklif qiladi. Uchrashuvda Gorkiy rus bo'lmagan millatlarning huquqlari haqida ko'p liberal fikrlarni bildiradi. Gorkiy aytadiki: "Ruslar orasida biz to'g'rimizda erkin fikrli kishi sifatida professor Maksim Kovalevskiy bilishini va 1905 - yil inqilobi paytida "Qonun oldida millat masalasi va fuqarolarning huquqiy tengligi" nomli asar yozganligini aytadi. Professor Kovalevskiy Rossiyada yashovchi barcha millatlar xohlaganlaricha yashashga haqli ekanliklarini, milliy madaniyatlarini o'zlari xohlaganidek rivojlantirishlari lozimligini qayd etgan, armanlarga Bagrat davridagi Buyuk Armanistonni tiklash yo'lida ozarbayjonliklar bilan omonsiz kurashga kirishish va madaniy dunyoda shovqin-suron ko'tarish o'rniga o'z til va dinlari asosida milliy madaniyatlarini rivojlantirishni taklif etgan va shu yo'l orqali Kavkaz musulmonlarining muhabbatiga sazovor bo'lganligini yozadi. Validiy Kovalevskiy asarida, insonlarga yashash, shaxs va jamiyatning farovon turmush kechirishi huquqini bermagan Rossiya haqidagi fikrini avliyo Avgustinning "Quid sunt regne sine justita, nisi magna latracinia" ya'ni, "Adolatsiz humronlik katta yo'lto'sarlikdan boshqa narsa emas" deydi.

Validiyning tog'asidan arab adabiyotini o'rganganidan mamnun ekanligini quyidagicha izohlaydi: Turkistonga qilgan ilk safarida Zamaxshariyning arabcha devonini va Taftazoniy bilan Sayid Sharif Jurjoniyning munozaralariga oid risolani keltirishadi. Validiy uchun bulardan ham qimmatliroq va qadrliroq hadya bo'lmas edi. Chunki, risolada Amir Temurning o'z zamonida ikki buyuk olimni Qur'onda "Baqara" surasining "Ulayka a'la xudan min Rabbihim" oyati ustida munozara qildirgani haqidagi arabcha yozilgan asar edi. Bu asarda arab ritorikasining eng nozik masalalari hamda falsafaga to'xtalganligida edi. Istarlitamoqdagi suhbatlar tog'asi bilan so'nggi ko'rishishi bo'ladi.

Olim Shahobiddin Marjoniyning o'zining ma'naviy ustozini deb biladi va uning ijodini o'rganar ekan o'zida Marjoniydan quyidagi xulosaga keladi: "Islom dini, falsafa va hikmatni inkor etmaydi. Fanga kelsak, ularning barchasi xayrlidir" deydi.[6]

Validiy islom falsafasi to'g'risida quyidagi tahliliy fikrni ilgari suradi, uningcha hattoki hayotda tarix modda va narsani mag'zi va holicha bahs etib, yozuvda ifoda etadi. Yozish bu tarixdir. Xulosa qilib hadislar tarixiga fikr bildiradi. Hadislarni tarixini bir ilmini, masalaga mohiyatini, ipak matosini, bug'doyi, tutun, yog'ochli ayvoni, masalan, olma yog'ochini toshlarda, marmarning tarixini darslarda bahs etishni ta'kidlaydi.

Tarixni islom falsafasi tahlili jarayonida turli xil zamonlarga va turli jamiyatlarga mansub insonlarning ruhiy jihatlarini ko'rishini qaysi tilda yozilgan bo'lsa ham, xato yozilgan bo'lsa ham tushunishga qodirligimiz haqida fikr yuritadi. Masalan: Shumerlarning, Ashshurlarning, Misrliklarning kitoblarini, Xitoylik Konfusiyning fikrlarini Hind Buddaning nazariyasini Aristotel falsafasini, arabcha Qur'onni bugun tushunishga qodirmiz. Garchi ular boshqa muhitda boshqa tillarga va o'zgacha harflar va iboralar bilan yozilgan bo'lsa ham biz uni falsafiy tahlil qila olishimizning tahlilini keltiradi. [7]

Validiyning falsafiy qarashlarida hodisalarning sabab va kelib chiqishi bilan biri boshqasiga bog'liq ekanligini bildirish asosiy maqsaddir. Buni Berhyeym "Auffassung dts Zurummenhanges", Ch.Langois ham fransuzcha qilib "Coonception" tadbiri bilan ifoda etgan. Biz ham bunga munosabatlar aniqroq deya olamiz. Bu yerda tarixchiga tabiiy fanlar, tarix falsafasi bilan ijtimoiyot yo'l ko'rsatadi. Bu yerda "ichki ruhiy omillar" va sabablar orasidagi munosabatlar izohlanadi.

Ularning har biri alohida izohlanadi. Tarix metodining falsafiy jihatdan umumiy ko‘rinishini tavsif etadi.[7.1]

Validiy dunyoqarashida tarixni o‘rganish falsafiy yondashuv g‘oyasi qanday va uni tashkil qilgan hamma narsaning moddiy hayotini o‘rganish, bashariyat tarixining g‘oyasi ham, bashariyatning moddiy va ma‘naviy hayotini o‘rganishdir. O‘z hayotimizni va bugungi muhokamada turli-tuman fikrlar ham bor. U xilda tarix uchun shunday bo‘lish zaruriyat talab qiladi. Shu sabab bilan turli tuman tarix falsafasi yuzaga kelishining isbotini “Tarixda usul” nomli asarida tasniflash barobarida Validiy tarix falsafasini o‘rganishni eng qulay va ishonchli ba‘zi yolg‘on tarixiy tadqiqarlarni isbotlaydi.

Validiy Abu Rayhon Beruniy falsafasini o‘rganishda Beruniy asarlaridagi diniy fikrlar keltirilgan hind asarlari “Richvada va Atarvananada” nomli hind kitobini o‘rganib, Patanjali, Braxmagupta, Aryabxata, Vashta, Pulisa, Varahamihra kabi hind olimlarining asarlaridan matnlar tarjima qilganligini, hamda hind falsafasi va ilmi haqida ma‘lumot berar ekanlar, ushbu ma‘lumotlarni islom, yunon va eron olimlari bilan taqqoslaydi va o‘zining qarashlarini ham bayon etadi. Shu sababli bugungi kunga kelib, mazkur kitob eng nodir, eng noyob asar sifatida baholanishini, asarning mundariyasi diniy, falsafiy fikrlar, adabiyot, botiniy e‘tiqodlar, xronologiya, meteorologiya, qonunlar, urf-odatlar va nihoyat astronomiyadan iborat ekanligini ta‘kidlaydi.

Adabiyotlar

1. Абдурахмонов М., Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестане. Т.:–“Фан” 2004. – С 37
2. А.З.Валиди Тоган. История Башкир. [пер. с турец А.М.Юлдашбаев] – Уфа: Китап, 2010. – С 327.
3. Prof. Zeki Vyelidi Togan. Hatiralar ... –Ankara: 1999, §21. S.14.
4. Qosimov B., Milliy o‘yg‘onish. -T:.- “Ma‘naviyat” 2002. 70-b.
5. Validov A. Farg‘ona xotinlari to‘g‘risida Nalivkin. // «Suyunbika», Kazan, 914, №6. – S. 8-10.
6. Al-Islam yukaddibu al-hikmata va-l fann-u xayrun kulluhu.
7. Prof. Zeki Velidi Togan. Tarihte Usul.- Istanbul: 1985. S.18.S.20.

UDK: 1.323/327 (575.1)

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTSIONALLASHUV: KOMPLEKS YONDASHUV

Bo‘taev U.X.

O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat barqarorligini ta‘minlash jarayonida siyosiy institutlarning institutsionallashuvi tahlil etilgan bo‘lib, unda davlatning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, institut, institutsionallashuv va siyosiy institutsionallashuv tushunchalarining tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, tinchlik, barqarorlik, institut, institutsionallashuv, siyosiy institutsionallashuv, davlat, siyosiy tizim, fuqarolik jamiyati.

Политическая институционализация и обеспечении стабильности общества: комплексный подход

Аннотация. В данной статье анализируется институционализация политических институтов в процессе обеспечения стабильности в обществе. Основной акцент делается на место и значение государства. А также дается анализ таких понятий, как институт, институционализация и политическая институционализация.

Ключевые слова: общество, мир, стабильность, институт, институционализация, политическая институционализация, государство, политическая система, гражданское общество.

Political institutionalization in providing stability of society: complex approach

Abstract. The article analyzes the institutionalization of political institutions in the process of ensuring stability in society, making an emphasis on the place and importance of the state. As well, notions such as institution, institutionalization and political institutionalization are studied.

Keywords: society, peace, stability, institution, institutionalization, political institutionalization, state, political system, civil society.

Jamiyatda tinchlik va barqarorlik uning hayotidagi ijtimoiy-siyosiy institutlarning institutsionallashuv jarayoniga ham bog'liqdir. Chunki, institutsionallashuv jarayoni jamiyat doirasidagi munosabatlarni shakllantirish, ta'minlash orqali barqarorlikni ma'lum bir davrda sohaviy barqarorlikni erishishiga olib keladi. Barqarorlik esa, ijtimoiy-siyosiy institutlar tamonidan amalga oshiriladi.

Shu o'rinda "institut" tushunchasining etimologik mazmuniga e'tibor qaratsak, "institut" so'zi lotincha "institutum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'rnatish" yoki "tashkilot" degan ma'noni anglatadi. Davlat institutning asl ko'rinishi hisoblanib, ma'lum bir ko'rsatmalarga ya'ni, qonun va qoidalar tizimiga asoslangan bo'ladi. Bunda davlat jamiyat hayotida tashkil etilgandan so'ng, dastlab o'zining boshqaruv darajasini vujudga keltirib, tartiblashgan va yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshira boshlaydi, boshqaruvni o'z nazoratiga oladi hamda tashkilotchilik qobiliyatini amalga oshiradi. Albatta, bu ijtimoiy-siyosiy jarayon jamiyat hayotida davlat institutlarini vujudga keltira boshlaydi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarining faoliyatini yuzaga keltirib, institutsionallashuvni yuzaga keltiradi. Bu jamiyat hayotida ijtimoiy va siyosiy institutlarning faoliyatini rasmiy tarzda shakllantiradi. Siyosiy institut – bu birinchidan, tashkillashgan jamoaning uyushgan holati, jamoatchilik irodasi, maqsadlari va hayot faoliyati tarziga asoslanuvchi insonlarning maxsus hamjamiyatga birlashuvining tashkiliy shakli bo'lsa; ikkinchidan, hokimiyat va ta'sir etishga doir shakllanuvchi, jamoa va insonni integratsiya qilishni qo'llab-quvvatlovchi, birlikni boshqaruvchanligi va jamoaviy qadriyatlarga, tashkiliy prinsiplarga, ratsional me'yorlarga tayanuvchi kishilar uyushmasining ideal modelidir; uchinchidan, individ va guruhlarning, shuningdek, butun insoniy ijtimoiy tuzilmasi munosabatlardagi modellarni realizatsiya etish va qayta ishlab chiqish[1] hisoblanadi. Umuman, siyosiy institut – bu siyosiy tizim hosil etuvchi, siyosiy faoliyatning turli sohalarini muvofiqlashtiruvchi, ularni rollar va maqomlar tizimiga tashkillashtiruvchi, rasmiy va norasmiy qoidalar, prinsiplar, me'yorlar, ko'rsatmalarning barqaror majmuidir[2].

Darhaqiqat, jamiyat uchun taraqqiyot qonuniyatlarini faqat qandaydir moddiy omillar shakllantirmasdan, balki tizim sifatida o'z taraqqiyotini o'zi ta'minlaydi. Ko'pchilik olimlar fikriga ko'ra, har bir alohida jamiyat, bu ma'noda o'z taqdir va istiqbolini tanlash hamda ta'minlashda erkin ekanligi aniq bo'lib qoldi deb ta'kidlaydilar[3].

Ushbu jihatdan tizim sifatida jamiyatning barcha jabhalariga (iqtisod, siyosat, turmush, madaniyat va ma'naviyat) barobar taalluqli va u, o'z navbatida, har bir jabhada o'zining xususiy intilishlari, manfaatlari, demak, o'z ichki omillariga ko'ra alohida tizim deb qarash lozim[4]. Tizim esa, jamiyatning har bir sohasida institut sifatida tashkil topadi va asta-sekin o'zaro munosabatlarda institutsionallashadi. Institutsionallashuv jarayoni jamiyat doirasidagi munosabatlarni shakllantirish, ta'minlash orqali barqarorlikni ma'lum bir davrda sohaviy barqarorlikka erishishiga olib keladi.

Ma'lumki, institutsionallashuv har qanday ijtimoiy sohaga tegishli bo'lib, u muayyan harakat yoki hodisani tashkillashgan tashkilotga aylantirish, shuningdek, pag'onasini fanlar, axloq qoidalari, ma'lum bir qadriyatlar tizimiga asoslangan aniq munosabatlar tuzilmasini tartiblashgan jarayonga aylantirish yoki harakatdagi tashkilotni tashkillashtirishni ifodalashini nazarda tutsak, mazkur jarayon bir necha ketma-ket davrlarni o'z ichiga oladi:

- 1) talabning paydo bo'lishi va unga o'zaro tashkillashtirishga faoliyat harakatlari orqali qondirilishi;
- 2) umumiy maqsadlarni shakllantirish;
- 3) stixiyali o'zaro harakat hamda sinab ko'rish va usullardan to'laqonli foydalangan holda ularni amalga oshirish orqali ijtimoiy norma va qoidalarining vujudga kelishi;
- 4) norma va qoidalar bilan bog'liq jarayonlarni vujudga kelishi;
- 5) norma va qoida jarayonlarni institutsiyalovchi, ya'ni ularni qabul qilish, amaliy qo'llash;
- 6) norma va qoidalarni saqlab turishda qo'llaniladigan tizimlarning zamonaviy zanjiri (sanksiyasi, to'siq), ularning ayrim hollarda qo'llanishi, tafovuti;

7) mustasno tarzda barcha institut a'zolarining qamrab olinishi, mavqei va rollar tizimining yaratilishi[5] kabi omillar shular jumlasidandir.

Shu o'rinda "institutsonallashuv" nima? Uning "siyosiy institutsonallashuv"dan farqli jihatlarini nimalarda kabi savollarga quyida javob berishga harakat qilamiz:

Siyosatshunoslikda "institutsonallashuv" tushunchasi asosida insoniy hamjihatlik va yashash mazmuniga javob beruvchi qoidalar majmui tushuniladi[6].

Sotsiologiya fani nuqtaiy nazaridan bu termin turfa turdagi ijtimoiy tabaqalar faoliyatini ularni sotsial institut sifatida boshqarish jarayoniga aytiladi[7].

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, institutsonallashuv umumiy qabul qilingan tajribalarni, o'zgarmagan holda saqlab, bir necha avlodlarga etkazib, mazkur qoidalarni o'zaro barqaror amaliyotga o'tkazishga xizmat qiladi, deb ta'kidlanadi.

"Zamonaviy xorijiy so'zlar lug'ati"da institutsonallashuv – bu "qandaydir yangi ijtimoiy institutlar muassasi, u yoki bu ijtimoiy munosabatlarning huquqiy va tashkiliy mustahkamlanishi, institutsonal esa – bu "ijtimoiy institutlar bilan bog'liqlik, ularga aloqadorlik"ni bildiradi[8] deb ta'kidlanadi.

Umuman, institutsonallashuv – ijtimoiy fanlarda siyosiy institutlarning davlatdagi rolini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratadigan muhim metodologik yondashuv sifatida qaraladi. Chunki davlat mavjud ekan, uning ichkarisida davlat va nodavlat institutlar mavjud bo'lishi tabiiydir. Ular o'zaro vakolatlari yuzasidan institutlashadi va o'zaro yaxlit tizimni shakillantiradi. Shu boisdan siyosiy tizimda boshqaruv va nazorat mexanizmlari asosida siyosiy institutsonallashuv yuzaga keladi.

Siyosiy institutsonallashuv-asosiy siyosiy normalar, siyosiy qadriyatlar va siyosiy xulq-atvor andozasi jarayonining tashkil etilishi, huquqiy mustahkamlanishi hamda tan olinishi, shuningdek, ularga rioya etilishini nazorat qilish imkoniyatidir. Siyosiy institutsonallashuv siyosiy barqarorlikning muhim sharti bo'lib, unda asosan davlat markaziy o'rinni egallaydi hamda siyosiy tizimning sohaviy (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy) vazifalarni belgilaydi hamda nazorat etadi. Davlat o'z mazmun – mohiyatiga ko'ra turli funksiyalarni bajaradi, biroq funksiyalarni, A.V.Pikulkin fikriga ko'ra, yo'nalishlari bo'yicha quyidagicha klassifikatsiya qilinadi. Bular:

birinchidan, ijtimoiy ishlarni bajarish;

ikkinchidan, ijtimoiy adolatni ta'minlash;

Uchinchidan, Shaxs, jamiyat, davlatni himoya qilish, tartibni ta'minlash.

Ammo, har qanday davlat uchun fundamental bo'lgan quyidagi funksiyalarni ko'rsatish mumkin:

1) rivojlanish strategiyasini aniqlash;

2) mulkchilik huquqlarini kafolatlash;

3) xususiy va aralash sektorlar o'rtasida munosabat;

4) moliyaviy, pul va ijtimoiy siyosat;

5) ijtimoiy tartibotni ta'minlash;

6) himoya va ekologik muvozanatni ta'minlash.

Masalan, aqsh davlatining funksiyalari quyidagi turlarda ta'riflangan:

1) milliy strategiyani aniqlash;

2) jamiyat hayotining huquqiy asoslarni ta'minlash;

3) iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish;

4) ilmiy – texnikaviy va sanoat siyosatini yuritish;


5) moliya – kredit munosabatlarini tartibga solish;

6) ijtimoiy sohani rivojlantirish;

7) xavfsizlikni ta'minlash hisoblanadi[9].

AQSH davlatining asosiy funksiyalarini tahlil qilar ekanmiz, fundamental ahamiyatga ega funksiyalar barcha davlatlarga xos bo'lsada, har bir jamiyat taraqqiyot darajasi va strategik maqsadidan kelib chiqib, asosiy va birlamchi funksiyalarni belgilab olishi va ularni amalga oshirishi lozim. Shuni ham aytish kerakki, davlat siyosiy tizimni shakillantirish bilan birga uning vazifalarini ham belgilab beradi. Chunki, siyosiy tizim jamiyatdagi muayyan siyosiy funksiyani bajaradigan ijtimoiy institutlar tizimi bo'lib, uning ikki darajasi mavjud: mamlakatning siyosiy tizimi va xalqaro siyosat tizimi. Birinchisi u yoki bu jamiyatning siyosiy sohasini qamrab olsa, ikkinchisi butunjahon

hamjamiyatini o'z ichiga oladi. Siyosiy tizimda davlat hal qiluvchi bo'g'in vazifasini o'taydi[10]. Shu boisdan, quyidagi sxemada[11] siyosiy tizimning vazifalarini ko'rishimiz mumkin:



Shundan ko'rishimiz mumkinki, jamiyat barqarorligini ta'minlashda tizimning roli, uning elementlari va funksiyalarini davlat institutlari tamonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, jamiyatda siyosiy institutlarning institutsionallashuv jarayonida yana bir o'ziga xos jihat mavjud. Bu fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida barqarorlik faqatgina davlat institutlarining institutsionallashuvi bilan emas, balki nodavlat institutlarning institutsionallashuviga ham bog'liqdir. Chunki, nodavlat institutlar tizimi tizimiylik asosida ma'lum bir me'yor, qonun va qoidalar asosida boshqaruv jarayonini shakllantiradi. Natijada, boshqaruv jarayonida harakat a'zolarining qarashlari, manfaatlari yuzaga kelib, davlat institutlariga nisbatan ta'sir o'tkaza boshlaydi. Bu esa, davlat va nodavlat institutlarning institutsionallashuviga olib keladi.

Xulosa o'rnida aytganda, jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy institutlarning institutsionallashuvi kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yana takomillashib boradi.

Adabiyotlar

1. Ильин М.В. Слова и смыслы: общение-общность // Политические исследования, -1994, - №6. -С.14.
2. Политология.-Ростов-на-Дону: Феникс, 1997.-С. 166.
3. Егоров И.А. Принцип свободы как основание общей теории регуляции//Вопросы философии, -2000, -№3, -С.3-2.
4. Jo'rayev T. Milliy davlatchilik:xavfsizlik va barqarorlik. -T.: Akademiya, 2007. -B.10.
5. Фролов С.С. Социология: учебник. 3-е изд., доп. -М.: Гардарики, 2000. -С.166.
6. Айзикович А.С. Потребности и интересы. -М., 2001. - С.72.
7. Меркель В., Круассан А. Формальные и неформальные институты в дефектной демократии // Политологические исследования. -2002. -№ 2. -С. 20.
8. Современный словарь иностранных слов. -М., 1992. -С.239.
9. Пикулькина А.В. Система государственного управления. -М., 2004. -С.169-170.

10. Ergashev I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishning nazariy masalalari (o'quv qo'llanma). –T.: Akademiya, 2014. 157-bet.

11. Bo'tayev U.X. Siyosiy tizim va tahlil. –T., 2012.–B. 55.

УДК: 14.8

“KANZUL-MAORIF” ASARINING TADQIQI VA SANOIYNING FALSAFIY QARASHLARI

Shakirova Sh.Yu.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

Annotatsiya. Maqolada ToshDSHI Sharq qo'lyozmalar markazi fondida saqlanayotgan “Kanzul-maorif” asarining ilk bor ilmiy tadqiqi qisqacha berilgan. Ijodkor “SHe'riy doston”larida insonning falsafiy jihatlarini bayon etib, muammolarni badiiy obrazlar vositasida talqin etishi haqida ham ma'lumot berilgan.

Tayanch so'z: sufiy, g'oya, ta'limot, rivoyat, riyokor.

Исследование произведения «Канзул-Маориф» и философические взгляды Санаи

Аннотация. В статье впервые дается краткое научное описание произведения «Канзул-маориф», хранящийся в фонде Центра восточных рукописей ТашГИВ. Также в своих поэтических произведениях автор описывает философские взгляды человека с помощью художественных персонажей.

Аннотация. софист, идея, учение, легенда, лицемер.

Research work "Kanzul-maorif" and philosophical view of Sanaa

Annotation. This article provides a brief description of the scientific work "Kanzul-Maorif" which is stored in the fund of the Centre of Oriental Manuscripts of the Tashkent State Oriental languages University. Also in his poetic works, the author describes the philosophical aspects of human beings through artistic characters.

Keywords: sufi, idea, teaching, legend, a hypocrite.

XIX asr Xorazm tasavvuf adabiyotida qalam tebratgan faylasuf olim, shoir va yozuvchi bo'lgan Bobojon Sanoiy bir qator original va tarjima asarlarni yaratdi. Uning original asarlaridan bo'lmish “Kanz-ul-maorif” (“Ma’rifatlar xazinasini”), yozilgan sanasi ko’rsatilmagan, uni qayta ko’chirishda (Sanoiy bu asarni 1861 yilda ko’chirib yozgan) qo’yilgan sana e’tiborga olinsa, bu asar XIX asr 90-yillarning oxiri – 60-yillarning boshida yaratilganligi ma’lum bo’ladi [1].

Bobojon Sanoiyning asarlari uning tarjimalari bilan birga ToshDSHI Sharq qo'lyozmalari markazi fondida saqlanib kelmoqda [2].

891/III-inventar raqami ostida saqlanib kelayotgan “Kanz ul-maorif” (“Ma’rifatlar xazinasini”) asari muallif bergan mundarijaga ko’ra o’n bir bobdan iborat bo’lishi kerak edi. Asar esa oltinchi bob bayoni bilan tugaydi [1].

Bu boblarda ramzlar, ishoratlar va hikoyatlar ma’nolari, inson vujudi tilsimi, uning yaratilishdan maqsadi, yaratilganda olgan omonatlari, jismi tani, bosh a’zosi, yaratilgandan keyingi vazifalari, inson a’zolarining hikmatlari va ruhi sultoniyya kabi masalalar yaratilgan.

Muallifning asarni yozish maqsadini quyidagi jumladan anglab olishimiz mumkin: “Bu kitobni o’qimoq birla o’z nafsingdin boxabar bo’lsang va o’z zotingning sharif va kasif (tubanligini tafakkur va taaqqul qilsang, anglagilkim saodat avbobi (eshiklari) to nafs ma’rifati va vujud kayfiyati qo’lig’a kirmaguncha hosil bo’lmas”.

“Kanz-ul-maorif” – ilmiy-falsafiy asar bo’lib, unda muallif o’zini qiziqtirgan inson muammosini tadqiq qilishga intiladi, shaxs va uning fe’l-atvori, yaxshi ishlari va axloqiy nuqsonlari haqida fikr yuritadi, inson ruhiyati tabiatini tadqiq etadi, unga chuqur kirib borish istagi bilan yonadi. Yozuvchi o’z oldiga inson mohiyati, shaklu shamoyili, muddaolarini, uning boshqa jonli mavjudotlardan farqini, hayotdagi o’rnini aniqlash vazifasini qo’yadi. Sanoiy o’zining har bir asarida ko’ndalang bo’lib turgan masalalarga javob berishga intildi.

“Kanz-ul-maorif” asarida inson tabiatini idrok etishning soʻfiylik jihati ustunlik qiladi. Muallif darveshlik darajalarining qonuniyatlarini – xudoga yaqinlashish, ruhni chiniqtirish, maʼrifat va haqiqatni anglash jarayonlarini tasvirlaydi. Sanoiy insonni tabiat hodisasi sifatida tadqiq qilar ekan, tabiiy-falsafiy qarashlarga amal qiladi, insonning tabiatdagi oʻrni va uning feʼl-atvorlari haqida fikr yuritganida soʻfiylik taʼlimotiga tayanadi. Sanoiyning “Sheʼriy doston”larida insonning falsafiy jihatlari bayon etilgan boʻlsa, bu oʻrinda mazkur muammo badiiy obrazlar vositasida talqin etiladi. Shu munosabat bilan u insonning paydo boʻlishi toʻgʻrisidagi afsonani bayon etadi, insonning tabiatga, yerga munosabati toʻgʻrisida, uning hayotdagi oʻrni va burchi haqida hikoya qiladi.

Alloh taolo insonni yaratishga qaror qilganida koʻpgina sayyoralar uni qabul qilishni xohlaydilar, ammo xudo yerni tanlaydi. Yer esa bunga eʼtiroz bildirib, odamlar koʻpaygach, oʻzaro raqobat, bahs boshlaydilar, bir-birlarini oʻldirib, qon toʻkishga, gullab-yashnab turgan vodiylarni vayron qilishga kirishadilar, deydi:

15^a

چون که ایتدی آیدی یا کریم، سن کییی یوق کیمسه دانا و علیم.
بارچه ایش علم قدیمینگه عیان، حاجت ایرماستور آنگا شرح بیان.
روشن آلینگده باری پوشیده راز، بیلگونگ آنی ای کریم بی نیاز.
یر نیکیم دیدی سنگا معلوم ایرور، ذرّه یوقتور که نا مفهوم ایرور.
حاجت ایرماس ایلاما اظهار آنی، کرهی باردور ایلاسام تکرار آنی.
تیره کونده مور اگر قویغوسی پای، بردور اول علمینگگا معلوم ای خدای!

Chunki arz etdi-yu aytdi, ey karim,
San kibi yoʻq kimsa donou alim.
Borcha ish ilmi qadimiggaʼa ayon,
Hojat ermastur onga sharhu bayon.
Ravshan oʻllingda bori poʻshida roz,
Bilgung oni, ey karimi beniyoz!
Yer nekim dedi sanga maʼlum erur,
Zarrai yoʻqtur ki nomafhum erur.
Hojat ermas aylamak izhor oni,
Kurhi bordur aylasam takror oni.
Tiyra tunda mur agar qoʻygʻusi poy,
Bordur ul ilmingga maʼlum, ey Xudoy!
[KM.1,15a]

Ammo Xudo yerning fikriga qoʻshilmadi, inson faqat yaxshi ishlar bilan shugʻullanib, senga shuhrat keltiradi, dedi Yerga.

11^b

آنی خلق ایتماک اوچون بو کاینات، غلوی سفای جمیع ممکنات.
خلق قیلماقدین مراد اول ایردی بس، ایردی خلق آدمی بیزگا هوس.
هیر نیکیم عرش علی دین تا سمک، باردورولار جمله جَنّ ملک.
خلق قیلیمیش من طفیلی آدمی، اول خلیفه تابع اهل عالمی.
بو صفت لیغ بولغای اول محرم منگا، کیم سیغا آلماس ار امیز غه بنا.
رازدار اولغای منگا هر صبح شم، کیم انگا جبریل ایله بیرگوم پیام.
ایمدی آنداغ آدمینی ای زمین، سندی اینگوم خلق آنی اوشبو حین.

Oni xalq etmak uchun bu koinot,
Ulvi-yu sufli jamiʼi mumkinot.
Xalq qilmoqdin murod ul erdi bas,
Erdi xalqi Odamiy bizga havas.
Har nekim arshi ulodin to samak,
Bor dururlar jumlai jinnu malak.
Xalq qilmishman tufayli Odamiy,
Ul xalifa, tobeʼ ahli olami.
Bu sifatligʻ boʻlgʻoy ul mahram mango,
Kim sigʻa olmas aromizgʻa yano.
Rozdor oʻlgʻoy manga har subhu shom,

Kim anga Jibril bila bergum payom.
Emdi andog' Odamiyni, ey zamin,
Sandin etgum hal ani ushbu hiyn.
[KM.1.11b]

Ruhoniylar Allohning qudratini namoyish qilish uchun shu rivoyatni qurol qilib oldilar, Sanoiy esa insonning tabiatini tushunish, inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlik manbalarini ko'rsatish uchun bu rivoyatdan foydalangan edi. Muallif afsonani rivojlantirib, inson zoti ko'paygach, nopok kishilar vujudga kelib, nomunosib ishlar bilan shug'ullandilar, haqiqatan ham qon to'kib, yerni bulg'adilar, shafqatsizlik qildilar. Demak, Yer haq bo'lib chiqdi. Agar mantiqan fikr yuritilsa, Sanoiy buning uchun Allohni ayblamasa ham, har holda rivoyatning bayoniga ko'ra badiiy va haqiqiy voqealik o'rtasidagi ziddiyatni payqab olish mumkin.

SHu tariqa xorazmlik muallifning mulohazalarida Ibn Sino bilan Forobiy falsafiy asarlarining ta'siri sezilib turibdi. U afsonaning mazmunini yakunlab, o'z nuqtaiy nazaridan barcha illatlar va yanglishishlar inson tabiatining o'zidan kelib chiqadi, deb ta'kidladi. Muallifning bu xulosasi mutaassib ruhoniylarning fikriga zid edi. Sanoiy Forobiy va Ibn Sinoga ergashib, barcha illatlarning ildizini ochishga intildi, komillikka pastkash nafsni jilovlash va ruhni tozalash orqali erishish mumkinligini uqtirdi. Uning fikricha, shuhrat qozonish, yaxshi nom qoldirish va ruhiy yetuklikka yetishish uchun ezgu ishlarni amalga oshirish, halollik bilan kun ko'rish, boshqalarga ziyon-zahmat yetkazmaslik kerak. Ko'rinib turibdiki, Sanoiyning ma'naviy komil inson to'g'risidagi tasavvuri qandaydir model yoki sxema emas, mavhum falsafiy tushuncha emas, u aniq-ravshan, tushunsa bo'ladigan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ta'limot bo'lib, shaxsni takomillashtirish yo'li bilan jamiyatni yangilashni nazarda tutadi. Darhaqiqat, ushbu asar hayot taqozosi bilan dunyoga kelganligini muallifning o'zi ta'kidlab o'tadi.

"Kanz-ul-maorif"ning muqaddimasida jamiyat qattiq tanqid ostiga olinadi. Yovuz niyatli kishilar shu qadar ko'payib ketganki, deb yozadi u go'yo qiyomat qoyim yaqinlashib qolganday: odamlar insoniylik qiyofasini yo'qotib, bir-birlariga ko'maklashishni xayollariga ham keltirmaydilar. Ular vahshiy hayvonlarga o'xshab, o'ljaga yopishadilar, bir-birlarini g'ajydilar, inson zotiga dog' tushiradilar. Ularning faqat qiyofasi odamga o'xshaydi. ("U inson emas, niqobdir") [1,14b-15a]. Buning sababi bitta: jamiyatga razolat va kasofat asos bo'lgan ("Adolat yo'li unutilgan, zo'ravonlik usullari to'lib-toshgan"). Shu sababli, bordi-yu, hayot chamanida chechak bosh ko'tarsa, shu ondayoq vabo tegib, so'ladi, deydi g'azab bilan u.

Sanoiy o'zi yashab turgan jamiyatning illatlari odamlarning umriga zomin bo'layotganidan juda tashvishga tushadi: "kattadan kichikkacha o'z domiga olgan" illat ko'zlarni ko'r, quloqlarni kar qiladi, odamlarning his-tuyg'ularini so'ldiradi: "Odamlarning qalbi so'ngan, shu boisdan inson ruhi ularning nopok tanasini tark etadi" [1,15 a]. Bu kimsalar riyokorlik bilan o'zlarini beozor qilib ko'rsatadilar: shafqatsiz qalblarini yashirib, bazmu jamshidlarda tabassum bilan sharob tutadilar, deb yozadi u afsus nadomat bilan.

Shoir riyokorlik niqobidagi shafqatsizlik psixologiyasini ochib berishga intilayotganini ko'rib turibmiz. Uning hajviy ruhdagi tanqidi o'z zamonidagi jamiyatga chiqarilgan hukmdек yangraydi.

Ayni vaqtda Sanoiy fosh qilish bilan birga, ezgulikni qaror toptirishga intiladi, qalbida alam bilan qo'lga qalam oladi. Jamiyatning barcha illatlari uning fikricha ma'naviy qashshoqlikdan kelib chiqadi, ularga vijdonlilik, insoniylik udumlarini, ruh go'zalligi va oliyjanoblighi mohiyatini tushuntirmoq kerak. Shu tariqa ezgulik va ma'rifat urug'larini sochish mumkin.

Bobojon Sanoiyning maslagi ana shunday. U o'zining butun ilmiy va adabiy faoliyatini shu oliyjanob maqsadga bag'ishladi, u naqadar soddadil bo'lmasin, odamlarni haq yo'lga qaytarish mumkinligiga, jamiyatni yaxshi namunalar, insoniylik g'oyalari yordamida qabohatdan tozalash mumkinligiga qalban ishonar edi. Bu o'rinda u so'fiylik ta'limotiga, ma'naviy go'zal komil inson g'oyalariga tayanar edi. Bu ta'limot feodal muhitda yashab turgan, uning asoslari chirib borishini ko'rib turgan va mushkul ahvoldan qutulish yo'llarini izlaydigan ijodkor shaxs uchun birdan-bir to'g'ri yo'ldек tuyular edi.

So'fiylik Sanoiyga insonparvarlik g'oyalarini, xalq savodini chiqarish talabini targ'ib qilish imkonini ochar edi. O'sha zamon sharoitida uning fikr-mulohazalari g'oyat ilg'or ahamiyatga molik edi. Befarqlikni u jaholat manbai deb bilar, odamlarni harakatchanlikka, o'zi va hayot haqida, tevarak-

atrof haqida o'ylashga chaqirar edi. Shuning o'zi ham ijobiy hodisa edi, chunki tarix nuqtaiy nazaridan qaraganda insonparvarlikka qovushadigan va unga xizmat qiladigan harakatlar ilg'or hodisadir[4].

Xulosa qilib shuni aytish joizki, "Kanzul-maorif" Bobojon Sanoiyning original asari bo'lib, manbashunoslik va matnshunoslik nuqtaiy nazaridan o'rganilgan emas. Bu asar o'zbek mumtoz adabiyotining, millatning tafakkuri va axloqiy rivojiga xizmat qilishi, insonlarda oliyjanob hissiyotlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Sanoiy o'zining butun ilmiy va adabiy faoliyatini shu oliyjanob maqsadga bag'ishladi, u naqadar soddadil bo'lmasin, odamlarni haq yo'lga qaytarish mumkinligiga, jamiyatni yaxshi namunalar, insoniylik g'oyalari yordamida qabohatdan tozalash mumkinligiga qalban ishonar edi. Bu o'rinda u so'fiylik ta'limotiga, ma'naviy go'zal komil inson g'oyalariga tayangan edi.

Adabiyotlar

1. ToshDShI Sharq qo'lyozmalari markazi, R№ 891-III.
2. ToshDShI Sharq qo'lyozmalari markazi, Mehr va Moh.R№ 874/II; 1276; 3340/III, Haft kishvar R№ 1597/II va 7426; Badoi' al-insho R№ 891/II.
3. KM – "Kanz ul-maorif" iborasining qisqartma shakli. 15-a varaq.
4. Комилов Н. Хорезмская школа перевода. Докт.дисс., 1987, С.190-191

UDK: 341.231

GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTON MILLIY MUSTAQILLIGINI MUSTAHKAMLASHNING AYRIM JIHATLARI

Tillavoldiyeva M.X.

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, globallashuv jarayonlarida O'zbekiston milliy mustaqilligini mustahkamlashning ayrim masalalari, mamlakatimizning mustaqilligini taminlashda ichki va tashqi g'oyalarga qarshi kurashishning yo'llari, vositalarini izlab topish, shuningdek, milliy mafkurani takomillashtirish, ma'naviy qadriyatlar, milliy taraqqiyotni rivojlantirish borasidagi masalalarga e'tibor qaratiladi.

Kalitso'zlar: Globallashuv, taraqqiyot, dialektika, milliy g'oya, milliy mafkura, model, mustaqillik, g'urur, milliy.

Некоторые аспекты усиления национальной независимости Узбекистана в процессе глобализации

Аннотация. В статье раскрыты некоторые задачи укрепления национальной независимости Узбекистана в процессе глобализации, поиски средств борьбы с внутренними и внешними идеями для обеспечения государственной независимости а так же уделено внимание совершенствованию национальной идеологии, развитию национальных ценностей и духовного развития.

Ключевые слова: глобализация, развитие, диалектика, национальная идея, национальная идеология, модель, независимость, гордость, национальность.

Some aspects of enhancing national independence of Uzbekistan during globalization

Abstract. The article elucidates the global problems, some issues of strengthening the independence of Uzbekistan in the globalization process, finding the ways of combating internal and external concepts in order to reinforce the independence of Uzbekistan, as well as the developing national ideology the issues of advancing spiritual values and national development.

Keywords: National idea, ideology, idea, Globalization, independence, national, proud, development, nationality.

Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv jarayoni, dunyodagi barcha davlatlarning ijtimoiy – siyosiy tizimidan iqtisodiy rivojlanish darajasidan etno-demografik tarkibidan konfessional xususiyatlaridan qat'iy nazar global muommolar girdobiga tortmoqda. Insoniyat hozirga

qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashash bosqichiga o'tdi. Globallashuv jarayoni nomi bilan atalayotgan bu davrda iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy aloqalar intensiv tus olmoqda. Aloqa vositalarining takomillashuvi milliy chegaralarni omonat qilib qo'yimoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun ichki va tashqi yot g'oyalarga qarshi kurashning yangicha yo'llari va vositalarini izlab topish zarurati paydo bo'lmoqda.

Bu masala bo'yicha Birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida ilgari surilgan fikrlar nazariy va metodologik asos bo'ladi, albatta. Biroq, chet davlatlar, ayniqsa yirik davlatlar o'z ta'sir doirasini kengaytirish uchun g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning turli-tuman vositalaridan foydalanmoqdalar. Ikkinchi tomondan- diniy ekstremistik kuchlar g'oyaviy jihatdan chiniqmagan, falsafiy ongi yetarli bo'lmagan individlar, avvalo yoshlarni yo'ldan urish niyatidan qaytmayotirlar. Bunday sharoitda mustaqillikni g'oyaviy-falsafiy jihatdan mustahkamlash uchun tadqiqotlar o'tkazish va aholida "g'oyaviy immunitet"ni mustahkamlash yo'llari, usullari, vositalarini izlab topish zarurati paydo bo'lmoqda. Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda [1].

Shu nuqtaiy nazardan olib karaganda muommoning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan - globallashuv jarayoni tobora halqlar va millatlarning turmushiga chuqurroq kirib bormoqda. Oqibatda xalqlar va millatlar xayotiga texnika, fan va texnologiya yutuqlari bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini ham kirib kelmoqda. Buning natijasida milliy dunyoqarash va millat qadriyatlariga munosabat masalasi ham o'zgarib bormoqda. Ana shu jarayonning oldi olinmas ekan, istiqbolda milliy taraqqiyot xavf ostida qolishi va pirovard natijada millatlar taqdiri tanazzulga yuz tutishi mumkinligidan ko'z yumib bo'lmaydi;

ikkinchidan - globallashuvning taraqqiy qilgan millatlar manfaatiga xizmat qilish, millatlarning unga qarshi turishida vaqt va imkoniyatlarni qo'ldan berib qo'yayotganligi bilan bog'liq. Bu jarayonda Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iy va masuliyatimizni yoqotsak. Bu o'ta muhim shuni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'ldan chetga chiqib qolishimiz mumkin;

uchinchidan - ma'lumki, bugun 25 yil ichida jamiyatimizda tom ma'noda ma'naviy-iqtisodiy hayotning yangilanish jarayoni davom etayotganligini, O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk davlat barpo qilishi uchun millat va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu jarayon milliy mustaqilligimizni yanada mustahkamlash bilan bog'liq [2];

to'rtinchidan - ob'ektiv tan olish kerak- bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq kishilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va xududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib bormoqdakdagi, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaganligini tushunish, anglash qiyin emas. Demak, bu jarayon O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi[3];

beshinchidan dunyoda chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda er yuzining turli nuqtalarida millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf qilish, ularning oldini olish-kishilik jamiyati tarixiy-tadrijiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Bu amaldagi milliy siyosat modellarining mohiyati, ularning g'oyaviy-falsafiy asoslarini ilmiy-qiyosiy o'rganishini dolzarb qilib qo'yimoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bu dolzarb vazifani quyidagi vazifalarni amalga oshirish va hayotga tatbiq etish orqali erishish mumkin. **Jumladan:**

-“Globallashuv” va “milliy mustaqillik” tushunchalarining ma'no-mazmuni, xususiyatlari va ulargayondashishning ilmiy-nazariy jihatlariga doir fikr – mulohazalar;

-milliy mafkura va globallashuv jarayonining o'zaro ta'sirining ijtimoiy siyosiy jihatlarini o'rganish;

-O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy masalaga falsafiy yondashuv zarurati;

-O'zbekistonda diniyomillarga dialektik munosabatni falsafiy tahlil etish;

-globallashuv jarayonida milliy g'oya va mafkurani tokomillashtirish masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash;

-Mustaqillikgacha va mustaqillik yillarida jahon hamjamiyatida O'zbekistonni tutgan o'rnini tadqiq etish;

-O'zbekistonning insonparvarlik tamoyillari va uning globallashuv jarayonlarga ijobiy ta'sirini o'rganish;

-milliy mustaqillikni mustahkamlashda falsafaga fan sifatida yondashish muammosi.

-milliy g'oya va mafkurani O'zbekiston milliy mustaqilligini mustahkamlashning tutgan o'rnini ko'rsatish;

-O'zbekistonda ma'naviyatni dunyoviylik va diniylik asoslarda rivojlantirishning umuminsoniy mohiyatini yoritishga oid konseptual qarashlar, ilmiy –nazariy xulosalar ishlab chiqishdir [4].

Adabiyotlar

1. Karimov. Ibroxim. Noosfera – Geosiyosat va mafkura -T.: „Fan“ nashriyoti 2007. B.32.
2. Otamurodov. S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. Yangi asr avlodi 2003. B. 28.
3. Mamashokirov. S . Xalkaro ijtimoiy siyosiy munosabatlar globallashuvi va barqaror ekologik taraqqiyot muommolari. –T.. 2014. B. 55.
4. Hozirgi zamon falsafasi: holati va taraqqiyotining istiqbollari. -T.: 2014. TDPU- nashr. B. 57.

UDK: 316.37

YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING MA'NAVIY ASOSLARI

Xolmaxmatov A.X.

O'zbekiston Milliy universiteti

manzil:great-king@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda istiqloq davrida shakllangan yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirishda ma'naviy omillarning o'rni va ahamiyati bilan bog'liq masalalar haqida qisqa fikr yuritilgan. Unda mustaqillik yillarida bu sohada o'zgarishlarning mazmun-mohiyati tizimli ravishda ko'rib chiqilgan hamda ularning natijalari xususida muayyan xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarga oid davlat siyosatining ma'naviy omillari samarasini oshirishga qaratilgan ishlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, demokratik islohotlar, ma'naviyat, jamiyatning ma'naviy qiyofasi, yoshlar, barkamol avlod, yoshlarga oid siyosat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ma'naviy tarbiya

Духовные основы реализации молодежной политики

Аннотация: Статья раскрывает факторы, связанные с ролью и значением духовно-нравственных аспектов успешной реализации государственной молодежной политики в годы независимого развития нашей страны, также изложен системный анализ осуществленных за годы независимости реформ в данной сфере, сделаны соответствующие выводы по результатам их реализации.

Ключевые слова: независимость, демократические реформы, духовность, нравственные основы общества, молодёжь, гармонично развитое поколение, духовная культура молодёжи, молодёжная политика, духовные факторы воспитания

Spiritual bases of the implementation of youth policy

Abstract. This article tells about the factors associated with the role and value of spiritual and moral aspects of the successful implementation of the state youth policy in the years of independent development of our country. The article describes a systematic analysis carried out during the years of independence, the reforms in this area, and conclusions on the results of their implementation. The article also contains information about the work to improve the effectiveness of the spiritual aspects of the implementation of the state youth policy.

Keywords: independence, democratic reforms, spirituality, moral bases of society, young people, harmoniously developed generation, spiritual culture of youth, youth policy, the spiritual factors of education

Mustaqil taraqqiyotning ilk kunlaridanoq qonun ustivor bo'lgan demokratik davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan O'zbekiston, hayotning barcha sohaları qatori, yoshlarga oid davlat siyosatida ham o'ziga xos tamoyillarga amal qilmoqda. Bunda avvalo, bu yo'nalishdagi davlat siyosatini tashkil qilishning muayyan tarixiy yo'lini bosib o'tgan mamlakatlar tajribasini o'rganish bilan birga, xalqimizning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olgan milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarurati chuqur anglab olingani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizning mustaqilligi arafasiga kelib, u mansub bo'lgan sobiq ittifoqdagi yoshlar bilan ish olib boradigan tizim jamiyat rivoji hamda ushbu qatlam taraqqiyotiga to'siq bo'lib qolgan edi. Totalitar mafkura tamoyillariga bo'ysundirilgan bu tizim zamonaviy talablar, o'zgarib borayotgan davr ehtiyojlariga, mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti talablariga javob bera olmasligi yaqqol ko'rinib qolgan edi.

Shuning uchun ham, yurtimizning butun jahonda yoshlar qatlamiga yangicha munosabat shakllanayotgan ayni shu davrda mustaqillikka erishishi, mamlakatimiz hayotining barcha sohaları qatori, bu boradagi islohotlar va yangilanishlarni davlatimiz siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Mustaqillik davri talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga kirishildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, ya'ni, 1991 yilning 20 - noyabrida Sobiq Ittifoq respublikalari orasida birinchilardan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinganligi buni yaqqol isbotlaydi.

Hozirgi davrga kelib, mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizatsiya va isloh qilish, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish jarayonida yoshlarga oid siyosatni izchil amalga oshirishning samarali yo'llari va usullarini izlab topish va ularni hayotga tatbiq etishga nisbatan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Prezidentimizning "Bugungi kunda katta umid, orzu-maqсадlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo'shaman, deb belini mahkam bog'lab maydonga chiqayotgan, azmu shijotli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak"[1], degan fikri ana shu murakkab va serqirra jarayonning asl mazmun-mohiyatini yaqqol ifodalaydi.

Shu ma'noda, mustaqillikning ilk davridayoq yurtimizning ravnaqi, gullab yashnashi uchun, avvalo, fidoyi, intellektual jihatdan rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish, farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega va XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab olingani bejiz emas. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning istiqlol davrining o'ziga xos qomusi hisoblanadigan va jumladan, bizning mavzuumiz uchun ham asosiy nazariy-metodologik manba bo'lgan asarlari, ayniqsa "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobining ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Unda ta'kidlangani kabi, "Istiqlol yillarida mamlakatimizda ma'naviy tarbiyani amalga oshiradigan o'quv muassasalari va umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish eng muhim va jiddiy masalaga aylandi... Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi[2].

Yoshlarga oid davlat siyosati qotib qolgan va hech qachon o'zgarmaydigan konstantalarning oddiy yig'indisi emas, balki jamiyat taraqqiyoti va davr talablari ta'sirida muttasil yangilanib, zamonga moslashib boradigan usul va vositalar, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, turli dasturlar majmuidir. Shu ma'noda, har qanday davrda ham, uning amalga oshirilishi, chuqur dialektik jarayon bo'lib, muttasil o'zgarishlar va yangilanishlarni nazarda tutish zarurligini anglatadi. Yurtboshimizning quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kunlardagi eng asosiy maqsad-muddaolari va ustivor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo'lib hisoblanadi: "...yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga

qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi darkor"[3].

Zamonaviy O'zbekiston tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikning o'tgan yillari davomida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohot natijalari, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy, milliy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarning asrab-avaylanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim ravnaqi yoshlarga oid siyosat samaradorligini oshirish masalalari bilan uzviy bog'liqdir. Bu sohalaridagi islohotlar va ularning bugungi kundagi yuksak natijalari ushbu siyosatning samarali amalga oshirishini ta'minlashga qaratilgan nafaqat iqtisodiy, siyosiy omillar, balki ma'naviy asoslarning ham nihoyatda mustahkam zaminga tayanishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Masalaning bu jihatini tadqiq qilgan ba'zi olimlar samarali yoshlar siyosati G'arb sivilizatsiyasining bir necha asrlik taraqqiyoti natijasi va bugun uning yutuqlari ushbu sohada aks etmoqda deb hisoblaydilar. Ammo masalani keng tahlil qilish, ayniqsa Sharq qomusiy olimlarining merosini chuqur o'rganish, bu qarashlarning bir tomonlama xususiyatga ega ekanligi, ularda ko'proq yevropamarkazchilik tendensiyalari ustivorligini yaqqol ko'rsatadi. Shu bilan birga, tahlil Sharq xalqlariga xos yoshlar tarbiyasi tamoyillari va bu sohada uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan ma'naviy omillar va urf-odat hamda milliy an'analar zamonaviy O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini tashkil qilish va amalga oshirishning muhim asoslaridan biri bo'layotganidan dalolat beradi.

Ta'kidlash joizki, har qanday mamlakatdagi ilmiy asoslangan va zamonaviy tamoyillarga tayanadigan yoshlarga oid davlat siyosatini samarali shakllantirish jarayoni jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, madaniy sohalarida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi xorij tajribasini o'rganish, xususan, G'arbda chop etilayotgan asarlar tahlili mazkur jarayonning iqtisodiy, huquqiy va siyosiy jihatlariga ko'proq e'tibor berilib, ma'naviy-axloqiy asoslariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotganini yaqqol ko'rsatmoqda.

Jamiyatning iqtisodiy ta'minlanganligi bilan yoki tegishli qonunlar qabul qilinishining o'zaroq davlatning samarali yoshlar siyosatini to'la-to'kis shakllantirib qo'ya olmaydi. Bu siyosatning eng muhim vazifalaridan biri yoshlar ongini, ma'naviyatini o'zgartirish va ularning yangi zamonga mos tafakkurini dunyoga keltirishdan iboratdir. Bunday nihoyatda murakkab va serqirra vazifani amalga oshirishda aynan ma'naviy omillarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Sobiq Ittifoq o'rnida shakllangan ba'zi yaqin va uzoqdagi davlatlarning ayrim mutaxassis-olimlari o'z istiqloqlarining dastlabki yillaridanoq ushbu yo'nalishda ham G'arb tajribasini ko'klarga ko'tarib maqtatib va uni o'z mamlakatiga ko'chirib o'rnatishga intilayotganlarida G'arb jamiyatida namoyon bo'layotgan ma'naviy tanazzulning ildizlari va negizlari nimalarga kuch berayotgani va qanday natijalarga olib kelayotganini unutib qo'ygan edilar. Bu esa qanday ayanchli oqibatlariga sabab bo'lganini ana shu mamlakatlarning yaqin tarixi yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shu bois, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ma'naviyat va ma'rifatning yoshlar tarbiyasi, inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy shartlaridan biri deb, bilganlari bejiz bo'lmagan. Ma'naviy tarbiya — taraqqiyot taqozosi, jamiyat rivojining o'ziga xos omili ekani shubhasiz. Ammo ayni vaqtda u yoshlarning axloqiy qiyofasi, qalbi va ongini egallayotgan tamoyillar mazmun-mohiyatini belgilaydigan, ya'ni, shakllanib kelayotgan avlodning ma'naviyatiga katta ta'sir qiladigan, bu sohadagi ma'naviy mezonlarni shakllantiradigan va mustahkamlaydigan eng muhim omillardan biridir. Prezidentimiz alohida ta'kidlagani kabi, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir... Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi[1].

Ushbu fikrdan ko'rinadiki, aynan yoshlar siyosatini amalga oshirishda yuksak ma'naviyatli kishilarni, ya'ni ma'nan barkamol avlodni shakllantirmay turib, bugungi mustaqillik davriga mos

yoshlarga xos bo'lgan qadriyatlar, ideallar va tamoyillarni qaror toptirib bo'lmaydi. O'zbekistonning istiqloq yillaridagi tajribasini tahlil qilish mamlakatimizda bu masalaga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi. Shu sohada qabul qilingan qonun va qarorlar, farmon va hukumat hujjatlarida yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirish jarayoni avvalo, butun jamiyat miqyosida ma'naviyatni yuksaltirish uchun eng avvalo, ma'naviy ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, davlat organlari va mansabdor shaxslar, fuqarolarning bu sohadagi tamoyillar va axloqiy talablarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlariga erishish, aholining ma'naviy saviyasini yanada oshirish ustuvor vazifa qilib belgilanganligi mamlakatimizda bu jabhaning zarur asoslarining shakllanib borayotganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bu sohada bugungi kunda yana quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarurati ortib bormoqda:

- mamlakatimizda mavjud bo'lgan ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim olayotgan va hunar o'rganayotgan yoshlarning yuksak ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik hissi va bu boradagi tamoyillarni amalga oshirishda faollik tuyg'ularini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish;

- nafaqat talabalar, balki bu vazifani amalga oshirishning eng muhim bug'ini bo'lgan barcha ta'lim muassasalaridagi ustoz-murabbiylarning ma'naviyat sohasidagi savodxonligini yanada oshirish, ularning bu sohada butun jahonda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning natijalari bilan tezkor va izchil tanishtirishga mo'ljallangan ommaviy axborot vositalari (jurnal, gazeta, veb sayt va h.k.) faoliyatini samarasini oshirishga alohida ahamiyat berish;

- ta'lim tizimi bilan qamrab olinmagan yoshlar qatlamlari orasiga yuksak ma'naviyat tamoyillarini singdirish, targ'ib va tashviq etish samaradorligini muntazam oshirib borish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bu sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish;

- joriy yil uchun mo'ljallangan "Sog'lom ona va bola yili" davlat dasturida nazarda tutilgan vazifalarni bajarish doirasida amalga oshiriladigan faoliyat jarayonida yoshlarga oid davlat siyosatining ma'naviy omillari ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan chora va tadbirlarga alohida e'tibor qaratish.

Bularning barchasi, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirishda avvalo, ularning huquq va erkinliklarini inobatga olmasdan, yosh avlodning dunyoqarashi, fikri bilan hisoblashmasdan, uning ma'naviy asoslarini shakllantirib bo'lmashligini ko'rsatadi. Bu siyosat asoslari, zaruriy tarzda, muayyan ma'naviy tamoyillarga amal qiladigan, o'z huquqlari va manfaatlarini xalqi hamda vatani manfaatlarini bilan uyg'unlashtira oladigan, mustaqil e'tiqod va zamonaviy dunyoqarash egalariga tayanishini O'zbekistonning bugungi tajribasi yaqqol ko'rsatib turibdi. Ayni shunday holdagina har bir yosh inson o'z huquq va burchini chuqur anglaydi, ularning jamiyatda mavjud ma'naviy mezonlar bilan loqadorligini to'la-to'kis his qilishi mumkin. Yurtimizda huquqiy davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyati asoslarini yaratilayotgan bugungi kun uchun bu nihoyatda muhim, chunki yuksak ma'naviyat demokratik taraqqiyotning zaruriy asosi, ma'nau barkamol avlod shakllanayotganining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi[4].

Xullas, bugungi kunda yoshlar ma'naviy kamolotining eng dolzarb muammolarini hal etishda va ularning jamiyat hayoti hamda davlat boshqaruv tizimlarida faol ishtirokini ta'minlash jarayonida har bir yoshda yangicha tafakkur, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'rifiy ta'lim tizimini doimiy takomillashtirib borish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatimizda yoshlarga xos yuksak ma'naviyat tamoyillarini shakllantirish uchun ular orasidan zarur kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidan, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, mamlakatimizda shakllangan ta'lim va tarbiyaning samarali usullari va vositalarini hayotga tadbiiq etish imkoniyatlarini izlab topishning tobora ko'proq ahamiyatga ega bo'lib borayotganidan dalolat beradi.

Shunday ekan, biz bu sohada butun salohiyatimiz va iqtidorimizni ishga solishimiz, xalqimiz kelajagi, yurtimiz tinchligi va jamiyatimiz farovonligi uchun xizmat qiladigan yuksak ma'naviyatli, intellektual yetuk avlodni tarbiyalashdek muhim ishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Buning uchun har birimiz o'z zimmamizga yuklatilgan ulkan mas'uliyatni chuqur his etishimiz, bu yo'lda butun kuch-quvvatimizni ishga solishimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. –B. 235.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.-60-64 b.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2010. – B. 43.
4. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2009. T.17. – B.131.
5. A.Ochildiyev.Madaniyat falsafasi. -T.: ”Muharrir” nashriyoti, 2010. -B.54.

UDK 141;16.**EVOLYUTSIYA JARAYONLARIDA XAOS VA TARTIB SIMMETRIYASI****Bekpo'latov U.R.***Navoiy davlat pedagogika instituti*bekpolatov.u@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada evolyutsiya jarayonida simmetriya va asimmetriya kategoriyalarining evristik ahamiyati asoslangan. Materiya tug'ilishida o'z-o'zini tashkillashtiruvchi strukturalarning yaratilishida, borliqdagi kaos va tartibning abadiy qarama-qarshi kurashi hamda ularning garmoniyasi zarur ekanligi tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: kaos, tartib, evolyutsiya, garmoniya, simmetriya, asimmetriya, dissimmetriya.

Симметрия хаоса и порядка в эволюционных процессах

Аннотация. В статье обосновано эвристическое значение категории симметрии и асимметрии в эволюционных процессах. Врождении материи, в создании самоорганизующихся структур необходима вечная борьба противоположностей хаоса и порядка во вселенной, а также их гармония.

Ключевые слова: хаос, порядок, эволюция, гармония, симметрия, асимметрия, диссимметрия.

The symmetry of chaos and order in evolution

Abstract. The article substantiates the heuristic value of the categories of symmetry and asymmetry in evolutionary processes. Degeneracy of matter in creating self-organizing structures-that need the eternal struggle of opposites of chaos and order in the universe, as well as their harmony.

Keywords: chaos, order, evolution, harmony, symmetry, asymmetry, dissymmetry.

Rivojlanayotgan ilmiy bilimlar tizimida refleksiya (lot.Reflexio – ortga qaytish, ortga nazar) falsafiy bilimlar o'sishining manbai bo'lib hisoblanadi. “Fan haqiqatan ham falsafani yaratadi. Falsafa ham o'z navbatida zamonaviy fikrlar dinamikasini yetkazishda o'z so'zini aytishi kerak” [1].

Nazariy tasavvurlarning rivojlanishi mumtoz nazariyalarning boshqa, yanada mukammalroq o'rganilgan hodisalarning kengaygan doirasini - yangicha, aniqroq tushuntira oladigan va shu bilan bir vaqtda oldingi nazariyalardagi haqiqat mag'zini o'zida saqlab qola oladigan nazariya bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi.

Murakkab tizimlardagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlarini tadqiq qilishda sinergetika metodlaridan keng foydalanish o'ziga xos yangi obyektiv bilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Menimcha, o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni shakllanish mexanizmini to'laroq tushunish va adekvat ifodalash uchun “o'z-o'zini dissimmetrik tashkillashtirish” tushunchasi kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lardi[8]. Chunki, borliqdagi har qanday o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni o'z holicha sodir bo'lmay, balki simmetriya va asimmetriya o'zaro munosabatlarining qandaydir oltin kesishuvida, nuqtasida yuzaga keladi, natijada bu tizim o'z-o'zini dissimmetrik tashkillashtiradi. Shuningdek, har qanday o'z-o'zini tashkillashtirgan murakkab ochiq tizim biror muvozanat holati atrofida tebranib turadi va bunda atrof-muhit bilan doimiy ravishda energiya, modda, maydon va axborot almashinuvi sodir bo'ladi. Bu almashinuvlar natijasida, tizimdagi uni tashkil etuvchi qismlaridagi simmetriya

(tartiblilik) va asimmetriya (tartibsizlik) elementlarining o‘zaro muvofiqlashishi, ya‘ni dissimmetriyasi muvozanatsiz nisbiy turg‘un holatni yuzaga keltiradi. Hozirgi vaqtda murakkab tizimlarda bifurkatsiya nuqtasidagi o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayoni xaosdan tartibga o‘tish tarzida o‘rganilib, tizim o‘z-o‘zini tashkillashtirilgandan keyingi holatidagi xaos va tartib simmetriyasi yetarlicha e‘tiborga olinmayapti. Bu esa o‘z navbatida murakkab tizimlarda shuningdek, ijtimoiy sohalarda ham uzoq yillarga mo‘ljallangan barqaror rivojlanish yo‘llarini topish imkonini bermayapti. Shuning uchun bu kabi muammolarni yechishda simmetriya va uning buzilishi prinsiplaridan foydalanish har tamonlama istiqbolli bo‘lib, sinergetikaning haqiqiy metodologiya sifatidagi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Chunki, “simmetriya va uning buzilish (dissimmetriya) prinsiplari tabiatni bilishda sintezlovchi, tartibga soluvchi, sistemalashtiruvchi prinsip sifatida namoyon bo‘lib, ko‘pchilik hodisalarning yagona bog‘lanishini, ilmiy izlanishlarda yangi qirralarni ochilishini, fanlar dinamikasini va metodologik prinsiplarning umumlashtirishga olib keladi”[9].

Shu asosda yuqorida aytilgan o‘z-o‘zini dissimmetrik tashkillashtirish jarayoni yangidan tashkillashgan murakkab tizimning keyingi barqaror holatini biror chegara oralig‘ida saqlash imkoniyatlarini beradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Agar tizimda simmetriya va asimmetriyaning o‘zaro muvofiqligi, ya‘ni ularning dissimmetriyasi turli sabablarga ko‘ra o‘zgarsa, shu tizimda asimmetriyalashuv ortib boradi va o‘z-o‘zini dissimmetrik tashkillashtirish imkoniyatlari kamayib, oxir-oqibat bifurkatsiya nuqtasida yangi o‘z-o‘zini dissimmetrik tashkillashtiruvchi tizim yoki holat yuzaga keladi. Demak, o‘z-o‘zini dissimmetrik tashkillashtirish, tizimning nisbatan barqarorligini saqlovchi muhim omil bo‘lsa, asimmetriya qayta tashkillashishlar va rivojlanishlar manbai bo‘lib xizmat qilar ekan [10].

Zamonaviy fizika olamga bo‘lgan munosabatimizni, bizning boy ilmiy merosimizni, imkoniyat va ustuvorligimizni, o‘z-o‘zimizni anglashimizni ifoda etib, bizning o‘zimizni kuzgusimon aksimizni nomoyon qiladi. Falsafaning vazifasi esa, professional ilmiy hamkorlik asosida simmetriya prinsiplari orqali uning “dinamik xaos turiga” yoki “nochiziqli dinamika klubi”ga kirib qolmasdan fundamental fanlar yutuqlaridan foydalanib, muammolar yechimini topish, “olamning haqiqiy yagona ilmiy manzarasini yaratish”dan iborat bo‘lganligidan, fanlararo aloqadorlik – olamning yagona garmonik manzarasini yaratishning kelajagi”ekanligini unutmazlik zarur[6].

B.I.Prujinning ta‘kidlashicha, - “mazmun shundaki, olimlarning bilishi, bitta fikrlash maydonida ishlashi, yana qo‘shimcha qilib ishlayotganligi – ilmiy bilish faoliyatining muhim metodologik o‘lchovi” hisoblanadi [7].

Ilmiy bilimlarni rivojlanishida simmetriya, asimmetriya, dissimmetriya va nochiziqli dinamika shuningdek, har qanday nazariya bir-biri bilan konseptual bog‘liqlikda bo‘lishi kerak. Nochiziqlilik nazariyasi muammosi turli xil yo‘nalishlarda - tebranishlar va to‘lqinlar nazariyasida, falokatlar nazariyasida (teoriya katastrof), xaos nazariyasida, o‘z-o‘zini tashkillashtirish nazariyasida o‘rganiladi.

Nochiziqli jarayonlarda relaksatsiya esa, tashqi ta‘sir natijasida termodinamik sistemada yuzaga keluvchi nomuvozanatli (tartibsiz - xaos) holatdan asta-sekin muvozanatli (tartibli) holatga o‘tish jarayoni bo‘lib, bizningcha buni simmetriya prinsiplari asosida o‘rganish samarali natijalarni berishi mumkin.

Nyuton mexanikasida tabiat qonunlari, jismlarga ko‘plab ixchamlashtirilgan holatda ularning og‘irlik markazlarini almashtirish imkoniyatini beruvchi ma‘lum massaga ega bo‘lgan material (moddiy) nuqta sifatida qaralib, mavjudlikni birinchi asosi hisoblangan strukturani inobatga olmasdan, ifodalanib kelingan.

“Struktura (lot.struktura-tuzilish) – sistemaning tuzilishi va ichki shakli (formasi), mazkur sistema elementlari o‘rtasidagi barqaror o‘zaro aloqalarning birligini ifodalovchi falsafiy tushuncha. Strukturaning mazmuni, ya‘ni sistemalarni tashkil etuvchi elementlarning majmui bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘ladi, element esa (lot. elementum – unsur, dastabki modda) – materiyaning birlamchi, eng oddiy dastlabki zarralarini bildiruvchi tushuncha”[11].

Struktura, jismlarni tashkil etuvchi elementlarga rezonansli o‘zaro ta‘sirlarda ishtirok etish imkonini beradi va mexanik harakat hisobiga termodinamikaning ikkinchi qonuniga qarshi ish bajaradi, bu esa evolyutsiya (tadrijiy rivojlanish) orqali taraqqiyotga olib keladi. Demak, har qanday hodisa atrofidagi hodisalar bilan uzviy bog‘liq holda sodir bo‘ladi: agar hodisani alohida ajratishni istab, uning atrofidagi hodisalar bilan aloqasini uzsak, biz albatta hodisani buzgan bo‘lamiz.

Strukturada uni tashkil etuvchi elementlar orasidagi, hamda element bilan sistema orasidagi va sistema bilan tashqi muhit orasidagi o'zaro aloqadorliklar ikki xil: "gorizontal" va "vertikal" bo'lishi mumkin. Sistemalar bu o'zaro aloqadorliklar xarakteriga bog'liq holda teskari bog'lanishga ega bo'lgan yoki teskari bog'lanishsiz sistemalarga ajratiladi. Teskari bog'lanishli sistemalar zamonaviy fanda tabiat evolyutsiyasi qonunlarini ifodalashda ahamiyatli hisoblanib, u ijobiy, salbiy, gomeostatik shaklda nomoyon bo'ladi. Ijobiy teskari bog'lanishda sistemani aks ta'siri muhitning tashqi ta'sirini faollashtiradi, salbiy teskari bog'lanishda esa aksincha, muhitning tashqi ta'sirini susaytiradi, gomeostatik teskari bog'lanishda sistemani aks ta'siri tashqi ta'sirni yo'qqa chiqaradi. Masalan, gomeostatik teskari bog'lanishlar tufayli barcha jonlilar jumladan, inson ham yilning turli fasllarida o'z tana haroratlarini doimo muta'dil, bir xilda saqlaydilar.

Ma'lumki, tabiat evolyutsiyasi qonunlarini ifodalashda qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bolsman – Gibbsning statistik fizikasida yopiq sistemalar evolyutsiyasini tashqi sanoq boshi sistemasiga nisbatan maksimal evolyutsiyasi tashqi sanoq (boshi) sistemasiga nisbatan maksimal xaos shaklida ifodalanib, strukturaning tashkil etgan dinamik komponentlari (elementlari)ni e'tiborsiz qoldiradi, holbuki o'zaro ta'sirlardagi navbatdagi struktura "oltin kelishuv"ga ichki sanoq sistemasiga nisbatan garmonik bo'lganligidan olib kelinib, evolyutsiyani ta'minlaydi. Yu.S. Vladimirov relyasion fizikada universal munosabatlarni asoslashni izlab, mavjudlikning turli xilligini, ma'lum fazo - vaqtda dinamik nazariya asosida oltin kesishuv orqali yangi strukturalar tug'ilishini taklif qildi[3].

Bunda muallif, xaos va tartib simmetriyasi nazariyasini ishlab chiqib, murakkab sistemalarni ehtimoliy ifodalashda strukturadagi dinamik elementlarning taqsimlanishi bilan birgalikda impuls va koordinatalar taqsimlanishi ham olib borilishini ta'kidlaydi.

Xaos va tartib simmetriyasi nazariyasi energiyaning saqlanish qonunini evolyutsiya bilan bog'laydi, navbatdagi strukturaning noxiziqli munosabatlarini ifodalaydi, hamda o'zgarimas haroratda makromolekulalar hosil bo'lishi misolida minimum erkin energiyalarda sistemalar tashkillashishini yuzaga chiqaradi. Bu nazariya asosida evolyutsiya jarayonida yashab qolishga ustunlikka, uch tomonlama garmoniyaga yaqin bo'lgan yoki sistemani tashkillashishida erkin energiyasi minimum elementlarning strukturadagi dinamik taqsimoti hisobga olingan o'zgaruvchan uch sinfli sistemalargina ega bo'ladi, bular: xaos, tartib va tashqi muhit bilan uch tomonlama garmoniya. Demak, evolyutsiya taraqqiyotning yagona oqibati emas, balki tabiatdagi o'z-o'zini tashkillashtirish xossalari biri ekan.

Xaos va tartibning simmetriyasini relaksatsion fizika taraqqiyoti doirasida keng tushuntirib berish mumkin. Bunda simmetriya umumiylikni bir-biriga bog'liq, o'zgaruvchan uch qismga bo'lib qaraganda ularning muvofiqligi natijasida yuzaga chiqadi. Bunda, xaos va tartibni o'lchashda yoki hisobga olishda "mavjudlik" va "mavjud bo'lmaslik" chegarasidagi o'zaro ta'sirlar natijasidagi boshlang'ich universal struktura tushunchasini kiritish kerak bo'ladi. Chunki bu, evolyutsiyaning mazmun – mohiyati, xaos va tartibning yoki strukturali va strukturasi borliqning abadiy qarama-qarshi kurashi hamda simmetriyasi natijasidir. Chegara esa, uch o'lchovli (xaos, tartib va tashqi muhit) o'zgaruvchilarning o'zaro muvofiqligi sifatida izohlanadi. Xaos o'lchovi sifatida sistemada amalga oshmagan "mavjud bo'lmaslik" sohasini, tartibli o'lchovi sifatida esa, sistemada amalga oshgan, "mavjudlik" sohasini olamiz, shunda sistemadagi xaos va tartiblar yig'indisi o'zgarimas miqdorga teng bo'ladi. Xaos va tartibning bir-biriga aylanish imkoniyatlarining umumiy yig'indisi esa nolga teng bo'ladi. Chegaradagi sistemani tashkil etuvchi qism xossalari o'zgarishlari qaytar yoki qaytmas bo'lishi mumkin. Bu chegarada sistemani ifodalashdagi birinchi qadam umumiylikni teng bo'lmagan uch qismga, noxiziqli bog'liqlikda Fibonachchining tenglamasi asosida taqsimlash (bo'lish)dan boshlanadi. Bu amaliyot "mavjudlik" yoki "mavjud bo'lmaslik"dagi o'zaro ta'sirlar umumiy muvofiqligini buzmaganda uning qismlaridagi qaytmas o'zgarishlarni ifodalaydi, natijada strukturaning "oltin birlashuvi"ga intilishini yuzaga keltiradi. "Oltin birlashuv" bilan ma'lum ta'sir birgalikda bu struktura uchun, oldingi struktura doirasida Fibonachchi va Lyuklarning son qatorlari orqali yangi strukturani tug'diradi. Ma'lum ta'sirlar bu qatorlar bilan birga nafaqat yangidan "oltin birlashuv"ni ta'minlaydilar, balki ko'plab sonlar Pifagor teoremasini qanoatlantiradilar va muvozanatli funksiyalar bilan ehtimolliklar taqsimlanadi[12].

Tabiatning bunday ifodalanishida umumiylik va yakkalikning Platoncha xolistik yondoshuvi (ya'ni, borliqni - yo'qlikning mustaqil ibtidosi sifatida ta'riflash va borliqni nomoddiy ibtidosi bilan birga tahlil qilish) bilan kelishiladi, xaos va tartib haqidagi juft kategoriyalari hamda Pifagorchilar

maktabning olam garmoniyasi haqidagi g'oyalari, zamonaviy fizikaning yutuqlari bilan birlashib, sistemalar evolyutsiyasini ifodalashda strukturalardagi uni tashkil etuvchi elementlar hamda muhit bilan birgalikdagi dinamik simmetriya orqali ifodalaniishi to'g'ri va samarali hisoblanadi. Bunda tabiatni ifodalashda birinchi obyekt fazo-vaqtdagi zarracha bo'lmagan, balki "mavjudlik" va "mavjud emaslik" chegarasidagi o'zaro ta'sirlar simmetriyasi bo'lganligidan u tabiatning universal invarianti hisoblanadi. Bu xulosalar asosida kvazikristallar hamda kompozitsion materiallarning hosil bo'lish jarayonlarini ham tushuntirish imkoniyati yaratiladi.

Ma'lumki, kristallardagi davomli tartiblilik "strukturali elementlar bir-biriga nisbatan qat'iy davriy shaklda qator tuziladi. ... kristallardagi uzoqqa boradigan tartiblili, translyatsion simmetriya bilan to'g'ri kelmaydigan simmetriyaga ega bo'lishi paradoksal (qarama-qarshilikli) obyektidir"[4], - degan qarashlar mavjud. Aslida, kvazikristallar hamda kompozitsion materiallarning strukturalari hosil bo'lishidagi jarayonda "kristallardagi davriy simmetriya davriy bo'lmagan simmetriya bilan almashinadi, umumiylikni tashkil etuvchi qismlar orasidagi umumiy garmoniya esa saqlanadi"[5].

Shuningdek, bu jarayonni inson fenomeni misolida E.N.Shermatov o'zining "Sverxprovodimost i pamyat cheloveka" kitobida batafsil tushuntira olgan [13]. Muallifning fikricha, inson strukturasi umumiylikni tashkil etuvchi ossisiyalanuvchi va tebranuvchi elementlar to'liqlari majmuasidan iborat bo'lib, har bir organ jumladan, xujayra ham o'zining xususiy strukturasi va tebranishlar chastotasiga ega bo'ladi. Bunda barcha organlar va xujayralar orasida tebranishlar chastotalarining muvofiqlashuvi (korrelyatsiyasi) uchun sharoit yuzaga keltiriladi. Natijada alohida organlar va xujayralarning o'zaro kelishilgan tebranishlarining chastotalarining mos kelishligi (ya'ni simmetriyasi) – insonni umumiy holdagi tebranishlar chastotalarini shakllantiradi, bundagi tebranishlar chastotasi esa 8 gs ni tashkil qiladi. Katta yoshdagi kishilarning asosiy ritmlari elektroensefalogrammasi chastotalari diapozonining Yer ionosfera xususiy rezonator tebranishlariga mos kelishi Shumanov rezonansi deyiladi [2].

Inson tanasi va uning har qanday organi yoki elementi golografik tuzilmaga ega bo'lganligidan, tananing xohlagan qismi barcha o'zgarishlarni sezadi va tashqi ta'sirlarga unga mos ravishda o'zining javob o'zaro ta'sirini ko'rsatadi. Demak, qaytar aloqalar yo'li bilan strukturaning qolgan qismlari sistemani zaruriy termodinamik muvozanatini saqlash uchun uni qo'llab – qo'vvatlashga intiladi. Bu jarayonda sistema strukturasi alohida elementlarida tanazzul (buzulish, degradatsiya) bo'lganligidan turli xil kasalliklar yuzaga keladi. Insonning kasallanishini umumiylikni tashkil qiluvchi qismlarning birida fazoviy muvofiqlashish (simmetriya)ning buzilishi (asimmetriya) sifatida tasavvur qilish mumkin.

Sistemaning taraqqiyotida ba'zi parametrlar bo'yicha tartiblilik, tashkillashish ortsa, tartibsizlik kamayadi, boshqa parametrlar bo'yicha tartibsizlik va tashkillashishning kamayishi (buzilishi) oshsa, tartiblilikning oshishiga olib keladi, sistema barcha parametrlar bo'yicha tartibsizlikdan tartiblilikka o'ta olmaydi. Shuningdek, istalgan sistemada absolyut tartibsizlik ham bo'lmaydi.

Tabiatda va jamiyatda to'liq tartiblilikka o'tishga harakat qilish mazmunsiz va amalga oshmaydigan ishdir. Chunki, kaos va tartibning mavjudligi borliqni ta'minlovchi asosiy kriteriya hisoblanadi. Shuning uchun tartiblilik va tartibsizlik (kaos)ning optimal munosabatlarini, ularning simmetriyasi (proporsiyasi) ni topish lozim. Bu sistemani boshqarish va boshqarmaslikka ham taaluqlidir. Demak, hamma narsani boshqarishga harakat qilmasdan nimanidir o'zini – o'zi boshqarishga, o'zini - o'zi taqsimlashga berish kerak, aks holda tartiblilik resurslari yetarli bo'lmaydi. Bu sohada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasi – hokimlik va boshqaruv organlarining ko'plab vakolatlarini o'z-o'zini boshqarish organlariga olib berilishi, erkin fuqorolik jamiyatini barpo qilishdagi barcha harakatlarimiz, aynan shu qonuniyatga mos kelishligini alohida ta'kidlashimiz o'rinlidir.

Har qanday predmetlar yoki jamiyat sistemasi o'zining mavjud bo'lishi uchun tashkillashishning eng maqbul darajasiga ega bo'ladi. Eng yuqori maqbul holatni entropiya balansi - ya'ni, tartiblilik va tartibsizlik bir-birini muvofiqlashtirgan statsionar holat deyishimiz mumkin. Entropiya balansi (kritik daraja)ning asosiy xossasini - bir xil ahamiyatli bo'lgan tashqi boshqaruvchi ta'sirlar miqdorining ochiqlik darajasiga munosabati orqali ifodalash mumkin. Ochiqlik darajasi qanchalik yuqori (katta) bo'lsa, sistemada shunchalik ko'p buzuvchi jarayonlar yuzaga keladi. Har qanday sistema shuningdek, Yer ham o'zining kritik tashkillashish darajasiga ega. Agar insoniyat tashqi muhit entropiyasini kamaytirib, planeta tashkillashishining kritik darajasini oshirsa, unda yuqoridagi qonuniyatga ko'ra, tashkillashishni buzilishi shu darajaga yetadiki, evolyutsiyasi

taraqqiyotiga qarshi ortiqcha yaratilgan narsalarning zararlarini kompensatsiyalash yoki chiqarib tashlash zarur bo'ladi. Kritik tashkillashish darajasiga yetguncha va yana o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni yuzaga kelishi uchun esa ancha vaqt talab etiladi. Chunki, borliqni kuzata turib, uni o'rganish jarayonida uchta narsaga duch kelamiz, bu - hodisalar, qonuniyatlar va simmetriya. Barcha hodisalarni o'zlariga tegishli ma'lum qonuniyatlar boshqaradi, qonuniyatlarining asosida esa, simmetriya yotadi. Shuni e'tiborga olgan holda biz, tabiatdan u doimo simmetriyaga intilganligi uchun tashkillashish tajribasini o'rganishimiz kerak bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Башляр Г. Новый рационализм. М., 1987. - с. 294.
2. Богданов Г. Б. Нелинейная нейроэлектротермодинамика и экоуравновешивание. Киев: изд-во УСХА, 1991, с.406.
3. Владимиров Ю.С. Оснавания физики. -М., БИНОМ., 2008.
4. Квзакристалл. УФН, 1988. том 156. Вып.2-с.349
5. М.Абдуллаева. Философские основы средневекового орнаментального искусства исламской цивилизации. Фалсафа ва ҳуқуқ, № 1. Т.: 2010. - с.92.
6. Маленицкий Г.Г. Ясность, красота, гармонии. Данилов Ю.А. Лекции по нелейной динамике. -М.: Комкнига 2006. -с.13.
7. Пружинин Б.И. «Стил научного мышления» в отечественной философии науки. Вопросы философии. 2001. №6, -с. 64-74.
8. U.R. Bekro'latov, N.B. Azzamova. Kondensirlangan muhitlarda o'z-o'zini dissimetrik tashkillashtirish jarayonlari. Современные проблемы физики конденсированного состояния-СПФКС-2016. Тезисы докладов Республиканской научной конференции. 2015 г. Бухара – 12-14 апреля. II том, -с.7.
9. U.R. Bekro'latov. Tabiat hodisalarini bilishda simmetriya prinsiplarining o'rni. UzMU Xabarlari. 2016. №5, -В. 73-74.
10. U.R. Bekro'latov, N.B. Azzamova. Kondensirlangan muhitlarda o'z-o'zini dissimetrik tashkillashtirish jarayonlari. Современные проблемы физики конденсированного состояния-СПФКС-2016. Тезисы докладов Республиканской научной конференции. 2015 г. Бухара – 12-14 апреля. II том, -с.8.
11. Falsafa qomusiy lug'at. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya. Т., 2004. -В. 380, 457.
12. Харитонов А.С. Структурные свойство сложных систем. Прикладная физика. 2007. №1. - с. 5-10
13. Шерматов Э.Н. Сверхпроводимость и память человека. -СПб.: Изд-во Политехнического ун-та, 2006. - с. 128-129.

UDK: 316.74

GLOBALASHUV SHAROTIDA SHARQ VA G'ARB MA'NAVYIY MADANIYATI INTEGRATSIYASI: MUAMMO VA ISTIQBOLLI VAZIFALAR

Mavlonov Sh.

O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada Sharq va G'arb bo'linishi bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi, ular dunyoqarashiga xos bo'lgan jihatlar, ularning madaniyatlararo munosabatlarga ta'siri, bugungi ma'naviy-axloqiy inqiroz sabablari ko'rib chiqiladi. Muallif nafaqat muammolar, balki ikki madaniyat vakillari erishgan yutuqlari asosida bunday inqirozdan chiqish yo'lini taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Sharq, G'arb, madaniyatlararo muloqot, komparativistika, intermadaniyat falsafa.

Интеграция восточной и западной духовной культуры в условиях глобализации

Аннотация. В статье рассматривается ряд вопросов, связанных с постановкой проблемы разделения Восток Запад, прослеживаются линии развития присущих им мировоззрений и их влияние на межкультурные отношения, анализируются причины нравственного и духовного кризиса, с которым человечество сталкивается сегодня. При этом автор предлагает

пути выхода из этого кризиса, учитывая не только нынешние проблемы, но и достижения обеих цивилизаций.

Ключевые слова: восток, запад, межкультурный диалог, компаративистика, интеркультурная философия.

Integration Of Eastern And Western Spiritual Culture in conditions of Globalization

Abstract. This article discusses a number of issues relating to the formulation of the problem of the separation of East West, traceable lines of development inherent ideologies and their impact on inter-civilization relations, analyzes the causes of the moral and spiritual crisis that humanity faces today. The author offers a way out of this crisis, taking into account not only current problems but also to achieve the two civilizations.

Keywords: east, west, intercultural dialogue, comparative linguistics, intercultural philosophy.

Global o'zgarishlar tufayli inson va insoniyat hayotining har bir davri, yili, kuni, daqiqalari o'zgacha ma'no-mazmun kasb etmoqda. Ya'ni bu davr o'zining murrakab qiyofasi, ziddiyatli xarakterini turli sohalarida namoyon qilmoqda. Chunki, ayni shu davrga kelib insoniyat hayotida muayyan bir davr o'z xotimasiga etib, yangi davr boshlanayotganini ko'rsatadigan misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu davr nafaqat Sharq va G'arb sivilizatsiyalariga oid umumiy muammolar, balki butun insoniyatga va uning hayotining barcha tomonlariga oid murakkab va umumbashariy muammolarni keskinlashuviga olib kelmoqda. Bu esa avvalo Sharq va G'arb ma'naviy madaniyatini yangicha tafakkur asosida qayta tahlil qilish, kerak bo'lsa bu yo'nalishdagi muammolarni tanqidiy o'rganishni talab etmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kundagi global o'zgarishlar o'zining behad keskinligi va dolzarbligi, atrof-muhitda sordir bo'layotgan inqirozli ahvolda ham, siyosiy alg'ov-dalg'ovlarda ham, ijtimoiy va iqtisodiy inqiroz vaziyatlarida ham, jamiyatning kichik bir negizini tashkil qiluvchi oilaviy munosabatlar bilan bog'liq muammolarida ham namoyon bo'lmoqda. Bu muammolarga ijtimoiy-axloqiy jihatdan baho bersak, masalan, kimdir jon jahdi bilan boylikka intilib bu yo'lda u xatto o'z vatandoshlarini qullikka sotayotganligini yana kimdir zo'r berib hukmronlik martabalari bo'ylab tinimsiz yuqoriga ko'tarilishda hech qanday qabihliklardan ham qaytmayotganligi, kimlardir maishatga intilayotganligini, boshqa kishilar esa bu sharoitdan qutulish yo'lini topa olmay, tushkunlik, depressiyaga uchrayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ayni shu ma'noda, fransuz sotsiologi Alen Turen "Xavf mavjudligi shubhasiz. To'kin-sochin yashashga odatlanib qolgan bizning jamiyatimiz o'zligini saqlab qolish qayg'usida xuddi Sharqiy Rim imperiyasida bo'lgani kabi tobora inqiroz sari cho'kib borayotgani ko'rinib turipti," - deb yozgan edi. Bundan ma'lum bo'ladiki, mazkur muammoning nafaqat respublikamiz xalqi, balki butun insoniyat oldida turgan eng muhim muammo ekanini teran anglash vaqti keldi. Bu esa bugungi kunda nafaqat har bir jamiyat mafkurasining tub asosini tashkil etadigan, har qaysi inson va butun insoniyat dunyoqarashining shakllanishida kalit rolini o'ynaydigan, balki oxirgi o'n yilliklarga kelib butun jahon madaniyati va sivilizatsiyasi hayotida ham dolzarb o'ringa chiqqan muammo Sharq va G'arb ma'naviy madaniyatini o'zgarishi masalasini jiddiy muammo sifatida o'rganish kerakligini kun tartibiga qo'yimoqda. Shuning uchun ushbu hodisaning chuqur o'rganish, uning ildiziga alohida e'tibor berish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Sharq va G'arb ma'naviy madaniyatini o'zgarishini o'rganish masalasining benihoya dolzarbligi bugungi kundagi tub ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Zero, biz endlikda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olayotgan, barcha mamlakatlar amalda yagona bozorga birlashuvi haqidagi fikrlar oldinga surilayotgan, sanoat ishlab chiqarishi ko'p jihatdan transmilliy korporatsiyalar nazorati ostida amalga osha boshlagan, internet tufayli har qanday yangi axborot sayyoramizning istagan joyiga yashin tezligida tarqalayotgan, olimlar yerda yagona sivilizatsiya qaror topishi xususida gapira boshlagan va, insoniyat, "umumiy uy", "umumiytaqdir" va umumiy tashvishlar bilan yashashga kiririshayotgan, bir so'z bilan aytganda, globallashuv deb atalayotgan davrda yashamoqdamiz. Ayni Shu munosabat bilan amerikalik jamiyatsh~UNOS olim E.Toffler o'zining "Hokimiyatning siljishi" (1990) nomli kitobida "Yer qimirlashidan oldin uning tektonik qatlamlarida siljish bo'lganiday, jahon tarixida juda noyob hodisalardan biri sodir bo'lmoqda - hukmronlikning o'z mohiyati o'zgarimoqda" deb yozgan edi.

Chunki, endilikda barcha madaniyatlar o'zligini saqlash uchun modernlashishga, ya'ni modernlashgan G'arb institutlari va texnologiyalarini o'z hayotlariga joriy etishga majbur bo'lmoqdalar. Shu o'rinda qayd etish lozimki, Sharqda mavjud bo'lgan ilk o'rta asrlar sivilizatsiyasi butun g'arbgga ijobiy ta'sir o'tkazgan, keyinchalik g'arbda shakllangan sivilizatsiya Sharq taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazgan va shu asnoda sivilizatsiyalar millat, xalq va mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvida ham ijobiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bugungi sivilizatsiyaning esa ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham mavjud bo'lib, u xalqlar, mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida ziddiyatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda.

G'arb mafkurachilari globallashtirish barcha mamlakat va xalqlarni jipslashtiradigan ijobiy jarayon ekani, agar rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiy etishni, kambag'allikdan qutulishni istasalar ularning rejalariga amal qilishlari kerakligi, buning uchun hech qanday davlatlar aralashmaydigan erkin umumiy bozorlar tashkil etilishi ko'p ijobiy oqibatlariga olib kelishi haqidagi fikrlarni oldinga surmoqdalar. Boshqacha nuqtai nazardan qaraganda, chindan ham bu bozorlar ko'pchilik mamlakatlarning jadal iqtisodiy rivojlanishiga yordam berdi ham. Lekin, xalqaro savdo-sotiq faqatgina o'z iqtisodiy taraqqiyotiga foyda keltiradigan mamlakatlar eksportiga yordam berishini va bu endilikda ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy resurslar tobora kamayib borayotgan bir sharoitida kechayotganini hisobga olishimiz kerak bo'lmoqda.

Shuning uchun bunday bozorning yaratilishi istalgan mamlakatni bir zumda bankrot qilish imkoniyatini paydo qilishi bilan ham alohida ajralib turmoqda. Xatto, ba'zi globalistika sohasi mutaxassislari fikrlariga ko'ra, global hokimiyat shakllangan bo'lmasa hamki, butun dunyoni boshqarayotgan global boshqaruv tizimi shakllanib bo'lgan va u faoliyat bajarmoqda. Bu tizim asosida kam sonli umumjahon institutlari hamda butun dunyo muammolarini yechayotgan bir xovuch egoelita yotadi, taqdiri ular tomonidan hal etiladigan juda katta ko'pchilikning esa bu yerda ovozi o'tmay qoldi. Bu globallashtirish siyosatining ko'pchilikdan iborat kishilar, tashkilotlar va mamlakatlarni Shu ozchilikning qo'g'irchog'iga aylantirish quroli bo'lib xizmat qilayotganligidan dalolatdir. Albatta, bular haqida odatda rasman gapirmaydilar, aksincha, "bizning maqsadimiz – kambag'allikni umuman yo'q qilish" degan gaplar aytiladi, aslida esa "hamma ekanini o'radi", "bo'lib tashla va hukmronlik qil" shiorlari ostida amal qilinadi. Zero hozirgi davr voqealar rivoji va mantiqi ayni shunday xulosalarga olib kelmoqda. Rus olimi L.V.Leskov fikricha, jahon miyosidagi yangi tartiblashuv tufayli transnatsional korporatsiyalarning (TNK) jahon iqtisodiy tizimi xo'jayinlari bo'lib olganlari ham Shu xulosani dalillashga xizmat qilmoqda. Ma'lumki, TNK jahondagi ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini va moliya oqimini, Shuningdek, amalda butun yuqori texnologiyalar potensialini o'z nazoratlari ostiga olganlar. Ayni shu sharoitda insoniyat intellektual va tabiiy resurslarini "so'rib oladigan nasos" ishga tushirilgan, endilikda bu resurslar ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan mamlakatlarga osongina oqib o'taveradi. Natijada boylarning yanada boyishi, kambag'allarning esa yanada qashshoqlashishi kuzatiladi. TNK esa o'z iqtisodiy manfaatlarini cheklashni aslo istamaydilar. Bundan o'zgarish va talablar endilikda inson hayotining hech bir sohasini o'z girdobiga tortmasdan qoldirmayotganligi, faqatgina ayrim shaxslar, jamiyatlarga emas va tabiatning ayrim qismlariga emas, balki butun sivilizatsiya, butun dunyo gamletcha "tirik qolmoq, yo o'lmoq" degan mashhur savol qarshisida lol qolib turganligi ularni ma'naviy madaniyat o'lchovlari asosida tahlil qilishni taqozo etmoqda.

O'z navbatida zamonaviy kommunikatsiyalarga, ommaviy informatsiya vositalari va kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan G'arb mamlakatlarining dunyoga yagona hukmdor bo'lishga intilishlari qolgan boshqa mamlakatlar va mintaqalar xalqlari o'rtasida katta noroziligiga ham sabab bo'lmoqda. Shuningdek, hozirgi davrda G'arb sivilizatsiyasida yuzaga kelgan axloqiy xarakterga ega bo'lgan muammolar yechimini topish maqsadida, sharqshunoslikka, xususan, Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, ma'naviyatiga murojaat etilishi va ularni o'rganishga qiziqish nihoyatda ortmoqda. Bunday tadqiqotlarni keng yo'lga qo'yish esa bugungi jahon ma'naviyatida kechayotgan salbiy jarayonlarning asl sabablarini tushunish, ularning oqibatlarini to'g'ri baholashga yo'l ochadi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning xalqimizga xos bo'lgan va «Necha asrlardan buyonuni ne-ne balo-qazolardan sog'omon olib o'tgan.» yuksak Sharqona ma'naviy qadriyatlarimizning ahamiyati beqiyosligiga haqidagi fikri alohida e'tiborga sazovor. Biz tanlagan yo'l o'tmish ajdodlarimizning G'arbnikidan mutlaqo boshqacha, behad yuksak Sharqona hayot tarziga borib taqaladi. Vaholanki, endilikda "Bizningqadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat

Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda." Shuning uchun bizning ma'naviyatimiz hamisha, xatto eng ashaddiy ateistik mafkura hukmronligi davrida ham, cheklangan holda bo'lsa hamki, undan ozuqlanib kelgan.

Bizga ma'lumki, Sharq ma'naviy madaniyatida komil inson qiyofasini yaratish masalasi o'zgacha yondashuv asosida yoritilgan. Komil insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Masalan, Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbubul-qulub», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» va boshqalar shular jumlasidandir. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqona fazilatlarini berilgan.

O'z navbatida, Sharqning buyuk mutafakkirlari va shoirlari komil inson obrazini yaratgan ekanlar, unda bilim, ezgu tuyg'ular va yuksak xulq bir birini to'ldiradigan tarzda o'zaro uzviy, uyg'un birlikda rivojlanganligiga alohida e'tibor qaratganlar. Sharq ma'naviy qadriyatlarini, uzoq vaqtlar G'arbnikidan asosan o'ziga xos axloqiy qonun-qoidalarni mustahkamligi, ma'naviy-estetik his-tuyg'ularning serjiloligi, beqiyos jozibadorligi bilan ajralib turgan. Zero, G'arb ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini asosan tafakkur zaminida tug'ilib, tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilib kelgan bo'lsa, Sharq ma'naviy qadriyatlarini esa asosan qalb bilan bog'liq va qalb taraqqiyotiga xizmat qilib kelgan. Lekin o'tmishimizda bu o'zgacha axloq va jozibadorlik Sharqona hikmatlarning buyukligini aslo pasaytira olmaydi, aksincha, uning mazmunida Shu jozibadorlikka munosib juda teran ma'nolar jo bo'lgan. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini" va "Ota-bobolarimizning ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil..." etganini va ushbu kodeks xalqimiz ma'naviyatining mezoni bo'lib kelganini va u milliy urf-odatlarimizga aylanib ketganini va endigi hayotimizda ham "...xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb..." etib borishi zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham xalqimiz milliy ma'naviyati o'ziga xos erkak va ayollarning Sharqona axloqiy fazilatlarini, ota-ona va farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-kuy aloqalari, halollik, imon va vijdon bilan bog'liq ma'naviyati hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharqda IX asrdan boshlab, bir necha asr davom etgan madaniy yuksalish "Sharq xalqlari Renessansi", "Musulmon Renessansi" kabi nomlar bilan tilga olinadi. G'arbda esa bunday davr XV-XVI asrlarga to'g'ri keladi va ma'lum ma'noda Sharq Renessansining davomi sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, Sharq she'riyat falsafasi G'arb falsafasidan, masalan, Gegel panlogizmidan kamida ikki pog'ona baland turadi. Vaholanki, Gegel o'zining yevropamarkazchilik pozitsiyasidan turib G'arb ma'naviyatini Sharqnikidan ustun o'ringa qo'ygan edi. Boshqa ishida esa uning o'zi o'z dialektikasini ishlab chiqishda Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" sidan ta'sirlanganini yozadi. Vaholanki, Gegel panlogistik dialektikasi Rumiyning go'yo atir gullardan iborat masnaviylari guldastasi oldida qurib qolgan bir giyohday ko'rinib qoladi. Zero, taniqli rus olimi A.F.Losev yaxshi tushuntirganiday, "Mantiq faqat mantiqiydir, real hayot esa cheksiz boy". Rumiyning esa, R.Fish yaxshi tushuntirganiday, "fikrlarini mavhum mantiqiy kategoriyalarda emas, balki otashin shoirona timsollar vositasida talqin" va u bizningcha, ayni hayotning o'zi kabidir. Lekin biz Rumiyning bu asari Gegelga chet tilga o'g'irilgan, o'z tilining jonli jilvasidan ajratib olingan holda yetib borganini ham hisobga olishimiz kerak. Ayni Shu holda ham u buyuk nemis faylasuf olimlarini qoyil qoldirgan edi. Shu o'rinda yanada Sharq ma'naviy qadriyatlaridan ta'sirlangan olim sifatida fransuz faylasufi va olimi B.Paskalni keltirib o'tishimiz mumkin. Uning "Haqiqat "qalb mantiqiga" va Xudoning mavjudligini subyektiv his etish orqali dalillanishiga asoslanadi" degan fikri hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bundan tashqari buyuk nemis shoiri va faylasufi Gyotening Sharq falsafasi buyukligini tan olib aytgan quyidagi fikri ma'lum va mashhurdir. "Eroniyalar, – degan edi u. – Yolg'iz 7 shoirmi buyuk deb tan olishadi, Shu qatorga kirmaganlar orasida ham mendan ustunlari ozmuncha emas". Shu nuqtaiy nazardan qaraganda, mazkur hududlardagi shakllangan g'oyalarning

o‘zaro bir-biriga ko‘rsatgan ta‘sirini Osiyosentrizm yoki Yevropatsentrizm vakili ham mutloqo inkor eta olmaydi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan Sharq va G‘arb ma‘naviy madaniyatini bir-biridan ayro holda rivojlangan ekan degan xulosaga kelmasligimiz kerak. Chunki bu qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlikda butun insoniyatning ma‘naviy ozuqa manbai bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Suqrot butun umri davomida o‘z falsafiy ta‘limotining asosiy vazifasi deb axloqiy tarbiyani qo‘ygan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy ham “Farhod va Shirin” dostonining bosh qahramoni Farhodni ta‘lim olish uchun Suqrotning huzuriga yo‘llagan. Shuningdek, Arastu axloqiy qarashlarida “oltin o‘rta, mo‘‘tadillik” g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etgan. Uning bu g‘oyasi Abu Nasr Forobiy axloqiy qarashlarida o‘ziga xos tarzda quyidagicha ifodalangan: “Buyuk kishilarning naqlaridan” risolasida Shunday deb yozadi: “Yaxshiliklar hammasi o‘rtachalikning natijasi bo‘lib, ikki keskin chegara kamchilik va ortiqchalik o‘rtasida o‘rnashgandir. Bu ikkala chegara fazilatlikning u yon va bu yonida turgan nuqta bo‘lib, har ikkisi ham yomonlikka olib boradi. Chunki, fazilatlik kerakli narsa bo‘lsa, uning bir tomonidagi keragidan ortiqchalik bo‘lib, ikkinchi tomonidagi keragidan ozlikdadir. Did-farosatlilik ham ikki nuqta o‘rtasida joylashgan. Saxiylik ham xuddi shunday. Bir tomondan xasislik bo‘lsa, ikkinchi tomonda haddan tashqari xotamtoylik turadi”. Shuningdek, Javoharla‘l Neruning “Hindistonning kashf etilishi” asarida qayd etilishicha: “Beruniy yunon falsafasini egallab, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit tilini o‘rgandi. So‘ng yunon va hind falsafasini bir – biriga solishtirib, ulardagi mavjud bo‘lgan umumiylikni ko‘rib g‘oyatda ajablangan”.

Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, ustuvor darajada individuallikka yo‘naltirilgan G‘arb insoniga qarama-qarshi Sharq kishisi jamoaga ma‘naviy bog‘langan bo‘ladi. Shuning uchun ham Sharqda Qur‘on va hadislar, Shuningdek obro‘li-e‘tiborli din arboblarning, faylasuflar, olimlarning vaqt sinovidan o‘tgan, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan fikrlari ijtimoiy hayot masalalarini hal qilishda, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda eng ishonchli, e‘tiborli, nufuzli manba hisoblangan. Bu manbalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilish, fikr yuritishda ularga asoslanish milliy mentalitetimizga xos xususiyatdir. Shu bois, asrlar davomida Sharq ma‘naviy madaniyati asosida yoshlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko‘nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta‘lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning milliy taraqqiyot g‘oyasi asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Chunki, aynan Sharq ma‘naviy madaniyatida inson tabiatning bir bo‘lagi, Shu bilan birga gultojisi ekanligi (Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy va boshqalar), ma‘naviy komillik kishilar, Shuningdek, inson va tabiat o‘rtasidagi barqaror munosabatlarni ta‘minlovchi buyuk qadriyat kabi g‘oyalarning o‘zaro uzviy aloqadorligi, inson va jamiyatning barqaror rivojini ta‘minlovchi muhim omillar ekanligi ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Umuman olganda, bugungi kunda aksariyat jamiyatshunos olimlarimiz Sharq va G‘arb ma‘naviy madaniyatini o‘rganishga, mustaqillikning nazariy muammolarini yoritishga alohida e‘tibor bermoqdalar. Shuni ham aytish joizki, bu sohada qilinayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari va ularning natijalari hozirgi zamon talablariga javob bermoqda desak adashmagan bo‘lamiz. Sharq va G‘arb ma‘naviy madaniyatiga umuminsoniy qadriyatlar tizimi sifatida qarash, bu borada tarixiy meros va boshqa mamlakatlarning milliy madaniy tajribasidan foydalanish, bu sohadagi ilmiy izlanishlarni O‘zbekiston oldida turgan keng qamrovli vazifalar bilan bog‘lash jamiyatshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardir. Zero, bizning qadimiy va go‘zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lgan. Bu tabarruk zamindan buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqan, dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga etgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos bo‘lgan.

Xullas, bugun G‘arb va Sharq tafakkur tizimlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish vaqt yetib keldi, deb o‘ylaymiz. Zero, garchi G‘arb aniq bilim sohasida muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa hamki, Sharq dunyo va insonni haryoqlama umumlashgan ravishda va to‘g‘ri tushinishda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Sharq qadriyatlari o‘z o‘zanida rivoj topib borishi bilan bir qatorda insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga zamin bo‘lib xizmat qildi hamda o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatgan. Shuning uchun ham bugungi global ma‘naviy o‘zgarishlar shartida ham Sharq tamadduni va madaniyati xalqlarni ma‘naviy va ruhiy jihatdan buyuk o‘zgarishlarga tayyorlashda mayoq vazifasini o‘tab kelmoqda desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1. Toffler, Elvin. Tretya volna. -M.: AST, 2004 — 784 c.
2. Leskov L.V. Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 7. Filosofiya. №3, 2001.42-b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. - T.: O‘zbekiston, 1996. – B.177.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.30.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.118.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.96.
7. Jaloliddin Rumiy: tarixiy-biografik roman / Radiy Fish; (J. Kamol tarj.). - T. : Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B.261.
8. Forobiy. Risolalar. – T.: Fan, 1975. – B.101.
9. Nizomiddinov N.G‘. Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta’limotlari va islom. – T., 2006. – 115-b.

UDK: 1:002

AXBOROT FALSAFASI PARADIGMASI**G‘affarova G.G‘.***O‘zbekiston Milliy universiteti**e-mail: gulchehra_3@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lgan axborot falsafasining mohiyati, unga oid yondashuvlarning falsafiy mohiyati yoritilgan. Ya’ni, axborot falsafasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar hamda hozirgi kunda olimlarning axborot falsafasiga qiziqishini oshirishga qanday omillar ko‘maklashishi kabi masalalar falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, axborot falsafasi, axborotli yondashuv, fanlararo yondashuv, dunyoqarash, tafakkur, axborot tizimi.

Парадигма философии информации

Аннотация. В статье описывается сущность философии информации, которая является новой отраслью в науке и её отражение в философских подходах. То есть, анализированы философские проблемы философии информации, которые в настоящее время будут способствовать повышению интереса к философскому анализу философии информации.

Ключевые слова: информация, философия информации, информационный подход, междисциплинарный подход, мировоззрение, мысль, системы информации.

Paradigm of informational philosophy

Abstract. In the article are researched the meaning of informational philosophy, which is a new branch in science. In addition, new researches in informational philosophy, new problems of methods, which help to improve researching, are shown.

Keywords: information, philosophy of information, informational approach, world out-looking, mind, structure of information.

Zamonaviy fan rivojlanishining dolzarb falsafiy va ilmiy-metodologik muammolari tahlili ushbu muammolardan biri axborot falsafasining mohiyatini anglash ekanligini ko‘rsatmoqda. Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, axborot bizni qurshab turgan olamdagi eng muhim ahamiyatli va shu bilan birga jumboqli hodisadir. XX asrning o‘rtalaridan boshlab bir necha o‘n yilliklar davomida ko‘plab olimlar ushbu hodisa mohiyatini anglab yetishga takror-takror uringanlar. Lekin hozirgi vaqtgacha ilmiy muhitda axborot falsafasining umumiy konseptual mohiyati to‘g‘risida kelishilgan tasavvur ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ushbu urinishlar bugungi kunda, ko‘pincha axborot asri deb atalmish XXI asrning ikkinchi o‘n yilligining boshida ham davom etmoqda.

Ma’lumki, XXI asrda olam tezkor o‘zgarib bormoqda. Bunday tub va keng miqyosli o‘zgarishlar jamiyatning aynan axborot sohasida sodir bo‘lmoqda. Ushbu o‘zgarishlar ilmiy-texnik inqilobning navbatdagi bosqichi emas, balki global sivilizatsion xarakterga ega jarayondir. O‘z navbatida, XXI asrning o‘rtalaridayoq sayyoramizda “sivilizatsiyaning umuman yangi turi – axborot (informatsion) sivilizatsiyasi shakllanadi”[2; 3, B.112], deb bashorat qilinmoqda. Darhaqiqat, sivilizatsiyaning shakllanish jarayonida jamiyatning deyarli barcha sohalarida axborot va ilmiy

bilimning ahamiyati jiddiy ravishda ortadi. Aynan shu hodisa falsafiy tadqiqotlarning yangi, axborot falsafasi deb nom olgan yo'nalish rivojlanishining asosiy sababi bo'lib xizmat qilmoqda.

Oxirgi yillarda bir necha mamlakatlarda (jumladan, Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Xitoy kabi) falsafiy tadqiqotlarda yangi yo'nalish – axborot falsafasi paydo bo'ldi. Jahon ilmiy jamoatchiligi doirasida ushbu falsafiy yo'nalishning mazmuni faol muhokama etilmoqda, bunda Rossiya va Xitoy olimlari peshqadamlik qilmoqda. Jumladan, rus, xitoy va ingliz tillarida qator ilmiy maqolalar va monografiyalar chop etildi, xalqaro konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan va nashr etilgan, Internet tarmoqlarida olimlarning ilmiy bahs-munozaralari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, 2011 yildan boshlab Rossiyada muntazam ravishda “Axborot to'g'risidagi fanlar ilmiy-metodologik muammolari” mavzudagi fanlararo ilmiy-metodologik seminar majlislari (yig'ilishlari) o'tkazilmoqda[12-14], unda turli mamlakatlarning axborot falsafasi sohasidagi natijalari tahlil qilinmoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “axborot falsafasi” atamasi yaqinda paydo bo'lib, undan xitoylik olim Lyu Gan o'zining “Axborot falsafasi va bo'lg'usi Xitoy fan va texnika falsafasi asoslari” nomli maqolasida foydalangan. Unda “kiberfazoning paydo bo'lishi va kiberdavrning boshlanishi” bilan birga paydo bo'lgan axborot falsafasini falsafiy tadqiqotlar sohasidagi yangi fan sifatida tan olish taklif etiladi[11]. Umuman olganda muallif axborot falsafasining paydo bo'lishini oxirgi o'n yillikda o'zini sezilarli darajada namoyish etayotgan jamiyat axborotlashuvi jarayonining rivojlanishi bilan shartlaydi. Uning ta'kidlashicha, ushbu jarayonning oqibatlaridan biri falsafadagi - “kompyuter bilan bog'liq burilish” bo'ldi, bunda jamiyatning keng miqyosli kompyuterlashtirilishidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni falsafiy anglash bo'yicha urinishlar amalga oshirilmoqda. Bizning nazarimizda ushbu nuqtaiy-nazar juda tor, shuning uchun unga qisman, ya'ni falsafiy tadqiqotlar sohasida yangi fanning ajralib chiqishining maqsadga muvofiqligi masalasida qo'shilish mumkin. Ushbu fanning mazmuniga kelganda, bizning fikrimizga ko'ra, u sezilarli darajada keng bo'lishi lozim.

Darhaqiqat, axborot falsafasi ilmiy maktabi Xitoyda 30 yildan buyon mavjud bo'lib, uning asoschisi va ilmiy peshqadami professor U.Kundir. Hozirda u Sian Jiaotong universiteti qoshida 2011 - yilda tashkil qilingan Axborot falsafasi xalqaro tadqiqot markaziga rahbarlik qilib kelmoqda. Ushbu Markazning Xalqaro akademik kengashi tarkibiga Avstriya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, AQSH, Rossiya va Fransiya olimlari kirgan. Markazning asosiy vazifalari maqsadli ilmiy-nashriyot faoliyati, axborot falsafasi muammolari bo'yicha Internet tarmoqlarida munozaralar va xalqaro konferensiyalar o'tkazish yo'li bilan turli mamlakatlar kuchlarini birlashtirishdan iborat[26]. Shunday konferensiyalarning birinchisi Sianda 2013 - yil oktyabrda o'tkazildi.

Umuman olganda shuni ta'kidlash zarurki, axborotning falsafiy muammolarini tizimli ravishda tadqiq qilish Rossiyada o'tgan asrning 60-yillaridayoq boshlangan, uning natijasida axborot falsafasi Rossiya ilmiy maktabining shakllanishi bo'ldi. Akademik A.D. Ursul uning asoschisi va tan olingan peshqadamidir, ushbu sohadagi uning fundamental monografiyalari nafaqat Rossiya, balki boshqa mamlakatlar mutaxassislariga ma'lum[19-22]. Ammo Rossiya ilmiy adabiyotlarida axborot falsafasi tushunchasini birinchi bor 1996 - yil M.N.Sherbinin o'z maqolasida foydalangan[23]. Uning fikricha, “...butun olam tarixiy masshtabida falsafiy bilimlarni o'zida butunlik yangi formulasini axborot falsafasi ta'minlaydi”[24, B.99].

Ma'lumki, 1968 - yilda A.D. Ursulning axborot tabiati bo'yicha birinchi monografiyasi bosilib chiqqanda, “kiberfazo” (“kibermakon”) va “falsafada kompyuter bilan bog'liq burilish” kabi tushunchalar ilmiy jamoa o'rtasida hali tarqalmagan edi. Shunga qaramasdan, o'sha vaqtlarda Rossiyada yangi ilmiy fan - axborot nazariyasining falsafiy jihatlari faol muhokama qilingan, bu fan jadal rivojlana boshlagan va nafaqat texnik fanlarda, balki biologiya va lingvistikada keng foydalana boshlangan edi. Yuqorida keltirilgan monografiyada A.D. Ursul axborot falsafasi muammolari mazmunining keng tushunilishini rivojlantirdi va asoslab berdi. Uning nuqtaiy-nazariga ko'ra[19], falsafaning ushbu yo'nalishi yaqin kelajakda jamiyatning informatsion rivojlanishi jarayonining ilmiy asosiga aylanishi kerak. Bunda u mazkur jarayonni ilmiy-texnik inqilobning yangi bosqichi sifatida emas, balki sivilizatsiya rivojlanishining sifat jihatdan yangi, yanada yuqori darajaga – noosferaning shakllanishiga o'tishning boshlanishi deb bilgan. Ushbu strategik jihatdan muhim falsafiy g'oya A.D. Ursulning “Noosfera yo'li. Tirik qolishi va sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishi konsepsiyasi” monografiyasida yetarli darajada batafsil asoslab berilgan. Bu asarda informatsion rivojlanish

insoniyatning keyingi evolyutsiyasida, har holda XXI asr davomida, ustunlik qilishi kerakligi ko'rsatilgan[20].

Axborot falsafasi tushunchasini ikki xil ma'noda, ya'ni keng ma'noda 1960 - yillardan axborotni umumiy muammosini o'rganish bilan bog'liq faoliyat sifatida (R.F.Abdeev, YU.F.Abramov, N.P.Vashekin, V.M.Glushkov, V.S.Gott, D.I.Dubrovskiy, V.S.Kogon, K.K.Kolin, V.V.Sanochkin, E.P.Semenyuk, A.V.Sokolov, A.D.Ursul, D.S.CHernavskiy, A.I.Chyorniy, YU.A.Shreyder va boshqalar), tor ma'noda 1996 - yildan boshlab falsafiy bilimlarda mustaqil soha (M.N.Sherbinin, A.V.Nesterov, S.M.Olenev, L.V.Skvorsov, V.I.Kashirin, O.V.Kashirina, K.K.Kolin, A.V.Sokolov, G.V.Xlebnikov, Yu.Yu.Chyorniy va boshqalar) sifatida tushunish mumkin.

Masalan, M.N.Sherbinin fikricha, "... axborot falsafasi – tabiat, jamiyat va tafakkurning o'zini uzoq vaqt rivojlanishida tayyorlagan natijasidir"[24, B.96].

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlarini ikki bosqichga ajratish mumkin, ya'ni tabiiy (1996-2009 yillardagi M.N.Sherbinin, A.V.Nesterov[14], L.V.Skvorsov[16], V.I.Kashirin va O.V.Kashirina[1]) hamda "ongli" (2010 yildan 5 Rossiya faylasuflar kongressi materiallari, K.K.Kolin[7], A.V.Sokolov[17] ishlari, "Axborot haqidagi metodologik fan muammolari" mavzuidagi seminar faoliyati).

Masalan, A.V.Sokolov o'z tadqiqotlarida axborot falsafasining ikki xil: pozitiv va metafizik jihatlarini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, "metafizik axborot falsafasining vazifasi asl mohiyatini ochib berish, ya'ni semantik axborot, uni borliq bilan tushunish (ontologiyasi), uning tabiati (epistemologiyasi) qadriyati (aksiologiyasi) metodologik prinsiplarga asoslangan"[17, B.299]. Demak, axborot falsafasining metafizik jihatlarining tuzilishi quyidagilardan iborat: axborot epistemologiyasi (gnoseologiyasi), axborot ontologiyasi, axborotli yondashuv metodologiyasi, axborot aksiologiyasi, inson va axborot (antropologiya falsafasi), axborot fenomenologiyasi (turli fenomenlar mohiyati) hamda axborot etikasi.

Darhaqiqat, bugungi kunda axborot falsafasi predmeti oxirigacha aniqlanmagan. Rossiya axborot falsafasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan axborotning ontologik va gnoseologik muammolariga, boshqa tomondan axborotning antropologiya va etikasiga oid qiziqishlarning oshganligidir. Shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham axborot falsafasiga oid ilmiy tadqiqotlar mavjud[8-10; 25]. Ushbu tadqiqotlarda axborot tushunchasining falsafiy muammolari, axborotning ontologik, epistemologik, gnoseologik hamda sinergetik tahlili, axborot fenomeni yoritilmoqda. Masalan, Sh.S.Qo'shoqovning ilmiy tadqiqoti «axborot» tushunchasi va uni turlarining falsafiy-metodologik tahliliga bag'ishlangan[9].

Umuman olganda, bugungi kunda axborotga ega bo'lish hamda undan asosiy manba va sivilizatsiya rivojlanishining ustuvor omili sifatida keng foydalanish insoniyatni tizimli tanglikdan chiqish va hozirgi davrning aksariyat global muammolarini, shuningdek kelajakda vujudga keladigan muammolarni hal qilishga umidvor qiladi. Xo'sh, axborotga ega bo'lish talabi nimani bildiradi? Avvalo, bu uning tabiatini, ya'ni konseptual falsafiy mohiyatini adekvat tarzda tushunish zaruriyatidir[5]. Keyingi talab tabiat va jamiyat, shuningdek inson evolyutsiyasi jarayonlaridagi axborot ahamiyatini tushunish zaruriyatidan iborat. Tadqiqot natijalari ko'rsatib turganidek, "axborot va informatsion o'zaro ta'sir jarayonlari muhim o'rin egallagan hozirgi zamon olam manzarasi faqat shu asosda qurilishi mumkin"[4, B.12]. Aynan shuning uchun axborot tabiatini falsafiy anglash dolzarb va strategik jihatdan muhim ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda olimlarning axborot falsafasiga qiziqishini oshirishga qanday omillar ko'maklashadi? Bunda birinchi navbatda zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb muammosini ko'rsatish joiz, unda informatsion jihatlar insonning informatsion yashash muhiti va faoliyatining shiddatli rivojlanishi tufayli muhim bo'lib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "bugungi kunda bunday dunyoqarash nafaqat olimlar, balki davlat arboblari, siyosatshunolar, pedagoglar, har bir o'qimishli odam uchun kerak"[6, 84].

Ikkinchi omil sifatida axborot fanining fanlararo ahamiyatini ko'rsatish mumkin, uning konsepsiya va usullari tabiat, jamiyat va insonni ilmiy tadqiq qilishning turli yo'nalishlarida tobora keng foydalanilmoqda. Rossiya va chet el olimlarining tadqiqotlari ko'rsatganidek, har qanday tirik organizm, o'z mohiyatiga ko'ra, juda murakkab axborot tizimidir, uni o'rganish uchun axborot

to'g'risidagi fanning fundamental qonuniyatlarini, shuningdek ushbu hodisaning turli informatsion muhitlarda namoyon bo'lishi ajoyib xilma-xilligini bilish va ulardan foydalanish zarur[18].

Xulosa qilib aytganda yuqorida sanab o'tilgan omillarning ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi rivojlanishiga bo'lgan ta'siri ortib boradi. Aynan bu hol axborot falsafasi rivojlanishini va uning yutuqlariga asoslangan ilmiy dunyoqarashni zamonaviy fanning keyingi rivojlanishidagi g'oyat dolzarb va strategik jihatdan muhim muammoga aylantiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda axborot falsafasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, buning sababi bir tomondan axborotning ontologik va gnoseologik mohiyati bo'lsa, ikkinchi tomondan axborotning etik va antropologik xususiyatlaridir. Shu bilan birga bugungi kunda axborotga oid fanlarning falsafiy va ilmiy-metodologik jihatlarini o'rganish sohasida ba'zi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari, shuningdek fanlararo tadqiqotlar va fanlar integratsiyasini rivojlantirish uchun ularning ahamiyati ko'rib chiqilmoqda. Bizning nazarimizda, fan integratsiyasi maqsadida qilinishi kerak bo'lgan qadamlardan biri bu – axborot falsafasi sohasini rivojlantirish va u qo'lga kiritgan yutuqlardan keng foydalanish hamda axborot fanlarini rivojlantirishdir. Shuning uchun axborot falsafasining asosiy konsepsiyalaridan, shuningdek axborot fanlari usullaridan fanning boshqa sohalarda foydalanish ushbu sohalarda yangi natijalarga erishish hamda fanning o'zini integratsiyasiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Каширин В.И., Каширина О.В. Философия информации: союз философии и компьютерной культуры // Вестник Ставропольский государственный ун-та: научный журнал. – Ставрополь, 2006. Вып.44. – С.157-161.
2. Колин К. К. Информационная цивилизация, какой она будет? // Библиотекосведение, 2001. № 5. -С.32-38.
3. Колин К.К. Информационная цивилизация. - М.: ИПИ РАН, 2002. –С.112.
4. Колин К. К. Овладение информацией - стратегическая проблема развития цивилизации в XXI веке. //Межотраслевая информационная служба, 2013, № 2. С. 5-15.
5. Колин К. К. Сущность информации и философские основы информатики // Информационные технологии. 2005. № 5. С. 63-70.
6. Колин К. К. Человек в изменяющемся мире и проблема научного просвещения // Информация и научное мировоззрение: сборник статей. - М.: Русская школьная библиотечная ассоциация, 2013. - С.81-98.
7. Колин К.К. Философия информации и фундаментальные проблемы информатики // Информационные ресурсы России: научно-практический журнал. – М., 2010. №1(113), – С.25-28.
8. Кушаков Ш.С. К вопросу о специфике информации // Труды СамГУ (общественные науки). Новая серия. Вып. № 340. - Самарканд: СамГУ, 1976. -С.55-76.
9. Кушаков Ш.С. Природа и основные виды информации (философско-методологические аспекты): Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1978. – 24 с.
10. Ланцева О. Информационные аспекты развития (философско-методологический анализ): Дисс. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1995. – 125 с.
11. Лю Ган. Философия информации и основы новой китайской философии науки и техники //Вопросы философии. 2007. № 5. -С.45-57.
12. Методологические проблемы наук об информации: материалы 10-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 7 февраля 2013. <http://www/inion.ru/seminars.mpni>
13. Методологические проблемы наук об информации: материалы 11-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 15 марта 2013. <http://www/inion.ru/seminars.mpni>
14. Методологические проблемы наук об информации: материалы 17-м заседании семинара. – М: ИНИОН РАН, 24 апреля 2014. <http://www/inion.ru/seminars.mpni>
15. Нестеров А.В. Философия информации // Научно-техническая информация. Сер.1. – М., 2000. №2, -С.1-9.
16. Скворцов Л.В. Философия информации или информационная культура // Человек: образ и сущность. Слово и культура. Ежегодник. – М., 2003. – С.53-80.
17. Соколов А.В. Философия информации: проф.-мировоззрение. Учебное пособие. – СПб: СПбГУКИ, 2010. – 368 с.

18. Судаков К. В. Информационный феномен жизнедеятельности. М.: РМАПО. 1999. - 380 с.
19. Урсул А. Д. Природа информации. Философский очерк. - М.: Политиздат, 1968. - 288 с.
20. Урсул А. Д. Путь в ноосферу. Концепция выживания и устойчивого развития цивилизации. - М.: Луч, 1993. 275 с.
21. Урсул А.Д. Информация. Методологические аспекты. - М.: Наука. 1971. -295 с.
22. Урсул А.Д. Природа информации: философский очерк. 2-е изд. – Челябинск, 2010. – 231 с.
23. Щербинин М.Н. Философия информации // Информатизация Москвы, России, мира, Вселенной. – М., 1996. №3(4).
24. Щербинин М.Н. Философия информации // Прикладная философия и социология: труды международной конференции. – Ульяновск: УлГТУ, 2001. Т.1. –С.99.
25. Гаффарова Г.Ф. Ахборот ва ахборотлаштириш жараёнларининг фалсафий-методологик муаммолари: Дисс. фалс.ф.н. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. – 160 б.
26. Wu Kun. Thirty years of research of Information Philosophy in Cina // Открытое образование. № 5. С. 28-49.

УДК 37.026

СТРУКТУРА ТВОРЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

Е.В. Ли

Аннотация. В статье исследуется творческий процесс, состоящий из различных этапов, фаз, на основе самоанализа некоторых ученых. Творчество, как процесс созидательный представляет собой деятельность, создающую инновации. Творческая деятельность особенно востребована в современном обществе, и поэтому вызывает интерес ученых, деятелей искусства.

Ключевые понятия: творчество, наука, воспитание, личность, творческий процесс, интуиция, озарение, инкубация, осмысление, методы.

Ijodiy jarayon structurasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijodiy jarayon muammosi turli bosqichlar, shakllar iborat bo'lishi ba'zi ilmlar tahlili asosida tadqiq qilinadi. Ijod, bunyodkor jarayonga innovatsiyalarni ishlab yaratmoq faoliyati. Ijodiy faoliyat hozirgi kunda jamiyatda talabi shuning uchun ilmlar, sa'nat arboblarni qiziziqtirishi haqida tahlillar keltiriladi

Kalit so'zlar: ijod, fan, ta'lim-tarbiya, shaxs, ijodiy jarayon, intuitsiya, inkubatsiya, anglash, usullar.

Structure of creative process

Abstract. The article investigated the problem of the creative process consists of various stages, phase basically of introspection some scientists. Creativity as constructive process is an activity which creates innovation. Creativities are especially in demand in modern society and, therefore, it is interesting for scientists, artists.

Keywords: creativity, science, education, person, creative process, intuition, irradiation, incubation, comprehension, methods.

Творчество как сложный, многогранный и противоречивый процесс, включает в себя объект и субъект, и протекает в конкретно-исторических условиях. Субъектом творческой деятельности может выступать как отдельный индивид, так и коллектив. Научные сообщества представлены в различных научных школах, представляют собой коллективное сотрудничество в исследовании определенного направления в науке. «Научные школы активно способствуют основательному и глубокому усвоению творческого опыта поколений, того опыта, который помогает провести корабль любознательности через рифы и подводные камни к новым идеям, к новым обобщениям»[5. С.5].

Национальная программа по подготовке кадров нацелена на формирование совершенной системы воспитания и обучения нового поколения специалистов с высоким уровнем

профессионализма, отвечающим современным требованиям мировых стандартов. Одной из важных задач формирования инновационной стратегии государства является «развитие научно-исследовательского сектора высшей школы с ориентацией его на проблемы развития инновационной стратегии государства и подготовку молодых ученых в этой области»[2. С.13]. Формирование образованной личности один из важных аспектов воспитания гармонично развитой личности.

Проблему творческого процесса анализировали многие ученые, чьи исследования отличаются мало: одна концепция от другой. Г.Уоллес предложил свою трактовку творческого процесса, состоящую из следующих фаз: 1) подготовка, 2) инкубация (созревание идеи), 3) озарение, 4) проверка. В подготовительный период ученый сознательно определяет круг вопросов, проблематику и, возможно предвидит или предполагает ожидаемый результат. На входе и выходе творческого процесса преобладают сознательные мыслительные процессы, а между ними – бессознательные. Период инкубации и озарения считает ученый, не контролируется сознанием, т.е. работа происходит на бессознательном уровне психики человека.

А.Пуанкаре определил математическое творчество как создание комбинаций с помощью математических объектов, математик выбирает комбинации, которые находятся в его поле зрения. Творческий процесс описан на основе собственных воспоминаний работы над функциями Фукса. В течение двух недель ученый безуспешно работал по часу или два, данному этапу характерна сознательная работа поиска решения проблемы. Чашка черного кофе стала причиной бессонницы, он был в полубессознательном состоянии. Описанию ученого своего творческого процесса, а именно, момента озарения характерна некоторая образность и даже поэтичность: «...идеи возникали во множестве; мне казалось, что я чувствую, как они сталкиваются между собой, пока, наконец, две из них, как бы сцепившись друг с другом, не образовали устойчивого соединения»[4. С.405]. Утром в течение нескольких часов были сформулированы результаты. Далее было необходимо преобразовать эти функции, но Пуанкаре был вынужден оставить свою работу, во время прогулки, его осенила мысль, обладающая характерными чертами, такими как краткость, внезапность и убедительность в истинности.

Процесс творческой деятельности состоит из чередования сознательной и бессознательной работы мозга. Сознание отличается упорядоченностью, последовательностью и структурированностью. Рассуждая о роли сознательного и бессознательного, Пуанкаре прибегает к образам визуальной картинки, где идеи представлены в виде атомов, которые неподвижны в состоянии покоя сознания. Бессознательное связано с хаосом, с тем хаосом, который описывал Пуанкаре в виде множества движущихся и встречающихся атомов – идей. Во время работы бессознательного некоторые атомы начинают двигаться и образуют различные комбинации. Функция сознания выражается в упорядочивающей и организующей силе, которая задает определенные границы хаотичному поиску в бессознательной сфере. Сознание приводит некоторые атомы в движение, которые, сталкиваясь, образуют различные комбинации, но выбирает их не наугад, а те, что считает значимыми. Даже тогда, когда мы бросаем попытки, атомы продолжают двигаться, составляя удачные и неудачные комбинации.

Многие авторы творческий процесс делят на четыре периода. Такой анализ позволяет представить целостную картину системы «сознательное-бессознательное-сознательное». Как происходит переход от сознательного к бессознательному, а от него к сознательному? Как формируется бессознательное, полученное в результате творческого процесса от сознания первичного? Можно выделить четыре фазы в творческой деятельности 1) фаза сознательного, логического поиска; 2) фаза интуитивного решения; 3) фаза озарения; 4) фаза верификации.

Первый этап – фаза сознательного поиска. Все виды творческой деятельности не только рассудочны, но и эмоциональны. В процессе логического поиска активизируется воображение личности, творческое преобразование, имеющегося наличного знания для решения данной задачи, т.е. перебираются различные возможные решения, рассматриваются гипотезы. Воображение является способностью психики человека вызывать к жизни чувства, мысли, которые были известны, либо являются новыми. Творческое мышление по едва заметным или незаметным для простого человека деталям, единичным фактам улавливает общий смысл новой конструкции и пути ведущие к ней. Богатое воображение предохраняет ученого,

художника и др. от рутинных путей. Вдохновенье, «внутренний огонь» у одного есть, у другого нет. Основа воображения - независимое, оригинальное мышление, позволяющее формировать осознанное представление о чем бы то ни было, воображать то, что ранее в реальности не наблюдалось. Только врожденная способность и воображение позволяют, основываясь на некоторых данных, осознать важность, значимость процесса, события. Преобладающую роль приобретает мотивация, как стремление разрешить проблему в сочетании с логическим контролем над процессом, доминированием сознательной деятельности, служащей подготовкой следующей фазы.

Фаза интуитивного мышления наступает в случае осознания ученым невозможности применения существующих знаний и подходов для решения проблемы. Научный поиск не следует шаблонам, расширяет область поиска. «Сумасшедшие идеи» (Н.Бор), невероятные и фантастические подходы характерны для него. Напряженная работа мышления приводит к нахождению решения. При этом ученый находит решение, осознает результат, но механизм получения результата остается неосознанным. Неосознанные моменты в процессе творческой деятельности помогают нам осознать решение, но не способ, которым оно получено. Вначале личность осознает удовлетворение потребности, а затем факт решения задачи. Этот момент осознания, понимания называют озарением, инсайтом. Достижение понимания – есть озарение. «...озарение - это скачок, посредством которого преодолевается логический пробел; это прыжок с целью захватить плацдарм на противоположном берегу действительности. И на такие рискованные шаги ученый должен делать ставку все время, в течение всей своей профессиональной деятельности»[3. С.180]. Озарение связано с логической проблемой, не следует алгоритму. Действия ученого оригинальны в том плане, что они дают начало новому направлению. Переход от сознательных действий к «озарению» с точки зрения здравого смысла нарушает законы логики, логичность творческой личности обнаруживается «задним числом». В момент скачка от известного к неизвестному никакая логика не может предсказать, как и в каком направлении будет осуществлен скачок. Логика не содержит в себе «компас», алгоритма, позволяющего наметить наиболее эффективный путь успеху. Данный этап характеризуется неосознанной деятельностью, снижением сознательной целенаправленности. На бессознательном этапе функционируют воображение, эмоциональный подъем или спад, сознательной работе мозга соответствуют – анализ, проверка, вывод, формализация определенного знания. Любая человеческая деятельность, как и наука, не может успешно функционировать, руководствуясь только логикой, без творческого воображения, интуиции.

После того, как материал, собранный частично сознательно, до фазы вызревания оформился в виде идеи, он должен быть опять сознательно проверен, это фаза верификации и открытия путей, по которому шло собственное мышление к данному результату. И последний этап – логическое объяснение, понятийное оформление найденного решения, когда результат получен, становится ясной логической неизбежностью избранного пути. Как видно из приведенных примеров научное творчество можно представить «сознательное-бессознательное-сознательное». На первом этапе сознательный поиск создает условия для бессознательной работы мозга, на втором этапе сознательной работы из результатов вдохновенья, различных ассоциаций делают непосредственные выводы.

Творческий процесс, можно представить, как состоящий из: а) постановки проблемы; б) рождения замысла; в) атаки; г) релаксации; д) инкубации; е) инсайта. Постановка проблемы представляет собой понимание отсутствия знания в интересующей его области, решимость восполнить данный пробел[8. С.86]. На следующей ступени формируется общее видение плана решения проблемы, что подразумевает появление широкого спектра вариантов решений и только один из них является правильным. Далее происходит пересмотр имеющихся вариантов, отбрасывание самых неподходящих, отбор, селекция. Но когда проблема не решается, ученый оставляет ее на время, расслабляется, переключает свое внимание на что-нибудь другое, временно прекращает упорные размышления над решаемой, но не разрешимой в данный момент проблемы, при этом попыток может быть предпринято несколько. Во время релаксации ученый может переключить свое внимание на что-то другое, например, прогулка, отдых, чтение и др. Инкубация – это процесс переработки информации подсознанием. Видимо в этом и состоит отличие между ступенями «атака» и «инкубация», сознательной и бессознательной

работой мозга над поставленной задачей. Общим же для данных этапов творческого процесса является наличие методологических и аксиологических средств. Заключительным этапом является представление подсознательным правильного решения сознанию.

В современной науке разработаны методы, развивающие творческие способности. Для того чтобы достичь состояния озарения необходимо пройти несколько этапов: а) период внутренней борьбы, вызванный противоречием между знаниями наличными и знаниями, полученными в результате творческой деятельности. В момент, когда человека охватывает отчаяние, наступает следующий этап; б) процесс бессознательной мыслительной деятельности, в результате подсознание представляет сознанию некое знание; в) момент озарения и г) осмысление.

Особенности психологических состояний в творческой деятельности личности, в центре научных интересов В.Зинченко[7. С.9]. Он выделяет следующие фазы творческого процесса: 1. Возникновение темы, процесс принятия и осознания необходимости начать работу, здесь происходит мобилизация творческих сил; 2. Восприятие темы, анализ ситуации, осознание проблемы, создание целостной картины проблемной ситуации. Особенностью данного процесса является целостное видение проблемы, возможного решения. Здесь обнаруживается противоречие, которое помогает четче обрисовывать решаемую проблему; 3. Работа над решением проблемы: происходит взаимодействие сознательной и бессознательной работы мозга. Результатом данного взаимодействия является решение проблемы: формулирование, проверка и опровержение гипотез; создание специальных средств или предпосылок для решения; 4. Возникновение идеи (равно образ - эйдос) решения (инсайт). Происходит поглощение проблемы человеком, значимой становится визуализация, создание различных образов. Важную роль в творческой деятельности имеет подсказка, например, книга Т.Мальтуса «О народонаселении» послужила подсказкой для теории естественного отбора Ч.Дарвина; 5. Исполнительная, техническая стадия, представляет трудность, если для решения нет соответствующего аппарата.

И.Меркулов предлагает анализ научного творчества, состоящего из следующих этапов: 1) выявление требующей решения проблемы; 2) анализ данных и выдвижение пробных гипотез; 3) созревание открытия; 4) озарение (инсайт); 5) рациональная, логико-аналитическая доработка полученного нового результата, его критический анализ и обоснование. Важное значение в творческой деятельности имеет подготовка, поскольку: «продуктивность творческих актов, протекающих на бессознательном уровне психической активности индивида, далеко не в последнюю очередь зависит от объема экспертных знаний и их предварительной сознательной подготовки, предполагающий глубокий анализ реальной проблемной ситуации в науке, аргументированную критику и оценку имеющихся научных теорий, гипотез, экспериментальных данных и пр.»[1. С.173-174]. Критически-аналитическое мышление важно на этапе подготовки и обоснования, т.е. на тех этапах творческого процесса, когда приоритетную роль играет сознательная работа мозга.

Процесс инкубации или созревания открытия больше связан с бессознательной работой мозга ученого, вытеснением или сдвигом после упорных, но безуспешных попыток разрешить проблему. Преобладание бессознательной работы способствует раскрепощению мысли, отказу от стереотипов. Особое значение для творческого поиска имеет эмоциональное состояние ученого. Инсайт или творческое озарение наступает в момент эмоционального подъема и смутного осознания целостной картины, вербализации, сознательной работы.

Таким образом, феномен творчества привлекал внимание многих мыслителей, ученых, и поэтому, разнообразные концепции, исследования отличаются пониманием природы творчества одна от другой. Продукты креативной деятельности, имеющие субъективную значимость, могут стать творческими, обрести объективную значимость при условии влияния на социум, парадигму научного, технического, художественного мышления, общественные процессы, которые приведут к существенным переменам.

Литература

1. Меркулов И.П. Логика науки и индивидуальное творчество.// Когнитивная эволюция и творчество.- Москва: ИФРАН, 1995.- С. 173-174.

2. Мухитдинова Н.К. Стратегия развития национальной системы в условиях глобализации.// Общественные науки в Узбекистане.- Ташкент, 2008.- № 4.- С. 13.
3. Полани М. Личностное знание.- Москва: Наука, 1985.- С. 180.
4. Пуанкаре А. Наука и метод./ О науке.- Москва: Наука, 1990.- С. 405.
5. Туленова К., Расулев Э. Научная школа как воспитательная образовательная единица.// Pedagogika.- Ташкент, 2016.- № 1.- С. 5.
6. См.: Зинченко В.П. Наука о мышлении.// Психологическая наука и образование.- Москва, 2002.- № 2.- С.9.
7. См.: Коваленко В.А. Организация творческого мышления.// Вопросы философии.- Москва, 2002.-№ 8.-С. 86.

UDK: 957.51 N – 18

“SIYOSIY JARAYON” KATEGORIYASIGA OID KONTSEPTUAL QARASHLAR VA TALQINLAR**Nazirov M.***Toshkent davlat sharqshunoslik instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqola “siyosiy jarayon” kategoriyasini kontseptual anglash va talqin etish masalasiga bag‘ishlangan. Muallif fanning bu sohasidagi asosiy ilmiy qarashlar va yondashuvlarni ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy jarayon, kategoriya, siyosiy tizim, ijtimoiy guruhlar, kontseptual asos, ilmiy yondashuvlar.

Концептуальные взгляды и интерпретации о категории «политический процесс»

Аннотация. Данная статья посвящена концептуальному осмыслению и толкованию категория «политический процесс». Автор рассматривает основные научные взгляды, подходы в этой области науки.

Ключевые слова: политический процесс, категория, политическая система, социальные группы, концептуальная основа, научные подходы.

Conceptual views and understandings about the category of “political process”

Abstract. The article is dedicated to conceptual comprehension and interpretation of “political process” category. The author considers several scientific views and approaches in this field of science.

Keywords: political process, category, political system, social groups, conceptual basis, scientific approaches.

Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari butun insoniyat taraqqiyoti uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib bermoqda. U, avvalambor, davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi chegaralarni ochib berib, turli sohalarda o‘zaro hamkorlik rivojiga ulkan hissa qo‘shish bilan bir qatorda, siyosiy jarayonlar kechuvini ham tezlashtirib yubordi. Bu esa siyosiy jarayonlarni yangicha kontseptual idrok etish va ilmiy yondashuvlarni ko‘rib chiqish zaruratini oshiradi.

Ma'lumki, siyosiy jarayon tarixiy jihatdan davlatchilik va ilk jamiyatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, u jamiyat rivojlanishining turli davrlarida turlicha namoyon bo‘lgan va o‘ziga xos xususiyat kasb etgan. Masalan, antik davr faylasuflari asarlarida quldorlik jamiyatining siyosiy tuzilishi, unda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning tashkil topish xususiyatlari, jumladan, davlat tuzilishi va uning shakllariga doir masalalar to‘g‘risida so‘z yuritadi.[1] O‘rta asrlar G‘arb mutafakkirlari, tarixchilari asarlarida xristian dini va Rim katolik cherkovining Yevropadagi siyosiy va ma'naviy hayotning barcha sohalarda hukmronligi sharoitidagi davlatchilik, qonun, huquq masalalari, O‘rta asrlar hukmdorining insoniy jihatlari va xatti-harakatlari, davlat siyosiy faoliyatining qonuniyatlari va o‘ziga xos jihatlari, feodal tuzumdan kapitalizmga qadam qo‘yilishi, erkin fuqarolar jamiyatining shakllanishi kabi o‘sha davrga oid muhim jarayonlar o‘z ifodasini topdi.[2] O‘z navbatida, Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida o‘z davrining siyosiy jarayonlari, ularning ko‘proq ijtimoiy va axloqiy, ma'naviy qirralari yoritilgan. Ayniqsa, buyuk bobokalonimiz Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida markazlashgan davlat tashkil topishi, unda boshqaruv ishlari amalga oshirilishi, mamlakatni boshqarishga oid ko‘plab tadbirlar haqida ma'lumotlar bor.[3]

Sirasini aytganda, davrlar o‘tgan sari insoniyat ortirgan tarixiy tajriba va bilim, ma'naviy-madaniy meros ko‘lami ortib boradi, bu esa ijtimoiy-siyosiy jarayonga zamon va makonda mos ravishda ta'sir o‘tkazadi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko‘p-ko‘p davlatlar asrlar davomida to‘plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib yetib kelgan. Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz”. [4]

Bugungi kunda “siyosiy jarayon” ham asosiy kategoriya, ham keng qamrovli hodisalardan biri sifatida ijtimoiy-siyosiy fanlarda va jamoatchilik orasida ko‘p qo‘llaniladi. Ammo ushbu atamadan keng foydalanilishiga qaramay, uning aniq mazmuniga qat‘iy ta‘rif berish anchagina mushkul va shu sababli u ko‘p hollarda birmuncha erkin talqin qilinadi. Shunga qaramay, siyosiy jarayonning aniq ta‘rifini ishlab chiqish hozirda muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Ta‘kidlash joizki, ijtimoiy-gumanitar fanlarda siyosiy jarayon individlar, guruhlar, ularning madaniyatlari o‘rtasidagi munosabatlar tarzida ifodalanadi. Bunda turli soha vakillari siyosiy jarayonning alohida sohaviy jihatlarini ajratib ko‘rsatadilar va turlicha ta‘rif beradilar. Masalan, amerikalik olim R.Douz siyosiy jarayonni “siyosat” tushunchasi bilan bir ma‘noda ishlatadi,[5] Ch.Merriam esa uni hokimiyat subyektlarining o‘z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirish chog‘idagi xatti-harakatlari, subyektlarning maqomi va ta‘sirini o‘zgarishida ko‘radi.[6]

Bundan tashqari, mashhur sotsiolog olim T.Parsons siyosiy jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini uning faoliyati natijasida qayd etadi,[7] S.Xantington esa siyosiy jarayonni hokimiyat institutlarining faoliyat yuritishi va transformatsiyasi bilan bog‘laydi,[8] D.Iston uni siyosiy tizimning atrof-muhit talablariga reaksiyalari majmuasi sifatida tushunadi,[9] nemis sotsiologi R.Darendorf va amerikalik olim A.Bentli turli ijtimoiy guruhlarining hokimiyat maqomi yoki resurslari uchun raqobati dinamikasiga e‘tibor beradilar.[10] D.Trumen esa siyosiy jarayonni turli ijtimoiy guruhlarining zamon va makonda beqaror munosabatlardan o‘zaro muvozanatlashgan holatga o‘tishi yo‘lidagi past-baland o‘zgarishlar sikli sifatida talqin qiladi.[11]

Siyosiy jarayonni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etgan amerikalik olim L.Pay kontseptual yondashuvi ham e‘tiborga molik. U siyosiy jarayon hodisasiga qadriyatlar nuqtaiy nazaridan yondashishni taklif qilgan edi.[12] O‘z navbatida, J.Mangeym va R.Rich siyosiy jarayonni davlat institutlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning jamiyatga ta‘sirini belgilovchi murakkab voqea-hodisalar majmuasi sifatida talqin qiladilar.[13]

Mana shunday xilma-xil yondashuvlar doirasida siyosiy jarayon o‘zining eng muhim manbalari, holatlari, tarkibiy qismlarini namoyish etadi. Ayni vaqtda siyosiy jarayon turli talqinlarga qaramay, ijtimoiy-siyosiy subyektlarning ichki va tashqi omillar natijasida shakllangan o‘zaro real ta‘sirini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, siyosiy jarayonda individlar, guruhlar, hokimiyat institutlari o‘zlarida shakllangan barcha stereotiplar, maqsadlar asosida rol va funksiyalarni amalga oshirish uchun birlari hamda davlat bilan o‘zaro ta‘sirga kirishadilar.

Shuningdek, aksariyat adabiyotlarda “siyosiy jarayon” kategoriyasi hozirgi vaqtda ko‘proq jamiyat hayotida hal qiluvchi o‘zgarishlar, yangilanishlarning yuz berishiga sabab bo‘layotgan jarayonlar, xususan, sotsialistik tizimdan demokratiyaga o‘tayotgan jamiyatlardagi rivojlanish xususiyatlarini (siyosiy modernizatsiya, liberallashtirish) aks ettirish, saylov jarayonlarini ifodalash uchun qo‘llanilmoqda.[14]

Siyosiy jarayon boshqa bir qator adabiyotlarda siyosiy tizim faoliyatining shakli sifatida talqin qilinadi. V.Gutorov, V.Achkasov talqiniga ko‘ra, “siyosiy jarayon” kategoriyasi institutsional va noinstitutlari subyektlarining hokimiyat sohasidagi, jamiyat siyosiy tizimining o‘zgarishi va taraqqiyotiga (yoki inqiroziga) olib keluvchi o‘ziga xos funksiyalarini bajarish bo‘yicha harakatlarining yig‘indisidir.[15] V.Krayterman o‘z talqinida ijtimoiy-siyosiy hayotning funktsional va dinamik jihatlariga e‘tibor qaratadi. Uning fikricha, funktsional jihatdan siyosiy tizim amal qiladi, o‘zini saqlaydi va qayta tiklaydi, dinamik jihatdan esa evolyutsiyani boshdan kechiradi, isloh etiladi, taraqqiy etadi yoki tanazzulga uchraydi.[16] Shuning uchun ham V.Krayterman dinamik jihatga nisbatan ikki xil, ya‘ni siyosiy taraqqiyot va siyosiy jarayon ta‘riflarini ishlatadi.

Umuman olganda, siyosiy jarayon borasida olimlarning qarashlari va talqinlari turfa xil bo‘lsa-da, mohiyatan bir-biriga yaqindir, ya‘ni ular siyosiy jarayonning muhim manbalari, holati va shakllarini tavsiflash bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida doimiy o‘zgaruvchan turli belgilari va xususiyatlarini ochib beradi. Shunday qilib, ko‘rib chiqilgan yondashuvlarga tayanib, ta‘kidlash mumkinki, siyosiy jarayon o‘zida jamiyat siyosiy tizimining umumiy faoliyatini, undagi ichki va tashqi omillar ta‘sirida yuzaga keluvchi dinamik o‘zgarishlarni o‘rganish, aniq va yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Platon. Sobranie sochineniy: V 4-x t. T.1 / Obsh. red. A.F. Loseva i dr. –M.: Misl, 1994. –S. 44-45; Aristotel. Sochineniya. T.4. T.4 / Obsh. red. A.I. Dovatura. –M.: Misl, 1983. –S. 38-57.
2. Rassel B. Istoriya zapadnoy filosofii. –M.: Akademicheskii proekt, 2000. –S. 339-341.
3. Temur tuzuklari. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1991. –144 b.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz. 7-j. – T.: Oʻzbekiston, 1999. –B. 304.
5. Pugachev V.P., Solovev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. (oʻzbekcha nashri). –T.: Yangi asr avlodi, 2004. –B. 386.
6. Merriam Ch. Novie aspekti politiki (fragmenti). Per. s angl. T.N. Samsonovoy, A.L. Alyushina // Sotsialno-politicheskiy jurnal. -1996. -№5. –S. 163-182.
7. Parsons T. Sistema sovremennix obshestv. –M., 1998.
8. Xantington S. Tretya volna. Demokratizatsiya v kontse XX veka. -M.: ROSSPEN, 2003. - 368 s.
9. Iston D. Kategorii sistemnogo analiza politiki // Politologiya: xrestomatiya. Pod red. prof. M.A.Vasilika. -M.: Gardariki, 2000. –S. 319.
10. Dahrendorf R. Class and Class Conflict in Industrial Society. –L., 1957. –P. 76.
11. Truman D.B. The Governmental Process: Political Interests and Public Opinion. –N.Y.: Knopf, 1951.
12. Idivov U.Yu. Siyosatshunoslik: Oʻquv qoʻllanma. –T.: TDSHI, 2013. –B. 117.
13. Mangeym J., Rich R. Politologiya. Metodi issledovaniya: Per. s angl./ Predisl. A.K. Sokolova. -M.: Ves Mir, 1997. – 544 s.
14. Aliev B., Ergashev I., Yuldashev O., Hoshimov T. Politologiya: Darslik. –T.: TDIU, 2010. –B. 74.
15. Gutorov V.A., Achkasov V.A. Politologiya. Uchebnik dlya VUZov. - SPb.: Piter, 2005. – S. 490.
16. Krayterman V.S. Politologiya: Uchebnoe posobie dlya visshix uchebnix zavedeniy. –M.: MGUTII, 2007. – S. 221.

UDK: 342.84**SAYLOV MADANIYATI - SIYOSIY TAFAKKUR BELGISI****Joʻraev R.T.***Namangan davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada Oʻzbekistonda keyingi yillarda demokratik jarayonlar yanada chuqurlashib, mamlakatni modernizatsiya qilishda izchil islohotlar amalga oshirilayotganligi hamda aholining saylov madaniyati, siyosiy ong va tafakkuri muttasil oʻsib borishi xususida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: demokratiya, siyosiy ong, mafkura, saylov, tafakkur, ijtimoiy, fuqaro, islohot.

Культура выборов- показатель политического мышления

Аннотация. В статье дальнейшее углубление демократических процессов в последние годы осуществления реформ и модернизации страны и электоральной культуры населения, рост политического сознания и мышления, постоянно называют видением.

Ключевые слова: демократия, политическое сознание, идеология, выборы, психические, социальные и гражданские реформы.

Election culture- is a sign of political mentality

Abstract. The article further deepening of democratic processes in recent years implementation of reforms and modernization of the country and the electoral culture of the population, the growth of political consciousness and thinking constantly referred to a vision.

Keywords: democracy, political consciousness, ideology, election, mental, social, and civil reforms.

O'zbekistonda keyingi yillarda demokratik jarayonlar yanada chuqurlashib, mamlakatni modernizatsiya qilishda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda, aholining saylov madaniyati, siyosiy ong va tafakkuri muttasil o'sib bormoqda.

Ma'lumki, saylov madaniyati ko'p qirrali tushuncha. Uning mezonlarini bir ikki tomonlarini aytish bilan belgilab bo'lmaydi. Bu borada professor S. Atamurodovning quyidagi fikrini keltirish o'rinli: «Saylov madaniyati saylovchilarning Konstitutsiya talablariga binoan bir necha nomzodlar ichidan mamlakat va uning barcha fuqarolari manfaatlarini ko'zlashga, umumdavlat doirasida tafakkur qilishga, istiqbolni ko'ra bilishga salohiyati yetarli bo'lgan deputatlarni saylash ma'rifatidir»[1].

Shu ma'noda, saylov deputatlarni saylash doirasi bilan cheklanmaydi, shuning bilan birga saylovchilarning siyosiy madaniyati darajalarini belgilab beruvchi mexanizm hisoblanadi. Agar saylovchilar nomzodlar ichidan sessiya paytida «dam» olish uchun emas, balki qilinadigan har bir qonunga yoki muhokama qilinadigan har bir masalaga o'zining mustaqil fikrini bildirib, har bir sessiyaning munozarali, kerak bo'lsa qizg'in o'tishida o'zining faolligi bilan qatnashishiga salohiyati yetadiganlarini tanlay olsagina siyosiy madaniyatning rivojlanganligi haqida ijobiy fikr bildirish mumkin bo'ladi. Buni albatta saylov natijalari ko'rsatadi.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I. A. Karimov 2005 - yil 27 - yanvar kuni yangi saylangan Qonunchilik palatasi deputatlari oldida «Parlament-jamiyat hayotining ko'zgusi» mavzuida ma'ruza qilar ekan, «Ushbu saylovlar oshkoralik, ochiqlik va qizg'in kurashlar bilan o'tdi. Ularni nafaqat yurtimizga kelgan xalqaro ekspert va kuzatuvchilar, balki boshqa xayrixoh bo'lgan, buni uzoqdan biladigan dunyo jamoatchiligi ham ommaviy axborot vositalari orqali kuzatib turdi. Shu ma'noda, bu saylovlar biz uchun yana bir sinov bo'ldi. Yaratganga shukrlar bo'lsinki, saylovchilarimiz, butun xalqimiz sinovdan yorug' yuz bilan o'tdi.

Bu sinov bizning hech kimdan kam emasligimizni, yurtimizda demokratik davlat barpo etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish yo'lida salmoqli qadamlar qo'yayotganimizni yana bir bor ko'rsatdi. Shuning uchun ham bu saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohida sahifa bo'lib qoladi[2]» deb qayd qilgan edi.

Tabiiyki, davlatimiz rahbarining bunday bahosi xalqimizning siyosiy ongi va tafakkuri yuksalib borayotganini, ayni chog'da aholida saylov madaniyati ham islohotlar jarayonida bosqichma-bosqich o'sib borayotganini ko'rsatadi. Shu ma'noda siyosiy adabiyotlarda ko'p uchraydigan saylov jarayonlari bilan bog'liq saylov madaniyati tushunchasiga to'xtashni joiz deb bilaman.

Bu borada siyosiy adabiyotlarda saylov madaniyatining mezonlari sifatida quyidagi jihatlar alohida ta'kidlanadi. Jumladan:

1) ko'ppartiyaviylikning mavjudligi; 2) siyosiy partiyalar saylovoldi dasturlarida chinakam muqobillikning bo'lishi; 3) saylovchilarga nomzodlar ichidan eng salohiyatlarini tanlash imkoniyatlarining yaratilganligi; 4) saylovchilarning tanlashga salohiyati etarli bo'lishi; 5) ko'rsatilgan nomzodlarga teng sharoitlarning mavjudligi; 6) amaldagi hokimiyatning u yoki bu nomzod manfaatini ko'zlab saylov jarayonlariga tazyiq o'tkazishga yo'l qo'yilmaganligi; 7) saylov kompaniyasida mamlakat manfaatlariga zid bo'lgan har xil bo'linishlar yoxud guruhbozlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, milliy va irqiy kamsitishlar kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'yilmaganligi; 8) nomzodlarning munosabatlarida o'zaro hurmat va e'tiborning mavjudligi, kabilar ko'rsatib o'tiladi.

Albatta, birinchi o'rinda saylovning o'tishida Konstitutsiya va qonun talablariga amal qilinishi saylov madaniyatining darajalarini va mezonlarini qanchalik huquqiy jihatdan to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Shu nuqtaiy nazardan saylov kompaniyasining vazminlik, o'zaro hurmat va eng asosiysi umumdavlat manfaatlarining ustuvorligi ruhida o'tishi saylov madaniyatining asosiy mezoni hisoblanadi.

Shunday qilib, demokratiya har doim va hamma joyda ham xalq hokimiyatining qaysi darajada tashkil topganligi va xalqning hokimiyatni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlari bilan o'lchanadi. Demokratiyaning milliy «modeli» bo'lishi mumkin emas. U umuminsoniy qadriyatlar va insoniyatning asrlar davomida intilayotgan idealidir.

To'g'ri, demokratiya shakllanishida milliy mentalitet o'zining ta'sirini o'tkazadi Millatning ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlar va qadriyatlari demokratiya rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ammo, demokratiyaning mezoni yagonadir. Uni demokratik jarayonlar rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi mexanizmga aylantirish degani emas. Balki, demokratiyaning umumjahonda e'tirof

etilgan mezonlari barcha mamlakatlar uchun yagona ekanligini va ayni uni amalga oshirishda. milliy o'ziga xoslikdan kelib chiqqan bo'ladi.

Bugungi matbuotda ayrim siyosatchilar demokratiyani tezlashtirish, yoki g'arb demokratiyasini misol sifatida ko'rsatishga urinayotganlari ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda bizda shakllanayotgan demokratiyaning ildizlari 3 ming yillik davlatchilik tariximizga borib taqalishini ham esdan chiqarmasligimiz lozim. Shu nuqtaiy nazardan, mamlakatimizda milliy mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas.

Biz milliy rivojlanishimiz jarayonida merosimizni o'zlashtirish, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni qaytadan tiklash bilan birga dunyo davlatchilik tizimida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan davlatchiligimiz an'analari, demokratiya qadriyatlarni ham ijodiy o'zlashtirayotganimizni nazarda tutadigan bo'lsak, demokratiya rivojlanish jarayonida biz bugun erishgan yutuqlarni vaqt nuqtaiy nazaridan g'arb yoki Amerikaga solishtirish to'g'ri bo'lmaydi.

Boz ustiga, demokratiya taraqqiyotining dunyo mamlakatlari tajribalari mavjud, biz ulardan tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ham egamiz. Ammo, ularning birontasi ham O'zbekiston uchun etalon bo'la olmaydi.

Chunki, g'arb va Amerikada shakllangan demokratiya juda murakkab jarayonlarni, inqiloblar va qon to'kishlarni o'z boshidan kechirdi hamda bugungi darajaga erishdi. Ular hayotida bo'lgan jarayonlar takrorlanmasligi kerak. Insoniyat demokratiyaning qurboni bo'lishi kerak emas, balki demokratiya inson kamoli uchun xizmat qilishi lozim. O'zbekiston taraqqiyotning evolyutsion yo'lidan, vazminlik va sobitqadamlik bilan dadil bormoqda. U dunyo mamlakatlari to'plagan tajribalardan tegishli xulosalar chiqarmoqda. Bu O'zbekistonda demokratik jarayonlar rivojlanishining o'ziga xos tizimini shakllantirish imkoniyatini bermoqda. Bu tizim O'zbekistonda saylovlarni o'tkazishda ham eng zamonaviy andozalarning shakllanishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Bugun O'zbekistonda o'tkazilayotgan saylov jarayonlari jahondagi demokratiya rivojlangan deb hisoblangan mamlakatlardagi tartibotga to'liq javob beradi. Yuqorida saylov madaniyatining mezonlari haqida ko'rsatilgan shartlar O'zbekistonda to'la amalga oshirilmoqda. Ayni chog'da bu bizning milliy xususiyatimiz va ruhiyatimizga ham to'liq mosdir.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan saylovlar ba'zi mamlakatlarda bo'lganidek, shovqin-suron, o'zaro to'qnashuvlar tarzida emas, balki qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda. Bu g'oyat muhimdir.

Binobarin demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, o'zaro birlashib ketgan. Saylov-demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani. Chunki, har qanday siyosiy partiya, avvalo, saylovlar orqali o'zining tarafdorlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim uning g'oya va dasturlarini qo'llab-quvvatlayapti – bularning barchasini amalda ko'rishga muvaffaq bo'ladi.

Shu bilan birga, aynan saylov paytida siyosiy partiyalar o'z g'oya va dasturlarini omma orasida targ'ib qilish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Shu jihatdan siyosiy partiyalar keyingi saylovlar jarayonida o'z o'rinlarini asta-sekinlik bilan topa boshladilar, lekin o'z o'rnini topa olmagan va omma orasida o'z ta'siriga ega bo'lmagan partiyalar sham ko'zga tashlandi.

Bunday jarayonlar ijtimoiy-siyosiy hayotda sustkashlik qilayotgan ayrim partiyalar jamiyatdagi mavjud muammolarni ko'tarib chiqish salohiyatiga yetarli ega bo'lmagani sababli yangi partiya vujudga kelishiga zaruriyat yetiladi va keyingi yillarda Fidokorlar milliy demokratik partiyasi, O'zbekiston liberal demokratik partiyasi ana shu obyektiv zaruratning mevasi sifatida vujudga keldi hamda juda tez ommaviylashib bormoqda.

Bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston liberal demokratik partiyasi nima sababdan g'alaba qildi?,-degan savolga Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov to'xtalib «Men bu savolga, avvalambor, amaliy ishlari, aniq dasturi bilan deb javob bergan bo'lardim. Bu partiya qisqa davr ichida qanday qilib xalqimiz turmush darajasini yaxshilash, O'zbekistonni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga qo'shish, iqtisodiy yuksalishga erishish mumkin, degan masalalar bo'yicha o'z g'oya va maqsadlarini ko'pchilikning ongiga singdirib, ularning ishonchini qozona oldi»[3] deb ko'rsatib o'tadi.

Darhaqiqat, biz saylov madaniyatini shakllantirishda g'arb mamlakatlari tajribalarini o'rganishimiz, tegishli xulosalar chiqarishimiz mumkin, ammo ularning birontasini andoza sifatida aynan qabul qila olmaymiz. O'zbekiston xalqi o'z madaniyatini milliy qadriyatlarga tayangan holda shakllantirib boradi.

Saylov madaniyatini yana yuksaltirish, fuqarolar siyosiy saviyasini oshirish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi haqida fikr yuritgan professor S. Atamuratovning «Har bir insonning o'zi bir g'aroyib mavjudot. Uning dunyoqarashi va madaniyatini rivojlantirish, manfaatini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Bugun ko'pchilik siyosiy madaniyatni rivojlantirish uchun siyosiy va huquqiy bilimlarni berish kerak demoqda. Bu to'g'ri, lekin uni qanday qilib yetkazish mexanizmini topish zarur. Fikrimizcha, buni umummilliy ma'naviy-ma'rifiy saviyani ko'tarishdan boshlash lozim bo'ladi. Bu borada mamlakatimizda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini qanchalik sifatli qilib amalga oshirsak, u shunchalik tez, umummilliy rivojlanishimizga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Bugun saylov jarayonlari qizg'in ketayotgan paytda saylov madaniyatini qisqa vaqt ichida shakllantirish mumkin emas. Unga zaminni bugun qo'ysak, albatta ertaga u o'zining natijalarini beradi. Xuddi ana shu sababdan ham bugun bu haqda bosh qotirishimiz lozim bo'ladi», degan fikri o'rinli deb bilaman.

Bugun aholimizning nisbatan ko'pchilik qismi qishloq joylarida yashaydi, bizning kelajagimiz va istiqbolimiz qishloqda amalga oshiriladigan islohotlarning natijalariga bog'liqliqligini hammamiz bilamiz. Ammo bugun qishloqda shakllangan fermerlik harakatining mazmun- mohiyatini hamma joyda ham birdek barchaga yetkaza olmaganimiz, agar yerni haqiqiy egasiga topshirilsa shu holatga befarq qaramasdan islohotlarning amalga oshishiga fidoiylik bilan yondashsak demokratik jarayonlarni rivojlantirishni markazdan uzoq qishloqlarimizga ko'chirish ishlariga baholi qudrat hissa qo'shgan bo'lamiz.

Siyosiy madaniyatni rivojlantirishning yana bir omili mamlakatimizda mavjud bo'lgan katta intellektual salohiyatdan unumli foydalanishdir. Ma'lumki, hamma zamonlarda xalq o'z ichidan yetishib chiqqan aql-salohiyat sohiblariga yuksak ehtirom bilan qarab kelgan, ishongan va ularga ergashgan. Bugun nazarimizda mana shu imkoniyatdan yetarlicha foydalanmayotirmiz Ular qandaydir o'zlarining kundalik tashvishlari bilan ovora bo'lib qolganday ko'rinadi. Agar intellektual salohiyatimizning o'zagini tashkil qiluvchi ziyolilarning xalq bilan muloqotini mustahkamlasak, siyosiy jarayonlarda faolligini kuchaytirsak, bu albatta, umummamlakat darajasidagi siyosiy madaniyat rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xalqimiz yuksak ma'naviyat va qobiliyatga ega bo'lgan buyuk xalqdir, uni faqat ruhlantirib va aniq maqsadga yo'naltira bilishimiz lozim. Xalqimizning bu yuksakligi saylovlarni muvaffaqiyatli o'tkazishimizning kafolatidir, ayni chog'da fuqarolarni davlat va jamiyat boshqaruvi ishlarida faol qatnashishi uchun imkoniyat yaratadigan vositadir.

Adabiyotlar

1. Atamurodov.S. Milliy rivojlanish falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 323.
2. Karimov. I. A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – B. 6.
3. Karimov.I. A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – B. 19.

UDK: 327.7

UZBEK-ASEAN COOPERATION AND ITS PERSPECTIVES

Djurayeva G.M.

University of World Economy and Diplomacy

Abstract. The cooperation with the republic of Uzbekistan takes an important place in the development of foreign policy links of ASEAN countries. In this article in order to learn interstate relations the developing cooperation of the Republic of Uzbekistan with Indonesia, Malaysia and Singapore are examined in dynamics as the key countries in the region.

Keywords: International relations, foreign policy, integration, diplomatic relations, ASEAN, South East Asian countries, regional security.

O‘zbekiston-ACEAN: hamkorlik va istiqbol

Annotatsiya. ACEAN davlatlari bilan tashqi siyosiy aloqalarni rivojlantirishda, O‘zbekiston Respublikasini hamkorlik qilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada davlatlararo munosabatlar rivojlanishidagi asosiy xususiyatlarni to‘liq ko‘rib chiqish maqsadida mintaqada joylashgan yetakchi Malaysiya, Indoneziya, Singapur va Vietnam kabi davlatlarning O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarining taraqqiy etishi dinamikasi ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi va ACEAN davlatlari munosabatlarining rivojlanish tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu aloqalar ko‘tarilish chiziqlari bo‘yicha, ya‘ni ketma-ketlik va ohistalik bilan, asosiysi ikki tomonning o‘zaro rozilik harakatlari natijasida rivojlanishi tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, integratsiya, diplomatik aloqalar, ASEAN, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, mintaqaviy xavfsizlik.

Узбекистан – АСЕАН: сотрудничество и их перспективы

Аннотация. В развитии внешнеполитических связей стран АСЕАН важное место занимает сотрудничество с Республикой Узбекистан. В данной статье в целях изучения межгосударственных отношений, рассмотрена динамика в развитии и интенсификации сотрудничества Республики Узбекистан с Индонезией, Малайзией и Сингапуром как ключевыми странами в регионе. Анализ развития отношений Республики Узбекистан со странами АСЕАН, показал что связи с Республикой Узбекистан развивались по восходящей линии, последовательно и планомерно, главным образом за счет обоюдных усилий.

Ключевые слова: международные отношения, внешняя политика, дипломатические отношения, АСЕАН, страны Юго-Восточной Азии, региональная безопасность.

While developing foreign policy relations with the countries of ASEAN the cooperation of Uzbekistan is very important. As essential perspectives Uzbekistan considers becoming one of the world's developed countries, implementation of political, economic reforms and its continuation, modernization of the country, formation of civil society and on the base of it providing social welfare for its citizens[1].

Successful development of diplomatic relations has been attained by the cooperation based on mutual and national interests of states. Furthermore, as a result of rapidly growing global threats states are cooperating comprehensively and in full accord in different spheres, particularly in the field of security, politics, economics and culture.

As I.A.Karimov states “While strengthening our confidence in our future the main factor is that we have put exact and clear aims before us. In accordance with these goals and on the base of our great opportunities and capacities we should deepen new and existing reforms and implement them gradually. Besides, we should modernize our country using the experience of world's leading states[2].”

According to our compatriot researcher A.Sharapov the cooperation of Uzbekistan with South-East Asian countries is based on political and economic conditions and has its special goals and tasks. However, the countries have one common position regarding global and regional, particularly, fight against terrorism, drug traffic and testing nuclear weapons[3].

In order to understand deeply the main features of interstate relations' development we could have a look at the gradual development of the cooperation between Uzbekistan and leading countries of the region: Malaysia, Singapore, Indonesia and Vietnam.

Uzbekistan - Malaysia. Diplomatic relations between two countries were established on the February 21, 1992. Development of the cooperation between Uzbekistan and Malaysia can be noted by the fact that there are some similarities between them in many aspects. For example, in Malaysia the majority of the indigenous population is Malays, in its turn, Uzbekistan's indigenous population mostly consists of Uzbeks. In Central Asia Uzbekistan is the most populated country. And it is also

considered to be rich in resources and to have a strong base of agriculture. Initially, Malaysia's economics was based on traditional agriculture. Though the state religion is Islam in Malaysia, other religions are not prohibited. In Uzbekistan there is the policy of religious tolerance as well. Furthermore, the state development programs also resemble: the strategic program of Uzbekistan is similar to Malaysia's strategic program "Perspective-2020" in many ways.

For Uzbekistan it is of great significance to cooperate with Malaysia which is considered to be the leading state in ASEAN[4]. Especially, Uzbekistan is interested in the attraction of investments from the region of South-East Asia in order to implement high technology in the country and to supply Uzbek goods to the markets of South East Asia. Therefore, regarding the issues of growing international terrorism and religious extremism it is of great importance to cooperate within OIC[5]. In the geopolitical aspect Uzbekistan is in the centre of Asia and it has a multilateral policy. For Uzbekistan cooperating with such a prestigious country as Malaysia is considered to be one of the main factors which influence the stability in the region. In addition, the cooperation with Muslim countries leads to prospective future. It must be noted that in 2007 the initiative of UNESCO on choosing Tashkent as the cultural capital of Islam was wholly supported by Malaysia. Both Uzbekistan and Malaysia have supported each other's initiatives on the world arena. For instance, Uzbekistan has always supported the candidacy of Malaysia in the structures of the UN, particularly, in 1997 in ECOSOS, in 1998 its temporary membership in Security Council, in 1997, in 2001 and in 2005 in international tribunal on Yugoslavia, in 2003 in international tribunal on Ruanda, in 2004 in the Committee of eradicating all kinds of female discrimination, in 2008 the candidacy of Malaysia for chairmanship in the Committee of Kodeks Alimentarius[6]. In 2007 Uzbekistan also supported Malaysia's membership in the Executive council of International civil aviation. Malaysia has been supporting the initiatives of Uzbekistan on transforming Central Asia into a nuclear-free zone, on forming a Common market in Central Asia. Also, Malaysia was in favour of Uzbekistan's participation in the Dialogue on Asian cooperation in 2006[7]. Furthermore, Malaysia as well as other OIC countries supported Uzbekistan's position when the 61-session, confidential process No 1503 of UN Committee on human rights took place in 2005 (the session was devoted to the situation regarding the issue of human rights in Uzbekistan)[8].

Frequent mutual high-level visits demonstrate that both of the states are interested in mutual cooperation. In 1992 the president of Uzbekistan I.A.Karimov visited Malaysia, and in 1993 the prime-minister of Malaysia M.Mukhammad visited Uzbekistan. In 2003 there was paid a visit to Uzbekistan by the king of Malaysia Tuank Said Sirojiddin Said Jamalullayla. In 2005 the president of Uzbekistan I.A.Karimov paid one more state visit to Malaysia. In 1997 between two states there were signed important agreements, particularly, intergovernmental treaties on increasing investments and on mutual avoidance of taxations. On the base of the Treaty on trade there was set a prosperous favourable course. These signed agreements led to the creation of joint projects between two sides, for example, regarding investments there were worked out joint projects with Malaysian corporation "Petronas". Together representatives of two states have been doing geological research in the Aral coastal zone, in Ustyurt plateau and in Surkhandarya and they have discovered new mines as well. In addition, they are developing a technical-economic base of the project on building a plant which would produce synthetic liquefied fuel from methane. According to the international information agency "United Press International" (the USA) "Petronas" is considered to be a source of some more flows of foreign currency and to be a good ground for the increasing levels of Uzbekistan's gas produce and its export.

In order to develop the cooperation in the sphere of transportation links Uzbekistan has offered its service in the international logistics centre which was set up on the base of Navoi international airport. Such cooperation gives Malaysia a chance to enter the markets of Central Asia. And this, in its turn, means that Uzbekistan is considered to be a bridge in the cooperation with the countries of South-East Asia.

Uzbekistan is one of the main trade partners of Malaysia in Central Asia. According to the data of Uzbekistan's Committee of state statistics turnover made up \$76,3 million in 2012 [9]. In 2013 this index went up to \$78 million[10]. Nowadays Uzbekistan holds the 3rd place in the list of CIS countries with whom Malaysia has bilateral and investment relations.

Historical and cultural commonality, as well as the fact that Uzbekistan and Malaysia's tourism infrastructures are developed can be considered as the main factor which strengthens bilateral cooperation in the sphere of tourism.

Nations of Uzbekistan and Malaysia have a lot in common, particularly, eagerness to strengthen peace and stability, to solve conflicts in a peaceful way, fight against terrorism, drug traffic and commonality in religion, traditions, customs and way of life.

Uzbekistan - Indonesia. Diplomatic relations were established on the 23rd June, 1992. Although territorially Uzbekistan and Indonesia are far from each other the two states are close in history, culture and religion.

These two states are actively developing bilateral relations in the spheres of politics, economics and culture. The president of Uzbekistan I.A.Karimov paid an official visit to Indonesia in 1992. In its turn, the president of Indonesia Suharto visited Uzbekistan in 1995. During these visits there were set legal foundations of bilateral relations, there were identified the main directions of the cooperation. Long before this in 1956 the former president of Indonesia Sukarno visited Samarkand and went to such sightseeing places as the mausoleum of famous theological scientist Imom Bukhoi and Qusam-ibn-Abbos in the memorial complex of Shohi-Zinda mausoleum.

There is an intergovernmental memorandum in the sphere of tourism which has been functioning since 1955[11]. If we have a look at the main features of bilateral relations in the first years the atmosphere of cooperation was rather warm. However, the economic crisis which hit East-Asian countries in the 1990-s had an influence on bilateral relations and caused suspension of some beneficial projects for both sides. Furthermore, at the beginning of the XXI century Indonesia overcame the economic crisis and restored its position in the international market by activating foreign business relations gradually[12].

Starting from 2004 Indonesia again expanded the cooperation with Uzbekistan and in the same year there was organized an exhibition of Indonesian goods. In 2005 there were organized business meetings and visits of Indonesian businessmen in order to strengthen business relations between two states.

Nowadays bilateral relations between Uzbekistan and Indonesia are developing on the base of such documents as "The intergovernmental agreement on economic and technical cooperation", "The intergovernmental agreement on the protection and support of incomes" and "The intergovernmental agreement on avoidance of double taxation"[13].

Mutual trade is limited by a number of goods and services and it does not meet the economic opportunities of two states. In 2012 turnover was \$15 million[14], in 2013 it was \$17 million[15].

As the base of the development of the Uzbek-Indonesian relationships we can consider two states' high potential in the sphere of tourism and issues of mutual cooperation. Learning Indonesian experience and implementing it in the industry of tourism can be beneficial to the potential growth of tourism in our country and to its profitability.

Most of the population in Indonesia is Muslims. Every year they set out on a pilgrimage. Uzbekistan's lots of Islam sightseeing places, particularly, mausoleums of such theological and religious scientists as Al-Bukhori, Nakshbandi, At-Termizi are very popular in Indonesia.

In our opinion, there is a great opportunity of the growth of tourist flow from Indonesia and transforming Uzbekistan into a sub continental touristic center by organizing travel tours for visiting historical sightseeing places of Uzbekistan.

There is a mutual Commission on bilateral cooperation between the governments of Uzbekistan and Indonesia which has been functioning since 2009.

In September, 2002 there was established a friendship society "Uzbekistan-Indonesia" in order to develop further friendship, cooperation and cultural relations between two states. In September, 1997 there was signed a Protocol on the establishment of sworn brotherhood relations between Samarkand and Banda-Acheh.

There is a study center of the Indonesian language at Samarkand University of economics and technique which has been functioning since 2001. In this center about 20 students study for free annually[16]. There is a Cabinet of the Indonesian language and culture at Samarkand World Languages University. In addition, the Indonesian language is taught there as an optional subject.

At regional and multilateral level both states are members of authoritative international organizations, particularly, UNO, OIC. What's more, the positions of the two states in these organizations are directed for supporting each other. For instance, Uzbekistan has supported temporary membership of Indonesian the UN Security Council, also Indonesia got support of Uzbekistan in Human Rights Council, Council of international communications union, UN ECOSOC and UNEP. Indonesia has supported Uzbekistan's position on the issue of human rights. Thus, on the ground of bilateral economic relations development impulses have arisen for the last years. However, Uzbekistan and Indonesia have been developing not accordingly to their trade potential.

According to the analysis of studied resources diplomatic relations between two states are developing successfully. Furthermore, in the dynamic growth of global threats mutual cooperation in the spheres of security, politics, economics and culture is growing rapidly.

Uzbekistan-Singapore. In 1997 diplomatic relations between Uzbekistan and Singapore were established. Political-legal foundation of the relations was maintained during the visit of the president of Uzbekistan I.A.Karimov to Singapore in 2007. Both of the states are interested in the expansion of different relations. For Singapore cooperation with our country means an access to the markets of Central Asia and CIS, for Uzbekistan this means free cooperation with ASEAN countries as Singapore is an active and influential member of this organization.

Uzbekistan and Singapore have common attitudes towards regional and international problems; these two states also consider the exchange of experience in the spheres of economics, culture, education and techniques very important. Furthermore, both states have common attitude towards fight against terrorism, drug traffic, organized transnational crime.

The main factor in maintaining regional security we can see close cooperation and similar attitudes of two states. In addition, cooperation within the frames of such international organizations as UNO, MAGATE, Asian bank of development is also of great significance.

Singapore wholly supports Uzbekistan's position on transforming Central Asia into a nuclear-free zone. In its turn, Singapore also played a significant role in creating an analogical zone in South-East Asia. For these two states mutually beneficial cooperation is related to implementing modern technologies in industry, particularly, in production of petrochemical products, pharmacy, electronics and high-tech products and exporting them to the third-world countries. If we analyze the development of cooperation between two states, we can see that cooperation in such spheres as energetics, electrotechnology, petrochemistry, information-telecommunications, textile manufacture, tourism, banking and finance sector and important directions of the economics.

Furthermore, there was set a prosperous favourable course of relations by two states and there is being developed attraction of investments into such perspective fields of Uzbekistan as gas-and-oil producing industry, petrochemistry and light industry, information-telecommunications, electrotechnology, transport infrastructure, private business, tourism in the frames of various agreements[17].

Regarding the cooperation between our country and Singapore it can be noted that our president I.A.Karimov asserts that "cooperation with the countries of South-East Asia is one of the main perspectives of our foreign policy"[18]. Such factors as the economic potential of Singapore, Uzbekistan's natural resources, its geographic location, the legal foundation for investment and business activities contribute much to the development of bilateral relations.

In our opinion, according to the views of the local researcher P.S.Azizhonova mutually beneficial cooperation between two states includes:

- Cooperation in finance and banking sector. Close ties between financial institutes and banks can contribute to the increase of mutual investments and trade;
- The factors that Uzbekistan is rich in the sources of raw materials and Singapore is rich in hi-tech industry and financial sources can attract Singapore companies in exploring, mining and refining hydrocarbon and other raw materials;
- Attracting high potential beneficial investments from Singapore in mining and refining non-ferrous and valuable metals;
- Uzbekistan's interest in the cooperation with Singapore companies is explained by the active business in the sphere of "hi-tech" led by these companies. Because in Uzbekistan information-

telecommunications are developing at a high level and these Singapore companies can get much profit here. The attractiveness of this sector can also be explained by the fact that at the modern technology market of Uzbekistan there can be found products of big Japanese, Korean, German, Russian, Chinese and other companies;

- Such factors as climate conditions, uniqueness of historical and religious monuments, direct air-routes with big cities and all continents, mountain sport identify the main directions of cooperation in attracting more investments into the economics of Uzbekistan;

- Uzbekistan's interest in the development of relations in such fields as training of specialists and education;

- Cooperation in creating and regulating special export and economic zones in Uzbekistan, maintaining the integration between transcontinental transportation corridors and our transport infrastructure;[19]

In our country Singapore companies' interest in Uzbekistan is supported wholly. In its turn, Uzbekistan is ready to provide all necessary conditions for Singapore companies.

Thus, the fact that Uzbekistan and Singapore have similar positions on a lot of issues and that they do not have any political conflicts really leads to mutually beneficial cooperation. For our country Singapore's experience is especially useful in the case of adaptation processes in the world crisis.

Furthermore, according to Times Educational Supplement (TES) Singapore has set the best program of training professional specialists and has a really good system of education. In accordance with this for our country it's of great interest to learn Singapore experience in this sphere.

Among the countries of South-East Asia Singapore has the biggest amount of goods turnover with Uzbekistan. In 2003-2005 the amount of turnover between two states was \$76,1 million, in 2006 it made up \$86,2 million[20].

In 2011 the goods turnover exceeded \$101 million[21]. In 2012 it made up \$178 million[22]. For the last several years the amount of goods turnover has been constantly increasing. But this is not about to stop, because the potential of two countries are at a high level and their cooperation will constantly develop at the same level.

Uzbek-Vietnam cooperation. Vietnam recognized Uzbekistan's independence on December 27, 1991 and on January 17, 1992 the diplomatic relations were established. In 1993 the embassy of Vietnam was opened in Tashkent.

In 1996 the president of Uzbekistan I.A.Karimov paid an official visit to Vietnam. As a conclusion of this visit there was signed an agreement on the base of interstate relations, cooperation and some intergovernmental conventions. The legal foundation of this consists of 13 intergovernmental documents. On July 26-28, 2010 a 3-level Uzbek-Vietnam political consultations (between the Ministries of foreign affairs) and a 4-level Uzbek-Vietnam meeting of Intergovernmental commission took place. On September 9-13, 2010 the minister of team security of BCP Le Hong Anya visited Uzbekistan in order to develop comprehensive cooperation. During this visit there was signed an intergovernmental agreement on joint fight against terrorism, organized crime and others[23].

In December 2010 the ambassador of Uzbekistan to Indonesia was appointed as an ambassador concurrently to Vietnam.

On November 17-21, 2010 some representative businessmen under the guidance of the deputy minister of industry and trade of BCP visited Uzbekistan in order to develop bilateral cooperation in the sphere of economics and to continue implementing signed agreements. During the visit there were signed 2 memorandums on cooperation in the sphere of light industry. In May 2014 some staff representatives of Prosecutor General's Office of Vietnam visited Uzbekistan. As a conclusion of visit a memorandum on bilateral cooperation was signed.

In addition, the turnover indexes between Uzbekistan and Vietnam do not correspond to the economic trade, investment cooperation perspectives of two states. In 2012 the turnover was \$10,6 million, in 2013 it made up \$13,5 million[24].

In order to develop the cooperation in cultural-humanitarian sphere there has been functioning a friendship society "Uzbekistan-Vietnam" and "Vietnam-Uzbekistan" since December, 1995. During 2014 both of the states exchanged several visits in the sphere of cultural cooperation.

The analysis of relationship development between Uzbekistan and ASEAN countries shows that these relations are developing gradually and constantly in a full accordance with their mutual consent.

The main focus is on the cooperation in the sphere of tourism and on strengthening economic relations. Our foreign policy which is based on the balance of power since the end of XX century has not changed its status and this means that in the XXI century Uzbekistan will continue to cooperate with ASEAN members in the same mode. Uzbekistan is an active supporter of strengthening the cooperation in such spheres as exploring and mining mineral resources, energetic sources and development of tourism. Signed agreements and similar positions on resolving international problems show that mutual relations between these states will succeed in positive perspectives in future.

Literature

1. I.A.Karimov. Speech at the plenary session of UN Summit devoted to the Millennium development goals. September 20, 2010. – Deepening democratic reforms and forming a civil society is the main criterion of our country’s development. T.19. Tashkent. “Uzbekistan”, 2011, p.19
2. I.A.Karimov. Speech on the celebration of 17th anniversary of independence of Uzbekistan. – T.17. Our main task is to provide a progressive and sustainable development of the country. – Tashkent: Uzbekistan, 2009. – p. 6-7
3. A.A.Sharapov. Integration processes in the region of Asian-Pacific//Economy and law. – Tashkent, 2004. - №4. – p.75-77
4. A.G.Hudoyberdiev. Political-legal foundations of the Uzbek-Malaysian cooperation: the collection of theoretical and practical seminar at Tashkent state institute of Oriental studies. Tashkent, 2011, - p.81-83
5. F.U.Usarov. Uzbek-Malaysian relations are developing//Our national values are our spiritual wealth. The collection of theoretical and practical conference. – Tashkent, 2006. – p.74-75
6. F.U.Usarov. Uzbekistan’s cooperation with South-East Asian countries (on the example of Malaysia). – Tashkent: Uzbekistan National state University, 2010. – p.28
7. Malaysia’s foreign policy: Continuity & Change; edited by Abdul Razak Baginda. – Malaysia: Marshall Cavendish Editions, 2007. – P. 186.
8. I.Jurayev. Uzbekistan’s mutual cooperation with South-East Asian countries: the collection of theoretical and practical seminar at UWED. Tashkent, 2010. – p.75
9. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
10. http://kommersant.uz/intervyu?mode=view&post_id=1268802
11. Indonesia’s foreign policy in the current global era. Presented by Nicholas T.Dammen, Director General/head of policy planning and development agency Ministry of Foreign Affairs of The Republic of Indonesia. – Tashkent, 28 November, 2005. – P.13-14.
12. On the way to multinational, fair and prospering country: the speech of the president of Indonesia Megavati Sukarnoputri at Moscow state institute of international relations, Ministry of foreign affairs of Russia, April 23, 2003.
13. Indonesia’s foreign policy in the current global era. Presented by Nicholas T.Dammen, Director General/head of policy planning and development agency Ministry of Foreign Affairs of The Republic of Indonesia. – Tashkent, 28 November, 2005. – P. 5-6.
14. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
15. http://kommersant.uz/intervyu?mode=view&post_id=1035002
16. D.Ahmedov. Uzbekistan-Indonesia: activization of relations // <http://iqtisod.zn.uz/2588>.
17. Singapur’s foreign policy: Continuity & Change; edited by Abdul Razak Baginda. – Singapur: Marshall Cavendish Editions, 2007. – P. 186.
18. Uzbekistan intends to attract \$1,3 billion investments from Singapore 24.01.2007. - <http://www.easttime.ru/news/1/3/133.html>
19. P.S.Azizhonova. Singapore and Malaysia in the foreign policy of Uzbekistan // The collection of theoretical and practical conference at Tashkent state institute of oriental studies. – Tashkent, 2009. – p.76-77
20. Uzbekistan and Singapore: an important step on the way of development of cooperation - <http://www.uzembassy.ru/1641.htm>

21. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
22. Tashkent and Singapore signed several documents on bilateral cooperation. - <http://www.podrobno.uz/uz/cat/politics/tashkent-i-singapur-podpisali-ryad-soglasheni/>
23. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
24. Uzbekistan and Vietnam discussed the development of economic relations. - <http://www.gazeta.uz/2014/09/13/vietnam/>

UDK: 364.013

**O‘ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGANLARNI HIMOYA QILISH
TIZIMINING YARATILISHI (1991-2014 YY)**

Xalikulova H. Y.

O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining yaratilishi, unda davlat va nodavlat tashkilotlarining o‘rni yoritib berilgan. Ushbu maqolada nogironlar nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanish jarayonlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Nogironlar nodavlat notijorat tashkilotlari, subsidiya, grant, ijtimoiy buyurtma, byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi.

Создание системы социальной защиты инвалидов в Узбекистане (1991-2014 гг)

Аннотация. В статье освещается деятельность обществ инвалидов Узбекистана и их поддержка со стороны государства в годы независимости. В статье на конкретных примерах освещается тенденция развития деятельности инвалидов.

Ключевые слова: негосударственные некоммерческие организации, субсидии, гранты, социальные заказы, внебюджетный пенсионный фонд.

Creation of social safety system for persons with disabilities in Uzbekistan (1991-2014)

Abstract. The article ellights the work of associations of disabled persons in Uzbekistan and support from the state in the years of independence. The article considers concrete examples the tendency of development of activities of persons with disabilities.

Keywords: Non profit organizations of persons with disabilities, subsidy, grants, social orders, off-budget pension fund.

Bugungi kunda nogironlarni ijtimoiy himoyalash masalasi jahon miqyosida dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Bu borada bir qancha xalqaro hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” ni ratifikatsiya qildi. O‘zbekiston Respublikasi 1992 - yil 8 - dekabrda qabul qilingan Kostitutsiyasining 39-moddasida har bir fuqaro qariganida, mehnat qobiliyatini yo‘qotgan hamda boquvchisiz qolgan hollarda davlatdan ijtimoiy ta‘minot olishga haqli ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda va boshqa huquqiy me‘yoriy hujjatlarda nogironlarning huquqlarini himoya qilish uchun keng ko‘lamdagi insonparvarlik chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va nogironlarni himoya qilishning davlat va nodavlat ko‘rinishidagi tizimlari shakllanmoqda.

Davlat tashkilotlaridan asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda imkoniyati cheklanganlar manfaatlari doirasida faoliyat yuritadi va Mehnat vazirligi nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekistonda davlat boshqaruv organi hisoblanadi [1]. Bugungi kunda mehnat vazirligi tizimida 33 ta saxovat va muruvvat uylari, 7 ta sihatgoh va oromgohlar, 11 ta nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasb bo‘yicha sog‘lomlashtirish milliy markazlari mavjud [2]. Mehnat vazirligi o‘z vakolatlaridan kelib chiqqan holatda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi, ya‘ni:

-mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy ta'minoti va ularga ijtimoiy yordam berish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va olib borish;

-tegishli organlar va tashkilotlarning pensiya ishini rivojlantirish va mehnatga layoqatsiz aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish;

-mehnatga layoqatsiz fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida maqsadli dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish;

-ijtimoiy sug'urta mablag'laridan samarali foydalanish;

-qonunda nazarda tutilgan imtiyozlarni berish ishlarini muvofiqlashtirish;

-aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, muassasalar va korxonalar barpo etishga ko'maklashish;

-ijtimoiy yordam dasturlarini mablag' bilan ta'minlash va ijtimoiy ta'minotdan tashqari mablag'larni jalb etish [3].

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi ham o'zining tibbiy sog'lomlashtirish dasturlari doirasida nogironlar jamiyati bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Vazirlikning qoshida Respublika salomatlik instituti hamda 30 dan ziyod muassasalari faoliyat yuritadi.

Xalq ta'limi boshqarmalariga qarashli "Respublika ta'lim markazi maxsus ta'lim bo'limi", respublika miqyosida 100 dan ziyod maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi [4]. Maxsus ta'lim bo'limi respublikadagi barcha turdagi maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi jismoniy va ruhiy rivojlanishida turli xil nuqsonlari bo'lgan bolalar va o'smirlarni: mehribonlik uylari va "Oila" markazlarining maktabgacha, maktab, maktab-internatlarda uzluksiz ta'lim tizimining ilmiy-metodik asoslarni yaratadi va muvofiqlashtiradi. Maxsus ta'lim bo'limi "Mehribonlik uylari" va uzluksiz ta'lim muassasalarida maxsus korreksion fanlar bo'yicha mahalliy ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganadi, uzluksiz maxsus ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha yaratilayotgan me'yoriy hujjatlar, dasturlar, darsliklar va metodik qo'llanmalarning yangi avlodini yaratadi [5]. Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga moslashuvi masallari bilan 50 dan ortiq markazlar shug'ullanadi. Ular orasidan eng yirigi O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi qoshidagi "Bolalar ijtimoiy moslashuv respublika markazi" hisoblanadi. Mazkur markaz O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 - yil 7 - sentyabrdagi №419-sonli farmoyishiga binoan tuzilgan [6]. Respublika Bolalar Ijtimoiy Moslashuvi Markazi (RBIMM) 2004 yil Lola Karimova-Tillayevaning tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan, maxsus yordamga muhtoj bolalar va ularning oilalariga psixologik maslahat va huquqiy yordam ko'rsatish hamda jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarga davolash va ta'lim sohasida ko'mak ko'rsatish orqali xizmatlar ko'rsatadi. Markaz shuningdek ijtimoiy yordamga muhtoj guruh bolalariga ijtimoiy ko'makni ta'minlashda milliy institutlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. RBIMMning Axborot-Konsalting Xizmati 2007 - yilda ish boshlagan bo'lib, nogiron bolalarga tashxis qilish, ortopedik, nevrologik davolash, nutq terapiyasi va ta'lim ishlarini amalga oshirish hamda bolalar va ularning ota-onalarini informatsion qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida faoliyat yuritadi. Ayniqsa inkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida ota-onalar bilan hamkorlik tizimini yo'lga qoymoqda. Har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda markaz mutaxassislari malakali korreksion-rivojlantiruvchi yordamni amalga oshiradilar [7]. 2005 - yildan boshlab, imkoniyati cheklanganlarning jamiyatga integratsiyalashuviga, ularning reabilitatsiyasiga yo'naltirilgan markazlar faoliyati yanada takomillashtirildi va ularning ko'lemi kengayib bormoqda va 2014 - yilga kelib bunday markazlarning soni 20 dan oshib ketdi.

Yaratilgan qonuniy va normativ-huquqiy baza fuqarolik jamiyati institutining ijtimoiy faolligini kuchaytirish uchun jiddiy rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. O'zbekistonda mustaqillik yillaridan davlat notijorat tashkilotlarining davlat va jamiyat hayotining barcha sohasiga kirib borishi taraqqiyotining uchinchi sektoriga aylandi. Ular iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va gumanitar soha madaniyat va san'at kabi davlat va jamiyat uchun muhim bo'lgan sohalarda faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 - yil 23 - iyunda qabul qilingan "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" [8] gi Qarorida ko'zda tutilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ushbu ijobiy jarayonni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishda fuqarolik institutlari rolini

kuchaytirish. Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, sotsial va ishbilarmonlik faolligini oshirishga yordam bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va senatining 2010 - yil 12 - noyabrda qo‘shma majlisida mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi mavzusidagi ma‘ruzalarida ilgari surilgan va bayon etilgan g‘oyalarga asosan 2011 - yil 14 - yanvardagi “Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoyishi va ushbu farmoyish asosida ishlab chiqilgan maxsus dasturda amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishlarida mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish yuzasidan qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishning hal qiluvchi omili sifatida nodavlat notijorat tashkilotlari rolining e‘tirof etilishi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining yanada o‘sishi va faollashishiga turtki bo‘ldi [9].

Qayd etish kerakki, NNTlarning bundan keyingi sifat jihatidan rivojlanishlarida va faollashishida “Mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlatirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasi” alohida ahamiyat kasb etadi. Konsepsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va mohiyati, hamda bundan keyingi istiqbol rejaları qayd etilgan. Konsepsiyadan kelib chiqqan holda qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning mantiqiy davomi sifatida 2013 - yil 12 - dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘riida”gi Qarori [10] NNTlar tizimining rivojlanishi hamda ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini soddalashtirilishiga asos bo‘ldi. Ushbu hujjatda qo‘yilgan eng muhim vazifalardan biri – NNTlarning mahalliy, hududiy dasturlarini ishlab chiqilishida faol ishtirok etishini ta‘minlashdan iborat. Ushbu hujjat NNTlarning imkoniyati cheklanganlarning demokratik qadriyatları, shuningdek, huquq va erkinliklar hamda qonuniniy manfaatlariga xizmat qiladi.

Ushbu yo‘lda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32- moddasiga kiritilgan o‘zgarish muhim ahamiyatga ega. Unda fuqarolar tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirilishi qayd etilgan. Ushbu dastur fuqarolar va NNTlar tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvida qarorlarning ijro etilishini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda NNTlarning faoliyatining rivojlanishi va mustahkamlanishi doirasida ijobiy tomonlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham mavjud:

-yaratilgan qulay sharoitlarga qaramay joylarda NNTlar ijtimoiy muhim masalalarni hal qilishga kamroq jalb qilinmoqda. Ushbu holat davlat hokimiyati organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida o‘zaro aloqaning kuchsizligidan dalolat beradi;

-joylardagi NNTlarning yetakchilari va boshqaruvchilari qonunda belgilab qo‘yilgan o‘zlarining huquqlari to‘g‘risida to‘liq tushunchaga ega emaslar. Natijada o‘z nizomlarida belgilangan huquqlarni va vazifalarini bajarish doirasida qiyinchiliklarga duch keladilar.

NNTlarning rolini kuchaytirish maqsadida davlat hokimiyati organlari bilan NNTlar o‘rtasida dialogni tashkil qilish va fuqarolik jamiyati institutlarini ijtimoiy muhim masalalarni hal qilish ishlariga jalb qilish hamda hamkorlikdagi seminar-treninglar o‘tkazishdan iborat [11].

Yuqoridagilarning barchasi O‘zbekistonda imkoniyati cheklanganlarning ijtimoiy himoyasini amalga oshirishda davlat tashkilotlarining dunyo tan olgan O‘zbek Milliy modeli deb nomlangan islohotlarning Kuchli ijtimoiy himoya tamoyili doirasida nogironlarga teng imkoniyatlarni yaratish, ijtimoiy hayotda faol qatnashishlari uchun hamda ijtimoiy-maishiy masalalarni hal qilishda ko‘maklashish, ularning huquqlarini himoya qilish borasidagi tizimli faoliyatini izchil davom ettiraveradi.

Adabiyotlar

1. Usmonova M. O‘zbekistonda keksalar va nogironlarni himoya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari. -T.: “O‘zbekiston”. 1995, 72-B.
2. Rajabov I.Imtiyozli yo‘llanmalar kimlarga beriladi // Bir safda. 3-son 2013 - y.
3. O‘zbekiston Nogironlar Jamiyati huquqshunosi O.Isoqovdan intervyu.

4. A.Saidov. Inson huquqlari.-T.: O‘zbekiston, 2014, 123-B.
5. A.Azizxo‘jayev. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh.-T, O‘zbekiston. 2008, 495-B.
6. O‘sha asar, 324-B.
7. Internet. www.imkoniyat.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2005 yil, 4-son.
9. Д.Суфиева. Совершенствование организационно-правовых механизмов деятельности ННО //Демократизация и права человека - 3/2014.
10. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘riida”gi Qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2014 yil, 1-son.
11. Н.Мамадалиева. Правовые основы участия ННО в реализации программ социально экономического развития//Демократlashtirish va inson huquqlari. 2014 yil, 3-son.

UDK 331.108:37.03

**INSON KAPITALI VA UNING UZLUKSIZ TA'LIM
TIZIMI BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI****M.Qodirov, B.Turayev, T.Abdurahmonova***Samarqand davlat universiteti*

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekistonimizda inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishida uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'inlarining o'rni tahlil qilindi, inson kapitalini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tizimli ishlarning ahamiyati, shuningdek, intellektual mulk bozorida raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari muhokamaga olib chiqildi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, jamiyat kapitali, intellektual mulk, o'zbek modeli, moddiy boylik, aqliy mehnat, innovasiya, uzluksiz ta'lim, fan va texnika.

Человеческий капитал и его взаимосвязь с системой непрерывного образования

Аннотация: В данной статье анализируется место звеньев непрерывного образования в формировании и развитии человеческого капитала в Узбекистане, значение системных работ в реализации человеческого капитала, в том числе на обсуждение выносятся эффективные механизмы для подготовки конкурентоспособных специалистов на интеллектуальном рынке труда.

Ключевые слова: человеческий капитал, общественный капитал, интеллектуальная собственность, материальное богатство, интеллектуальный труд, инновации, образование, наука и техника.

Human capital and its interrelation with the system of continuous education

Annotation. The role of continuous education units in formation and development of human capital in Uzbekistan, the values of systematic work on implementation of human capital are analyzed in this article, the article also discusses effective mechanisms of preparation of competitive specialists in intellectual labour market.

Keywords: human capital, social capital, intellectual property, uzbek model, material wealth, mental work, innovation, continuous education, science and technique.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgacha rivojlangan mamlakatlarning (AQSh, Angliya, Germaniya, Yaponiya va h.k.) ilmiy - ommabop nashrlarida inson kapitali, jamiyat kapitali, ijtimoiy kapital, madaniy kapital, intellektual kapital, intellektual mulk, inson omili kabi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liq jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga oid ko'plab maqolalar chop etilib kelmoqda. Ayniqsa so'ngi paytlarda inson kapitali masalasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lmoqda. Takidlash joizki, ilgari kapital atamasi asosan boylik, tovar, mulk ma'nosini anglatgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu atama jamiyat taraqqiyoti xususan, insonning to'liq va farovon yashashini ta'minlashga xizmat qiluvchi vosita, kuch sifatida keng ma'noda qabul qilinmoqda. Shuning uchun ham iqtisodchi olimlar, mutaxassislar, tadbirkorlar, umuman biznes ahli inson kapitaliga o'zlarining maqsad va faoliyat turlaridan kelib chiqib turlicha ta'riflarni berishgan [1].

Tadqiqot obyekti va metodi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonimizda uzluksiz ta'limni inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni, tadqiqot metodi sifatida esa mamlakatimiz va dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda bu sohadagi ishlarni tahlil qilish, taqqoslash, xulosa qilish mexanizmlari tanlandi.

Muammo tahlili va yechimi bo'yicha fikr-mulohazalar. Mazkur muammo rivoji tarixiga qaralganda, inson kapitalini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrning 50-60-yillarida R.Gronau va G.Bekerning ishlaridan keyin olimlar nazariga tushgan bo'lsada, inson kapitalining nazariy ta'riflashning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi [2]. Inson kapitali nazariyasini iqtisodiy sohaga taalluqligi ekanligining ilmiy asoslari XVII va XVIII asrlarda taniqli klassik iqtisodchilar Adam Smit va Uilyam Pettilarning ijodiy faoliyatlarida talqin qilingan[2]. Alfred Marshallning inson kapitaliga bergan tarifi o'sha davrlarga o'ta xos bo'lib, unga «Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish faqat inson hayotini ta'minlash, uning ehtiyojlarini qondirish, shaxsning jismoniy, aqliy va ma'naviy imkoniyatlarini o'stirish uchundir» deb ta'rif bergan[1].

Jamiyat taraqqiyoti va inson turmushida muhim rol o'ynagan inson kapitalining ilmiy nazariyasini taklif qilgan va ommalashtirishdagi xizmatlari uchun amerikalik iqtisodchi olimlar – Teodor Shuls va Geri Bekkerlar Nobel mukofotini olishga sazovor bo'lishgan. Ularning ta'rifiga ko'ra: «Inson kapitali – shaxsning o'zi va umuman, jamiyatning ko'p sonli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko'nikmalari yig'indisidir» [1]. Inson kapitaliga berilgan ushbu ta'rif vaqt o'tishi bilan kengayib, to'ldirilib yanada chuqur ma'nolarni o'zida mujassamlantirmoqda.

Hozirgi vaqtda inson kapitali fan, texnika va texnologiya umuman, jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynovchi omil sifatida biz inson kapitalining ancha kengroq tavsifini taklif etmoqchimiz. Bizningcha, «Inson kapitali – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy kategoriya bo'lib, bu shaxsning: -fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, ko'nikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashishi, ularning innovatsion yechimlarini topishdagi professionallik darajasi; - intellektual mulki, moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuining mavjudligi; - aqliy mehnat va yuksak innovatsion tafakkuri, uning turmush darajasi va kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o'rini belgilovchi omildir» [1].

Ilgari ishchi (xodim), ishlab chiqarishning oddiy vosita, aniqrog'i qo'l mehnati egasi sifatida o'z urnini hozirgi intellektual mehnat faoliyati davrida zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollangan, eng murakkab asbob-uskunalarda ishlash malakasi va tajribasiga ega malakali mutaxassisga bo'shatib bermoqda. Darhaqiqat, zamonaviy texnika va texnologiyalarni, murakkab biznes amaliyotlarini, yuksak saviyadagi servisni faqat yuqori bilimli, zamonaviy ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollangan malakali kadrlar yordamida muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda nufuzli sanoat korxonalarida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni ijtimoiy va iqtisodiy boyliklarni yaratuvchi «inson kapitali» sifatida qabul qiladilar. Demak, inson omilining, ya'ni zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallagan mutaxassisning qadr-qiyamati, obro'-e'tibori kundan kunga oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim tizimi inson kapitalini yaratishda asosiy vosita hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ta'lim tizimining mehnat bozoriga yetkazib beradigan «mahsuloti» - mutaxassis-kadrlarning intellektual salohiyati va amaliy ko'nikmalari inson kapitaliga aylanib bormoqda.

Ma'lumki, mamlakatimizda mustaqillik yillarida yaratilgan uzluksiz ta'lim tizimi «O'zbek modeli»ning muhim tarkibiy qismi bo'lib dunyo hamjamiyati tomonidan yuqori baholangan. Bu tizim o'z tarkibiga bir necha bosqichni qamrab olib, o'sib kelayotgan yosh avlod jami 18 yil davomida fundamental bilimlarni egallaydi, amaliy va kasbiy ko'nikmalarini uzluksiz shakllantiradi. Ana shu davrda yoshlar inson kapitali sifatida shakllanadi va uzluksiz ta'lim tizimini biridan keyingisiga o'tishda u tobora boyib boradi. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim davrida inson kapitali sifatida ilm-fan va texnologiyalarning tor sohalari yanada boyitish imkoniyatini beradi.

Inson kapitalini shakllantiruvchi omillar g'arb andozasidan farqli taraqqiyotning «O'zbek modeli» sog'liqni saqlash va ta'limdan tashqari ilm-fan, oila, mahalla va xususiy biznesni ham qamrab oladi. Albatta, bu omillarning har biri muhim rol o'ynasada, bizni hozircha asosan ta'lim, aniqrog'i, uzluksiz ta'lim tizimini inson kapitalining (ba'zi hollarda jamiyat kapitali, jamiyat salohiyati, innovatsion salohiyat, innovatsion kapital kabi atamalar ham ishlatiladi) shakllanishi va takomillashuviga ta'siri qiziqtiradi. Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimini shakllantiruvchi tarkibiy bo'g'inlarni qarab chiqsak. Har qanday ta'limning asosini u yoki bu ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, intellektual salohiyati (professor-o'qituvchilar), o'quv-ilmiy adabiyotlar, ilmiy-o'quv kutubxonalar, tarixiy madaniy-ilmiy merosi va an'nalari tashkil qiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunar kollejlari yoshlarni iqtisodiyotning real sektorlarida ishlashlari uchun tegishli kasblarni beradi. Oliy ta'lim diplomi esa mutaxassis kadrlarni yanada zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash va shuningdek o'zlari yaratgan g'oyalarni amaliyotga qo'llashga asos bo'ladi. Bu ikkala bo'g'inlarda ham yoshlarni ish bilan ta'minlash va yangi ish joylarini yaratish, hukumatimiz faoliyatlarida ustivor qilib qo'yilgan. Bu holat nafaqat inson kapitalini shakllanishi va rivojlanishiga, shu bilan birga bu kapitaldan bevosita mehnat bozorida foydalanish orqali o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy talablarini qondirishga erishadilar.

E'tirof etish lozimki, yoshlarni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida egallagan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari, kasbiy mahoratlarining jamlanmasi inson kapitalining shakllanishiga asos bo'ladi. Shu sababli ta'limning har bir bosqichida o'qish va izlanishdagi insonning – o'quvchi, talaba va ilmiy xodimning o'z bilim va ko'nikmasini tez, qulay va asosli

ravishda shakllantirishi va boyitishi uchun yangi-yangi usul va yondashuvlarni qo'llash, ularni takomillashtirib borish muhimdir. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon kabi inson kapitali (intellektual mulk) ham sog'lom, beg'araz raqobat muhitida shakllanadi, takomillashadi va o'z qiymatini oshiradi. Bundan tashqari ichki va tashqi mehnat bozoridagi intellektual mulkka bo'lgan ehtiyoj va to'lov darajasi bilan bog'liq raqobat muhiti tayyorlanayotgan mutaxassislarining sifatini muntazam oshirib borishni taqozo etadi. Inson kapitalining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi uning qiymatini belgilovchi asosiy omildir.

Inson kapitalining shakllanishida uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim; o'rta ta'lim; o'rta maxsus ta'lim; oliy ta'lim (bakalavriatura va magistratura); oliy ta'limdan keyingi ta'lim (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar instituti); kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'g'inlarini roli muhimdir. Inson kapitalini ro'yobga chiqishida quyidagi omillar asosiy rol o'ynaydi: kadrlarni ish bilan ta'minlash; kadrlarni rag'batlantirish; yangi ish joylarini yaratish; banklardan imtiyozli kreditlar ajratish va h.k.

Inson kapitali ham vaqt o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotishi yoki jamiyatning yangi talablariga javob beraolmay qolishi shak-shubhasiz. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 - yil 12 - iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4732-sonli farmoni qabul qilindi. Bu farmon OTM o'qituvchilarini zamonaviy bilimlarni muntazam egallab borishga, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda, korxonalar va tashkilotlarni kasodga uchrashi bilan ish joylaridan ajralib qolgan mutaxassis kadrlarni yangi kasb yoki mutaxassisliklarga tayyorlash orqali ijtimoiy himoya qilishga qaratilganligi bilan ham e'tiborlidir.

Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishida uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 - yil 5 fevraldagi «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-555-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 - yil 13 - oktyabrdagi «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi 226-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 - yil 6 - fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2124-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 10 - iyundagi PF-2326 sonli farmoni bilan Zulfiya nomidagi davlat mukofotining ta'asis etilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi va «Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati»ning tashkil qilinishi bu sohadagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Oliy ta'limning innovatsion iqtisodiyot tizimi bilan integratsiyasi mexanizmlaridan biri bu ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasidir. Bu integratsiya iqtisodiyotning real sohasidagi zamonaviy moddiy-texnik baza, xodimlarning malaka va tajribalaridan unumli foydalanish tufayli ta'lim sifati va samaradorligi oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining takomillashuvida OTMlarda tashkil qilingan o'quv-ilmiy kompleks(markaz)lar ham muhim bo'g'in sifatida ijobiy natijalarni bermoqda. Bu integratsiyaning pirovard maqsadi innovatsion - raqobat jarayonini (muhitini) yaratish orqali intellektual mulkni tijoratlashuvi va import o'rnini to'ldiruvchi fan sig'imi yuqori bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishdir.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida shakllangan yuqori ilmiy salohiyat yaratgan ilmiy ishlanmalar, yangi texnologiyalarni iqtisodiyotning real sektorlarida qo'llash orqali intellektual mahsulotlar (tovarlar) ishlab chiqarishda 2008 - yildan buyon muntazam o'tkazib kelayotgan Respublika ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar yarmarkasining o'rnini ham alohida qayd etish lozim. Bu yarmarkalar ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini taminlash bilan bir qatorda chetdan valyutalarga olib kelayotgan mahsulotlarni o'rnini qoplovchi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishi bilan ham ahamiyatlidir. Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanib amaliyotga ko'chirishda keyingi yillarda oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan ta'limning modul tizimi ham ta'lim sifati va samaradorligiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Bu tizim ayni paytda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis-kadrlarning bilim va ko'nikmalari saviyasini tobora oshirishga qaratilgan muhim omildir.

Inson kapitalini shakllantiruvchi, modulli ta'lim pedagogik texnologiyalarning zamonaviy turi bo'lib, uning mohiyati o'zaro chambarchas bog'liq unsurlardan iborat bir butunlikni ifodalaydi. Ana shu ma'noda modulli o'qitish yaxlit, tugallangan ma'lumot - ta'lim bloki sifatida tushuniladi. Modul esa o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, u o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilganidir.

Modulli o'qitish tizimida o'quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etadi. Modul tarkibidagi materiallar sistematik bayon etiladi va u nazariy kursni, amaliy qismni, materialni amaliyotda qo'llashni, xatoliklarni tuzatishni, mavzuni chuqurlashtirish va o'xshash fan va mavzular bilan bog'lab tushuntirish va o'rgatish kabilarni qamrab oladi.

Modullashgan texnologiyaning afzalliklaridan biri – ta'lim mazmunini tartibga solishdan iborat bo'lib, bunda mavjud bilim va axborot resurslaridan eng muhim, tayanch va zamonaviy manbalari qunt bilan tanlab olinishi, ular talaba va o'quvchilarning davlat ta'lim standartlari talablari doirasida bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlab beradi. Shu sababli modulli o'qitish ta'limning istiqbolli tizimlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Demak, hozirgi kunda inson kapitali sifatida tayyorlanayotgan mutaxassis-kadrlarning zamonaviy nazariy va amaliy bilimlarini egallashda modul tizimi katta ahamiyatga egadir.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil qilishda integratsiyalashgan modul tizimi tayyorlanayotgan mutaxassis-kadrlarda, avvalo puxta amaliy kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga olib keladi, ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarini bitirgandan so'ng mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshiradi, uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini ish o'rinlari bilan ta'minlash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu hol Yevropa Ittifoqining ta'lim tuzilmalari va YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan yagona diplom ilovasi xususidagi Boloniya jarayoni mezonlariga mos keladi. Boloniya jarayoni oliy ta'limning sifatini yaxshilashni mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatbardoshligi oshirish bilan birga va nazariy hamda amaliy ta'limni bir-biriga mujassam etgan holda olib borilishini ifodalaydi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 - yil 10 - dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-son qarori bo'yicha uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'inlaridan (umumta'lim maktablarining 1-sinflaridan) boshlab chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganishni yo'lga qo'yilishi yoshlarni jahon intellektual mehnat bozorida yangi imkoniyatlar ochish bilan bir qatorda ularni mobillik darajalarini keskin oshirmoqda. Shuningdek, OTMlarda texnik va tabiiy fanlarni, xalqaro mutaxassisliklarni ingliz tillarida mukammal o'qitadigan professor-o'qituvchilar guruhlarining shakllanishi chet ellardan bizning OTMlarga kelib o'qiydigan yoshlar miqdorining keskin oshishiga ham zamin yaratadi.

Inson kapitalining shakllanishida uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi asosida ko'plab darslik, o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar malakali o'qituvchilar tomonidan yozildi va muntazam ravishda ta'lim portali «Ziyonet»ga kiritilib bormoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va amaliyotni samarali tashkil qilish va o'quv jarayoniga yangi bilimlarni tezkor kirib kelishiga imkoniyat yaratmoqda.

Chet ellik professorlarni masofaviy o'qitish orqali jalb etish esa o'z navbatida universitet va institutlarda innovatsion fondlarni tashkil qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limning innovatsion fondlari shakllantirilgan bo'lib, bu fondlarning tarkibiga ilmiy va texnologik tashkilotlar, universitetlar, institutlar, savdo va ishlab chiqarish tashkilotlari, firmalar (korxonalar) kiradi. Bu hamkorlikdan maqsad ilmiy, texnologik va biznes sohalarining o'zaro manfaatli harakatini tashkil etishdan iboratdir.

Ma'lumki, taraqqiyotning "O'zbek modeli"da inson kapitalining to'laqonli ijtimoiy va iqtisodiy qadriyat sifatida shakllanishining asosiy xarajatlari byudjet sarflari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, inson kapitalining to'laqonli namoyon bo'lishida, uning mehnat bozorida barqaror va unumli faoliyat ko'rsatishida banklardan olinadigan imtiyozli kreditlar evaziga yangi ish joylarini yaratish, fuqarolarning moddiy ashylarga bo'lgan ehtiyojini qondirishning innovatsion usullaridan foydalanish ham o'z ijobiy samarasini beradi.

Oliy ta'lim innovatsion fondlari universitetlarga tanlov asosida moliyaviy mablag'larni taqdim etadi. Natijada universitetlar biznes sohasiga texnologiyalarni joriy qilish, markazlashgan marketing tadqiqotlarini olib borish, korxonalariga ilmiy, amaliy, xuquqiy maslahatlar berish, mustaqil firmalarni tashkil etish, talabalarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtda biznes sohasi – oliy ta'lim va ilmiy markazlarning haqqoniy buyurtmachisi bo'lmog'i lozim. Buyurtmachi va bajaruvchi o'rtasidagi hamkorlik ikki tomonlama manfaatli bo'lishi zarur. Shu bilan birga, tadbirkorlik va biznes subyektlari hamda oliy ta'lim tizimi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib holda rivojlanishda davom etishi, har bir yosh mutaxassisning tez o'zgaruvchan mehnat bozorida o'z o'rnini topib olishi, rivojlanib borayotgan innovatsion iqtisodiyotda olgan bilim va ko'nikmalarini to'laqonli namoyon etishi, zamonaviy menejment va biznesning talablariga javob bera oladigan mutaxassis bo'lib yetishishida muhim omil hisoblanadi.

Inson kapitalini ro'yobga chiqarishda O'zbekistonimizda bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Eng avvalo, har bir kasb-hunar kollejini bitiruvchilari, oliy ta'lim muassalarida byudjet asosida ta'lim olgan mutaxassislarni ish bilan ta'minlash ta'lim muassasalarining rahbariyatlari va tegishli bo'limlaridan tashqari hukumat darajasida Vazirlar Mahkamasi va hokimliklar tomonidan nazorat va monitoring qilib borilmoqda. Xuddi shuningdek, iqtisodiyotning real sektorlarida yangi ish joylarini yaratish bo'yicha moliya-bank tizimlaridan imtiyozli kreditlarning berilishi ham bu jarayonning ijobiylikini ta'minlamoqda. Ikkinchi tomondan, zamonaviy bilim va tajribalarga ega, chet tillar va kompyuter texnologiyalaridan yaxshi o'zlashtirgan yoshlar raqobat tufayli o'rtamiyona xodim va nafaqaga yoshidagi kishilar o'rnini tabiiy ravishda egallab bormoqda.

Ta'limning o'zbek modelining ulkan yutuq va afzalliklari to'g'risida chet ellik mutaxassislar va siyosatchilarning yuqori baho berishganlarini e'tiborga olgan holda oliy ta'lim tizimimizni AQSh oliy ta'limi bilan taqqoslaganda bir qator o'xshashliklarni ko'ramiz. Masalan, AQShda ham o'rta maktabda ta'lim majburiy, oliy talim tizimi ham bizdagidek 3 bosqichdan iborat, faqat oliy ta'lim tizimini 3-bosqichi, oliy ilmiy daraja (Doktor of Philosophy, PhD) olish uchun yakunlanib, o'rtacha 3 yil magistr darajasidagilar va 5 yil bakalavrlar uchun davom etadi [3].

Shu bilan birgalikda bir qator kamchilik va muammolar ham bor. Jumladan, -maktabgacha ta'lim muassasalarida barcha 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni to'liq qamrab olmaslik; -OTM va KHKlarini bitirganlarning bir qismi o'z mutaxassisliklari va kasblari bo'yicha ishlamasligi; - KHK va OTMlarni bitiruvchilarni mamlakat hududi va chet ellarga borib ishlashdagi mobillik darajalarining pastligi; - o'rta maktab ta'limi davrida yoshlarni kasbga yo'naltirishda ularni iqtidori, qiziqishi va yashaydigan joyidagi mavjud iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti hamda shu hududda qancha va qaysi hunarlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari, institut va universitetlarning mavjudligini e'tiborga olmaslik va h.k. Oxirgi omilni e'tiborga olmaslik OTM va KHKlarini bitirgan yoshlarni ish bilan ta'minlash yoki boshqa hududga borib ishlashga majbur bo'lishiga va binobarin ularni uy-joy bilan ta'minlash muammolarini keltirib chiqaradi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonimizning rivojlangan mamlakat maqomini olishi ham bevosita iqtisodiyot taraqqiyotida asosiy faktor bo'lgan jamiyat (inson) kapitalining o'sib borayotgan roli bilan belgilanadi. Mamlakatimizda qabul qilingan uzluksiz ta'lim tizimi shaxsni barkamol avlod bo'lib yetishishini ta'minlash bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi innovatsion inson kapitalining shakllanishi va uning yangilanib borishiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar.

1. Усмонов Б.Ш., Қодиров М.Қ., Элтазаров Ж.Д. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли. -Т.: «Фан ва технологиялар», 2015, 80 б.
2. Лобанов Н.А., Скворцов В.Н., Тучков А.И. Человеческий капитал в системе непрерывного образования. -Санкт-Петербург.: Издательский дом «Петрополис», 2006, с.72.
3. Усмонов Б.Ш. Ривожланган давлатларда олий таълим тизими. Таълим, фан ва инновация. -Т.: 2015. №1, 6-9 б.

UDK: 330.1

**IJTIMOY SOHADA INNOVATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI****Karjanov A.R.***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy sohada innovatsion faoliyatning ilmiy-nazariy jihatlari, innovatsion faoliyat bosqichlari hamda innovatsiya sikl hamda milliy innovatsion tizim shakllanishi va uning elementlari o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, yangilik kiritish, ta'lim, ijtimoiy soha, milliy innovatsion tizim, innovatsion sikl, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-texnik taraqqiyot.

Уровни развития инновационных процессов в социальной сфере

Аннотация. В данной статье исследованы научно-теоретические аспекты инновационной деятельности в социальной сфере, этапы инновационной деятельности и инновационного цикла, также рассмотрены становление национальной инновационной системы и взаимодействие его элементов.

Ключевые слова: инновация, внедрение нововведения, образование, социальная сфера, национальная инновационная система, инновационный цикл, инновационные технологии, научно-технический прогресс.

Levels of development of innovative processes in the social sphere

Abstract. This article deals with the scientific-theoretical aspects of innovation in the social sphere, the stages of innovation and cycle, also researched the establishment of a national innovation system and the interaction of elements of this system.

Keywords: innovation, the implementation of innovation, education, social sphere, national innovation system, innovation cycle, innovative technologies, scientific and technological progress.

Innovatsion mexanizm haqida so'z yuritganimizda uning asosan ishlab chiqarish bozor sohasida paydo bo'lishi va sekin asta boshqa sohalarga jumladan, ijtimoiy sohalarga kirib borganligini ta'kidlash zarur. Ushbu jarayon qanchalik jadallashib borsa, ijtimoiy soha faoliyati ham shunchalik bozor qonunlari asosida rivojlana boshlaydi. Ta'lim sohasi uchun esa bu uning bozor xizmatlari sohasiga aylanib borishini anglatadi. Ushbu jarayonlarni tushunish uchun innovatsion mexanizmlarni ta'lim sohasi uchun daxldor qismlariga kengroq to'xtalib o'tamiz.

Dastlab «Innovatsiya» atamasi I. Shumpeter tomonidan 1912 - yilda «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida taklif etilgan edi. Innovatsiya deb u ishlab chiqarish sohasida qo'llangan yangilikni tushungan. Shumpeterning fikricha, innovatsiya foydani harakatlantiruvchi, hosil qiluvchilarning eng asosiylaridan biridir [1]. Biroz keyinroq Y.Shumpeter N.D.Kondratevning iqtisodiyot rivojlanishi uchun to'liqlik konsepsiyasini o'zining innovatsion nazariyasi bilan bog'lab tushuntirdi. Natijada u davriy rivojlanish nazariyasini shakllantirdi. Davriy rivojlanishning asosiy ichki (endogen) mexanizmi, deb u yangiliklarni joriy etish, ya'ni innovatsion jarayonni hisobladi [2]. Ta'kidlash lozimki, hozirda ijtimoiy-iqtisodiy dinamikani anglashga bunday yondashuvning turli talqini fanda dolzarb bo'lib bormoqda.

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liqligi sababli ushbu masala mamlakatimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun yurtimizda innovatsion texnologiyalarni har bir sohada qo'llashga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, iqtisodiy va ijtimoiy adabiyotlarda ham «yangilik yaratish», «yangilik» va «innovatsiya» singari tushunchalarning turli talqinlari uchramoqda. Ba'zi hollarda esa bu tushunchalar sinonim sifatida ishlatilmoqda. Bularning o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lib, bu tushunchalarni bir-biridan ajratish lozim. Ularning har biri innovatsiyaning alohida elementini ifodalaydi.

«Yangilik» («novshestvo», «invention») tushunchasini yangi mahsulotda ro'yobga chiqarilishi mumkin bo'lgan yangi g'oya, yangi texnologiya, yangi usul va shu kabilar sifatida ta'riflash mumkin. Boshqacha aytganda, bu fundamental, amaliy tadqiqotlarning biron-bir faoliyat sohasidagi samaradorligini oshirish bo'yicha ishlanmalar va tajriba ishlarining rasmiylashtirilgan natijasidir [3].

Lotincha «invus» sohasidan kelib chiquvchi «innovatsiya» tushunchasini yangilikdan foydalanish natijasida yaratilgan yangi innovatsion faoliyatning pirovard natijasi sifatida tushunish lozim. Bu mahsulot yoki texnologiya bozorda sotiladi yoki ishlab chiqarish, boshqarish va boshqa faoliyatga joriy etiladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, «Yangilik yaratish» atamasi «yangilik» atamasi bilan ham yaqindan bogʻlangan va koʻpincha bu atamalarni bir xil mazmunda deb qaraydilar. Bu tushunchalarni birlashtiruvchi asos innovatsiyani (yangilik kiritishni) ikki maʼnoda yangilik sifatida (yangi mahsulot, jarayonlar, xizmatlar) va uni amalga oshirish jarayoni sifatida qaralishidir.

Innovatsiya nazariyasining shakllanishi V.Zambart, V.Mitcherlik va Y.Shumpeterning asarlarida tadqiq etilgan edi. Oʻsha davrda innovatsiya tushunchasi «texnika taraqqiyotining amalga oshiruvchisi» sifatida ilgari surildi. Jumladan, V.Zambart innovatsion mexanizmlarni rivojlantiruvchisi bu tadbirkorlar – deya taʼkidlar ekan, tadbirkorlikning eng muhim tavsiflaridan biri erishilgan natijada toʻxtab qolmaslikdadir, ayniqsa gap yangi bilim yoki ishlab chiqarish masalasini hal etishning yangi texnik qoidasini ishlab chiqarish, ularning yangi mahsulotlar yoki xizmatlar koʻrinishida tarqatilishi haqida borayotgan boʻlsa, -deydi. V.Zambart fikricha, tadbirkor yangilikni yaratish va tarqatish funksiyalari bilan birga zarur masʼuliyatni ham oʻz zimmasiga oladi. Yaʼni ular yangilik yaratuvchi hisoblanadilar [4]. V.Mitcherlix ham ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonidagi oʻrni va vazifalarini tadqiq etishni deyarli shu yoʻnalishda olib borgan. U asosan tadbirkorning texnika taraqqiyotini amalga oshirishdagi roli va vazifalarini asoslab berishga alohida eʼtibor qaratgan.

Innovatsion nazariyaning eng asosiy qoidalari avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter asarlarida toʻla asoslab berildi deyishimiz mumkin. Mutaxassislarning umumiy fikricha, aynan u bu nazariyaning shakllanishi va rivojlanishiga eng muhim hissa qoʻshdi. Olim oʻz konsepsiyasini mashhur «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida (1911 - y.) bayon qildi. Baʼzan bu konsepsiya rivojlanishini dinamik (joʻshqin) nazariya sifatida taʼriflanadi, chunki aynan dinamika, doimiy tebranishlar olgʻa rivojlanishning sababidir. Y.Shumpeterning fikricha, «dinamikali (joʻshqin) tadbirkor» tebranishlarning manbaidir [5].

Keyinchalik innovatsion faoliyatning tendensiyalari va qonuniyatlari, yangiliklar kiritilishi boʻyicha tadqiqotlar 1970-1980 - yillarda Gʻarb iqtisodchilari G.Mensh, D.Mensfeld, S.Kuznal, X.Frimen, Ya.Vadeym, A.Klyaynksext, E.Moyvart va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Innovatsion nazariyaning rivojlanishiga rus tadqiqotchilari ham muhim hissa qoʻshdi. 1970-1980 yillarda fandagi tub oʻzgarishlar natijasida innovatsion rivojlanish muammolarini L.M.Gatovskiy, Yu.V.Yakovuts, L.S.Baryutin, L.S.Blyaxman, B.Z.Milser, A.M.Prigojin, N.I.Lapin va boshqalar tadqiq etib fan taraqqiyotiga oid oʻz gʻoyalarini ilgari surdilar.

Taʼkidlash lozimki, innovatsiya sohasida vujudga kelgan vaziyatni hozirda bir yoqlama tavsiflash mumkin emas [6]. Bir tomondan, u yangi iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda innovatsion jarayonlarni infratuzilmaviy taʼminoti masalalari boʻlsa, boshqa tomondan esa innovatsion jarayonlar yuqori foalligini ragʻbatlantirish mexanizmining yanada takomillashuv zarurati, tovar ishlab chiqaruvchilarning innovatsiyalarni qabul qiluvchanlik darajasini oshirishlik, innovatsion mahsulotlar bozori shakllanishini fangollashuvi lozimligi hamda intellektual mehnat va ishlab chiqarish sohasida barqarorlikning davlat tomonidan kafolatlari mavjud boʻlishi kerakligi bilan xarakterlanadi.

Innovatsion faoliyatning asosini fundamental ilmiy tadqiqotlar tashkil etganligi uchun, aynan shu sohada ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish maqsadlarini roʻyobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratiladi [6]. Fundamental fanning faoliyat sohasi har qanday darajasidagi innovatsion jarayonlar choralalaridan kengroq boʻlsa ham uning subyektlari keyingi bosqichlarida harakat qiluvchi subyektlarga nisbatan qiyinroq kechadi.

Moddiy mahsulotlar sifatida innovatsiyalar (yangiliklar kiritilishi) yangilik (yangi mahsulotlar, materiallar, jarayonlar, metodlar va h.k.) aynan bir deb qabul qilinadigan, jarayon sifatida esa ular yangiliklarni ishlab chiqish, oʻzgartirish, tarqatish va foydalanishga qaratilgan oʻzlashtirish, tarqatish va foydalanishga qaratilgan oʻzgarishlar sifatida qaratiladi. Ikkinchi maʼnoda yangiliklar yangiliklar kiritilishi jarayonining (innovatsion jarayonning) natijasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu jarayon vaqtida rivojlanadi, aniq ifodalangan bosqichlarga ega boʻladi.

Har bir davlat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi jamiyatni intellektual, maʼnaviy, maʼrifiy va ijodiy salohiyatiga bogʻliq boʻladi. Bunday salohiyatni asosiy tarkibiy qismi boʻlib, ilm-fanni rivojlantirish, aholining taʼlim darajasi va sifati hisoblanadi, innovatsion salohiyatning oʻzi esa

yalpi milliy mahsulotda ilmiy-tadqiqot harajatlarini moliyalashtirishdagi sarf-xarajatlarning ulushi bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatning turli ta'riflari mavjud. Uni innovatsiyalarga eltuvchi ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlar sifatida aniqlash mumkin. Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyat yangiliklarni yaratish va joriy etishga yo'naltirilgan kompaniya xodimlarining o'zaro hamkorligi faoliyatidir.

Agar unga jamiyat uchun keng talab etiladigan natijalarni olish uchun yangi bilimlar, texnologiyalar, usullar, yondashuvlar kiritilsa bunday faoliyat innovatsion faoliyat bo'lib hisoblanadi.

U yagona mantiqiy zanjirga birlashtirilgan yangiliklarini ishlab chiqish, joriy etish, o'zlashtirish, tijoratlashuvi bilan bog'liq tadbirlar majmuasidan iboratdir. Bu zanjirning har bir bo'g'ini o'z mazmuniga va o'zining rivoshlanish qonuniyatlariga ega. Ilmiy izlanishlar, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlanmalar, investitsion-tijorat va ishlab chiqarish tadbirlari yagona bosh maqsadga, ya'ni yangilik yaratishga qaratilgan.

Innovatsion faoliyat yuqori darajali noaniqlik va xavf-xatar bilan, natijalarni istiqbollashtirishning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor jihati bo'lib, iqtisodiy shartlar hisoblansa, innovatsion faoliyat jarayonidagi muhim parametr bo'lib vaqt hisoblanadi. Innovatsion jarayonga jalb qilinadigan resurslar, agar raqobatchi bozorga yangi mahsulotni chiqarishda o'zib ketsa, qadrsizlanishi mumkin.


McKinsey kompaniyasining hisob-kitoblariga ko'ra innovatsion tovarni bozorga chiqarish olti oyga kechikishi foydaning 30 %ga kamayishiga olib keladi, ishlanmalar guruhida byudjetning ortiqcha sarfi 30 %ga, bu esa foyda hajmini 2 %ga qisqartirishni bildiradi.

Innovatsion faoliyatga texnologik va iqtisodiy omillarning maksimal tengligiga intilish, vaqt chegaralarini optimallashtirish, innovatsion g'oyalarni maksimal darajada mumkin bo'lgan manbalarini jalb qilish hamda yangiliklarni barcha hayotiy sikli davomida xarajatlarni tejash kabilar xosdir.

Innovatsion faoliyat odatiy ishlab chiqarishdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- innovatsiyalarni tijoratlashuvidagi katta tavakkalchilik bilan(50% gacha);
- innovatsiyalarni joriy etishdagi oraliq bosqichlarda doimiy nazoratning zaruriyati bilan, agar aniq natijalar mavjud bo'lmasa ishni to'xtatish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
- natijalarni sarflangan resurslar va investitsiya miqdorlariga bog'liqligini belgilashdagi murakkablik (innovatsion mahsulotni joriy etishning birinchi davrida hech qanday foyda bermasligi mumkin, so'ng esa foyda tubdan ortadi).

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion faollikdan iqtisodiy o'sishning bosh omili sifatida foydalanadi. Yangi g'oyalarni izlashdan to undan foydalanish, tijoratlashtirish va keng yoyishgacha bo'lgan davrda faoliyatning barcha bosqichlarini hisobga olish uchun "innovatsiya sikli" tushunchasini kiritish zarur. Innovatsiya sikli yangiliklarni yaratish va uning hayotiylik davrlarini o'z ichiga oladi (1-rasm). Bu holat shu narsa bilan izohlanadiki, yangilikdan innovatsiyalarni yaratish uchun bir necha marotaba foydalanish mumkin.



1-rasm. Innovatsion sikli chizmasi.

Ko'pchilik davlatlarda, xususan, respublikamizda yaqindan boshlab milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasi paydo bo'la boshladi. Bu davlat, xususiyl, ijtimoiy tashkilotlar va turli tashkiliy tuzilmalarning kompleks ravishdagi o'zaro munosabatlari tizimi bo'lib, uning doirasida yangi bilimlarni yaratish, rivojlantirish, saqlash, keng joriy etish asosida ularni mahsulotlar, xizmatlarlar va texnologiyalarda qayta o'zgartirish bo'yicha faoliyatlar amalga oshiriladi.

Milliy innovatsion tizim tarkibiga universitetlar, davlat ilmiy muassasalari, laboratoriyalar, texnoparklar, inkubatorlar hamda kichik va yirik ishlab chiqarish hamda tadqiqot kompaniyalari kabi ilmiy-ishlab chiqarish tuzilmalari kiradi. Ilm-fan innovatsiyaning strategik resursi va vositasi bo'lib hisoblanadi. U davlat, iqtisodiy tarmoqlar, yirik korporatsiyalar va iqtisodiy jarayonlarning kichik kompaniyalarida amalga oshadigan organik elementi hisoblanadi.

Milliy innovatsion tizim elementlarining o'zaro bog'liqligining oddiy modelida davlatning roli strategik tavsifga ega texnologiyalar majmuasi va fundamental bilimlarni ishlab chiqish hamda xususiyl kompaniyalarda innovatsion faoliyat uchun qulay institutsional muhit va infratuzilmani yaratishga ko'maklashishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, ijtimoiy taraqqiyotda innovatsiyalar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- innovatsiyalar vositasida inson intellektini, fan-texnika natijalarini hayotda amalga oshiradi. Bu mehnat faoliyatining intellektuallashuviga, uning fan sig'imi yuksalishiga yordam beradi (pog'onadan-pog'onaga harakatlanishda jamiyatning o'sib boruvchi intellektuallashuvchi qonuniyati);
- ikkinchidan, aynan innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlarning doirasi kengayadi, ularning sifati yaxshilanadi. Bu har bir shaxs va jamiyatning ehtiyojlari o'sishiga va bu ehtiyojlarning qondirilishiga ko'maklashadi (ehtiyoblarning yuksalishi va tabaqalanishi qonuni);
- uchinchidan, innovatsiyalar ishlab chiqarishga yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarni jalb etishga, tovarlar va xizmatlarni mehnat, materiallar va energiyaning kamroq sarflari bilan yaratilishiga imkon beradi (mehnatni tejash qonuni);
- to'rtinchidan, u yoki bu sohada innovatsiyalarning to'planishi takror ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini, ehtiyojlarning o'zgargan tarkibiy tuzilishi va tashqi muhitning tarkibiy tuzilishi bilan muvofiqlashtirishga yordam beradi (mutanosib rivojlanish qonuni);
- beshinchidan, innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining rag'bati bo'lib xizmat qiladi, ayniqsa kichik biznes sohasida, raqobat kurashida g'olib chiqish, bozorda yangi joylarni egallash uchun yangi tovar va texnologiyalarni axtarishga va o'zlashtirishga undaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, innovatsiyani innovatsion faoliyatning natijasi sifatida qaralganda, u hoh ijtimoiy xoh iqtisodiy, sohada bo'lsin unga quyidagi muhim xususiyatlar xos deyishimiz mumkin:

- har qanday sohaga ilmiy va amaliy yangilikni olib kirishi va shu soha rivojiga hissa qo'shishi;
- yangilikning zamon talablariga mos bo'lishi va aholi tomonidan hech ikkilanishlarsiz qabul qilinishi;
- innovatsiya iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy texnikaviy yoki boshqa ko'rinishdagi samaraning, innovatsiya pirovard natijasining olinishi va o'lchanishi mumkinligi;
- innovatsiyalar ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan yaqindan bog'langan, uning natijasi ekanligi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi qonuniyatlarini kashf qilinishi natijasida texnologiyalarni takomillashtirish hisobiga mehnat unumdorligining oshirilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. -М.: Прогресс, 1982.152-стр.
2. Авагян Г. Л. Инновационный механизм циклично-волновой теории Н. Д. Кондратьева, АГИ.:2012
3. Пригожин А.И. Нововедение: стимулы и препятствия.-М.,1989
4. Зомбарт В. Избранные работы / Пер. с нем.-М.: Территория будущего, 2005.

5. Хабыев Я. Йозеф Шумпетер и современная предпринимательская экономика // Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы III междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, декабрь 2014 г.). — СПб.: Заневская площадь, 2014. — С. 12-14.
6. Орешенков А. Эффективность производства инновационной продукции // Наука и инновации. №10(80). 2009, С.64-68.
7. Хайлбронер Р. Л. Философы от мира сего / пер. И. Файбисовича. -М., 2008.

UDK: 338.46

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

N.U.Arabov, D.Toshboyeva, Z. Shodiyeva

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada servis iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanib borishi bilan xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash usullari va turlari hamda resurs-sarf va maqsadga yo'naltirganlik tasnifi bo'yicha yondashuvlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: servis iqtisodiyoti, xizmat ko'rsatish, samaradorlik, unumdorlik, resurs-sarf yondashuv, maqsadga yo'naltirganlik yondashuv, mehnat unumdorligi, material qaytimi, fond qaytimi, rentabellik.

Improving mechanisms of increasing efficiency of the enterprises of sphere of services

Abstract. In this article are researched the formatiyon of service economy and appreciating methods and types of developing the efficiency of the activity of service enterprises and also approaches on directed definition to the resource-expenses and goal.

Keywords: Service economiy, servicing efficiency, productivity resource-expenditure approach, directed approach to the goal, work efficiency, material compensation, fund compensation, profitability.

Совершенствование механизмов повышения эффективности предприятий сферы услуг

Аннотация. В этой статье проанализованны существующие подходы, методы и виды оценки эффективности предприятий, а также издержки производства направленные на развитие и становление экономики сервиса.

Ключевые слова: Экономика сервиса, сфера обслуживания, эффективность, производительность, издержки производства, целенаправленно, подход, эффективность труда, возврат материалов, возвратный фонд, рентабельность.

Servis iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanib borishi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulot tarkibini ham o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda muayyan mamlakatni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shish uchun yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi hissasining 65 foizdan yuqori bo'lishi asosiy mezon hisoblanadi. Masalan, AQSH iqtisodiyotida yaratilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 78,0 foizni tashkil etadi va unda ishlab chiqarish fondlarining 40,0 foizi mazkur soha hissasiga to'g'ri keladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa yalpi ichki mahsulotning 65,0-70,0 foizi, Yaponiyada 62,0 foizi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek dunyo bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 foizi xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan.

Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrning boshlarida barcha turdagi xizmatlar hajmi 1500,0 trln. AQSH dollarini (bu ko'rsatkich jahon yalpi ichki mahsulotning 70,0 foizini tashkil etadi) tashkil etgan. Xalqaro savdo xizmatlari esa, jahon xo'jaligining barqaror rivojlanuvchi sektorini tashkil etadi [3].

1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi hissasi (%).

Mamlakatlar	Yillar		
	1985	2001	2010
AQSH	68,3	75,9	78,0
Fransiya	60,8	69,2	71,0
Italiya	59,0	66,4	66,4
Yaponiya	60,0	65,5	67,3
Buyuk Britaniya	53,0	66,4	69,5
Shvetsiya	57,3	63,6	65,7

Manba: Opeds and speeches//MTI For Your Information: Productivity in the Services Sector. 2011. Nov12.

XX asrning 50 - yillarida ro'y bergan fan-texnika inqilobi ishlab chiqarish kuchlarining sifat jihatidan o'zgarishiga, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini tubdan yangilanishiga va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borishiga olib keldi. Natijada XX asrning 70 - yillaridan boshlab rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar iqtisodiyotining xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlar soni o'sib bordi. Servis iqtisodiyotida ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib, bilim va axborotlar muhim ahamiyatga ega.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi hissasi muntazam o'sish tendensiyasiga ega [7].

Servis iqtisodiyotining yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarini inobatga olgan holda uning industrial iqtisodiyotdan farq qiluvchi asosiy jihatlari quyidagi 2-jadvalda kiritilgan.

Umuman, servis iqtisodiyotining nazariy asoslarini ko'rib chiqish orqali, shuni qayd qilish lozimki, rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda ro'y berayotgan xo'jalik yuritish sharoitlarining o'zgarishi samarali faoliyat kategoriyasini kengroq tashkil etishni talab etadi. Samaradorlik kategoriyasiga yangicha yondashuv xorij iqtisodiy fanida tobora ommalashib bormoqda. Bu yondashuvda samarali faoliyat mazmuniga sof miqdoriy nuqtaiy nazardan emas, balki sifat jihatidan natijalarga erishish mumkinligi ta'kidlanadi.

2-jadval

Industrial va servis iqtisodiyotining farq qiluvchi asosiy belgilari*

Asosiy belgilar	Iqtisodiyot turlari	
	Industrial iqtisodiyot	Servis iqtisodiyoti
Iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i	Sanoat	Xizmat ko'rsatish
Ishlab chiqarishning asosiy resursi	Kapital	Bilim va axborotlar
Iqtisodiy o'sish mazmuni	Miqdoriy (ommaviy ishlab chiqarishning miqdoriy ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi)	Sifatli, ijtimoiy yo'naltirilganligi (turmush sifati ko'rsatkichi bilan o'lchanadi)
Samarali faoliyat yo'nalishi	Minimal sarflar hisobiga maksimal ommabop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati	Jamiyatda turmush sifatini oshirish, ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish imkoniyati

* Mualliflar tomonidan tuzilgan.

Shu bilan birgalikda, jahon iqtisodiyoti fanidagi fikrlarni umumlashtirib, shuni qayd qilish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlarni samarali faoliyati deganda iqtisodiy va siyosiy ko'rsatkichlarning umumiyliigi tushuniladi. Shuning uchun ham unga nisbatan umumlashtiruvchi tushuncha – ijtimoiy va iqtisodiy tushuncha mos keladi. Bu tushuncha samaradorlikni ikki tomonlama ko'rinishini, ya'ni miqdoriy va sifatliy jihatlarni aks ettiradi.

Iqtisodiy samaradorlik xo'jalik yurituvchilar faoliyatlari natijasini aks ettiradi, ijtimoiy samaradorlik esa iqtisodiy subyektlarning ijtimoiy samaradorligini, uni jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'sirini aks ettiradi. Bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik muayyan darajada o'zaro

bog'liqdir. Ijtimoiy samaradorlikka erishish – insonlarning ijtimoiy yashash sharoitlarini yaxshilab borishi bo'lib, u iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon yaratadi. Oqibatda u insonning mehnat qilish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatib, uning mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun moddiy asos zarur. Bu moddiy asos korxonalar faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali erishiladi. Demak, servis iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyatning yangicha mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: faoliyat samaradorligi samaradorlik tushunchasining mohiyati yoki mazmuni bilan o'lganmaydi, balki ijtimoiy samaradorlikni tashkil qiluvchi ko'rsatkichlar orqali belgilanadi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi ko'rsatkichlarga nisbatan kengroq mazmunga ega. Samaradorlikni tashkil etuvchi sifatli holatlarning o'zgarishi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini baholash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bilan umumiy qabul qilingan nuqtaiy nazarga ko'ra, ijtimoiy samaradorlikni aniq miqdoriy o'lchovga tushirib bo'lmaydi. Shunday qilib, an'anaviy tarzda samaradorlikni faqat iqtisodiy tabiatini aks ettirish mumkin, uning ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari miqdoriy mezonlar bilan o'lchash murakkabdir. Bunday nuqtaiy nazar hozirgi davrda iqtisodiy fanlarda keng tarqalgan. Shu bilan birgalikda, servis iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikni baholash muammosi yechimiga bog'langan ilmiy tadqiqotlar dolzarblashib bormoqda va bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarga talab ancha yuqoridir.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda servis iqtisodiyotining shakllanishi bilan faoliyat samaradorligini baholash masalalari tadqiqotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz ham o'z tadqiqotimizda ushbu masalaga o'z e'tibormizni qaratmoqchimiz. Buning uchun birinchi navbatda samaradorlik tushunchasiga va uning ta'rifiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Samaradorlik tushunchasi murakkab tushuncha ekanligini e'tirof etib, ilmiy adabiyotlarda (efficiency – inglizcha) bir nechta tarjimaviy talqinga ega bir muncha keng tarqalgan «efficiency» iborasini samaradorlik, harakatchanlik, mahsuldorlik, harakatchanlik qobiliyati, operativlik kabi tushunchalar bilan izohlash mumkin [6]. Hozirgi vaqtda samaradorlikni ko'plab ta'riflari nafaqat iqtisodiyot fanlarida, balki boshqa fanlarda ham keltirilgan.

Agar ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga taqqoslansa, ishlab chiqarishning umumiy sarflari yig'indisida jonli mehnat sarflari qanday ulushni tashkil etishni ko'rsatuvchi koeffitsiyentga ega bo'lamiz. Bu ulushning kamayishi bevosita ishlab chiqarishdan jonli mehnatni nisbatan va mutlaq ozod qilinishi to'g'risida dalolat beradi [1].

«Samaradorlik» tushunchasi nihoyatda keng tushunchadir, u olingan samaraning sarflarga nisbatini aks ettiradi [1].

Samaradorlashtirish – mehnat faoliyatining u yoki bu sohasida yuqoriroq natijalarga erishish va ushbu natijalarning birligiga sarflarni qisqartirish maqsadlarida eng yaxshi yechimlarni izlashdir.

Mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, mahsuldorligi iqtisodiy makonning bir-birini to'ldirib turuvchi parametrlaridir. Chunki ular ayni bir usha obyektning – ishlab chiqarilgan mahsulotini turli tomondan, ya'ni jonli mehnatni tejash, ishlab chiqarish chiqimlarini qisqartirish va jamiyat ehtiyojini mumkin qadar qondirish tomonidan ko'rib chiqadi. Iqtisodiy makonning aniqlangan parametrlari tabiiydir, chunki ular iqtisodiy hodisalar mohiyati va tabiatini aks ettiradi [1].

Ilmiy adabiyotlarda resurs-sarf nuqtaiy nazaridan samaradorlik va unumdorlikni tashkil qilishda bir xil ko'rsatkichlar sifatida tadqiq etiladi. Ammo iqtisodiy tushunchalar sifatida ular turlichadir. Shuning uchun resurs yondashuvi bo'yicha samaradorlikni baholashda unumdorlik ko'rsatkichlari tizimiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyot fani o'rganayotgan unumdorlik konsepsiyasida unumdorlik ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqarish omillari nazariyasi asosida tuzilgan. Mazkur nazariyaga asosan, unumdorlikning asosiy vazifasi minimal sarflar asosida maksimal natijalarga erishish hisoblanadi. Bunga ko'ra unumdorlikning umumiy formulasi quyidagicha.

Unumdorlik = mahsulot ishlab chiqarish / sarflar, (1);

Yuqori ko'rsatkichni hisoblashda bir-biridan farqlanuvchi uch turdagi unumdorlikni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: xususiy unumdorlik, umumiy unumdorlik, ko'p omilli va ishlab chiqarish omillarining yalpi unumdorligi.

Xususiy unumdorlik – ishlab chiqarish omili sifatida foydalaniladigan bir resursni so'nggi natijaga nisbatan tavsiflaydigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarishning bir omilli samaradorligini namoyan etadi.

Umumiy unumdorlik – ishlab chiqarish omillari sifatida bir necha resurslarni so‘nggi natijalariga nisbatan tavsiflovchi ko‘rsatkichdir. Mazkur ko‘rsatkich ishlab chiqarish omillarining samaradorligini ifodalaydi.

Yalpi unumdorlik ishlab chiqarish omili sifatida foylanadigan barcha resurslarni barcha so‘nggi natijaga nisbatini tasniflaydigan ko‘rsatkich bo‘lib, yalpi faoliyat samaradorligini ifodalaydi.

Shuni e‘tirof etish mumkinki, yalpi, umumiy va xususiy unumdorlik qabul qilingan ko‘rsatkichlar bo‘lib, ishlab chiqarishning barcha darajalarida, ya‘ni tarmoq, soha, hudud yoki alohida korxonada miqyosida foydalanish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda yuqorida ta‘kidlangan umumiy qabul qilingan tasnifdan tashqari yana bir necha tasnifni ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, sarflar va natijalarni to‘liq hisoblash darajasi uchun unumdorlik ko‘rsatkichi tasnifini ham uch turini ajratib ko‘rsatish mumkin [2].

a) xususiy (bir natijani bir sarfga nisbati);

b) umumlashgan (bir yoki bir necha natijalarni bir necha sarflarga nisbati);

v) integral (unumdorlikning to‘liq hisoboti);

Oldingi tasnifdan farqli ravishda ushbu tasnifda nafaqat ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar miqdori, balki ishlab chiqarish natijalarini tabaqalanish imkoniyatlari ham inobatga olingan.

Unumdorlikni hisoblashda xususiy unumdorlik ko‘rsatkichini hisobga oluvchi ishlab chiqarishning uch omili (mehnat, kapital va materiallar) tasnifi ham amal qilmoqda.

Hozirda amal qilayotgan unumdorlik ko‘rsatkichlari turlicha bo‘lib, tarkibiga mehnat unumdorligi, material qaytimi, fond qaytimi, rentabellik kabilarni qamrab, ularni hisoblash yagona tamoyil asosida ishlab chiqarish natijalarini sarflarga nisbati asosida (1.1 formula asosida) amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish natijalarini (ishlab chiqarish hajmi, foyda, qo‘shilgan qiymat) hamda ishlab chiqarish omillari mezon asosida turli xil variantlardan foydalanish bo‘yicha tuzilgan. Mazkur tasnifda unumdorlik qiymat va natural ko‘rinishida ifodalangan.

Samaradorlikni hisoblashning resurs-sarf yondashuvining kamchiliklari servis iqtisodiyoti sharoitida quyidagilardan iborat:

1. Resurs-sarf yondashuvi industrial iqtisodiyot sharoitida paydo bo‘lgan va u standart ommaviy ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Servis iqtisodiyoti sharoitida aholini standart mahsulotlar bilan ta‘minlash nomoddiy individual ne‘matlar va xizmalarni ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Bu holat resurs-sarf yondashuvini servis iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishuvini talab etadi;

2. Resurs-sarf yondashuvi nuqtaiy nazaridan samaradorlikning asosiy maqsadi – bu minimal xarajatlar hisobiga maksimal standart mahsulotlar yaratishdan iborat, ya‘ni iqtisodiy (sof) maqsadlardan iborat. Servis iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligida resurs- sarf yondashuvi tubdan o‘zgaradi va unda asosiy e‘tibor ijtimoiy yo‘naltirilgan maqsad - ishlab chiqarish samaradorligi faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi;

3. Servis iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy samaradorlik toboro katta ahamiyat kasb etib boradi. U hol uni baholashni obyektiv zaruratini keltirib chiqaradi. Resurs-sarf yondashuvi doirasida amal qiluvchi ko‘rsatkichlar asosan erishilgan natijalarni taqqoslashga qaratilgan. Ammo ijtimoiy samaradorlikni ishlab chiqarish harajatlarida taqqoslash, hisoblash ancha murakkabdir;

XX asrning 20 - yillarida amerikalik iqtisodchilar unumdorlik va samaradorlik bir xil ko‘rsatkich deb tahlil qilgan hamda maqsadga yo‘naltirilganlik yondashuvini inkor etmaydilar, balki resurslardan yaxshiroq foydalangan holda oldindan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ishlab chiqarishni tashkil etishni taklif etishadi. Maqsadga yo‘naltirilganlik yondashuviga asosan samaradorlik ishlab chiqarishda biror bir jarayon bajarilishi va maqsadli natijaga erilishi orqali olingan natijalar munosabati sifatida o‘lchanadi. Samaradorlikni hisoblashning boshqa usuli minimal zaruriy resurslarini (mo‘ljallangan mahsulotni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan) foydalanish uchun zarur bo‘lgan resurslar miqdoriga nisbati sifatida amalga oshiriladi [8]. Yuqoridagi tarifga asosan samaradorlik ko‘rsatkichini hisoblashning umumiy formulasi quyidagicha:

$$E = \frac{Et}{Ep}, \quad (2);$$

Bu yerda: Et – berilishi lozim bo‘lgan natija

Ep – maqsadli natija

Maqsadga muvofiq yondashuv doirasida samaradorlikning quyidagi ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tashqi samaradorlik, (tashkilot tashqi imkoniyatlaridan foydalanish nuqtaiy nazaridan samaradorlik) uni hisoblash oldindan rejalashtirilgan natijalarni biror bir jarayonning bajarilishi orqali olingan natijalarga nisbati sifatida aniqlanadi;
- ichki samaradorlik, (tashkilotlarning ichki imkoniyatlaridan foydalanish nuqtaiy nazaridan samaradorlik) uni hisoblash minimal zarur resurslarni foydalanishga mo‘ljallangan rejalarga nisbati sifatida amalga oshiriladi;
- umumiy samaradorlik, (tashqi va ichki samaradorlik asosida aniqlanadi).

Umumiy samaradorlik tushunchasi dastlab P.Druker tomonidan taklif qilingan.

Shuni ta’kidlash lozimki, amerikalik iqtisodchilar tomonidan taklif qilingan samaradorlik talqini keng maqsadlarda foydalanish mumkin, ya’ni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish va boshqalarda foydalanish mumkin. Shuningdek, servis iqtisodiyotida mazkur yondashuv asosiy ahamiyatga ega.

Samaradorlikni hisoblashni maqsadga yo‘naltirganlik yondashuvi asoschilaridan biri amerikalik G.Emersondir. U o‘zining «samaradorlikning un ikki tamoyili» nomli asari «twelve principles of efficiency 1912) asarida unumdorlikni samaradorlikni un ikki tamoyilidan biri deb aytadi. Ammo G.Emersonning fikricha, unumdorlik va samaradorlik teng ko‘rsatkichlar emas. Shuni aytish kerakki, G.Emersonning samarali ishlab chiqarishning yuqori unumdorligini birlamchi vazifa qilib qo‘ymaydi [9].

Samaradorlikni hisoblashda maqsadga yo‘naltirilganlik yondashuvi rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng yoritilgan.

Xususan, O.B.Agabekyan, N.A.Gorelov, A.Shafronovlar ushbu yondashuvni yoqlab chiqqan, masalan, N.A.Gorelov «Unumdorlik faqat mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini ifoda etadi, ishlab chiqarish samaradorligi esa murakkab, kompleks kategoriya bo‘lib, mehnat jarayonida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish harakteri va unumdorlik darajasi hamda mahsulot realizatsiyasi bo‘yicha korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati bilan belgilanadi [4]deb ta’kidlaydi.

Samaradorlikni hisoblashda maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvda D.Djobber ham o‘z fikrini bildirgan. U samaradorlik va unumdorlikni quyidagicha tasniflaydi: unumdorlik ishlab chiqarish korxonasi tomonidan tejamkorlik asosida mahsulot ishlab chiqarish bilan belgilanadi. Uning fikricha, samaradorlik «zarur bo‘lgan narsani» yaratish qobiliyatidir. Djobber unumdorlik va samaradorlik o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni quyidagicha belgilaydi (3-jadval).

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar samaradorligi va unumdorligining o‘zaro bog‘liqligi [5].

	Samarasiz	Samarali
Unumsiz	Biznesdan tezda chiqib ketadi.	«Yashab qoladi»
Unumli	O‘z faoliyatini sekinlik bilan tugatadi	«Gullab yashnaydi»

Shunday qilib, maqsadga yo‘naltirilganlik yondashuvi vaziyati nuqtaiy nazaridan faoliyat samarali bo‘lishi mumkin, ammo past unumli ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek faoliyat yuqori unumli bo‘lishi mumkin, ammo samarasiz bo‘lishi ham mumkin. Demak, servis iqtisodiyoti sharoitida unumdorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘linadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlari yuqori samaradorlikka erishishi yuqori unumdorlikka erishishiga nisbatan katta ahamyat kasb etadi.

Unumdorlik va samaradorlikning mohiyatini yoritib berishda Q.X.Abduraxmonovning qarashlari ancha o‘rinlidir. Uning fikricha, «unumdorlikni hisoblash usullari ishlab chiqarish samaradorligi bilan yetarli darajada mos keladi deb hisoblangan va bunga uni keng moslashtirilgan: bunda mehnat natijalari faqat mehnat sarfi bilangina emas, balki resurslar bo‘yicha hamma turdagi sarflarning o‘zaro nisbati qiymat shaklida aniqlanadi» [1].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, samaradorlikni baholashda maqsadli yo‘naltirilganlik yondashuvi resurs-sarf yondashuvidan keskin farq qiladi. Maqsadli yo‘naltirilgan yondashuvidan foydalanish faoliyat samaradorligini baholash imkoniyatini kengaytiradi. Unga asosan maksimal unumdorlik – faoliyat samaradorligini yagona parametri bo‘lmasdan, samaradorlik ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tasniflanadi. Shu nuqtaiy nazarda samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish ko‘lami kengayadi. Resurs-sarf yondashuvidan farqli mazkur yondashuv nafaqat tijorat asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlar samaradorligining baholanishi, balki notijorat subyektlar samaradorligiga ham baho berish mumkin.

Adabiyotlar

1. Abduraxmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti (Darslik). -T.: Mehnat, 2004. -b.397.
2. Беляев К.К Проблемы изларение затрат и результатов на предприятии. -Иркутск, ИГЭА, 1999. – С. 104.
3. Бурменко Т.Д. Экономика сферы услуг (Вводный курс) / Т.Д.Бурменко. –Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2004. – С.37-38.
4. Винокуров Р.А, Гориллов М.А, Экономика труда. – СПб.: Питер, 2004. – С. 64-65.
5. Джоббер Д. Принципы и проктика маркетинга: Пер. англ-М: издательский дом «Вильянс) 2000. –С.22.
6. Мюллер Д.К. – Англо-русский словарь. -М.: «Русский язык», 1992 . –С. 233-234.
7. Opeds and speeches//MTI For Your Information: Productivity in the Services Sector. 2011.Nov12.
8. Управления и организация в сфере услуг: тиорие и практика»: Servise menedjment and Operation – 2-е межнарод изд. (пер.с англ нар.наук ряд. В.В. Кулибановой) / К.Хаксивер, Б.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик – спб и.др: Питер бух. 2002. – С. 496.
9. Эмирсон Г. Двенадцать принципов производительности. – М.: Экономика, 1992, – С. 216.

UDK: 331.5**QISHLOQ MEHNAT BOZORIDA ISHCHI KUCHI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI TAHLIL ETISH OMILLARI****Qurbonov S.Q.***Samarqand davlat universiteti*E-mail: magistr_1010@mail.ru

Анотасија. Innovatsion rivojlanish sharoitida qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish muhim hisoblanadi. Qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning asosiy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan hamda uni takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Калит со'злар: ishchi kuchi, raqobatbardoshlik, mehnat bozori, ish bilan bandlik. Ishsizlik, raqobatbardosh kadrlar

Факторы анализа социально-экономических показателей повышения конкурентоспособности рабочей силы в сельской местности

Аннотация. Развитие конкурентоспособности рабочей силы на рынке труда приобретает особенную актуальность в условиях инновационного развития. На основе проведенного исследования выявлены основные показатели влияющие на повышение конкурентоспособности рабочей силы на сельсем рынке труда и разработны рекомендации и предложения по совершенствованию.

Ключевые слова: рабочая сила, конкурентоспособность, рыное труда, занятость, безработица, конкурентоспособные кадры.

Factors of the socio-economic indexes analysis of labour market competitiveness increase in rural areas

Annotation. Development of competitiveness of labor forces in the labor market is very important in conditions of innovative development. On the basis of the conducted research the main indicators influencing to the increase of competitiveness of a labor forces in rural labor market are revealed and recommendations and suggestions for its development are developed.

Keywords: labor power, competitiveness, labour market, employment, unemployment, competitive personnel.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish sharoitida qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligi mehnat faoliyati davomida ishchi kuchi qobiliyati va malakasining kompleks rivojlanish darajasida ishlatiladi. Bu ishchi kuchining shaxsiy xususiyati bo'lib, o'zidan boshqa shaxs

bilan tenglashtirilganda ishchi kuchini aniq qoniqish darajasini ifoda etadi. Ishchi kuchi raqobatbardoshligi kadrlar marketingi izlanishlari natijasida aniqlanadi va ishchi kuchi kapitalining insoniyatga sifatli baho berish ko'rsatkichi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantirishning birdan-bir vositasi investitsiyalar samaradorligini ta'minlashdir. Mehnatga bo'lgan talabning navbatdagi omili o'zaro bir-birini to'ldiradigan mehnat resurslari bilan bog'liqdir. Agar bitta stanokni xodim boshqarsa va bu xildagi stanoklar narxi oshsa, u holda bu stanoklarda ishlaydigan ishchilarga talab boshqa teng sharoitlarda pasayadi va aksincha bo'ladi.

Qishloq mehnat bozorida ortiqcha mehnat resurslari raqobatbardosh ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifi pasayishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim hisoblanadi. Ishchi kuchiga talabning oshishini asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo'jaligi tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratish, mehnat qo'llaniladigan amaldagi mintaqalarni texnik qayta jihozlash, modernizatsiyalash, qayta ta'mirlash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati ko'lamini kengaytirish, kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan bir vaqtda ishchi kuchi taklifini pasaytiruvchi omillar vujudga keladi va ular ta'sir qila boshlaydi: shaxsiy yordamchi xo'jalik, yakka mehnat faoliyati, xususiy tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilishning boshqa sohalarini rivojlantirish, bandlikning noan'anaviy shakllarini kengaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning bozor usullarini tatbiq etish, inflyatsiya va ishsizlikni pasaytirish, mahalliy kadrlarning raqobatbardoshligi, safarbarligi va malakasini oshirish va boshqalar [1].

Mehnat bozori konyunkturasini shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari orasida yollanma xodimlar va ish beruvchilar sifat ko'rsatkichlarining oshishi yetakchi o'rin egallaydi. Agrosanoat majmuasi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ko'lamlarining kengayishi, ularning intensiv rivojlanishi, o'z vaqtida moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi ishchi kuchining qayta tayyorgarlikdan o'tishini va yangi zamonaviy kasblarni o'zlashtirishni talab qiladi.

Shu bilan birga shunday omillar ham borki, ular kompleks holda raqobatbardosh ishchi kuchi taklifining shakllanishi holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: ishlashni xohlovchilar, yollangan xodimlar va ish beruvchilarning tabiiy va mexanik harakatlari; yollanma mehnatni tashkil qilishning turli-tuman uslublari; turmush uchun zarur bo'lgan mablag'lar jamg'armasi, yollangan xodimlarning pul daromadlari; nafaqaxo'rlar va bolalik ayollarning mehnat va ijtimoiy pensiyalari, imtiyozlari va kafolatlari; kasbiy tayyorlash yoki qayta tayyorlash va malakasini oshirishga zaruriyati bo'lgan shaxslarni mablag'lar bilan ta'minlovchi davlat, korxonalar va oilaning moliyaviy imkoniyatlari; shaxsiy yordamchi xo'jaligida va yollanmasdan "uy mehnati"da band bo'lganlarning soni; qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar soni va ularda xizmat qilish muddati; muqobil va malakali kasbiy xizmatlarni takomillashtirish va boshqalar.

Qishloq mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchi taklifining sifat tarkibiga va ko'rsatkichlariga to'siq bo'ladigan bir qator cheklovchi mezonlar ham mavjud: mehnatni qo'llanishning noqishloq xo'jaligi mintaqalari yaxshi rivojlanmaganligi; mehnat haqining past darajasi; iste'mol tovarlarining qimmatlashuvi; yollanma ishchi kuchining malakasi va safarbarligi pastligi; ish beruvchilarning yetarlicha tajribaga ega emasliklari ishchi kuchi sifat tarkibiga bevosita ta'sir etadi.

Raqobatbardosh ishchi kuchiga bo'lgan taklifni kamaytirish, shuningdek, ularning mehnat bozoriga oqib kelishini qisqartirish va boshqa joyga ketishini rag'batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali samarali bandligini tashkil etish mumkin. Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumta'lim dasturlarini kengaytirish va o'qish muddatini uzaytirish bilan kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o'quv yurtlarida kunduzgi ta'lim olinadigan o'quv o'rinlarini ko'paytirish va ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlarga stipendiyalar miqdorini oshirish, ayollarga bola parvarishi uchun to'lanadigan nafaqalar va beriladigan ta'til muddatini ko'paytirish, mehnat stajini hisoblashda ularga imtiyoz berish va boshqa beriladigan ijtimoiy to'lovlarni miqdorini oshirish orqali qishloq mehnat bozoriga ishchi kuchining oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Bu esa ishchi kuchining qishloq mehnat bozoriga kirib kelishiga to'siq bo'ladi. Shuning uchun raqobatbardosh ishchi kuchiga talab yuqori bo'lgan hududlariga yo'naltirish, yangi ish joylarini tashkil etish, xususiy sektorni rivojlantirish zarur hisoblanadi. Davlat tomonidan ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni muvozanatga keltirish va mehnat bozorining tartibga solinishi maqsadga muvofiq

hisoblanadi.

Hozirgi paytda ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka tuzilishi bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o'sish sur'atiga javob bermaydi. Shu bois **raqobatbardosh ishchi kuchi taklifining sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirish hamda ularning qishloq mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish** lozim. Buning uchun esa, bandlikning davlat xizmati tizimidagi va boshqa o'quv yurtlaridagi xodimlarning malakalarini oshirishni tashkil etish, korxonalarining o'zidagi maxsus kurslarda kasb-hunarga o'rgatishni yaxshilash va ularga soliq to'lovida imtiyozlar berish mahalliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning maqsadli maxsus dasturini ishlab chiqish kerak.

Raqobatbardosh ishchi kuchlari taklifini rag'batlantirish xodimlarni ishga yollash va joylashtirishga yordamlashish usullarini qo'llanish orqali ham amalga oshiriladi. Bu usullar tashkiliy tusda bo'lib, bo'sh ish joylari va ishga joylashish hamda qayta o'qitishga muhtoj fuqarolarning soni haqidagi ma'lumotlar bankini tashkil etishni, aholini ishga joylashish imkoniyatlari haqidagi axborotlar bilan ta'minlashni, ishsizlarni ro'yxatga va hisobga olishni, kasbga yo'naltirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Mehnat resurslarini qayta taqsimlashning ancha samarali usullari orasida turmush darajasini tartibga solishni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur usulblar hududlarning moliyaviy resurslari hisobidan xodimlarning mehnat va uy-joy shart-sharoitlarini hamda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajalarini yaxshilash kabi tadbirlarni o'tkazib, ularni tartibga solish asosida tatbiq etiladi.

Qishloq mehnat bozorlaridagi munosabatlarni tartibga solishda ishga yollashda erkin va o'zaro manfaatli raqobat uslubidan foydalanish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Qishloq mehnat bozorida ishchi kuchlarini yollashda erkin va samarali raqobat – yollanuvchilar bilan ish beruvchilar o'rtasida ishchi kuchlariga bo'lgan erkin talab va taklif tamoyilari asosida mehnat-tovarga o'zaro manfaatli bahoni o'rnatish. Bunda ishga yollash bozoridagi uning sifat ko'rsatkichlari va raqobatbardoshligi, mahalliy va xorijiy bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan turli guruhlar va kasblar bo'yicha bo'sh ish joylari, ishchi kuchlarining narxlari haqidagi haqqoniy axborotning berilishi, ish beruvchilarning yollanma ishning muddatlari va xarakteri yuzasidan talablari va shartlari, mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilishning ijobiy hamda salbiy oqibatlarini va hokazolar hisobga olinadi.

Qishloq mehnat bozoridagi erkin raqobatda ishchi kuchlarigina emas, balki shaxsiy yoki jamoaviy mehnat shartnomasi asosida foydali narxda o'zining "mehnat qobiliyati"ni sotishga muhtoj kadrlar ham qatnashishi mumkin. Bu yerda mehnat resurslari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning sifat ko'rsatkichlari yuzasidan erkin raqobat vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchini raqobatbardoshlik jihatdan o'rganish jarayonida, Jahon iqtisodiy forumi metodikasida qo'llanadigan **15 ta raqobat ko'rsatkichlari** qo'llaniladi. Biroq O'zbekiston va MDH mamlakatlarida ishchi kuchini raqobatbardoshlik jihatdan o'rganish jarayonida, bu ko'rsatkichlarning yanada kengroq doirasidan foydalanish lozim. Shunga ko'ra **ishchi kuchi raqobatbardoshligini ifodalovchi 31 ta ko'rsatkichni** qamrab oladi [2].

Ular jumlasiga raqobat jihatdan ustunliklarning quyidagi ko'rsatkichlari kiradi:

- aholi soni o'sishining o'rtacha yillik sur'ati, % da (x_1);
- iqtisodiy faol aholining foizi, % da (x_2);
- iqtisodiy faol aholining bandlik darajasi, % da (x_3);
- nodavlat sektorida band bo'lganlar ulushi, % da (x_4);
- rasmiy ishsizlik darajasi, % da (x_5);
- ro'yxatga olinadigan bozordagi keskinlik, (x_6);
- ta'lim uchun davlat xarajatlari, YaIM %i, (x_7);
- ta'lim uchun davlat xarajatlari, umumiy davlat xarajatlaridan %da, (x_8);
- bazaviy ta'lim bilan qamrab olish koeffitsiyenti (7-15 yosh), (x_9);
- umumiy o'rta ta'lim bilan qamrab olish koeffitsiyenti (15-18 yosh), (x_{10});
- o'rta maxsus ta'lim bilan qamrab olish koeffitsiyenti (15-18 yosh), (x_{11});
- oliy ta'lim bilan qamrab olish koeffitsiyenti (19-24 yosh), (x_{12});
- ta'lim darajasining indeksi, (x_{13});
- aholi jon boshiga elektr energiyasini iste'mol qilish, kVt-soat, (x_{14});
- ITTKI uchun xarajatlar (YaIM %i), (x_{15});

- sogʻliqni saqlash uchun davlat xarajatlari (YaIM %i), (x_{16});
- vrachlar soni, (x_{17});
- aholi jon boshiga XQPni hisobga olgan holda YaIM, AQSh dollarida, (x_{18});
- ijtimoiy mehnat unumdorligi, (x_{19});
- AQSh dollarida bir oylik nominal ish haqi, (x_{20});
- mehnat unumdorligi va unga haq toʻlashning oʻzaro nisbati, (x_{21});
- YaIM indeksi, (x_{22});
- ayollarning hisoblangan daromadi (AQSh dollarida XQP), (x_{23});
- erkaklarning hisoblangan daromadi (AQSh dollarida XQP), (x_{24});
- aholining eng qashshoq qatlamlari (10 %), (x_{25});
- aholining eng qashshoq qatlamlari (20 %), (x_{26});
- aholining eng boy qatlamlari (10 %), (x_{27});
- aholining eng boy qatlamlari (20 %), (x_{28});
- aholining eng qashshoq qatlamlari (10 %)ga nisbatan aholining eng boy qatlamlari (10 %), (x_{29});
- aholining eng qashshoq qatlamlari (20 %)ga nisbatan aholining eng boy qatlamlari (20 %), (x_{30});
- jini koeffitsiyenti, (x_{31}).

Oʻzbekiston Respublikasida ishchi kuchi raqobatbardoshligi darajasini aniqlash uchun **omiliy tahlil usulidan** foydalaniladi:

$$IK_{\text{мик}} = \frac{\sum_{j=1}^n K_{j\text{мик}}}{n};$$

bu yerda, $IK_{\text{мик}}$ – mamlakatdagi ishchi kuchi raqobatbardoshligi koeffitsiyenti; $K_{j\text{мик}}$ – mamlakatda ishchi kuchi raqobatbardoshlik koeffitsiyenti omil boʻyicha; j – mamlakat ishchi kuchining raqobatbardoshlik omili; n – mamlakat ishchi kuchining raqobatbardoshligi koeffitsiyentini baholash uchun olingan omillar soni.

Oʻzbekiston Respublikasida **ishchi kuchi raqobatbardoshligining koeffitsiyenti omil boʻyicha (K_j)** quyidagi formula boʻyicha aniqlanadi:

$$IK_{\text{мик}} = \frac{\sum_{i=1}^m K_{i\text{мик}}}{m};$$

bu yerda, $K_{i\text{ик}}$ – mamlakatdagi ishchi kuchining alohida koʻrsatkich boʻyicha raqobatbardoshligi; i – ishchi kuchining raqobat jihatdan ustunligi koʻrsatkichi; m – omildagi koʻrsatkichlar soni.

Ishchi kuchi raqobatbardoshligining **alohida koʻrsatkich boʻyicha koeffitsiyenti ($K_{i\text{ик}}$)** quyidagi formula boʻyicha aniqlanadi:

$$IK_{\text{мик}} = \frac{X_{i\text{haq}} - X_{i\text{min}}}{X_{i\text{max}} - X_{i\text{min}}};$$

bu yerda, $X_{i\text{haq}}$ – Oʻzbekiston boʻyicha i – amaldagi koʻrsatkich; $X_{i\text{min}}$ – MDH boʻyicha i – minimal koʻrsatkich; $X_{i\text{max}}$ – MDH boʻyicha i – maksimal koʻrsatkich.

Yuqoridagi matematik formula boʻyicha ishchi kuchi raqobatbardoshligining mamlakat va mintaqa darajalarini rasmiy statistik maʼlumotlari boʻyicha aniqlash, korxonada xodimlarining raqobatbardoshlik darajasini baholash uchun esa ekspert bahosi usulidan foydalanish lozim.

Bundan tashqari **qishloq mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchi taklifining sifatiga taʼsir etuvchi omillarni** yoʻnalishiga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Bevosita taʼsir omillari. Ularga bevosita mehnat faoliyati bilan bogʻliq hamda insonning mehnat faoliyati jarayonida qobiliyatlarini amalga oshirishga taʼsir etuvchi omillar kiradi. Bu omillar mehnat hayoti sifati bilan bogʻliqdir.

Mehnat hayoti sifati mehnatdan qoniqish hosil qilish hissini kuchaytirish, oʻz malakasini oshirishga intilishda oʻz ifodasini topadi, yaʼni ishchi kuchi raqobatbardoshligining sifat

ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashadi, mehnat hayoti sifati jihatlariga ishchi kuchi raqobatbardoshligi sifatini oshiruvchi omillar sifatida qaraladi.

2. Bilvosita ta'sir omillari. Ularga mavjud ishchi kuchini amaldagi ishchi kuchiga aylantirish jarayoniga jalb etilgan va ishchi kuchi raqobatbardoshligiga, uning umumiy sifatiga ta'sir o'tkazadilar.

Umuman olganda, qishloq mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchi taklifining asosiy mezonlarini shakllantirish va rivojlantirishning tub o'zgarishlari amalga oshirilmogda. Ushbu mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan raqobatbardosh ishchi kuchining oqilona ish bilan bandligini shakllantirishni tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) – T: TDIU, 2004.
2. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot// S.S.G'ulomov tahriri ostida. – Toshkent: Konsauditinform-Nashr, 2006.
3. Narziqulov N.R., I.A.Boqiyeva, Murtozayev B.Ch. Inson resurslari iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2005.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: "Mehnat", 2009.
5. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008.

UDK: 65.015.1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISH BILAN BANDLIKNING NOAN'ANAVIY SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Boltayev B. S., Yusupov Sh. B.

Samarqand davlat universiteti

E-mail: burxon1982burxon@mail.ru

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, pirovardida aholi turmush darajasi farovonligi ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa oila daromadlarini oshirish uchun tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni hayotning o'zi taqozo etadi.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, ish bilan bandlik, aholi daromadlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, yangi ish o'rinlari.

Основные направления создания новых рабочих мест путем развития нетрадиционных форм занятости в республике Узбекистан

Аннотация. Развитие нетрадиционных форм занятости даст возможность созданию новых рабочих мест и повышению уровня жизни населения в Республике Узбекистан. Исходя из актуальности данного вопроса, в данной статье, мы рассмотрели возможности развития нетрадиционных форм занятости и выработки предложений и рекомендаций в данном направлении.

Ключевые слова: рынок труда, занятость, доходы населения, малый бизнес и предпринимательство, семейное предпринимательство, новые рабочие места.

The main directions of creation of new jobs through the development of non-traditional forms of employment in the republic of Uzbekistan

Abstract. Development of non-traditional forms of employment will provide an opportunity to create new jobs and raise living standards in the Republic of Uzbekistan. According to importance of this questions, in this article, we have discussed the possibility of the development of non-traditional forms of employment and developed recommendations in this area.

Keywords: labor market, employment, incomes, small business and entrepreneurship, family business, new jobs.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini yuksaltiribgina qolmasdan, oila farovonligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oila daromadlarining mazmuni va uning tarkibi bozor munosabatlari sharoitida tubdan o'zgaradi. Shu tufayli, har bir oila endilikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini hayotning o'zi taqozo etadi.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotida kichik biznes korxonalari hissasini oshirishga ko'plab shart sharoitlar yaratilmoqda.

Bizning fikrimizcha, ushbu sohadagi eng muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko'proq cheklash.
2. Xo'jalik subektlariga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari tizimini to'liq qayta ko'rib chiqish. Qastdan sodir etilmagan va katta bo'lmagan qoidabuzarliklar uchun jazo choralari kamaytirish va tadbirkorlar yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda to'liq qoplagan hollarda jazoni qo'llashdan voz kechish kerak.

3. Xususiy tadbirkorlarga zarur resurslarni sotib olish va o'z mahsulotini sotish uchun bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, birja va auksion savdolari orqali sotilayotgan tovarlar turi va hajmini kengaytirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar ko'rish, markazlashtirilgan taqsimot tizimiga qaytishga bo'lgan har qanday o'rinishlarga barham berish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

4. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shubhasiz, bu sohaga moliyaviy ko'mak, qo'shimcha soliq imtiyozlari va preferensiyalar berishni taqozo etadi. Bu yordamni zamonaviy rivojlangan bank tizimi orqali, ishlab chiqarish korxonalariga foiz stavkalari uncha yuqori bo'lmagan kreditlar ajratish yo'li bilan amalga oshirish mumkin[1].

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida oilaviy tadbirkorlik davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanib kelinmoqda. Shu maqsadda vazirlik va idoralarga kichik biznes uchun qo'shimcha kafolat va imtiyozlar berish bo'yicha hukumat qarorlari loyihagini tayyorlash vazifasi topshiriladi. Bunda quyidagi masalalar ko'zda tutilishi zarurligi ta'kidlandi:

1. Soliqqa tortish tizimida qo'shimcha imtiyozlar va proferensiyalar berish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta'minlash, soliqlarni hisoblash va to'lashning oshkora, soddalashtirilgan usullarini ishlab chiqish.

2. Faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun ruxsat berish tartiblarini qisqartirish va soddalashtirish, kichik biznesni tashkil etish uchun ariza berish asosida ro'yxatga olish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.

3. Yirik korxonalarining buyurtmalari asosida mayda butlovchi qismlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan yangi korxonalar tashkil etish, xonadonlarda mayda xususiy sexlar ochishni rag'batlantirish.

4. Kichik korxonalarda ishlaydigan, ayniqsa, qishloq joylarda kasanachilik bilan shug'ullanadigan fuqarolar uchun moddiy-texnik ta'minot bo'yicha xizmat ko'rsatadigan va ular tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotishga ko'maklashadigan tuzilmalar yaratish.

Xizmat sohasida tadbirkorlikning rivojlanishi uchun yana bir muhim tadbirlardan biri, ularga soliq imtiyozlarining berilishi bo'ldi. Buning ifodasi 2006 - yil 1 - apreldan boshlab xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etildi .

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda bozor infratuzilmasi va tadbirkorlik subyektlarini ishonchli huquqiy himoyalash tizimini yaratish, xususan tadbirkorlarni birlashtirib, ular manfaatini himoya qiluvchi jamoat va nodavlat tashkilotlari katta ahamiyatga ega[2].

Bu sohada dastlabki mustaqillik yillarida, respublikamizda ilk bor jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari davlatning faol qo'llab-quvvatlashi bilan tuzilgan edi. Ulardan biri sifatida, o'z-o'zini boshqarish prinsipiga asosan o'z faoliyatini amalga oshiradigan tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasidir. Palatani tuzishdan ko'zlangan maqsad tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak edi. Ammo tashkilot o'z-o'zini boshqarish prinsiplariga tayangan holda faoliyat yuritishi kerakligiga qaramasdan, o'z faoliyatida ma'muriy yondashuvlardan butunlay xoli bo'la olmadi. Natijada, 2004 - yilning iyul oyida Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi qayta tashkil etildi. Palata o'z faoliyatida boshqaruvning ma'muriy usullaridan voz kechishi hamda, nodavlat tashkiloti maqsad va vazifalariga mos keladigan konkret tadbirlar bilan shug'ullanishi belgilandi. Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi negizida mahalliy tadbirkorlarni ko'ngilli asosda birlashtiruvchi va ularning huquq va manfaatlarini

himoya qila oladigan Savdo-sanoat palatasi tuzildi.

Bozor infratuzilmasini yaratish, tadbirkorlarni o'qitish, imtiyozlar berish, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishning huquqiy asosini takomillashtirish va ularning faoliyatiga aralashishni cheklash kabilar davlat tomonidan xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralarning faqat bir qismidir.

Bu imkoniyatlar esa har bir oilaga tadbirkorlikni joriy qilishga keng sharoitlar yaratilishidan dalolatdir. Shu bilan birga aytib o'tish kerakki, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish hamda rag'batlantirish sohasida hali ko'p ishlarni amalga oshirish zarur. Tadbirkorlikni yuritishda teng bo'lgan imkoniyatlar, to'siqlar haligacha saqlanib turibdi. Bu muammolarning hal etilishi davlatning tartibga solish bo'yicha funksiyalarini sezilarli darajada qisqartirishni ko'zda tutadi[3].

Tadbirkorlikni faqatgina savdo va sanoat firmalari faoliyati bilan bog'lash mumkin emas, balki fermer xo'jaliklari, tomorqa va dehqon xo'jaliklari faoliyatlarini ham hisobga olish kerak. Shu tufayli biz shahar va qishloqda tadbirkorlikni yuritishning o'ziga xos jihatlarini va samarali usullarini ko'rib chiqishimiz lozim. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning samarali shakllari asosan, dehqon, fermer xo'jaliklari va oila pudrati hisoblanadi. Ushbu oilaviy xo'jaliklarning qiyosiy tahliliga ko'ra oilaviy dehqon xo'jaliklarning qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ancha yuqori ekanligi asoslangan.

O'zbekiston Respublikasida 2020 - yilga qadar bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini, birinchi navbatda, qishloq joylarda rivojlantirish muhim masala hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan islohotlarning quyidagi vazifalari hal etiladi:

- qishloqda oila mulkiga va yollanma mehnatga asoslangan oilaviy tadbirkorlik shakllanadi va rivoj topadi;
- aholida tadbirkorlik faoliyatidan moddiy manfaatdorlik paydo bo'ladi va bu orqali oila mulkidan samarali foydalanishga erishiladi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yuritish shakllari ichida chinakam raqobat vujudga keladi va natijada qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va eng muhimi xo'jalikning iqtisodiy –moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga o'zaro intilish kuchayib boradi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarni yanada ko'paytirish maqsadida ishlab chiqarishni kengaytirishga tadbirkorlarning qiziqishi paydo bo'ladi.

Bunday chora-tadbirlar tadbirkorlikning rivojiga yordam beradi, daromadlarni oshirish va oilalar turmush darajasini tezroq yaxshilanishiga olib keladi. Shu tufayli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bugungi kunda mamlakatimiz uchun o'ta muhim tadbir ekanlini idrok qilishimiz va unga tegishli e'tibor qaratishimiz lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimlarini tahlil qilish quyidagi vazifalarni aniqlash imkonini beradi:

- infratuzilma rivojlanmagan olis va tog'li tumanlarda ayollarga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mikrokreditlar ajratish bo'yicha resurs imkoniyatlarni aniqlash;
- ayollarga yirik sanoat korxonalarini tomonidan uyda bajariladigan ishlar va xizmatlarga buyurtma berish hisobiga uy mehnati ishchi o'rinlarini yaratish parametrlarini aniqlash.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, barqaror iqtisodiy o'sishga ega bo'lgan ko'plab davlatlarda xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchilarning ulushi 50 foizdan kam emas va bu ijtimoiy va bozor infratuzilmasi tarmoqlarini rag'batlantirish va quvvatlash, intensiv omillar va mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

Bizningcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining oilalar ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashdagi beqiyos ulushini hisobga olib ular faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- olis tumanlarda, borish qiyin va ish topishga talab haddan ortiq ko'p bo'lgan qishloq punktlari aholisiga har qanday xizmat ko'rsatayotgan tadbirkorlarga 3 – 5 yilgacha soliqlarning bir qismi yoki barchasidan ozod qilish. Bu oilalarning o'z mablag'lari bilan ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turlarini kengaytirish imkonini beradi. Soliqdan imtiyozlar berish hozirgi davrda juda muhimdir. Chunki, ko'pchilik oilalar tadbirkorlikka bozor qonuniyatlariga ko'nikma hosil qilmaganlar. Bu holat, albatta tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli, oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi oilalarga soliq stavkasini pasaytirish hamda, byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalarni kamaytirish lozim;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik guruhlarini to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish va engil shartlar bilan kreditlar berish.
 - Ish bilan bandlikni ta'minlash maqsadida yirik sanoat korxonalarini o'rtasidagi ishlab chiqarish va xizmatlar (kasanachilik) bo'yicha hamkorlikka yanada keng sharoitlar yaratish;
 - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga axborot maslahatlarini berishda ko'maklashish;
 - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirish respublikada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu borada xorijiy ilg'or tajribaga respublikaning o'ziga xos milliy xususiyatlari hisobga olinib yondashilsa maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2013, – 474b.
2. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Iqtisodiyot”, 2013, – 378 b.
3. Abdurahmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti. -T.: “Mehnat” – 2009, -511.

UDK: 331.5.024.5

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA AHOLINING ISH BILAN BANDLIGI DARAJASINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Qaxorov G., Tursunov O.

Samarqand davlat universiteti

E-mail: gulom.qaxorov86@mail.ru

Annotatsiya. Mamlakatimizda aholining ish bilan bandligini ta'minlash mehnat bozorida ishsizlikni kamaytirish hamda aholining real daromadlarini oshirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda aholining o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish, ishsizlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllarini qo'llashni talab etadi.

Kalit so'zlar: ish bilan bandlik, mehnat bozori, aholi daromadlari, ishsizlik, kichik biznes, yangi ish o'rinlari, iqtisodiy faol aholi.

Основные направления повышения уровня занятости населения в условиях инновационного развития

Аннотация. Обеспечение занятости населения приводит к снижению уровня безработицы и повышению уровня реальных доходов населения. Это в свою очередь требует стимулирования развития малого бизнеса и частного предпринимательства, развития самозанятости, применения на практике нестандартных форм занятости, переподготовки безработных и повышения квалификации. В данной статье исследованы данные вопросы и разработаны рекомендации по повышению уровня занятости населения.

Ключевые слова: занятость, рынок труда, доходы населения, безработица, малый бизнес, новые рабочие места, экономически активное население.

The main directions of increasing employment rate in conditions of innovative development

Abstract. Employment of population leads to decrease of unemployment rate and raise of real incomes of population. This requires the stimulation of development of small business and private entrepreneurship, development of self-employment, application of non-standard forms employment, training and retraining of the unemployed. This article examines these issues and we developed recommendations on increasing the level of employment.

Keywords: employment, labor market, household income, unemployment, small business, new jobs, the economically active population.

Bugungi innovatsion rivojlanish sharoitida mamlakatimizning ko'p millionli mehnat resurslarining oqilona ish bilan bandligini ta'minlash zaruriyati tug'ilmoqda. Shu sababli aholing ish bilan bandligini ta'minlash va uni oshirish yo'llari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning bosh va eng muhim maqsadi bu – aholining farovonligini oshirish va tumush darajasini yaxshilashni tashkil etadi. Aholi farovonligini ta'minlashda davlatning passiv va aktiv siyosatlari mavjud bo'lib, passiv siyosatlari bu aholiga ijtimoiy-ma'naviy ko'maklarni keltirib o'tish mumkin. Aktiv siyosati esa davlat tomonidan aholini ish bilan band qilish va shu orqali aholining farovonligi va turmush darajasini yaxshilashdir.

Aholing ish bilan bandlik konsepsiyasi jamiyat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichidagi ish bilan ta'minlanishning xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir. Bunday nazariy tushunchalar markaziga uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun xos bo'lgan obyektiv jarayonlarini hisobga oluvchi ish bilan ta'minlanishning shakllanishi qo'yiladi. Bu o'z navbatida muayyan davr mobaynidagi qo'yilgan maqsadlarga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi.

Respublikamiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning bozor modellariga to'liq o'tishi aholi ish bilan bandligining istiqbolini belgilash sohasida bir qator murakkab va ko'p aspektli vazifalarni qo'yadi. Istiqbollash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilash va uning aniq parametrlarini ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladi. Istiqbol ko'rsatkichlari yordamida mamlakatni yaqin kelgusida rivojlantirish dasturlari, konsepsiyalari va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning aniq yo'nalishlari belgilanadi. Shu bois belgilanadigan istiqbol ko'rsatkichlari aniqlik, hisob-kitobga egalik, asoslanganlik, tekshirilganlik va ko'p omillik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Mamlakat mehnat bozorining istiqbol ko'rsatkichlari bevosita demografik omillarga bog'liqdir. Chunki aynan demografik jarayonlarga kelgusida mehnat salohiyatining miqdor va sifat jihatdan shakllanishi, taqsimlanishi, ishchi kuchiga aylanishi va taklif sifatida mehnat bozorida paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Ish bilan bandlik masalalarini ko'rib chiqayotganda mehnat va ish bilan bandlik o'rtasidagi aniq farqni ajrata bilish kerak. Mehnat - insonning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan faoliyati bo'lib, harakatlarni anglatganligi, kuch-quvvat sarflanishi, natijadorlik, ijtimoiy foydalilik va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Mehnat vaqt xususiyatiga ega, u bo'linadi va dam olish bilan almashinib turadi. Mehnat - ishchi kuchini ishlab chiqishda ishlatish jarayonidir. Ish bilan bandlik insonning mehnat qilish munosabati bilan va mehnat sohasidagi yehtiyoblarni qondirish bilan bog'liq holda kechadigan ijtimoiy rivojlanishning muhim tomonlaridan biridir. Mehnatdan farqli o'laroq, ish bilan bandlikni odamlarning aniq ish joyidagi amaliy faoliyatiga tenglashtirib bo'lmaydi. Ish bilan bandlik mehnatga layoqatli odamlarning ish bilan qanday ta'minlanganligini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, odamni ish bilan band hisoblash uchun u biron-bir jamoaning a'zosi bo'lishi yoki o'z ishini yaratishi kerak (1-rasm).



1-rasm. Ish bilan bandlikni shakllanishining omillari

Mehnat bozoridagi ana shu yo'nalishini amalga oshirishdagi asosiy murakkablik iqtisodiyotning bo'lajak kasb-malaka tuzilishi to'g'risida, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda kasb sohasidagi mehnatga bo'lgan ehtiyoj qanday bo'lishi haqidagi axborotning yetishmasligidadir. Yana bir muammo ishdan mahrum bo'lgan shaxslarning kasbiy jihatdan qayta tayyorlanishga kam talab bildirishidir, chunki ular oldingi kasblari bo'yicha ishga joylashishga umid qiladilar. Mehnat bozoridagi faol siyosatning mazkur yo'nalishini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omil ish bilan bandlik xizmati faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlashning cheklanganligi hamdir [1].

O'zbekiston Respublikasida bandlikka ko'maklashuvchi markazlar orqali ishga joylashgan fuqarolar soni 2014-2016 - yillarning 1 yanvar holatiga ko'ra muntazam kamayib borishi kuzatilgan. Bu ko'rsatkich 2016 - yil 1 - yanvarida 37691 kishini tashkil etib, 2015 yilga nisbatan ushbu ko'rsatkichning o'zgarishi 6% ga kamaygan. Viloyatimizda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar orqali ishga joylashgan fuqarolar sonining 2014-2016 - yillarning 1 - yanvariga holatiga muntazam kamayib borishi asosan iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilayotgan yangi ish o'rinlari sonining ortib borishi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda, hozirgi vaqtda mehnat bozoridagi faol siyosatni amalga oshirish sohasidagi faoliyat doirasida mustaqil ish bilan bandlikni rivojlantirish, tadbirkorlik malakalarini o'rgatish va kichik biznesni tashkil etishga ko'maklashish dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat bozoridagi siyosatning bu yo'nalishi eng muhim ijtimoiy vazifani – yangicha mehnat dunyoqarashini shakllantirishdir.

Ishsizlar agar o'zlarining mustaqil ishlarini tashkil etishni xohlasalar, ish bilan bandlik xizmatiga zarur asoslash bilan loyihalar tanlovida ishtirok etish haqida ariza beradilar, bu yerda uning rejasini mutaxassislar ko'rib chiqib, o'z xulosalarini beradilar. Agar iltimos qondiriladigan bo'lsa, u holda yangi tadbirkor uchun boshlang'ich kapital sifatida unga muayyan muddatga beriladigan ishsizlik nafaqasining butun summasi xizmat qiladi va bir yo'la to'lanadi.

1-jadval

Samarqand viloyatida bandlikka ko'maklashuvchi markazlar orqali ishga joylashgan fuqarolar haqida ma'lumot, kishi hisobida (1-yanvar holatiga ko'ra)

Hududlar nomi	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2016 - yil 2015 - yilga nisbatan (%)
Samarqand sh.	4475	4002	4012	100,2
Kattaqo'rg'on sh.	1201	564	1001	177,5
Oqdaryo	3425	2980	2303	77,3
Bulung'ur	2869	2301	2003	87,0
Jomboy	4274	3280	2444	74,5
Ishtixon	3584	3000	2446	81,5
Kattaqo'rg'on	3849	2878	3114	108,2
Qo'shrabod	2756	2134	1508	70,7
Narpay	2063	1839	2058	111,9
Payariq	4042	3591	3251	90,5
Paxtachi	1573	1176	1738	147,8
Pastdarg'om	4235	3618	3597	99,4
Samarqand	2496	1988	2160	108,7
Nurobod	2047	1770	1227	69,3
Urgut	3892	3454	3188	92,3
Tayloq	1927	1488	1641	110,3
Jami	48 708	40063	37691	94,1

Manba: Samarqand viloyati Mehnat Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bizning fikrimizcha, ishsizlikni kamaytirishning chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish mumkin:

- korxonada yangi ishchi o'rinlari tashkil etish yo'li bilan aholini ishga jalb qilish;
- jamoat xizmatini tashkil etish;
- xususiy tadbirkorlikni hamda aholining o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish;

- kamyob mutaxassisliklar va kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish;
- ish bilan bandlikning turli shakllarini qo'llash;
- aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlari xususida keng miqyosda xabardor etib turish.

Ma'lumki, odamlarning faqat 3–5% ida o'z ishini tashkil etish va yuritishga iste'dod hamda qobiliyati bo'ladi. Ana shundan kelib chiqib, ish bilan bandlik xizmatining vazifasi o'ziga murojaat qilganlardan o'z firmasini ochishi mumkin bo'lganlarni tanlab olishdir. Ish bilan bandlik xizmatining yana bir vazifasi mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanishni istaydiganlarni o'qitishdir. Bu kishilar ishga doir asosiy ko'nikmalarni o'qish jarayonida egallab chiqadilar. Ish bilan bandlik xizmatining vazifasi tadbirkorga mustaqil ish bilan bandlik nimalarni bildirishini tushuntirishdir [2].

Samarqand viloyati bo'yicha 2010-2015 - yillar davomida «Aholini ish bilan ta'minlash Dasturi»ning bajarilishi quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan. Samarqand viloyatida 2010-2015 - yillar mobaynida jami davlat ish bilan banlik xizmati organlariga murojaat qilganlar hissasi 2 marta kamaygan. Shuningdek, tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar bu davrlar mobaynida 2 marta kamaygan. Viloyatda 2010 - yilda davlat ish bilan bandlik xizmati orqali ishga joylashganlar hissasi jami ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan 98,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015 yilga kelib 97,9 %ni tashkil etgan. Ishga joylashganlar hissasining ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan bu davrlar oralig'ida biroz kamayib borish tendensiyasi ko'zatildi. Bunday o'zgarishlar asosan yangi va qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi hisobiga amalga oshirilgan

2- jadval

Samarqand viloyatida “Aholini ish bilan ta'minlash hududiy Dasturi”ning bajarilishi (ming kishi hisobida)

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2010-2015 - y.y.da o'sish, kamayish, (%)
BKM ga ish so'rab murojaat qilganlar	78,4	74,2	74,6	76,2	42,2	38,5	2 marta kamaygan
BKM lar yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar	77,4	73,1	73,5	74,4	40,1	37,7	2 marta kamaygan
Ishsiz maqomini olganlar (%)	1,0	0,9	1,1	1,8	2,0	1,8	-
Kasbga o'qitish va malakasini oshirishga yo'naltirilganlar	652	1056	1125	1065	587	582	89,3
Haq to'lanadigan jamoat ishlariga yo'naltirilgan	3245	5500	5609	4215	1365	1106	3marta kamaygan
Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar	1154	1053	1116	583	90	105	11marta kamaygan
Korxonalarda mavjud bo'sh ish o'rinlari	3582	2690	2763	6831	3201	3783	105,6

Manba: Samarqand viloyat Mehnat Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2010-2015 - yillar davomida ishsizlik nafaqasini olganlar miqdori keskin tushish tendensiyasi sodir bo'lgan. 2015 - yil davomida Samarqand viloyatida ishsizlik nafaqasini olganlar soni 105 kishini tashkil qilgan yoki 2015 - yilda 2010 - yilga nisbatan 11 marta keskin kamaygan. Bunga sabab ish so'rab murojaat qilganlarning aksariyat qismini ishga joylashtirilganligi, ayrimlarining jamoat ishlariga jalb qilinganligi yoki malakasini oshirish, qayta kasbga tayyorlashlardan o'tkazilganlarning miqdori o'sganligi bilan izohlanadi. Mahallalar tomonidan haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilinganlar soni 2010 - yilda 3245 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2015 - yilda 1106 kishiga etgan. Bu ko'rsatkich 2015 - yilda 2010 yilga nisbatan 3marta kamaygan.

Shuningdek, qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan, qayta kasbiy tayyorgarlikdan o'tganlar miqdori ham 2015-2010 - yillarda 582 va 652 kishilarni tashkil etgan yoki 10,7 % ga kamaygan. Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat ish bilan bandlik jamg'armasining passiv yo'nalishlariga

sarflanishining tejalishi ish bilan ta'minlashning faol yo'nalishlariga sarflanadigan mablag'larni moliyalashtirishni kengaytirish uchun manba bo'lib hisoblanadi (2-jadval).

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat ish bilan bandlik jamg'armasining passiv yo'nalishlariga sarflanishining tejalishi ish bilan ta'minlashning faol yo'nalishlariga sarflanadigan mablag'larni moliyalashtirishni kengaytirish uchun manba bo'lib hisoblanadi.

Aholini ish bilan bandligini ta'minlash hamda ishsizlikni kamaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

– mintaqalar bo'yicha mehnat bozorini shakllantirishda samarali siyosatni amalga oshirish, demografik omillarni, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda bandlikning yangi shakllarini keng tatbiq etish hisobiga aholi bandligining o'sishini ta'minlash;

– demografik o'zgarishlar va kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq o'zgarib borayotgan talablarni hisobga olgan holda mehnat, ish bilan bandlik va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

– ishga joylashishga muhtoj, ish bilan band bo'lmagan aholiga kasbiy qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatish;

– aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash, kamxarj oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatishda tabaqalashtirilgan tarzda va aniq yondashuvni kuchaytirish;

– mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza hilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish, mehnat munosabatlarini moddiy rag'batlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Bu tadbirlar orasida ancha muhimi jamiyatning har bir a'zosi uchun ish bilan bandlik sohasidagi o'z o'rnini haqiqatan ham erkin tanlashga, ish kuchining ijtimoiy-kasbiy harakatchanligini oshirishga, uning yuksak raqobatbardoshligini shakllantirishga davlatning har tomonlama yordam ko'rsatishidir. Bularning hammasi ish bilan bandlik sohasini demokratlashga olib keladigan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishni talab qiladi. Avvalo, quyidagilar zarur: hudud bo'yicha ko'chib yurish yerkinligini, kasbni o'zgartirish mumkinligiga odamlarning ishonchini, aqliy mehnat va xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnatning nufuzini oshirish; muqobil mehnat rejimlarini rivojlantirish va hokazolar talab qilinadi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: "Mehnat", 2009.
2. Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) – T: TDIU, 2004.
3. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008.
4. Ishga joylashishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to'g'risida. 24.05.2007 yil. №106. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid me'yoriy va uslubiy hujjatlar to'plami. -T.: "Mehnat", 2007, 72-bet.
5. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004.

UDK: 331.101

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KORXONA FAOLIYATIDA INSON RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Davlatov N.

Samarqand davlat universiteti

E-mail:708pga@mail.ru

Annotatsiya: Inson resurslaridan samarali foydalanish yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, mazkur ehtiyojlarni qondirib borish, boshqaruv uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish xodimlar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Inson resurslarini samarali foydalanishning asosiy maqsadi korxonalarda inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va uning salohiyatidan eng samarali ravishda foydalanishdan iboratdir.

Kalit soʻzlar: inson resurslari, mehnat bozori, boshqarish, baholash, inson resurslariga ehtiyoj, rejalashtirish, kadrlar xizmati, kadrlarni yollash.

Перспективы эффективного использования человеческих ресурсов на предприятиях в условиях инновационного развития

Аннотация: Эффективное использование человеческих ресурсов, определение потребности в новых знаниях, удовлетворение потребностей, совершенствование управленческих навыков приводит к повышению активности работников. Основной целью эффективного использования трудовыми ресурсами является формирование и развитие человеческих ресурсов. Исходя из актуальности данного вопроса, мы рассмотрели возможности эффективного использования человеческих ресурсов.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, трудовые ресурсы, управление, оценка, потребность в человеческих ресурсах, планирование, кадровые услуги, наем персонала.

Perspectives of the effective use of human resources in enterprises in conditions of innovative development

Annotation: Effective use of human resources, identification of demand for the new knowledge, satisfaction of needs, improving management skills leads to increasing of the workers activities. The main goal of the efficient use of human resources is the formation and development of human resources. Taking into account the importance of this issue, we made a research on possibilities of effective use of human resources and developed recommendations.

Keywords: human resources, management, evaluation, the need for human resource planning, recruitment services, personnel recruitment.

Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida muhim oʻzgarishlar sodir boʻlmoqda.

Bizga maʼlumki, inson resurslarini boshqarish – korxonada manfaatlarini taʼminlash maqsadida inson salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, axloqiy va huquqiy munosabatlar tizimidir.

Inson resurslarini boshqarishning asosiy funksiyalarini oʻzida aks ettiruvchi toʻrt tarkibiy qism mavjuddir:

1. inson resurslarini shakllantirish;
2. inson resurslarini rivojlantirish;
3. inson resurslarini baholash;
4. Inson resurslarini ragʻbatlantirish.

Inson resurslarini boshqarish yoki inson resurslari menejmenti deyilganda ham alohida menejerlar, ham umuman boshqaruv butun apparatining faoliyat turlari, eng avvalo boshqaruv faoliyati tizimi tushuniladi.

Bizga maʼlumki, personalni boshqarish zamonaviy yoʻnalishlari “inson resurslarini boshqarish” tushunchasini qamrab oladi. Inson resurslarini boshqarish ishlab chiqarishda inson omilini hisobga olishga asoslangan.

Inson resurslarini rivojlantirish inson resurslarining yangi bilimlarga ehtiyojlarini aniqlash va bu ehtiyojlarni qondirib borish, boshqaruv uslublarini muttasil takomillashtirib borish, xodimlarga ularning faolligini oshirishda har taraflama yordam berishga olib keladi.

Inson resurslarini baholash kompaniya yoki uning boʻlinmasi pirovard yoki oraliq natijalariga inson resurslarining hissalarini aniqlash imkonini yaratadi. Personal ish sifatini baholash - xodimlarning egallab turgan xizmat vazifalariga loyqlik darajasini aniqlaydi. Inson resurslarini nazorat qilish - ishlab chiqarish nazorati tizimidan foydalangan holda rahbariyat qarorlari va ishlab chiqarish topshiriqlari ijrosi nazoratini amalga oshiradi.

Inson resurslarini boshqarishning asosiy maqsadi kompaniyada inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va uning salohiyatidan eng samarali ravishda foydalanishdan iboratdir. Bu - korxonada har bir xodimi bilan olib borilayotgan ishni muttasil yaxshilab borish orqali uning oʻz mehnat va ijodiy qobiliyatini oshirib borishiga erishish va bu qobiliyatidan kompaniya maqsadlariga erishish uchun iloji boricha toʻla foydalanishni taʼminlash demakdir.

Bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq ijtimoiy va huquqiy sohalaridagi o'zgarishlar boshqaruvning yangi yo'nalishlarini shakllantiradi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- inson resurslarining strategik menejmenti;
- menejer kar'erasini rejalashtirish;
- inson resurslarini muvofiqlashtirish texnikasi;
- iqtisodiy tanglik sharoitida inson resurslarini boshqarish;

Yuqorida qayd etilgan barcha muammolarni hal etish va yangi yo'nalishlarda muvaffaqiyatga erishish umumiy asosga ega.

Tashkilotni shakllantirish bosqichida kadrlar bilan ishlash yo'nalishlari:

- tashkiliy tuzilmani loyihalashtirish;
- personalga bo'lgan talabni rejalashtirish;
- kadrlar siyosatini shakllantirish va kadrlarga oid chora-tadbirlar rejasini tuzish;
- kadrlar xizmatini shakllantirish;
- kadrlarga oid axborotlarni yig'ish, saqlash va ulardan foydalanish tizimini ishlab chiqish;
- nomzodlar faoliyatini tahlil qilish va ularni baholash mezonini shakllantirish.

Kadrlarni rejalashtirish tashkilotning ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, xizmatchilar va umuman, jamiyatning manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Kadrlarni rejalashtirish, shuningdek, inson omiliga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlashdir. Personalni rejalashtirishning vazifalari asosan quyidagilardan iborat:

- personalni rejalashtirishning tartibini rejalashtirish boshqa turlari bilan muvofiqlashtirgan holda ishlab chiqish;
- personalni rejalashtirishni korxonaga umumiy rejasi bilan bog'lash;
- kadrlar xizmatining reja guruhi va korxonaga reja guruhi o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil etish;
- korxonaga strategik rejalashtirishda kadrlar asosiy muammolari va ehtiyojlarini aniqlashga ko'maklashish;

➤ korxonaga barcha bo'linmalari o'rtasida personal bo'yicha axborot ayirboshlashni yaxshilash.

Mavjud xodimlarni baholashda, eng avvalo, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillariga, xususan mehnat bozoridagi vaziyatga e'tiborni qaratmoq lozim.

Zero, mehnat bozoridagi holat ko'p jihatdan quyidagilarga bog'liq:

- aholi soni, yoshi, jinsi salmog'idagi o'zgarishlarga;
- tarmoq va hududiy bandlikdagi o'zgarishlarga;
- qo'shimcha ishchi kuchini yollash darajasiga;
- ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'atiga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuliga.

Ichki omillarni baholash uchun quyidagi ma'lumotlar tahlilini bajarishi zarur.

- doimiy band bo'lgan xodimlar soni, familiyasi, yashash joyi, ishga qabul qilingan vaqti;
- xodimlar qo'nimsizligi;
- xodimlarning tarkibi (malakasi, mutaxassisligi, yosh tarkibi, milliy tarkibi, nogironlik salmog'i, ishchi va xizmatchilar);
- ish kunining davomligi (to'liq yoki qisman bandligi, necha va qaysi smenada ishlashi, ta'tilining davomiyligi);
- ish haqi, uning tarkibi, qo'shimcha ish haqi, ta'rif yoki ta'rifdan yuqori to'lov;
- davlat yoki huquqiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy maishiy xizmat (ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag'lar). Rejalashtirishning asosiy maqsadi firma yoki kompaniyani zarur bo'lgan ishchi kuchi bilan ta'minlash va uning xarajatlarini belgilashdan iborat.

Birinchi bosqichda tashkilotning maqsadlaridan kelib chiqqan holda asosiy vazifalar belgilab olinadi. Bu vazifalar har bir ish joyida, kerakli vaqtda zaruriy miqdorda va sifatli mehnat samaradorligini ta'minlashdan iborat. Albatta, kadrlarni rejalashtirishning boshqa vazifalari ham mavjud. Ularga personal mehnati samaradorligini rag'batlantirish kiradi.

Kadrlarni rejalashtirishning ikkinchi bosqichida tashkilot rivojlanishi va yangilanishining umumiy sharoitlari bilan bog'liq holda kadrlar strategiyasi ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqichda har bir xizmatchining aniq maqsadlari belgilanib, tashkilot ichida rahbarlik tamoyillari aniqlanadi.

Kadrlarni rejalashtirish uchta ketma-ket bosqichni qamrab oladi:

Axborot bosqichi. Bu bosqichda statistik ma'lumotlar va boshqa zarur axborot to'planadi, qayta ishlanadi va kadrlar bilan bog'liq holat shuningdek, uning istiqbolda rivojlanish variantlari tahlil qilinadi.

Kadrlar bo'yicha loyihalar ishlab chiqish bosqichi. Kadrlar bilan bog'liq holat va uning rivojlanish istiqbollari tahlil qilish muqobil variantlar ishlab chiqish uchun asos yaratadi. Bu bosqichda kadrlar bo'yicha muqobil loyihalar va ularning kadrlar iqtisodiy maqsadlarga erishishga ta'siri tadqiq qilinadi. Bu bosqich eng ko'p mehnat va kadrlar xizmatlari xodimlaridan yuqori malaka talab qiladi. Qaror qabul qilish bosqichi, ya'ni kadrlar xizmatlari faoliyatini tashkil qilish uchun majburiy yo'nalish sifatida rejalar variantlaridan birini tasdiqlash bosqichi.

Bunda tashkiliy tarkib va shtatlar sonidan kelib chiqqan holda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan reja ishlab chiqiladi. Tashkilotni malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan xarajatlarni belgilash kadrlarni rejalashtirishning ajralmas vazifasidir. Bunda personalni ishlatish xarajatlaridan tashqari, personalni to'ldirish va o'qitish xarajatlari ham e'tiborga olinadi.

Professional vazifalar tahlili - ish joyi va lavozimlarning majburiyatlari bilan bog'liq xususiyatlari va ularning dinamik tavsifnomalarini o'rganish. Xodimlar professional vazifalarini tahlil qilib, kadrlar bo'limi rahbari xizmatchilar uchun lavozim yo'riqnomasi yoki ishchilar uchun ishlab chiqarish operatsiyalari ta'rifi va shuningdek, muayyan ish turi bajarilishi uchun zaruriy malakaviy talablarni ishlab chiqishi mumkin.

Lavozim yo'riqnomasi – tashkilotning ichki huquqiy hujjati bo'lib, hizmatchining boshqaruv apparatidagi vazifasi va o'rni, funktsional majburiyatlari, huquqi, javobgarligi va uni rag'batlantirish masalalarini tartibga soladi.

Lavozim yo'riqnomalari quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- funktsional vazifalarning xizmatchilar orasida teng taqsimlanishi;
- muddatiylik, mehnattalablik, davomiylik va bajarish muddatlarining miqdor ko'rsatkichlarini joriy qilish hisobiga vazifalarni o'z muddatida va ishonchli bajarilish darajasini oshirish;
- jamoada ijtimoiy-ruhiy iqlimni yaxshilash, hamda boshliqlar va xizmatchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni yo'qotish;
- hizmatchining funktsional aloqalari va boshqa mutaxassislar bilan aloqasini aniq belgilash;
- hizmatchining boshqaruvchilik qarorlarini tayyorlash va qabul qilish, hamda resurslardan foydalanish sohasidagi huquqlarini aniq belgilash;
- xizmatchilarning vazifalari o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun umumiy va shaxsiy javobgarligini oshirish;
- ish vaqtini boy berish va ortiqcha ishlanishining oldini olgan holda xizmatchilarning vaqt bo'yicha bir tekis bandligini ta'minlash.

Personal yollash uchun javobgar - kadrlar bo'limi xodimlari bo'lib, ularning majburiyatlariga yangi nomzodlarni to'plash, firmada yangi lavozim, ish joylarini ochish kiradi. Ular o'z kompaniyasi xodimlari orasidan mos keluvchi nomzodlarni izlash, o'z tarmoqlari xizmatchilari va hamkasblaridan so'rash, gazetalarda reklama e'lonlarini chop etish, mehnatga joylashtirish bo'yicha davlat va xususiy agentliklar bilan hamkorlik qilish, mehnatga joylashtirish bo'yicha kasaba uyushma byurolariga murojaat qilish, kollej talabalari orasida nomzodlar izlash bilan shug'ullanadi.

Nomzodlarni ishga jalb qilish manbalari quyidagilar:

1. Tashkilot ichida izlash.
2. Xodimlar yordamida tanlash.
3. O'zini namoyon etgan nomzodlar.
4. Televidiniya, radio, gazeta kabi ommaviy axborot vositalarida e'lonlar berish.
5. Institut va boshqa o'quv muassasalariga chiqish.
6. Davlat mehnat agentliklari.
7. Personal tanlash bo'yicha xususiy agentliklar.

Ko'p tashkilotlar o'zida rezerv tayyorlashni ma'qul ko'radi: xodimlarining xizmat bo'yicha ko'tarilishi arzonroq tushadi. Bundan tashqari ularning manfaatdorligi kuchayadi, psixologik muhit yaxshilanadi. Ichki rezervlar hisobidan kadrlarni to'plashning keng tarqalgan usuli - malakali xodimlarni taklif qilish bilan ochilayotgan vakansiya haqida axborot tarqatish hisoblanadi. Ichki

rezervlar hisobiga kadrlar yollashning kamchiligi sifatida tashqaridan yangi qarashlarga ega bo'lgan kishilarning kelmasligi ko'rilishi mumkin.

Tashkilotlarda kadrlarni yollashning eng muhim bosqichlari quyidagilar:

- kadrlar komissiyasini tashkil etish;
- ish joylari bo'yicha talablarni shakllantirish;
- ommaviy axborot vositalarida tanlov haqida e'lon berish;
- nomzodlarni tibbiy va ishga layoqatliligini tekshirish;
- nomzodlarning ruhiy holatini tekshirish;
- nomzodlarning qiziqishlari va salbiy odatlarini tahlil qilish;
- nomzodlarning reyting bo'yicha umumiy baholanishi va yakuniy ro'yxatning tuzilishi;
- kadrlar komissiyasining bo'sh joyga nomzod tanlash bo'yicha xulosasi;
- lavozimga tasdiqlash, shartnoma tuzish;
- nomzodning hujjatlarini rasmiylashtirish va xodimlar bo'limiga topshirish.

Tanlovda qaror chiqarish uchun kerakli axborotni yig'ishda uchta asosiy uslubdan foydalaniladi: sinovlar, suhbatlar va baholash markazlari. Rahbariyat inson resurslarining umumiy sifatini oshirishga harakat qilar ekan, xodimlarni muntazam o'qitish va tayyorlash tizimlarini o'tkazishi kerak. Kadrlarni tayyorlash - mehnat unumdorligini oshirishga yordam beruvchi ko'nikmalarga o'rgatishni bildiradi. Barcha yangi xodimlarda kompaniya maqsadlari, uning strategiyasi va faoliyat uslublari haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun ko'pgina yirik va mayda korxonalar yangi qabul qilingan xodimlarni yollash dasturlariga ega. Odatda xodimlarni quyidagi mavzular bilan tanishtirish zarur:

- kompaniya tarixi va tashkiliy tuzilmasi;
- yollashning umumiy shartlari: ish vaqtidan tashqari mehnatga ehtiyojlar, ish haqi beriladigan kunlar, ishdan bo'shatish tartibi va hokazolar;
- xodimlar xulq-atvorlarining umumiy qoidalari;
- qo'shimcha to'lovlar tizimlari, sug'urta nafaqalari va ta'til berish amaliyotini o'z ichiga olgan holda, mehnat majburiyatlari va javobgarlik tizimi.

Ishchi va xizmatchilarni o'qitish o'z ichiga to'rtta bo'g'inni oladi.

1. Professional tayyorgarlik. Ishchi va xizmatchilarning boshlang'ich, o'rta va oliy professional tayyorgarligi mavjud. Bunda ta'lim to'g'risida hujjat (diplom, shahodatnoma) beriladi. O'qish muddati 1 yildan 6 yilgacha.

2. Malaka oshirish. Professional kurslar, menejerlar maktablari, malaka oshirish fakultetlari va biznes institutlarida bajariladi. O'qish muddati 1 kundan 1 yilgacha.

3. Kadrlarni qayta tayyorlash. O'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Bunda ishchilar ikkinchi kasb, xizmatchilar esa ikkinchi mutaxassislikni egallaydilar. O'qish muddati 2 oydan 2 yilgacha.

Kadrlarni o'qitish quyidagi hujjatlarda qayd qilinadi:

- kadrlar tayyorlash rejalari;
- o'quv dasturlari;
- kadrlarni o'qitish bo'yicha yillik hisobotlar;
- kadrlarni o'qitish bo'yicha xo'jalik shartnomalari;
- xizmatchilarning shaxsiy ishlari;
- diplom (bitiruv) ishlari;
- xizmatchilar stajirovkalari haqida hisobotlar.

Adabiyotlar

1. Narziqulov N.R., I.A.Boqiyeva, Murtozayev B.CH. Inson resurslari iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2005.
2. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2013, – 474 b.
3. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “Iqtisodiyot”, 2013, – 378 b.
4. Shoyusupova N., Arabov N., Nasimov D. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. – T.: “Iqtisodiyot”, 2014, – 496 b.
5. Abdurahmonov Q.H. va boshqalar. Personalni boshqarish (darslik). –T.: “O'qituvchi”, 2008. –B. 655.

UDK: 640.241

**XALQARO IJTIMOYIY INTERNET TARMOQLARINING MEHMONXONALAR
FAOLIYATIDAGI O'RNI****A. Sh. Suyarov***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*E-mail: asuyarov95@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida shakllangan internetdagi ijtimoiy tarmoqlar va ularning mehmonxona biznesidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuning bilan birga dunyoning eng mashhur va ommabop ijtimoiy internet saytlari, ularga bog'liq bo'lgan statistik ma'lumotlar, foydalanuvchilar uchun yaratilgan afzalliklar va imkoniyatlar keltirilgan, hamda mehmonxona faoliyati subyektlari uchun bir qancha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy internet tarmoqlari, innovatsion texnologiya, mehmonxona, biznes, samarali reklama, mijozlarni jalb qilish, yuqori daromad.

Роль международных социальных сайтов в гостиничном бизнесе

Аннотация. Эта статья формулировано в основу современных инновационных технологий и социальных сетей в Интернете, а также анализа важности у них в гостиничном бизнесе. В то же время ему предоставляется некоторая информация о самых известных и популярных социальных веб-сайтах в мире, связанных с ними статистических данных, преимуществах и возможностях, созданных для пользователей, а также ряд предложений и рекомендаций для гостиничного бизнеса.

Ключевые слова: социальные сети, клиенты Интернета, гостиница, бизнес, эффективность, инновационные технологий, высокий уровень дохода.

The role of the world social networks on hotels business

Abstract. This article formed on the basis of modern innovative technologies and social networks on the Internet, and the analysis of the importance of their in hotel business. At the same time, it is given some information of the world's most famous and popular social web sites, statistical data associated with them, the benefits and opportunities created for users, as well as a number of suggestions and recommendations for the hotel business.

Keywords: Social sites of the Internet, Inovative technology, hotels, business, effective advertising, promoting, high potential.

XXI asr – texnologiyalar va innovatsiyalar asri. Shunday ekan, har bir sohada fan yutuqlaridan, yangiliklaridan unumli foydalanish samarali mehnatni kafolatlaydi. Zero, rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlarida zamondan ortda qolib ketish faoliyat davomida ko'plab qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, "zamonaviy odam" tushunchasi har jabhada zamon bilan hamnafas bo'lib borayotgan insonlarga xos bo'lib bormoqda. Bunday odam har qanday vaziyatda eng tez, eng sifatli, eng samarali va eng qulay narsalarni tanlaydi va unga intiladi. Shunday ekan, hozirgi davr har jihatdan eng yaxshisini yaratishni va taklif qilishni talab qiladi.

Internet insonlarning uzog'ini yaqin qilish va turli kommunikatsion muammolarni yengish maqsadida yaratilgan edi. Bugungi kunda esa uning vazifasi cheklanmagan. Internet orqali nafaqat kommunikatsiya vazifasini, balki ma'lumot to'plash, GPS-monitoring, hatto ta'lim olish imkoniyatlari ham mavjud. Misol uchun aytadigan bo'lsak, xorij tajribasida rivojlanib borayotgan "Masofaviy ta'lim tizimi" ham internet texnologiyasi yutuqlaridandir. Ushbu yangilik yordamida hozirgi kunda ko'plab insonlar ta'lim olish uchun oson usulga ega bo'ldilar. GPS-monitoring nazorati ham shunday yutuqlardan biridir. Ushbu texnologiya orqali insonlar o'zlarining shaxsiy mol-mulki va avtomashinasini bimalol nazorat qila oladilar.

Internetdan foydalanish darajasi ham kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa yaqin yigirma yillik keskin o'sish darajasini ifodalab berdi. Buni raqamlarda aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda yer yuzida taxminan 7,3 milliard odam yashaydi. Shulardan 3,17 milliard kishi internetdan

foydalanadi[3.2]. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, internet tarmog'i doimo foydalanuvchilarga boy va ular soni ortib bormoqda.

Dunyoda, xususan mamlakatimizda xalqaro ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish urf bo'lgan. Ijtimoiy tarmoq – ma'lum qatlamdagi yoki barcha toifadagi internet foydalanuvchilarini birlashtirgan, ularning davriy faolligini talab qiladigan, joiz bo'lsa, o'z sahifalarini yaratishi uchun imkoniyat taqdim etadigan internet dasturlari hisoblanadi. Hozirgi kunda bunday ijtimoiy tarmoqlarning yuzlab xalqaro toifadagi turlari mavjud. Ularga facebook (fb.com), twitter.com, instagram, telegram, mail.ru, gmail.com, snapchat, odnoklassniki, youtube kabilar misol bo'la oladi. Joriy davrda 2,3 milliard internet foydalanuvchisi ijtimoiy tarmoqlarda mavjuddir. Ya'ni, internet foydalanuvchilarining aksar qismi ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoq foydalanuvchising har birida o'rtacha 5,54 ta ijtimoiy sahifasi bor. Oxirgi ko'rsatkichlarga ko'ra ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni yiliga 176 million kishiga ortgan. Facebook va WhatsApp messenjerlari (elektron pochta turi) orqali bir kunda 60 million xabar jo'natiladi.[3.2]

Yuqoridagilardan shuni anglab olish mumkinki, xalqaro internet tarmoqlari imkoniyatlaridan unumli foydalanilsa, turizm va mehmonxona sohasida ham samarali natijalarga erishish mumkin. Bunda albatta reklamani nazarda tutish joiz. Sababi, bir mehmonxona qancha ko'p ijtimoiy tarmoqda mavjud bo'lsa, uning mijozlari soni ham ortib boradi. Bunday tajribalardan dunyoning 91% yirik brendli kompaniyalari foydalanishadi.[3.2] Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlarda mijozlarni jalb qilish strategiyasi mehmonxonalar uchun juda muhim. Zero, birgina Facebook ijtimoiy tarmog'ida 1,71 milliard foydalanuvchi bor bo'lib, har kuni o'rtacha 500 000 yangi foydalanuvchi uhsbu tarmoqqa a'zo bo'ladi. Bundan tashqari, 40 milliondan ortiq kichik biznes faoliyati bo'yicha sahifalar bor. Ular o'z mablag'larining 20%dan ortig'ini ijtimoiy tarmoqlardagi reklamalarga sarf qilishadi.[3.3] Facebook dagi mavjud imkoniyatlar va foydalanuvchilar sonining ko'pligi samarali reklamaga imkoniyat beradi.

Xalqaro yo'nalishda o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan turistik faoliyat subyekti xizmatlar va mahsulotlarini chet elga reklama qilishda, o'zi haqida ma'lumotlar berishda turli xalqaro yarmarkalar, dasturlarda qatnashishi bilan birgalikda ancha samarali va arzon bo'lgan usullardan biri ijtimoiy tarmoqlardagi reklamalardan foydalanishi ham mumkin. Buning uchun internet ijtimoiy tarmoqlarida foydali va ta'sirli usullar jamlangan. Birgina kichik mehmonxona biror ijtimoiy tarmoqda o'z sahifasiga ega bo'lsa, ushbu sahifadagi foydalanuvchilar e'tiborini qozonish imkoniyati ortadi. Sababi, hozirgi kunda sayohatini rejalashtirayotgan kishi avvalambor internet ma'lumotlari asosida o'zi uchun biror mehmonxona tanlaydi. Agar u ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo'lsa, ijtimoiy tarmoqlardagi e'lonlar, reklamalar va sahifalarga tayanadi. Umuman ko'pchilik insonlar uchun ijtimoiy tarmoqdagi ma'lumotlar eng ishonchli va samarali hisoblanadi. Zero, ijtimoiy tarmoq o'z nomi bilan ijtimoiy maqsadlarni ko'zlaydi.

Reklama nazariyasi jihatdan olib qaralganda ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan sahifalar va turli guruhlardagi postlar (havolalar) orqali berilgan e'lonlar televideniya, radio va gazeta kabi manbalardan ko'ra ancha samaraliroq va qulay hisoblanadi. Buni yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar ham isbotlaydi. Aynan mehmonxona sohasida olib qaraydigan bo'lsak, hozirgi kunda urf bo'lgan tripadvisor, booking.com kabi rasmiy web-saytlar tarmog'i har qanday mehmonxonaning faoliyati bir bo'lagiga aylanib ulgurgan. Chunki, xorijiy sayyohlarning asosiy qismi aynan yuqoridagi kabi tarmoqlarda mehmonxona tanlaydi va uni bron qiladi (band qiladi). Bunday turdagi tarmoqlarni ham ijtimoiy-biznes tarmoqlari deya atash mumkin. Chunki, ular ijtimoiy maqsadlar bilan birgalikda, biznes tashabbusini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni, bunday saytlardan foydalanishdan ko'zlangan maqsad biror mehmonxona haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish (uning narxi, darajasi, undagi ko'rsatiladigan xizmatlar va h.k.) va uni band qilishdan iborat. Band qilish esa bevosita elektron to'lovlar va elektron ro'yxatdan o'tishni o'z ichiga oladi.

Demak, mehmonxona sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarga yordam beradigan va ularning mijozlarni ko'proq jalb qilish maqsadini ko'zlovchi internet ijtimoiy tarmoqlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- band qilish va biznesga asoslangan (tripadvisor, booking.com va h.k.);
- rasmiy va biznesga asoslangan (mehmonxonaning o'z web-sayti);
- savdo va biznesga asoslangan (orexca.com, olx.uz va h.k.);
- ijtimoiy media saytlar (youtube, snapchat va h.k.);

- turli norasmiy saytlar va bloglar yaratishga qaratilgan ijtimoiy kontent saytlar (wordpress, AOL/Nielsen va h.k.);
- maxsus tarmoqlangan va guruhlar uchun mo'ljallangan ijtimoiy messenjerlar (telegram, whatsapp va h.k.);
- ijtimoiy ko'ngilochar saytlar (daryo.uz, fikr.uz va h.k.);
- video va foto kommunikatsion ijtimoiy tarmoqlari (imo, instagram va h.k.);
- ijtimoiy va erkin ensiklopediyalar (Wikipedia, encyclopedia va h.k.);
- ijtimoiy va ommaviy, qidiruvga mo'ljallangan saytlar (google, yandex va h.k.);
- elektron pochta tarmoqlari (mail.ru, gmail.com va h.k.);
- ijtimoiy konsultativ saytlar (Pinterest, consulting va h.k.);
- reklama va biznesga asoslangan (yellowpages of Uzbekistan, market.ru va h.k.);
- rasmiy hukumat portallari (my.gov.uz, lex.uz va h.k.);
- ilmiy va tadqiqot saytlari (google scholar, ziyonet.uz va h.k.);
- rasmiy tashkilotlar web-saytlari (sies.uz, kamolot.uz va h.k.);
- ijtimoiy internet tarmoqlari (facebook, twitter va h.k.) va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan turdagi web-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa shu kabilarni mehmonxona biznesining har jabhasida foydalansa bo'ladi. sababi, mehmonxona uzluksiz xizmat ko'rsatish jarayonini shakllantiradi va xizmatlar sifatining darajasi bevosita axborotlarga ham bog'liq. Aytaylik, reklama, biznes, savdo va bronlashga asoslangan saytlarning mehmonxonaga nima uchun kerak ekanligi ma'lum: ular orqali ma'lum sahifa yoki blog yaratiladi va shu orqali mijozlarga ma'lumotlar ulashiladi. Ammo, qolgan turdagi ijtimoiy tarmoqlar va shu tipdagi boshqa saytlar nima uchun kerak, degan savol tug'ilishi aniq. Shunisi qiziqki, mehmonxonaning xalqaro jihatdan faol va ko'proq mijoz jalb qilish funksiyasi yuqoridagi barcha turdagi internet tarmoqlariga bog'liq. Shuning uchun ham ular xalqaro ijtimoiy tarmoqlar deya ataladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi davr xalqaro turizmning keskin rivojlanib borayotgan davri hisoblanadi. Mehmonxonalar esa turizm industriyasining asosini tashkil qiladi. Mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyohlarning ijobiy taassurot olib qaytishlari ham bevosita mehmonxonalarga bog'liq. Turizmda joylashtirish vositalarini rivojlantirish masalasini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861 – sonli farmonida ham alohida belgilab qo'yilgan. Xususan, mamlakatimizda mehmonxona faoliyatini boshlamochi bo'lgan tadbirkorlar uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilmoqda[1]. Shunday ekan, bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalanish bevosita mehmonxona faoliyati subyektlari zimmasidadir. Xalqaro ijtimoiy tarmoqlar ham mehmonxona faoliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'la oladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861 – sonli farmoni.
2. Turizm asoslari. -Darslik, Tuxliyev I., Hayitboyev R., Amriddinova R., Tursunova G., - Samarqand, 2014.
3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami hukumat rasmiy web-sayti.
4. www.brandwatch.com – yuqori brendli kompaniyalar statistikasi rasmiy web-sayti.
5. www.statista.com – ijtimoiy statistikalalar rasmiy web-sayti.

УДК: 378.147

ПРОГРАММА ПОДГОТОВКИ МЕНЕДЖЕРОВ К КОНСТРУКТИВНОМУ ВЗАИМОДЕЙСТВИЮ В СИТУАЦИИ КОНФЛИКТА

М.Нарзулаева

Ташкентский государственный педагогический университет

Аннотация: В статье раскрыт процесс разработке программы подготовки менеджеров к конструктивному взаимодействию в ситуации конфликта, описаны шесть основных модулей,

условные этапы, обеспечивающие последовательность подготовки различных специалистов, а также групповые дискуссии, тренинги, мини-лекции, упражнения.

Ключевые слова: конструктивное взаимодействие, ситуация конфликта, программа подготовки.

Annotatsiya: Maqolada nizoli vaziyatda menejerlarni o‘zaro konstruktiv hamkorlikka tayyorlash dasturini ishlab chiqish jarayoni, turli mutaxassislarni tayyorlash izchilligini ta’minlovchi olti asosiy modul, shartli bosqichlari hamda guruhviy muhokama, trening, kichik-ma’ruza va mashqlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zaro konstruktiv hamkorlik, nizoli vaziyat, tayyorlash dasturi.

Abstract: The article discloses a process for the development of training programs for managers to engage constructively in a conflict situation, described six main modules, conditional steps to ensure that the sequence of preparation of various experts, as well as panel discussions, workshops, mini-lectures, exercises.

Keywords: constructive interaction, conflict situation, the training program.

Программа подготовки менеджеров к конструктивному взаимодействию в ситуации конфликта была подготовлена с целью формирования, коррекции и развития ценностно-мотивационной, эмоционально-волевой сфер, эмоционального интеллекта, управленческого стиля, а также совершенствования умений и навыков сотрудничества, поддержки, взаимопомощи, необходимых для эффективного конструктивного взаимодействия менеджеров в ситуации конфликта.

Данная программа предусматривает достижения установленной цели по средствам реализации шести основных модулей включающих групповые дискуссии, тренинги, мини-лекции, упражнения и проводится в течение трех месяцев, без отрыва от основной профессиональной деятельности подготавливаемых менеджеров.

Программа подготовки менеджеров предусматривает шесть основных модулей. Практическая реализация каждого модуля также предусматривает соответствующие условные этапы: диагностически мотивационный этап; теоретический этап; коррекционно - тренировочный; творческий этап.

Разделение каждого модуля на четыре условных этапа произведены не случайно. Они обусловлены, прежде всего, тем, что в теории, научно обоснованны и описаны несколько различающиеся по названию, но не по содержанию эффективные этапы обучения, которые можно характеризовать как последовательные уровни подготовки различных специалистов [1].

Далее полагаем целесообразным более подробно рассмотреть содержание основных модулей программы подготовки менеджеров к конструктивному взаимодействию в ситуации конфликта.

Модуль № 1 - Вступительный.

Основные цели:

- ознакомить менеджеров с содержанием программы подготовки, природы и феноменологии конфликта как социокультурного явления современности;

- создать благоприятные социально-психологические условия для формирования, коррекции и развития ценностно-мотивационной, эмоционально-волевой сфер, эмоционального интеллекта, управленческого стиля, а также совершенствования умений и навыков сотрудничества, поддержки, взаимопомощи, необходимых для эффективного конструктивного взаимодействия менеджеров в ситуации конфликта.

1. Диагностически мотивационный этап - знакомство с менеджерами, ознакомление с содержанием программы подготовки, её возможностями и эффективностью, оценка уровня конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта с учетом интерпретации диагностических шкал инструментария (опросник самооценки менеджером уровня конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта).

2. Теоретический этап - проведение мини-лекции на тему: «Современное понимание конфликта», в ходе которой доводится до менеджеров следующие основные понятия, а также раскрывается современное понимание конфликта.

3. Коррекционно-тренировочный этап - проведение группового упражнения на тему: «Формирование адекватного отношения к конфликту», с целью формирования адекватного отношения к конфликту как природного феномена, активизация знаний относительно конструктивных и деструктивных функций конфликта. После окончания упражнения проводится групповая дискуссия на тему: «Положительные и отрицательные аспекты конфликтов в организациях». В ходе дискуссии выясняется отношение участников к конфликтам, и определяются преимущества существования конфликтов.

4. Творческий этап - рефлексия относительно неизбежности наличия конфликтных ситуаций в пространстве жизнедеятельности человека. В ходе данного этапа проводится упражнение на тему «Ассоциация», с целью самооценки менеджерами отношения к конфликтам. Далее проводится упражнение на тему: «Идентификация конфликтов» с целью развития навыков идентификации конфликтов.

Модуль 2. Анализ ситуации конфликта в организационных структурах.

Цель: создать благоприятные социально-психологические условия для формирования, коррекции и развития социально-психологических особенностей менеджеров предопределяющих их конструктивное взаимодействие в ситуации конфликта, а также совершенствования соответствующих умений и навыков.

1. Диагностически мотивационный этап - изучения эмоционального интеллекта менеджеров (Опросник эмоционального интеллекта «ЭМИн» Люсина Д.В.), ценностно-мотивационной сферы менеджеров (Морфологического теста жизненных ценностей Сопова В.Ф., Карпушина Л.В., Опросника диагностики мотивационной структуры личности Мильмана В.Э.).

2 Теоретический этап - проведение мини-лекции на тему: «Факторы продуцирующие ситуацию конфликта» с целью раскрытия основных факторов, продуцирующие ситуацию конфликта в управленческой деятельности (цели, ценности, сильные и слабые стороны, потенциальные возможности субъектов конфликта, предсказуемые и неожиданные риски, учет обстоятельств полезной напряженности, общая атмосфера).

3. Коррекционно-тренировочный этап - проведение упражнения на тему: «Выработка алгоритма анализа ситуации конфликта (адаптированная методика ситуационного анализа Дж. Мак-Каллоу)» с целью практической выработки алгоритма анализа ситуации конфликта. Далее проводится упражнение на тему: «Слушаю», с целью развития эмоционального интеллекта, навыков активного слушания.

4. Творческий этап - проведение групповой дискуссии на тему: «Конструктивное взаимодействие менеджера в ситуации конфликта», с целью выяснения отношения участников к конструктивному взаимодействию в ситуации конфликта.

Модуль 3. Анализ конструктивного взаимодействия менеджера в ситуации конфликта

Цель: диагностировать предпочитаемые модели поведения менеджеров в ситуации конфликта, раскрыть сущность конструктивного взаимодействия менеджера в ситуации конфликта и необходимые социально-психологические особенности, обеспечивающие ее эффективность.

1. Диагностически мотивационный этап - проводится исследование эмоционально-волевой сферы менеджеров (Опросника волевых качеств личности Чумакова М.В., Тест-опросника «ЕРІ» Айзенка Г.), диагностика и рассмотрение моделей поведения в ситуации конфликта и способы их решения путем проведения упражнения на тему: «Модели поведения в ситуации конфликта», которое строится на основе доведения трех условных моделей поведения в ситуации конфликта. Далее проводится упражнение на тему: «Самооценка конструктивности поведения в конфликте», с целью диагностики конструктивного поведения в конфликте.

2 Теоретический этап - проведение мини-лекции на тему: «Конструктивное взаимодействие менеджера в ситуации конфликта», в ходе которой доводится сущность конструктивного взаимодействия менеджера в ситуации конфликта и необходимые социально-психологические особенности.

3. Коррекционно-тренировочный этап - проведение тренинга на тему: «Организация конструктивного взаимодействия менеджера в ситуации конфликта, коррекция социально-психологических особенностей обеспечивающие ее эффективность», с целью определения основных моделей поведения менеджера в ситуации конфликта с реализацией

соответствующих социально-психологических особенностей обеспечивающие ее эффективность. Далее проводится упражнение на тему: «Проба на роль», с целью развитие навыков конструктивного межличностного взаимодействия в ситуации конфликта.

4. Творческий этап - моделирование и презентация ситуаций в профессиональной деятельности менеджера, решение которых потребует реализации социально-психологических особенностей обеспечивающие эффективность конструктивного взаимодействия. Проводится упражнение на тему: «Имитационно-ролевое разыгрывание конфликтных ситуаций», с целью формирования, коррекции, развития ценностно-мотивационной, эмоционально-волевой сфер, эмоционального интеллекта, управленческого стиля менеджеров.

Модуль 4. Сотрудничество в решении проблем (тактика примирения).

Цель: формирование, коррекция и развитие социально-психологических особенностей менеджеров предопределяющих их конструктивное взаимодействие в ситуации конфликта, а также совершенствования соответствующих умений и навыков по внедрению стратегии сотрудничества в решении проблем путем реализации тактики примирения.

1. Диагностически-мотивационный этап - определение уровня способности к реализации стратегии сотрудничества в решении проблем. Проведение упражнения на тему «Стратегия сотрудничества» (разработан на основе рекомендаций Х. Корнелиус и Ш. Фэйр).

2. Теоретический этап - проведение мини-лекции на тему: «Тактика применения сотрудничества в решении проблем», в ходе которой доводятся составляющие тактики сотрудничества в решении проблем.

3. Коррекционно-тренировочный этап - проведение упражнения на тему: «Действия менеджера по реализации стратегии сотрудничества», с целью определения действий менеджера путем реализации стратегии сотрудничества в управленческой деятельности. Далее проводится упражнение на тему: «Примерка ролей», с целью развития эмоционального интеллекта, ценностно-мотивационной сферы менеджеров.

4. Творческий этап - определение положительной перспективы, поиск нестандартного решения конфликтных ситуаций на основе согласованных правил сотрудничества, алгоритм выработки взаимовыгодных решений, поэтапного переговорного процесса, проводится упражнения на темы: «Одно и тоже по-разному», «Нестандартные решения конфликтных ситуаций», «Принятие решений в ситуации конфликта».

Модуль 5. Технология разрешения конфликта

Цель: формирование, коррекция и развитие социально-психологических особенностей менеджеров (ценностно-мотивационная, эмоционально-волевая сферы, эмоциональный интеллект, управленческий стиль), а также совершенствования соответствующих умений и навыков по созданию и реализации технологии разрешения конфликта для обеспечения конструктивного взаимодействия в управленческой деятельности.

1. Диагностически-мотивационный этап - исследования стиля управления («Склонность к определенному стилю руководства», разработанного Ильиным Е.П.). Далее на основе самооценки, самоанализа, результатов групповой дискуссии определить уровень субъектного опыта межличностного взаимодействия менеджеров в ситуации конфликта, проведение групповой дискуссии на тему: «Стратегия и технология переговоров».

2. Теоретический этап - проводится мини-лекция на тему: «Технологии конструктивного взаимодействия». В ходе лекции раскрываются механизмы переговоров, процесс планирования и проведения эффективных переговоров, качественных презентаций.

3. Коррекционно-тренировочный этап - проводится дискуссия на тему: «Переговорные технологии» с целью совместного обсуждения с менеджерами ситуаций конфликта с возможным участием посредника для достижения согласия. Далее проводится упражнение на тему: «Переговоры», с целью отработки навыков делового общения в переговорах, урегулирования конфликта, достижения согласия, а также упражнения на темы: «Соблюдение дистанции», «Эмоции», с целью развития эмоционального интеллекта и упражнения на тему: «Помиришь с другом», «Плохой день», «Выпусти пар» с целью коррекции эмоционально-волевой сферы менеджеров.

4. Творческий этап - предусматривает самостоятельную разработку менеджерами авторской технологии конструктивных действий менеджера в ситуации конфликта.

Модуль 6. Техника конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта. Преодоление межличностных барьеров коммуникации в ситуации конфликта

Цель: формирование, коррекция и развитие социально-психологических особенностей менеджеров (ценностно-мотивационная, эмоционально-волевая сферы, эмоциональный интеллект, управленческий стиль), а также совершенствования соответствующих навыков применения техник конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта.

1. Диагностически-мотивационный этап - проводится упражнение на тему: «Экспертная оценка» с целью определения уровня применения менеджерами техники конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта и их ориентация на развитие ценностно-мотивационной, эмоционально-волевой сфер, эмоционального интеллекта, управленческого стиля, а также совершенствования соответствующих навыков применения техник конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта.

2. Теоретический этап - проводится мини-лекция на тему: «Основные требования к реализации техник урегулирования ситуаций конфликта» с целью доведения до менеджеров основных требований к реализации техник урегулирования ситуаций конфликта в управленческой деятельности менеджеров и условиях их внедрения.

3. Коррекционно-тренировочный этап - проведение упражнения на темы: «Выход из контакта», «Вольные мысли», «Приветствие», «Невербальное общение», «Привет друг», «Больница» с целью развитие эмоционально-волевой сферы, эмоционального интеллекта, навыков эффективного общения, умения устанавливать контакт.

4. Творческий этап - импровизация конструктивного взаимодействия в смоделированных менеджерами ситуациях конфликта в сфере профессиональной деятельности, оценка уровня конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта с учетом интерпретации диагностических шкал авторского инструментария (опросник самооценки менеджером уровня конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта).

Далее проводится упражнение на тему: «Анализ жизненного пути», в ходе которого с менеджерами проводится индивидуальная беседа, подводятся итоги подготовки, индивидуально доводятся результаты заключительной оценки уровня конструктивного взаимодействия в ситуации конфликта с учетом интерпретации диагностических шкал, обсуждаются возможности и жизненные цели, менеджером разрабатывается личный жизненный план.

Таким образом, программа подготовки менеджеров к конструктивному взаимодействию в ситуации конфликта подготовлена с целью формирования, коррекции и развития ценностно-мотивационной, эмоционально-волевой сфер, эмоционального интеллекта, управленческого стиля, а также совершенствования умений и навыков сотрудничества, поддержки, взаимопомощи, необходимых для эффективного конструктивного взаимодействия менеджеров в ситуации конфликта.

Данная программа предусматривает достижения установленной цели по средствам реализации шести основных модулей включающих групповые дискуссии, тренинги, мини-лекции, упражнения и проводится в течение трех месяцев, без отрыва от основной профессиональной деятельности подготавливаемых менеджеров, что дает возможность им проходить подготовку не теряя основного вида профессиональной деятельности, заработка, апробируя все получаемое (приобретаемое) на непосредственной практике. Практическая реализация каждого модуля также предусматривает соответствующие условные этапы, обеспечивающие последовательность подготовки различных специалистов.

Вместе с тем, для применения данной программы на практике необходимо её эмпирическое апробирование на соответствующей выборке, с дальнейшим проведением сравнительного анализа с целью определения эффективности предусмотренных дискуссий, тренингов, мини-лекций и упражнений.

Литература.

1. Ануфриева Н.М. Повышение уровня коммуникативной компетентности менеджеров как задача их профессиональной подготовки // Теоретико-методологические проблемы совершенствования психологической подготовки менеджеров. Приложение № 3 (8) к научному журналу «Персонал», №1 (55). - Киев: «МАУП», 2000. - С. 54 - 57.,

2. Мухамедова Д.Г. Личностно-ориентированная подготовка менеджера образования к профессиональной деятельности. XXI-Асрда психологик хизматни ташкил этишининг долзарб муаммолари, Сборник тезисов международной конференции, Бухоро-2013. с.91-94., Шаик Д. Как подготовить менеджеров XXI века // Проблема теории и практики управления. - 1998. - № 1. - С. 21-26.

UDK 339.92

THE IMPORTANCE OF NEW SILK ROAD TRADE

O.Ruzibaev

Samarkand State University

Abstract. The great Silk Road played an important role in development of the countries and linking countries of the world. According to importance of the above mentioned the article covers topics on history and present and future perspectives of the Great Silk Road. This article was produced using UNCTAD's publication and various other existing resources.

Keywords: the great Silk Road, trade, economy, indicators, tourism.

Значение торговых отношений в новом Шелковом Пути

Аннотация. Великий Шелковый путь играл важную роль в развитии многих государств и укреплении связей между ними. Исходя из актуальности данного вопроса в данной статье рассматриваются вопросы прошлого, настоящего и будущих перспектив развития Великого Шелкового Пути. Статья была подготовлена на основе данных UNCTAD и других публикаций.

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, торговля, экономика, показатели, туризм.

Zamonaviy Ipak Yo'lining savdoda aloqalaridagi ahamiyati

Annotatsiya. Buyuk Ipak yo'li ko'pgina davlatlar taraqqiyoti hamda ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutgan. Ushbu masalaning ahamiyatidan kelib chiqib, maqolada Buyuk Ipak Yo'li taraqqiyotining tarixi, buguni va kelajagi xorijiy tahlil qilingan. Maqoladagi ma'lumotlar UNCTAD hamda boshqa aloqador xorijiy manbalar asosida tayyorlangan.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak Yo'li, savdo, iqtisodiyot, ko'rsatkichlar, turizm.

Introduction

For almost 3,000 years, the Silk Routes were important paths for commercial, cultural, and technological exchange between traders, merchants, pilgrims, missionaries, soldiers, rulers, nomads and urban dwellers from Ancient China, India, Persia, Asia Minor, and countries of the Mediterranean. Extending over 6,000 miles, the routes enabled people to transport goods, especially luxuries such as silk, slaves, satin and other fine fabrics, musk, perfumes, spices, medicines, jewels, glassware and porcelain. The routes served as a conduit for the spread of knowledge, ideas, religions, cultures, and disease between different parts of the world (along with maritime routes from China, India, Asia Minor, Europe, Arabia, North Africa, and the Mediterranean). Trade on the Silk Road was a significant factor in the development of the great civilizations of China, India, Egypt, Persia, Arabia and Rome, and in several respects helped lay the foundations for the modern world.

Lying at the heart of the ancient Silk Road, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, Uzbekistan and the four western Chinese provinces (Gansu, Ningxia, Shaanxi and Xinjiang) are part of a historic hub of exchange of goods, culture and technology between East and West.

However, as a result of the fall of ancient empires, strife and the emergence of new forms of transport, the trade route of antiquity gradually fell into disuse for centuries. Its potential only revived after the dissolution of the former Soviet Union in the 1990s, when the Central Asian countries commenced their transformation to market economies and their reintegration into the world economy. During the same period, western China benefited from the rapid growth of China's economy. The Silk Road region as a whole has experienced strong economic growth and is emerging as an important foreign investment destination.

With the aim of leveraging its location at the heart of the Eurasian continent and strengthening links to the international market, governments in the Silk Road region have put in place ambitious

plans to upgrade infrastructure and develop a strong regional transportation hub. Over the past 20 years the regional railway network has been revitalized, and allows access to landlocked countries such as Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan. All countries in Central Asia have prioritized transportation improvements. In Kazakhstan, the government has put in place various programmes to upgrade its infrastructure to meet the objective of doubling its transit capacity by 2020 and increasing it tenfold by 2050. Similar programmes across the region indicate the urgency with which the region wishes to rejuvenate transportation, and major investment opportunities exist in infrastructure development and modernization, and the provision of transportation and logistics services in the region.

Political and economic developments since 1991

The break-up of the former Soviet Union in 1991 dramatically transformed the political and economic landscape of the modern Silk Road. In a short period, the various territories that made up the former Soviet Union became independent sovereign states. Under the former Soviet Union, the Central Asian territories were integrated into the Soviet economic system. Specialized production and trading of unique resources were often allocated to the various regions. However, the break-up of the former Soviet Union left all of the newly independent Central Asian countries landlocked, with small markets, jigsaw puzzle-like borders and insignificant external markets. Not surprisingly, the Central Asian economies initially suffered severe economic contraction during their transition following independence. Trade within Central Asia collapsed after the dissolution of the former Soviet Union because trade links were broken and transit was impeded by new border restrictions. Newly erected border barriers and political turmoil in the region saw intraregional trade decline

Many of the Central Asian economies have received a strong boost from the oil, gas and mining sectors. Most countries enjoyed healthy economic growth in the last decade, and have seen vibrant recovery from the world economic crisis. In 2011, all Central Asian economies recorded growth above 7% – the most dynamic among all sub-regions of Asia. Benefits from China's economic growth spurt have trickled down to western China, including the four provinces covered by this investment guide, with more resources and economic activities flowing to the region.

Increasing economic connection in the region

Despite the close historic relations and kinship in culture and language, in the past economic links between the five Central Asian countries were limited. This was true even when these countries were part of the former Soviet Union, as each maintained external economic connections oriented more towards Moscow than between themselves.

Central Asia and western China's geographic remoteness added to the isolation of the region, and has been considered a stumbling block in the quest to extend communications, develop new markets and attract foreign investment. Uzbekistan, for instance, is one of only two double-landlocked countries in the world (a landlocked country surrounded by other landlocked countries). Urumqi, the capital of China's Xinjiang Uyghur Autonomous Region, is the world's city farthest from a sea port. As a result, transport costs tend to be high into and out of the Silk Road countries because of the need to cross multiple land borders and the lack of ability to ship goods by sea. However, with ongoing development in regional railways, roads and pipelines, this geographic seclusion can be turned to an advantage. With an aim to leverage the central position of the region between East and West to exploit trade and investment opportunities, efforts have been made to facilitate cross-border transport and increase trade. While intraregional trade only accounts for 10– 20% of the total trade of the Central Asian region, it is increasingly important for a variety of sectors (except for major commodities, such as energy products, metals and ores). For example, trade in agricultural products (other than cotton fibre) and foodstuffs, machinery and equipment, construction materials, fertilizers and other chemicals accounts for over 40% of intraregional trade, while these same products account for less than 20% in trade with the rest of the world. Once movement of resources, goods and people becomes easier within the region, the new Silk road will offer foreign investors an attractive market with approximately 155.3 million people and a total GDP of approximately \$774 billion (tables I.1 and I.2).

Apart from their intraregional ties, the Central Asian countries are also firming up global trade links through bilateral or multilateral arrangements. The most significant is the Belarus-Kazakhstan-Russian Federation Customs Union, which came into force in 2010 and offers investors a market with a population of approximately 167 million and a GDP of approximately \$2.1 trillion.

Table I.1. Silk Road GDP and GDP per capita, 2012

	GDP (\$ millions)	GDP per capita (\$)	Income classification by the World Bank
Silk Road	773 974	4 984	
Central Asian countries:^a			
Kazakhstan	202 656	12 455	Upper middle income
Kyrgyzstan	6 475	1 183	Low income
Tajikistan	7 633	935	Low income
Turkmenistan	33 466	6 469	Upper middle income
Uzbekistan	51 414	1 801	Lower middle income
Chinese provinces:^b			
Gansu	89 273	3 482	Upper middle income
Ningxia	36 761	5 753	
Shaanxi	228 329	6 100	
Xinjiang	117 968	5 340	

Source:^a UNCTADSTAT.^b National Bureau of Statistics of China (2012) (converted rate of 1 Chinese yuan = \$0.1590).

Table I.2. Silk Road land area and population

	Total land area (thousand square kilometres)	Population 2012 (millions)
Silk Road	6 379.4	155.3
Central Asian countries:^a		
Kazakhstan	2 724.9	16.3
Kyrgyzstan	199.9	5.5
Tajikistan	142.6	8.0
Turkmenistan	488.1	5.2
Uzbekistan	447.4	28.5
Chinese provinces:^b		
Gansu	453.7	25.5
Ningxia	51.8	6.5
Shaanxi	205.8	37.5
Xinjiang	1 664.9	22.3

Source:^a UNCTADSTAT.^b National Bureau of Statistics of China.

The lure to transnational corporations (TNCs) lies in the promising regional market rather than modestly sized national markets. And some TNCs have indeed been prompted to set up regional headquarters in economic hubs, such as Almaty, from which they steer their operations in the region. While the Silk Road region as a whole is making efforts to rejuvenate itself as a new commercial route connecting the West and the East, it is worth noting that the openness of individual economies remains varied, and countries take different approaches to regional economic cooperation. Turkmenistan, for example, cherishes its neutral statehood, and is not an active participant in most regional economic arrangements.

Economic Opportunity of a New Silk Road

Central Asia offers many opportunities for economic growth. It is a region with rich natural resources, an educated labour force and a location in close proximity to major emerging markets. The openness of trade in the Central Asian economies is high by international standards, and is mainly driven by exports of oil, gas and mining products. In terms of the ratio of merchandise and service trade as a percentage of GDP, Turkmenistan ranks first in the region (78% in 2011), while Kyrgyzstan follows at 61%. Kazakhstan, Uzbekistan and Tajikistan's merchandise and service trade constitutes 52%, 27% and 34% of GDP, respectively. Tajikistan and imports from the Silk Road by Turkmenistan remain a small portion of their respective total exports and imports. In addition, despite multifold growth of imports and exports between Central Asian countries and China, trade with Central Asia only accounts for about 1% of China's total imports and exports, which also suggests an enormous potential for intraregional trade in different sectors that has yet to be tapped.

Tourism

Tourism is one of the world's largest growth industries, and the Silk Road economies are beginning to tap into it. International tourist arrivals are rising in the Silk Road as a whole, but the level of tourists remains low in some of the countries (see tables III.1). As the biggest tourism destination in Central Asia, Kazakhstan has experienced a healthy growth although the financial crisis did have an impact. In Kyrgyzstan international tourists nearly doubled and revenues soared between 2007 and 2011. Uzbekistan also saw a steady growth in international tourism receipts. Meanwhile, the potential of the tourism markets of Turkmenistan and Tajikistan have barely been tapped, which indicate promising investment opportunities for foreign investors, in particular in light of the wealth of cultural and natural tourism resources of the two countries.

Table III.1. International tourist arrivals in the Silk Road countries (thousands)

Country	2007	2008	2009	2010	2011
China	54 720	53 049	50 875	55 664	57 581
Kazakhstan	3 876	3 447	3 118	3 393	4 093
Kyrgyz Republic	1 656	2 435	2 147	1 316	3 114
Tajikistan
Turkmenistan	8
Uzbekistan	903	1 069	1 215	975	..

Source: ADB (2012), Key Indicators for Asia and the Pacific 2012.

At present, the Silk Road's greatest tourism potential lies in developing cultural and historical attractions and ecotourism. The ancient Silk Road left a legacy of fascinating places to visit. Ancient mosques, emperors' tombs and relics can be found throughout the region. For instance, Samarkand's Registan Square in Uzbekistan, a complex of three madrassahs (Islamic colleges), is considered one of the greatest Islamic monuments in the world. Xi'an (Shaanxi) has the world famous terracotta warriors. The Mogao Grottoes in Gansu Province have 491 caves preserved with 2 400 sculptures and 45 000 square metres of mural paintings, with the earliest dating back to A.D. 366. The other high-potential regional tourism subsector is ecotourism. The Silk Road contains some of the most scenic landscapes in Asia, and the low population density in much of the region offers the potential for excellent nature and other outdoor tourism activities. Diverse landscapes featuring high mountains, glaciers, caves, lakes, rivers, hot springs and steppes can be found throughout the region.

Energy

The Silk Road has the potential to become a significant supplier to help meet the world's energy needs. Kazakhstan, Turkmenistan and Uzbekistan are among the leading countries in the world in terms of oil reserves and natural gas. Kyrgyzstan and Tajikistan harbour vast hydropower potential, while Xinjiang has the largest reserves of oil, natural gas and coal in China.

Mining

The Silk Road countries hold some of the world's largest shares of several minerals. For example, Kazakhstan holds one third of the world's chromium and manganese deposits and has among the world's largest reserves of iron ore (eighth), coal (eighth), uranium (second), gold (eighth) and copper (fourth). Kyrgyzstan is most noted for its gold reserves, which also constitute about one third of its exports. Uzbekistan is among the world's largest uranium and gold reserve countries. Tajikistan has rich reserves of silver, gold and other precious metals.

Agro-business

The Silk Road contains highly fertile soil suitable for growing cash crops and speciality crops. Agrobusiness is therefore historically important for all economies in the region.

Huge and sparsely populated territory and diverse climatic conditions make Kazakhstan ideal for developing agro-business. Kazakhstan is the six biggest wheat exporter in the world. The country produces approximately 13 million tons of wheat on average annually, of which between 2 and 8 million tons is exported, mainly to destinations in Europe (including the Russian Federation and Ukraine), northern Africa and Central Asia.

In Kyrgyzstan the main agricultural products are grain (wheat and barley), vegetables, cotton and tobacco. Vegetables, especially onions, are a major export product. The country grows a large amount of potatoes, but only 1% of the harvest is actually processed because of lack of appropriate facilities. Fruits and nuts are another speciality, but the volumes processed are low.

Cotton is also important for neighbouring Uzbekistan, which is one of the world's largest cotton producers. Other important agricultural products include raw silk, fruits and vegetables, significant quantities of which are exported to its neighbouring countries.

Other countries of Central Asia are important producers and exporters of a variety of agricultural products, ranging from fruit and cotton to edible oils and vegetables. However, only small portions of these products are processed before they are consumed or exported.

Other industries

Given the vast potential of oil, gas and other mineral resources across Central Asia, the chemical – especially petrochemical – industry provides good opportunities for investors.

There is a growing trend to manufacture machinery in Central Asia for the major industries such as oil and gas, mining and agri-business. There have also been developments in the automotive parts and automobile manufacturing industry in Kazakhstan and Uzbekistan. Shaanxi Province and Xinjiang Autonomous Region of China also attracted automobile producers such as Volkswagen to set up manufacturing facilities in their respective provinces.

Conclusion

The Silk Road economies' exceptionally rich resource endowment, educated labour force and strategic location connecting East and West, present a great attraction to resource and strategic assetseeking investors. Meanwhile, thanks to robust economic growth, which has been among the fastest in the world in recent years, the region is turning its huge potential into profitable opportunities, and has become a substantial market for investors. With 155 million people living in the region, the Silk Road not only offers investors a promising regional market, but also access to a vast market within its proximity, including China, the Russian Federation and Turkey. Other attractions for international investors include its continuously improving investment environment, strengthened infrastructure, relative political and social stability across the region, and ongoing efforts to boost intraregional and interregional economic integration.

Referènces

1. Asian Development Bank. Key Indicators for Asia and the Pacific , 2012.
2. Duchidze, N. The Great Silk Road, 1999.
3. NCTAD, U. "UNCTAD stat." Database, unctadstat. unctad.org, 2015.
4. Yearbook, China Statistical. "National Bureau of statistics of China." China Statistical Yearbook , 2012.
5. <http://www.stat.uz> – The State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics.

MOVAROUNNAHR FIQH MAKTABI

Muqimov Z.

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola muallifning qator yillar davomida O‘zbekiston huquqining asosiy tarixiy manbalarini (VIII-VI asrlar) tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalaridan iborat bo‘lib, Movarounnahr fiqh maktabining o‘ziga xos tomonlari ochib berilgan.

Kalitso‘zlar: islom huquqi, ijthod qilish, huquqning interpolyasiyalanishi, huquq manbalari, fiqh maktabi.

Школа фикха Мавераннахра

Аннотация. В статье представлены результаты многолетних историко-правовых исследований основных исторических источников права в Узбекистане (VIII-VI в.в.) и школы фикха в Мавераннахре.

Ключевые слова: исламское право, интерполяция права, источники права, школа фикх.

School of fiqh of Mavreenahr

Abstract. This article is a basic result of long term historic – legal research of main historical sources of law in Uzbekistan (VIII-VI centuries) and Mavreenahr school of fiqh.

Keywords:

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixining eng muhim davrlaridan biri arablar istilosi va islom huquqining yoyilishi davri bo‘lib, bu davr muammolarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi ilm-fanning turli tarmoqlari, shuningdek, fiqh bo‘yicha musulmon dunyosida hozirgacha qadrlanib kelinayotgan boy huquqiy merosni yaratganlar. Hozirgi O‘zbekiston hududi esa islom huquqi va uning institutlari, qo‘llanmalar yaratish, Hanafiylik huquqiy tizimini takomiliga yetkazish va yoyish markazlaridan biri bo‘lib kelgan. “Musulmonlar, - degan edi, yevropalik arabshunos prof. Sedullat o‘zining “Arablar tarixi” kitobida, - o‘rta asrlarda ilm, fan va falsafada yagona edilar. Ular bu narsalarni qadamlari qayerga yetsa, shu yerga yoydilar, ular orqali Yevropada ham keng tarqaldi. Yevropaning uyg‘onish va taraqqiyotining asosiy sababchilari musulmonlardir.” Arablar tomonidan olib kirilgan musulmon dini va uning huquqiy falsafasi asosida shakllangan islom huquqi o‘sha davrga nisbatan olib qaralganda tabiiy hodisa edi. Chunki bu davrda G‘arbiy Turk hoqonligi tarkibida bo‘lgan hozirgi O‘zbekiston doirasida ko‘p dinlilik (politeizm) va huquq tarqoqligi (partikulyarizm) mavjud edi. Yakka xudolikka asoslangan islom dini va musulmon huquqi ana shularga barham berdi. Bundan tashqari, VI-VII asrlarda bu yerda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi borasida shaxsan ozod, yollanib ishlovchi dehqonlarning mehnatiga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllanayotgan edi. Turklar va sug‘diylarning rivojlangan huquq tizimlari bo‘lsa-da, yangi munosabatlar yangicha huquq yaratishni taqozo etar edi. Shuning uchun ham arablar istilosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomiliga yetkazgan bo‘lsa, musulmon huquqi ana shularni qonunlashtirdi, u o‘ziga xos o‘rta asr huquqiga aylandi. Bu huquqiy tizimning qo‘llanilishi va uning maktablari faoliyatini atroflicha tadqiq etish quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga asos bo‘ldi:

1. Albatta, arablar madaniyati va huquqi bu yerda o‘zidan kam bo‘lmagan huquq va madaniyatga duch keldilar. Jumladan, bu yerdagi turkiylarning o‘z qonunlari, “jinoyat haqidagi nizomlari”, rivojlangan odat huquqlari, sug‘diylarning esa rivojlangan huquq tizimi, yuridik muassasalari, shuningdek, islom madaniyati kirib kelgan dastlabki davrlarda yahudiylar huquqining muqaddas kitobi “Toru”, nasroniylik huquqining yodgorligi Ishobaxt qonunlari, manixeylik huquqining manbai Vinaya, Buddaviylikning “Manu qonunlari”, din va huquqning manbai sifatida harakatda bo‘lgan. Eramizning 620 - yilida Gor (hozirgi Feruzobod) shahrida yashagan Vaxramning o‘g‘li Farahmart tomonidan tuzilgan, Sosoniylar davridan bizgacha yetib kelgan, yuridik masalalar to‘plamidan iborat yagona sudnoma “Ming sud qarori kitobi” (Matakdani Xazar dastani) ham amalda bo‘lgan. Bular hammasi ilk o‘rta asrlarda ham O‘zbekiston doirasida rivojlangan huquqiy tizim bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi.

2. Movarounnahrda islom huquqshunosligi yoyilishi bilan faqihlar va amaliyotchi huquqshunoslar amaliyotda uning tayyor qonun-qoidalarini qo'llab ketavermadilar. Balki **bu krda** musulmon huquqi ma'lum darajada mahalliy sharoitga moslashtirilib, tuzatishlar kiritildi. Huquq tarixida shunga o'xshash holatlar boshqa huquqiy tizimlarda ham yuz bergan. Aynan shunday holat Sharqiy Rim (Vizantiya)da sodir bo'lib, bu yerda chuqur yoyilgan Rim huquqi o'z boshidan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish maqsadida interpolyatsiyalashtirilgan (hayotda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olib qonun matnining chetiga o'zgartirish yozib to'ldirish) edi. Vizantiyaning asosiy aholisi bo'lgan greklar Rim huquqini bu yerda kodekslashtirib, unga hoshiyalar yozgan edilar. Shuning uchun biz uni Rim-Grek huquqi deb atagan edik. Fikrimizcha, Movarounnahrda kirib kelgan musulmon huquqi, juda bo'lmaganda uning hanafiylik mazhabi kodekslashtirildi. **(Masalan: "Jome' as sahih"larning yaratilishi, fatvo to'plamlari, sharh va hidoyalarning hamda "Muxtasar"ning yozilishi va hokazo)** va interpolyatsiyalandi – ya'ni unga hoshiyalar yozilib, mahalliy sharoitga moslashtirildi.

3. XIX asrda O'rta Osiyoni qonga botirib bosib olgan rus bosqinchilari bu yerda rivojlangan, o'ziga xos huquqiy tizimga duch keldilar. Shu bilan birga Rus ma'rifatparvarlari bu tizimni naqadar boy va mukammalligini ham tushunib yetdilar. Musulmon huquqining ilk tadqiqotchilaridan biri sharqshunos olim N.P.Ostroumov o'zining "Musulmon huquqi asoslari" kitobida unga yuksak baho berib, **"Shariat, - degan edi u, o'z tubida ilohiy huquq durdonalari (fiqhni) yashirib yotgan okeanga o'xshaydiki, ularni yuzaga chiqarmoqchi bo'lgan odam katta xavf-xatarni bo'yniga olib shariat donishmandligining tubsiz qa'riga tushmog'i lozim"**. Fiqh (Islom huquqi)ga birinchi bo'lib buyuk imom Abu Hanifa ibn Sobit ta'rif berganlar, ya'ni fiqh ilmi, har bir mukallaf kishini o'z foydasiga va zarariga bo'lgan narsalar haqidagi shariat ilmlarini bilib olishdir. Yoki oddiyroq qilib aytsek, fiqh bu shariatning asosiy manbalaridan ijthod qilish – ya'ni faqeh tomonidan barcha imkoniyatlarini ishga solib shariat bilimlarini bilib olishdir.

4. Bizning mamlakatimizda hozirda, ko'p yillik madaniy, siyosiy-yuridik merosimiz, tarixiy qadriyatlarimizning kattagina qismini ana shu islom huquqi tashkil qiladi. Bu huquqiy asosning tagdevori Arabiston yarim orolida qo'yilgan bo'lsa-da, **Xuroson va Movarounnahrda tashkil etilgan fiqh maktablari va ularning yirik vakillari bo'lgan faqihlar, ulamolar tomonidan u takomiliga yetkazilib, atroflicha ishlab chiqildi va interpolyatsiya (hoshiyalar yozildi) qilindi.**

Islom huquqining asosiy qismi diniy masalalarga bag'ishlangan. Uning manbalari, jumladan, Qur'oni karim olib qarasak, bir necha yuz oyatlargina dunyoviy yuridik masalalarni tartibga solishga, eng to'liq va ishonchli bo'lgan Imom Ismoil Buxoriy to'plagan hadislar to'plami "Jome'-as-sahih"ni olib qarasak ham uning **to'rt jildidan to'rtinchisining yarmigina dunyoviy yuridik masalalarni tartibga solish nazarda tutilgan** hadislarini o'z ichiga oladi. Islom huquqi buyuk faqihlar, ulamolarning ijthod qilishlari natijasida rivojlantirilib, ishlab chiqilgan doktrinal huquqdir.

5. Islom huquqi – shariat bir tomondan yumshoq bukuluvchan bo'lsa, ikkinchi tomondan qattiq va mustahkamdir. Uning yumshoqligi bu sunniy musulmonlarning Hanafiya huquqiy maktablarning hukm va fatvolar qabul qilishda aqlga, mahalliy odatlarga, sharoitlarga ham amal qilish haqidagi ta'limotlariga suyanadi. Uning qattiqligi bizning vatanimizda 1200 yillardan ortiq o'zgarishsiz qo'llanilib kelinganligidadir. Ya'ni Ubaydulloh ibn Mas'ud aytganlaridek: **"Shariat mustahkamlikda yerga tomirlari qattiq o'lturub yel silkita olmag'on og'och kabidur, ul og'ochning tomurlari yer ostida qarorlang'uchidir, butoqlari ko'kka yaqinlashish kabi buyukdir"**.

6. Mana shu faoliyat O'rta Osiyoning Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Marg'ilon, Xorazm kabi shahar va vohalarida fiqh maktablarining tashkil topishi va faoliyat ko'rsatishlariga, VIII-XIII asrlarda esa Movarounnahr fiqh maktabining tashkil topishi va butun islom dunyosida shuhrat topib tan olinishiga olib kelgan.

7. Abu-l-Qosim Hakim as-Samarqandiy (935 - yilda vafot etgan), Abu Mansur Muhammad al Hanafiy al Motrudiy (941/945 - yilda vafot etgan), Sadr ul islom Abu-l Yusr al Bazdaviy (1100 - y. v/et), Abu Lays Nasr ibn Muhammad as Samarqandiy (1003 - v/et), Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy, Najmuddin Abu Hafs Umar Samarqandiy, Burxonuddin al Marg'inoniy va boshqa o'nlab olimlar, faqehlar tomonidan Hanafiylik maktabining asosiy g'oyalarni XII asrda jamlab, klassik asarlar yaratdilar.

8. Turk olimi doktor Ziyov Kovakchi Qoraxoniylar hukmronligi davrida Hanafiylik mazhabi bo'yicha 300 dan oshiq faqehlar 350 dan ortiq tanilgan asarlar 20 ta fatvo to'plamlari yozganligini ta'kidlab o'tgan. Jumladan, olti buyuk faqehlar: Shamsulaimma Halvoniy (1058 - v/et), Shamsulaimma as Saraxsiy (1096-97 - v/et), Faxrul Islom al Pazdaviy, Iftoxiriddin al Buxoriy (1147-48 - v/et)larning hayoti va faoliyatlari ana shu davrlarga to'g'ri keladi.

9. Movarounnahr huquq maktabi tarixini qisqacha o'rganish shunday xulosaga olib keladiki, **huquq fanlarining rivojlanishi hech qachon boshqa fanlardan ajralgan holda yuz bermagan, balki ilm-fanning barcha yo'nalishlari bilan barobar yuksalgan.** G'arbga nisbatan (masalan, Rim huquqining rivojlanish davriga) Sharqqa nisbatan olganda ham xuddi shunday. Masalan, Movarounnahr fiqh maktabi faoliyat ko'rsatgan VIII-XIII asrlarda hozirgi O'zbekiston doirasida ilm-fanning yuksalishiga e'tibor beraylik. Ikkala holat ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Agarda, VIII-XIII asrlarda o'ziga xos udumlarga ega bo'lgan **Movarounnahr fiqh maktabi** faoliyat olib borgan, degan fikrni rivojlantira borsak, unda albatta bu maktabning islom huquqini rivojlantirishdagi asosiy o'rnini ta'riflab o'tish maqsadga muvofiqdir.

10. Bu yerda asosan mo'tadil qoidalarga tayangan **Hanafiylik huquqiy maktabi** ta'limoti va an'analari amalda bo'lib, mahalliy, ayniqsa turkiy xalqlarning urf-odatlarini mazhab doirasiga kiritdilar yoki ularni shariatga zid joylari cheklanib, qo'llanilishiga imkon yaratildi va mahalliy sharoit hisobga olindi.

11. Islom dinining nazariy va huquqiy asoslariga, uni zaiflashtirishga qarshi qaratilgan turli firqalar va guruhbozliklarga qarshi kurash olib borilib, kalom ilmini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar.

12. Movarounnahrning yetuk olimlari mujtahidlari tomonidan fiqh tarmoqlari - meros (ilmul faroiz), mulk, jinoyat, fuqarolik (muomalat) huquqlari kabi tarmoqlariga ta'rif berilib, ularning yanada rivojlanishiga hissa qo'shdilar.

13. Islom huquqidagi fihiy ziddiyatli masalalarni yechish, bartaraf etish bo'yicha muammolarni hal etib, barcha mujtahidlar e'tiboriga sazovor asarlar yaratdilar va boshqalar.

14. Huquq va davlat tarixi fanlaridan uzoq yillar davomida talabalarga saboq berish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, hozirda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tobora yuksalib borayotgan davlatlarda o'tmishda **huquqiy tizim ham juda rivojlangan.** Sharq va G'arb davlatlari taraqqiyoti ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Xitoy va Yaponiya yoki Romano-German huquq tizimi mamlakatlarini olib qaraylik. Shuni alohida ta'kidlamoqchimizki, bizning Vatanimizda ana shu davrlarda ham huquqiy tadqiqot, huquqiy tartibot va ta'lim rivojlangan bo'lgan. As Sam'oniyning "**Al ansob**", **Al Kafaviyning "Kata-ib ul-a'lom..."** asarlarida nomlari keltirilgan yuzlab olimlar faoliyati ham buni tasdiqlab turibdi. Samarqanddagi G'oziyon, Ibrohim Tamg'achxon, Qusamiya madrasalari islom dunyosidagi ilk madrasalar, Ulug'bek, Shayboniyxon madrasalari esa **oliy yuridik ta'lim muassasalari bo'lib**, musulmon dunyosining turli burchaklaridan bu yerga toliblar kelib fiqh o'rganganlar.

15. **Movarounnahr fiqh maktabining** mavjud bo'lishi, butun islom dunyosiga mashhur olimlar va faqehlarning yetishib chiqishi, rivojlangan maktab va oliy madrasalarning faoliyat ko'rsatishi, ular qoshida kutubxonalar va rasadxonalarning bo'lishi bugungi kunda, mamlakatimiz oliy ta'lim tarixiga bo'lgan qarashlarimizdagi tarixiy holatlarga tubdan yangidan baho berishimizni talab qilmoqda. Shuning uchun biz ham Vatanimizdagi universitetlar tarixini sho'rolar davridan e'las, **balki shu madrasalar tarixidan boshlash lozimligi** haqida aytilgan fikrlarni mantiqan to'g'ri deb hisoblab, qo'llab-quvvutlaymiz.. Fikrimizning isbot-dalili sifatida **Boloniya va Sarbonna universitetlarining** vujudga kelishi muammosini keltirish mumkin. Ular dastlab Rim huquqi tarixini o'rganadigan maktablar sifatida tashkil topgan edi.

Shunga muvofiq, Samarqand davlat universiteti tarixini G'oziyon, Ibrohim Tamg'achxon, Qusamiya madrasalari davridan, juda bo'lmaganda 1420 yillardan, ya'ni **Ulug'bek Oliy madrasasidan** boshlamoq lozim deb hisoblaymiz.

16. Bu ulkan merosni tadqiq etishga hali sobiq sho'rolar davridayoq birinchilardan bo'lib, respublikamizning huquqshunos olimlari qo'l urdilar. Mustaqillik yillarida Toshkent Islom universiteti, Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy markazning ochilishi bu boradagi yangi imkoniyatlarni yaratdi. Tarixchi, sharqshunos, islomshunos olimlarimiz ko'pgina manbalarni o'zbek

tiliga tarjimalar qilib, keng qamrovli tadqiqotlar olib bordilar, o'nlab monografiyalar nashr etdilarki, bular Vatanimizda huquqiy bilimlar taraqqiyoti darajasini yoritib berdi.

17. Bugungi kunda davlat mustaqilligiga erishgan respublikamiz boy huquqiy merosga, uning huquqiy tizimini rivojlantirish uchun an'ana va udumlarga egaki, ana shular jamlangan fiqhiy asarlarini o'zbek kitobxoniga yetkazish huquqiy ongimiz va madaniyatimizning yanada o'sishiga yordam bergan bo'lur edi. Ushbu maktabning yirik vakillari yozgan fiqhiy asarlarni tarixchi, sharqshunos, islomshunos olimlarimiz hamkorligida tadqiq etilib, nashr etilsa, jumladan, B.Marg'ironiyning Samarqandda yozib tugallagan "Hidoya" asarining II-jildi hozircha o'zbek tiliga o'grilib nashr etilmagan. Bu boradagi xayrli ish oxiriga yetkazilsa, arab tilini bilmagan huquqshunos tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasiga katta tuhfa bo'lur edi.

Adabiyotlar

1. Yana qarang: Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. "Toshkent Islom universiteti" nashriyoti, 2002. B.51-52.
2. Al jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). Qomuslar bosh tahririyati. 4 jildlik, 4-jild. -Toshkent, 1992. B. 246-394.
3. Ijtihad (arab. – intilish, sa'y-harakat qilish) – diniy va huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil fikr yuritish.
4. Muxtasar. (Shariat qonunlariga qisqacha sharh). – T.: "Cho'lpon" nashriyoti, 1994. B. 7.
5. Каранг: Ахмаджонов У.М. Институт собственности в Мусульманском праве. Автореф. канд.дисс.... М.: 1963. 24 стр.; Институт вакуфной собственности в Мусульманском праве. Научные работы и сообщ..АН.УзССР, Отделение общественных наук. Кн.7. – - Т.,1963. С.411-418.

OLIM, PEDAGOG, TASHKILOTCHI RAHBAR, KAMTARIN
INSON MUSO MO'MINOV:
O'ZBEK OLIMLARI HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATIGA CHIZGILAR
R.I.Xalmuradov
SamDU rektori, professor

Jamiyat va mamlakatlar tarixida shunday voqea va hodisalar yuz beradiki, ularning qadri-qimmatini va inson tamaddunidagi o'rnini yillar va asrlar o'tgach ham unutilmaydi. Xuddi shunday, insoniyat sivilizatsiyasida ham tarix sahifalaridan o'rin olgan shaxslar bo'ladiki ularning ilmiy-ijodiy mehnatlari samarasi, insoniylik fazilatlarini uzoq vaqtlar o'tsada yanada tiniqlashadi, ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyotiga xizmat qilaveradi.

Bu yil o'zining 90 yillik yubileyini nishonlayotgan Samarqand davlat universitetining shakllanishi va rivojlanishida o'zining serqirra ijodi, fidoiy mehnati va kadrlar tayyorlashdagi yutuqlari bilan tarix sahifalarida yorqin iz qoldirgan shaxslar, jamoat va davlat arboblari bir talay. Ana shunday tabarruk insonlardan biri Muso Mo'minovdir.

O'zbekistonda Mo'minovlar sulolasini bilmaydigan oila, ziyoli insonlar, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari bo'lmasa kerak. Darhaqiqat, mamlakatimizning oliy ta'limi va ilm-fani, sog'liqni saqlash tizimi, madaniyatini akademiklar Ibrohim Mo'minov va Tolib Mo'minov, professorlar Muso, Vafo, Maqsud, Aktam, Akram Mo'minovlarsiz tasavvur etish qiyin.

Biz O'zbekistonda ilm-fan va xalq maorifi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan, fizika, ayniqsa yadro fizikasi fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan taniqli olim, ustoz-murabbiy, oliyanob inson, butun borlig'ini xalq va el-yurt ravnaqiga baxshida aylagan, tom ma'noda xalq farzandi, Muso Mo'minovning hayot yo'li va ilmiy-pedagogik, rahbarlik va tashkilotchilik faoliyatiga ba'zi chizgilarni berishni maqsad qildik.

M.Mo'minov 1903 yilda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Tezguzar qishlog'ida ziyolilar oilasida tavallud topgan. U yoshligidanoq otasi Abdulmo'min Fayzullayev va aka-ukalari bilan oilaning dehqonchilik ishlariga yordamlashar, atrofdagi yangiliklarni, olag'ovur zamon voqea-hodisalarini sinchkovlik bilan kuzatib, ularni tahlil qilish va tushunishga intilar edi. Oilaning katta o'g'il farzandi Arabboy, kichigi esa Ibrohim Mo'minov (akademik, O'zbekistonda falsafa maktabini yaratgan olim va jamoat arbobi) bo'lib, ikkinchi farzand Muso Mo'minov 1920-24 - yillarda dehqon aholi o'rtasida savodsizlikni tugatishda faol qatnashadi. 1924-27 - yillarda Moskva shahridagi G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universitetining Mehnat fakultetida, 1928-36 - yillarda Samarqand pedagogik akademiyasida dastlab fizika-matematika fakulteti talabasi, keyinchalik aspiranti sifatida ta'lim oladi. Taniqli professor A.M.Titovga shogird tushdi va aspiranturada o'qish davrida bo'lg'usi akademiklar U.O.Oripov va S.U.Umarovlar bilan do'stlashdi va bu do'stlik bir umr davom etdi. 1936-37 - yillarda Buxoro davlat pedagogika institutida direktor o'rinbosari, kafedra mudiri sifatida faoliyat ko'rsatadi. 1941 - yilda prof.A.M.Titov rahbarligida "Tuproqning solishtirma issiqlik sig'imini kalorimetr yordamida aniqlash" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1937-44 - yillarda Samarqand pedagogika instituti direktori lavozimida ishlaydi.

Ikkinchi jahon urushi tufayli yopilgan O'zbekiston davlat universitetini (hozirgi Samarqand davlat universiteti) qayta tiklashda 1944 - yili Muso Mo'minov rektor etib tayinlanadi, shu bilan bir vaqtda fizika-matematika fakultetining "Umumiy fizika" kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatadi. 1944 - yilning o'zidayoq universitetda 23 kafedra ishga tushirildi. Universitetda o'quv jarayoni, kafedralarda ilmiy-tadqiqot ishlari yo'lga qo'yildi. O'quv-ilmiy laboratoriyalar tashkil etiladi, asbob-uskunalar bilan jihozlanadi. O'quv jarayonini, ilmiy ishlarni yuqori saviyaga ko'tarish maqsadida sobiq Sovet Ittifoqining oliy o'quv yurtlaridan, ilmiy markazlaridan taniqli olimlar taklif qilinadi. Masalan, sobiq Ittifoq FA ning muxbir a'zosi V.P.Jelepov, professorlar L.I.Lapidus, B.M.Golovin va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Universitetda ta'lim-tarbiya jarayonini qaytadan shakllantirish va tizimli yo'lga qo'yishda I.Mo'minov, V.Abdullayev, Ye.Proskoryakov, M.Aminov, A.Yefimov, M.Sobirov, I.Umnyakov, R.Iskandarov, Yu.Aleskerov, M.Abramov va boshqalar tashabbuskor M.Mo'minov bilan faol ishtirok etdilar.

Muso Mo‘minov universitetda o‘quv jarayonini yaxshilash, ma‘ruza va laboratoriya mashg‘ulotlarini yuqori darajada o‘tkazish uchun barcha sohalarida zamonasining eng ilg‘or kishilarini jalb qildi: S.Ayniy, U.Tursunov, N.Romanov, I.Kukles, B.Baskov, A.Tekuchev, P.Faktorovich, R.Mallin, Ya.Zundelovich, R.Ibadullin, V.Yezdakov shular jumlasiga kiradi.

1952 - yilda professor M.Mo‘minov “Umumiy fizika” kafedrasida “Radioaktiv izotoplar fizikasi” bo‘yicha maxsus kurs tashkil qildi, shu kurs bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qidi va ilmiy laboratoriya tashkil etdi hamda 1956 - yildan boshlab radioaktiv izotoplar fizikasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlab bera boshladi.

M.Mo‘minov ilmiy ishlar saviyasini ko‘tarish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zFA Yadro fizikasi va Fizika- texnika institutlari, Leningrad va Moskva Davlat universitetlari, Dubna shahridagi Birlashgan Yadro Tadqiqotlari instituti (Rossiya) va boshqa bir qator ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Bu aloqalar respublikamizda fizika, xususan yadro fizikasi fani va ta‘limining rivojlanishiga, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlanishiga katta yordam berdi. Tez orada bir qator fan doktorlari va nomzodlari yetishib chiqdi, ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi yo‘nalishlari universitetga kirib kela boshladi. O‘zbekistonda birinchilardan “Atrof-muhit namunalarning radioaktivligini o‘rganish” ilmiy yo‘nalishini tadqiq etish yo‘lga qo‘yildi. Radioaktiv gamma nurlanishlarning moddalar bilan ta‘sirlashuvi jarayonidagi yangi qonuniyatlar o‘rnatildi, radioaktiv nurlanishlarning o‘simliklar va hayvonlarga ta‘siri, radioaktiv elementlarning atrof-muhitda tarqalishi, gamma-nurlarning murakkab moddalarda (suvda, NaCl, BaCl eritmalarida, pishiq g‘ishtda, junda, paxtada) yutilishi tajribalar asosida o‘rganildi. Jumladan, 1958 yilda chigitni nurlantirib ekish natijasida hosildorlikni gektariga 6-8% ga oshishi, hosilning erta pishishiga erishish mumkinligi tajribalarda ko‘rsatildi, kasalliklarga chidamli navlarni yaratish imkoniyatlari taklif qilindi. Bu tadqiqotlar radioaktiv izotoplardan xalq xo‘jaligiga foydalanish ko‘lamining kengayishiga olib keldi. Bu amaliy tadqiqotlarning natijalari O‘zbekiston va Tojikiston FA nufuzli jurnallarida, jumladan, keng jamoatchilikka mo‘ljallangan “Fan va turmush” va “Priroda” hamda bevosita ilmiy xodim va mutaxassislarga yo‘naltirilgan “Xlopkovodstvo” va “Radiobiologiya” ilmiy jurnallarida ham yoritilgan. Bu tadqiqotlarning qishloq xo‘jaligi sohasiga oidlari biologiya fakulteti olimlari J.Qobilov, A.Aleksanyan, F.Ismailov bilan hamkorlikda o‘tkazilganligini e‘tirof etmoq lozim.

Muso Mo‘minov oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘zbek tilida 10 ga yaqin darslik va o‘quv-qo‘llanmalarining (“Molekulyar fizika”, “Fizik tajribalar natijalari xatolari haqida”, “Fizikadan laboratoriya ishlari uchun qo‘llanma”, 1-2 qismlar) muallifidir.

Zaxmatkash ustoz ish faoliyati davomida jamoat ishlarida ham faol qatnashib keldi. Bir necha marta shahar partiya qo‘mitasi a‘zoligiga Samarqand shahar kengashi deputatligiga, viloyat va respublika kasaba uyushmalari qo‘mitalari Plenumlari a‘zoligiga saylandi.

Professor Muso Mo‘minovning xalq baxti saodati, Vatan ravnaqi yo‘lida qilgan ulkan xizmatlari xalq va hukumat tomonidan munosib baholandi, hukumatimizning qator orden va medallari bilan taqdirlandi. Ustoz boshlab bergan ilmiy-tadqiqot ishlari, g‘oyalari keyinchalik munosib farzandlari – professor Maqsud Mo‘minov, akademik Tolib Mo‘minov, professor Kamol Mo‘minov va ko‘p sondagi shogirdlari tomonidan davom ettirildi, yadro fizikasi sohasidagi zamonaviy qurilmalarda nozik va murakab eksperimentlar natijasida yangi qonuniyatlar ochildi, kashfiyotlar qilindi.

Muso Mo‘minovning o‘ziga xos oliyjanoblighi va serqirralighi kishilarni xuddi magnitdek o‘ziga tortar edi. U kishi olim va murabbiy, rahbar sifatida xodimlarga chinakam g‘amxo‘rlighi bilan, kekkayish, kibr-u havo, mansabparastlik, xudbinlik, maqtanchoqlikdan uzoq yurishi bilan boshqalardan tubdan farq qilardi.

Ustozning murabbiylik, insoniylik xislatlarini yanada teranroq tasavvur etish uchun shogirdlari, hamkasblarining ba‘zi xotiralarini keltirish joizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor V.Abdullayev xotirlaydi: “1936 - yilda biz Muso Mo‘minov bilan birga Buxoro davlat pedagogika institutida xizmatda edik. Muso aka institutning ham o‘quv, ham ilmiy ishlarini boshqarar, men bo‘lsam o‘zbek adabiyoti kafedrasida mudir edim. Muso Mo‘minov butun umri davomida yangilik izlar, ularni o‘quv dasturlariga singdirib, tayyorlaydigan kadrlarimizning har tomonlama yetuk, baquvvat bo‘lib kamol topishlarini o‘ylardi. Bu borada Samarqandda ham shohid bo‘lganim 1938 - yilning sentyabridan 1944 - yilning avgustigacha, avvalo, o‘qituvchilar instituti,

so'ngra Samarqand pedagogika institutida, 1944 yilning sentyabridan O'zDU (hozirgi SamDU) rektorligi lavozimidagi serqirra faoliyatida ham hamma-hammaga o'rnak bo'larli ko'pdan ko'p afzalliklarni ko'rdik. O'sha kezlarning hamma dolzarb masalalari bo'yicha faoliyatda Muso Mo'minovich barchamizga namuna edilar".

Ko'p yillar M.Mo'minov bilan ishlab, universitetni qayta tiklanishida jonbozlik ko'rsatgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Afanasiy Semenovich Yefimov shunday deydi: "Muso Mo'minovich bizning hammamiz uchun ziyoli va madaniyatli kishi namunasi, katta harflar bilan yoziladigan murabbiy edi". "Ustoz, mohir pedagog Muso Mo'minovich Mo'minovning o'zbek fizika maktabi asoschilaridan birining ajoyib hayoti g'oyat ibratlidir", deb eslaydi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi M.S.Saidov.

SamDU yadro fizikasi kafedrasida dosenti G.Axmedovaning M.Mo'minov haqidagi quyidagicha so'zlariga ahamiyat bering: "Professor Muso Mo'minovich Mo'minov juda ko'p akademik, professor, olimlar ustoz, u kishini bilgan qancha-qancha insonlarning ishongan, suyangan do'sti, g'amxo'r maslahatchisi edilar". Ustozning yana bir iste'dodli shogirdi, bugun o'zlari ham ustoz degan sharafli nomga sazovor inson, professor, fizika-matematika fanlari doktori, Samarqandda magnit hodisalar fizikasi sohasini rivojlantirgan Obloqul Quvondiqov shunday xotirlaydi: "Men Moskva shahrida aspiranturada bo'lganimda ham domla bilan aloqada bo'lib turganman. U kishi Samarqandda ilmiy ishlarni rivojlantirishni o'ylar edilar. Bir xatlarida, "Quvondiqov xatingizni oldim. Siz fizikaviy asbob-uskunlar bilan ishlashni o'rganing va shu qurilmalarni Samarqandga olib kelishni o'ylang. Bizlardan nima yordam kerak bo'lsa bajaramiz", deganlarini minnatdorchilik bilan eslaydi.

SamDU O'zbekiston tarixi kafedrasining sobiq mudiri, tarix fanlari doktori, professor M.M.Abramov ko'p yillar birga ishlagan ustoz rektor sifatida tarix fakultetiga tez-tez kelib turishini, majlis va ilmiy kengashlarda qatnashishini, O'zbekistonning qadimiy tarixini chuqur bilishini, V.V.Bertels, A.Yu.Yakubovskiy kabi sharqshunos olimlarning asarlarini yaxshi bilishi, hattoki, universitet fundamental kutubxonasi qoshida Sharq qo'lyozmalari fondini tashkil qilishga ham boshchilik qilganliklari bilan hammani hayratga qoldirishlarini so'zlab berardi.

Muso Mo'minov rektorlik vaqtida ham qanchalik vazifa va ishlar ko'p bo'lishiga qaramay universitetga o'qishga kirayotgan yoshlarni imtihon baholari bilan qiziqib, ularni bilim darajalari va istiqbolini sezgan holda tegishli maslahat va amaliy yordam ko'rsatgan ekanlar. Har bir yoshning kelajagiga befarq bo'lmagan, barchani o'zining farzandidek ko'rish baxtiga muyassar bo'lgan inson bo'lgan. Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti hamda Samarqand davlat universitetida kafedra mudiri bo'lib ishlagan dotsent, fizika-matematika fanlari nomzodi A.Raximov aytib yurardi: 1949 - yil qishloqdosh do'sti O.Tursunov bilan SamDU geografiya bo'limiga kirish imtihonlari topshirib, matematika va fizika fanlaridan a'lo baho olishganini bilgan universitet rektori, fizik olim Muso Mo'minov har ikkalasini chaqirib, yarim soat vaqt ichida o'ylab, agar fizika bo'limiga o'qishga rozi bo'lsalar ariza yozib kelishlarini aytgan. Darhaqiqat, tajribali ustozning shogird tanlashda va yoshlarni kasbga yo'naltirishdagi donishmandliklarini keyingi hayot isbotladi. A.Raximov sobiq Sovet Ittifoqi FA Fizika instituti aspiranturasida o'qib, nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi, do'sti O.Tursunov esa Tayloq tumani Jumabozor qishlog'idagi 65-o'rta maktabda (hozirgi 29-maktab) ishlab juda ko'plab yoshlarni fizika o'qituvchisi bo'lishga xizmat qildi.

Muso Mo'minovdagi kamtarlik va insonparvarlik fazilatlarini, boylik va hashamatli, ko'z-ko'zga yashashdan yiroqlik farzandlariga ham batamom o'tgan. Katta o'g'illari Maqsud Mo'minov uzoq yillar SamDUda kafedra mudiri, dekan, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ikkinchi o'g'illari akademik Tolib Mo'minov SamDUda rektor, O'zMU qoshidagi amaliy fizika institutida direktor, kichik o'g'illari Kamol Mo'minov ham respublika miqyosidagi mas'ul lavozimlarda ishlashlaridan qat'iy nazar el farzandi sifatida e'zozdalar. Chunki, Mo'minovlar sulolasining turmush-tarzi, e'tiqodi va an'anasi, xokisorlik, oddiylik, halollik va eng muhimi, ilm-fan va ma'rifat yo'lidagi fidoyilik hisoblanadi.

Ustozning yorqin xotirasi u kishining farzandlari, shogirdlari va u kishini bilganlar qalbida abadiy e'zozda yashaydi.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI FALSAFA KAFEDRASI ASOSCHISI FAYLASUF
AKADEMIK**

(Samarqand davlat universitetining 90 yillik yubileyiga bag'ishlanadi).

J.YA. Yaxshilikov

*Samarqand davlat universiteti, Milliy g'oya, falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasini mudiri,
professori,*

E-mail: prof-yaxshilikov@mail.ru tel.91-545-94-01

Annotatsoya. Mazkur maqolada I.M.Mo'minovning hayot yo'li, falsafiy dunyoqarashi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasini asoschisi sifatida milliy qadriyatlarni tayyorlashdagi xizmatlari hamda O'zbekistonda milliy madaniyat va falsafa fanlarini rivojlantirishdagi tarixiy rolining ba'zi tomonlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: hayot, falsafa, dunyoqarash, madaniyat, kadr, rivojlanish, fan, tarix.

Философ академик, основатель кафедры философии Самаркандского государственного университета

(Посвящается 90 летнему юбилею Самаркандского государственного университета)

Аннотация. В этой статье обращено внимание на некоторые аспекты роли жизненного пути И.М.Мунинова, особенности формирования его философского мировоззрения, а так же, его заслуги при подготовке национальных кадров как основатель кафедры философии Самаркандского государственного университета, на развитие в Узбекистане национальной культуры и философских дисциплин.

Ключевые слова: жизнь, философия, мировоззрение, культура, кадр, развитие, дисциплина, история.

Philosopher academician, founder of the chair of philosophy of Samarkand State University
(Dedicated to the 90th anniversary of the Samarkand State University)

Annotation. The article draws attention to some aspects of the role of the life path of I.M. Muminov, the features of the formation of his philosophical outlook, as well as his merits in the training of national cadres as the founder of the department of philosophy of the Samarkand State University, on the development of national culture and philosophical disciplines in Uzbekistan.

Keywords: life, philosophy, outlook, culture, personnel, development, discipline, history.

Ijtimoiy hayotda shunday insonlar bo'ladiki, o'zining faoliyati va amalga oshirgan ishlari, yaratgan g'oyalari bilan mamlakat ravnaqini ta'minlashda hamda milliy ma'naviyatning yuksalishida ibrat namunasi sifatida odamlar qalbi va xotirasida uzoq yillar davomida yashaydi va saqlanib qoladi. Ana shunday tolmas yirik olim va jamoat arbobi Ibrohim Mo'minov Buxoro viloyati Shofirkon rayonida Tezguzar qishlog'ida 1908 - yil 7 - sentyabrda dehqon oilasida tug'ilgan. Dastlabki boshlang'ich ta'limni 1922-1927 - yillar boshlang'ich maktabda, so'ngra Buxoro Maorif institutida tahsil olgan. Maorif institutini tugallaganidan so'ng Buxorodagi ikki yillik pedagogika kurslarida jamiyatshunoslik va tarix fanlaridan dars bergan.

Dastlab Buxoroning birinchi navqiron vakillari qatorida 1928 - yili u Samarqandga Oliy pedagogika institutiga (keyinchalik bu institut pedagogika akademiyasi qilib qayta tuziladi) o'qishga kiradi. 1931 - yili ijtimoiy-iqtisodiy fakultetni a'lo baholar bilan tugatib, shu dargohda o'qituvchilik lavozimida ishga qoladi. Shu yillardan boshlab falsafa ilmiga g'oyatda qiziqishi natijasida matbuot sohaslarida Sharq va G'arb falsafa maktablari vakillari falsafiy qarashlariga oid ko'plab maqolalari e'lon qilina boshlagan. Shu yili eng muhimi Pedagogika akademiyasi bazasida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston (hozirgi Samarqand) davlat universiteti tashkil qilinadi. Universitetni tashkil qilish ishlarida I.M.Mo'minov faol ishtirok etadi va filologiya, so'ng esa tarix fakulteti dekani va ayni vaqtda falsafa kafedrasini ham boshqargan. 1941 - yili O'zbekistonda birinchilardan bo'lib falsafa fanlari Ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'lgan, hamda tashkilotchi sifatida jadal respublika oliy o'quv yurtlarida falsafa fanini o'qitishda juda katta tashkiliy ishlarni ham amalga oshirgan. Universitetimizda dastlab falsafa maktabi 1928-1930 yillarda M.Krasnousov, P.G.Larina,

X.Fayzullayev, I.M.Mo‘minov singari yetakchi olimlar tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, Samarqandda falsafa maktabining tamal toshi qo‘yilgan va shu asosda falsafa ilmiy maktabi shakllana boshlagan.

Darhaqiqat, Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrası asoschisi alloma olim, faylasuf akademik I.M.Mo‘minov kafedrani va tarix fakultetini boshqarish jarayonida birinchi kundan boshlab oliy ma‘lumotli milliy kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, mustaqillik va milliy ma‘naviy qadriyatlarni tiklash haqidagi g‘oyalarni dadillik bilan hukumat doirasida ko‘tarib, milliy madaniyat, milliy qadriyatlarni avaylab asrash, rivojlantirish va shu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni asosiy maqsad qilib, xizmat doirasida mavjud imkoniyatlarni ishga solib, shu sohalarni rivojlantirishga jadal harakat qilgan.

Hukumat qarori bilan 1943 - yili O‘zbekiston fanlar akademiyasi ta‘sis etiladi va Ibrohim Mo‘minov O‘zbekiston fanlar akademiyasi muxbir a‘zosi etib saylangan.

Ibrohim Mo‘minovning nomzodlik dissertatsiyasi Yevropa falsafasi tarixidagi eng muhim masalalardan biri – «Gegel dialektikasining ratsional mag‘zi»ga bag‘ishlangan bo‘lsa, 1946 - yili Samarqandda nashr etilgan salmoqli monografiyasi «Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari» deb nomlangan. Bu shundan dalolat beradiki, I.M.Mo‘minov ilmiy izlanishlarini keng qamrovda olib borgan bo‘lib, bunga uning «XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekistonda yuz beran ijtimoiy falsafiy fikr taraqqiyoti tarixidan» mavzusida yoqlagan doktorlik dissertatsiyasi ham yorqin dalil bo‘la oladi. I.M.Mo‘minov unda boy tarixiy ma‘lumotlarni ilmiy tahlil qilish asosida XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-qtisodiy, ma‘naviy–madaniy o‘zgarish jarayonlarini obyektiv tarzda yoritib beradi. I.M.Mo‘minovning o‘sha davrdagi xizmatlari haqida akademik S.Sh.Shermammedov shunday ta‘kidlaydiki; « Shunday sharoitda I.M.Mo‘minov nafaqat o‘zbek faylasuflari ichida, balki sobiq ittifoqda ham birinchilardan bo‘lib tarixiy va ma‘naviy –madaniy merosni, avvalambor – o‘sha millatning ma‘naviy kamolotiga O‘rta Osiyolik yirik olimlar, faylasuflar, shoirlar, muttafakkirlarning hayoti va ilmiy–ijodiy qarashlarini falsafa ilmi nuqtaiy-nazaridan, o‘rganishni boshlab berdi. Albatta, o‘z-o‘zidan ma‘lumki, izlanishlarining mazmuni va «doirasiga» ta‘sir ko‘rsatmay qolmagan. Biroq zukko faylasuf olim sifatida uning chinakam vatanparvarlik jasorati shundaki, totalitar tuzum sharoitida ham O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy- falsafiy tafakkuri, madaniyati, tarixi, ilmiy merosi- donishmandning falsafiy tadqiqotlari va ilmiy–pedagogik va targ‘ibotchilik faoliyatida doimiy va o‘zgarmas mavzu bo‘lib kelgan», [1] deb xizmatlarini izohlab ko‘rsatgan.

Darhaqiqat, o‘ta murakkab, totalitar-buyuqbozlik hukmronligi davrida o‘z hayotini xavfga qo‘yib o‘z xalqi manfaatlarini himoya etib, o‘zbek xalqi ma‘naviyat tarixining o‘ziga xos boy ekanligini ko‘p manbalar asosida isbotlashga, ilmida, tafakkurda kommunistik mafkura hamma siyosiy jarayonlarni o‘z qo‘liga olgan vaziyatda, ilm, tafakkurning mustaqil bo‘lishi uchun kurashgan, uni o‘z xalqiga yaqinlashtirishga harakat qilgan, milliy ma‘naviyatni ko‘tarib, tiklashga intilgan, millatparvar, vatanparvar, xalqparvar olimlar jasorati doimo hurmat e‘tiborga molik bo‘lib o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda, muhim axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O‘z davrida I.M.Mo‘minov xalqimiz tarixiy-madaniy merosini, ma‘naviyatimizni o‘rganishga e‘tibor berib, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida nashr ettirilgan O‘rta Osiyo falsafasi, madaniyati, tarixi, adabiyotshunosligi, o‘zbek madaniyatiga oid juda ko‘plab asarlar, darsliklar, to‘plamlar, jumladan ko‘p tomli kitoblarning muallifi tashkilotchisi, rahbari sifatida namoyon bo‘ldi. O‘z davrida milliy ma‘naviyatimizni rivojlantirishda boy madaniy merosimizning muhim sahifalarini aks ettiruvchi qo‘lyozma asarlarning arab va forscha tarjimalarini uyushtirib, rus va o‘zbek tillarida nashr ettirgan.

Eng muhimi I.M.Mo‘minov o‘zining ilmiy va tashkilotchilik faoliyati natijasida milliy ma‘naviyatimiz negizi bo‘lmish o‘tmish madaniy merosimizni buyuk namoyondalari bo‘lmish Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qashqariy, Navoiy, Bobur, Furqat, Muqumiy, Donish kabi buyuk zotlarning merosi keng xalq ommasiga yetkazildi va targ‘ibot-tashviqot qilindi. Akademik I.M.Mo‘minov kommunistik mafkura hukmron bir sharoitda milliy merosga , xalqimiz madaniyati tarixiga e‘tibor berib o‘tganligi va bu sohada xalq, millat kelajagini o‘ylab dadillik, jur‘at bilan ish olib borganligini ko‘rsatadi. Sobiq ittifoq hukmronligi sharoitida ma‘naviy rivojlanishda (Internatsionalizm) baynalminalchilik siyosati yetakchilik qilgani tufayli, boshqa rus bo‘lmagan millatlarning milliy madaniyat, milliy ma‘naviyati rivojiga ma‘lum darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatgani, mustaqillikning paydo bo‘lishi bilan uning mohiyati oshkor bo‘lib qoldi. Darhaqiqat, o‘tgan asrning

50-70 yillarida milliy ma'naviyat tarixini-milliy merosni o'rganish bo'yicha olib borgan faoliyatining o'zi jasurlik, g'oyaviy mustaqillik uchun kurashning oldingi saflarida bo'lish edi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov fikricha, "Xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma'naviyati shunday bir ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi," [2] -deb ta'kidlagan. Sobiq Ittifoq eng gurkiragan sharoitda 1968 yil "Fan" nashriyotida akademik I.M.Mo'minov tamonidan "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli "risolasining chop etilishi o'sha davr uchun akademik Ibrohim Mo'minov tomonidan amalga oshirilgan juda katta ma'naviy jasorat hisoblanadi. O'sha kezlarda bunday risolaning chop etilishi, birdaniga emas, balki uzoq yillar mulohaza yuritib manbalarga tayanib, fikr yuritish natijasida paydo bo'lganligi tabiiydir. O'sha kezlarda Samarqand shahrining YUNESKO tamonidan 2500 yilligini nishonlash belgilangan edi, ya'ni markaziy Osiyoda Temur va temuriylar davri san'atini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya o'tkazilishi belgilandi. Shu munosabat bilan Temuriylar davri merosini chuqur o'rganishga qaratildi. Temur merosini o'rganishga turlicha yondashuvlar mavjud edi. Markscha Lenincha mafkuraga asoslangan sovet tarixi fanida Amir Temur to'lig'icha "bosqinchi", "zolim", "xalqlarni qaqshatgan qonxo'r" degan turli salbiy fikrlar hukmron bo'lgan bir sharoitda I.M.Mo'minov birinchi bo'lib Temurni ilmiy, obyektiv o'rganish, uning turli sohadagi faoliyatiga to'g'ri, izchil baho berish masalasini ko'tarib chiqqan edi. Akademik I.M.Mo'minov Amir Temurning boshqa o'lkalarni bosib olishidagi, shafqatsiz urushlari bilan birga, uning O'rta Osiyo tarixi uchun ijobiy rol o'ynaganini ham ko'rsatib o'tadi. Amir Temur tomonidan O'rta Osiyoni mo'g'illardan ozod qilish va mustaqil kuchli davlatga aylantirish va uni har tomonlama rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan. I.M.Mo'minov fikricha, Amir Temur O'rta Osiyoda shaharlarning qurilishiga, ilm-fan, din ahliga e'tibor berganligi, o'zaro nizolarning oldini olishda, hamda savdo-sotiqning keng ko'lamda rivojlanishiga, keng imkoniyatlar yaratilganligi haqida fikr yuritadi. Eng muhimi I.M.Mo'minov Amir Temur tamonidan yaratilgan davlatning boshqarish qonunlari-"Temur tuzuklari"ning (Ulojenie Temura) oktyabr inqilobidan oldingi rus nashrini "Fan" nashriyotida qayta ko'paytirish (1968), Temur davri va uning turli sohadagi faoliyati haqida muhim manba hisoblangan XV-asr boshida yozilgan Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarining faksimile nusxasini nashr (1972) etishning asosiy tashabbuskori bo'lgan.

I.M.Mo'minov tomonidan amalga oshirilgan ishlari, ya'ni, Amir Temur haqidagi yozgan risolasi keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan bo'lsa ham, ayrim g'arazli niyatdagi kishilar I.M.Mo'minov ishlariga qarshi kurashda foydalandilar, ya'ni Amir Temur faoliyatini ideallashtirishda va siyosiy-g'oyaviy xatoga yo'l qo'yishda aybladi. Akademik M.M.Xayrullayevning fikricha, "Bu ishga Moskvadagi ayrim ilmiy-tekshirish institutlarining rahbarlari, tarixchilar, hatto KPSS markaziy komitetidagi ba'zi rahbar xodimlar ham jalb etildi. Buning natijasi sifatida 1978 - yilda Moskvada rus tilida chiqadigan ittifoq jurnalida bir toshkentlik muallif, so'ng "Вопросы истории" jurnalining bir sonida fan nomzodi rus olimining imzosi bilan Amir Temurning tarixdagi rolini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan maqola nashr etildi. Bu maqolalarda I.M.Mo'minovning Temur to'g'risidagi yuqoridagi kitobchasi keskin tanqid ostiga olinib, uning muallifi tarixni soxtalashtirishda, Temurni ideallashtirishda ayblandi. Moskvadagi partiya rahbarlari ishtirokida mafkura masalasiga bag'ishlangan bir yig'ilishda bu haqda aytib o'tilgan. Moskvada chiqadigan qator markaziy jurnal va gazetalarda Temurni tilga olgan holda o'tmishni soxtalashtirmaslik haqida umumiy nasihatimiz maqolalar ham nashr etildi," [3] -deb izohlaydi. Darhaqiqat, o'sha davrlarda KPSS markaziy komiteti tomonidan O'zbekiston markaziy komitetiga bu masalani ko'rib chiqish haqida ko'rsatma berilgan. O'sha davrlarda I.M.Mo'minov O'zbekiston kompartiyasi markaziy komitetining a'zosi, hamda uzoq yillar O'zbekiston Fanlar akademiyasida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha rahbari edi. O'sha kezlarda O'zbekiston kompartiyasi rahbari Sh.R.Rashidov akademik I.M.Mo'minov Amir Temur merosi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borganidan xabardor bo'lgan. Turli tomondan taz'yiqlar kuchaya boshlagandan keyin Respublika rahbariyati kichik bir qaror qabul qilib chora ko'rishga majbur bo'lgan.

Juda katta matonat egasi akademik I.M.Mo'minov o'zbek xalqi milliy ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida 1968 - yil 5-mayda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi prezidumida bo'lgan kengashda "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" mavzusi bo'yicha ma'ruza

qilgan, keyinchalik bu maruza matni risola tarzida nashr etilgan. Bu ma'ruzadan O'zbekistonning yirik olimlari va shu soha mutaxassislari ishtirok etgan. Jumladan, bu ma'ruzani qo'llab quvvatlab SSSR fanlar akademiyasi muxbir a'zosi O.S.Sodiqov, 9 ta O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiklari, 21 ta O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zolari, 15 ta fan nomzodlari ishtirok qilgan. Shundan akademik I.M.Mo'minov maruzasini qo'llab- quvvatlab 13 ta shu sohasining yirik mutaxassislari chiqish qilganlar. Risola 11 qismdan iborat. Risolaning 1 qismida I.M.Mo'minov Amir Temur Movarounnahrda o'sha davrlardagi xonliklar, hokimlar o'rtasida ziddiyatlar kuchayib ketganligi, oqibatida oddiy xalqning g'oyatda og'ir ahvolga tushib qolganligini, oddiy xalq o'rtasida noroziliklar kuchayib ketganligi natijasida, Amir Temur yuzaga kelgan vaziyatdan oqilona foydalanib xalq manfaati yo'lida Movarounnahrda mo'g'il xonligidan mustaqil markazlashgan davlat tuzish yulida kurashganligini manbalar asosida yoritgan. Asosan Temur O'rta Osiyo siyosiy hayotida XIV asr 50-60 yillarda ko'ringan. Chig'atoy ulisidan chiqqan Chingiz xonlari o'rtasida o'zaro urishlarda Qozonxon uldirilgan, uning o'rniga Qozonxon (1346-1358) hukmronlik qilgan, bu hukmdor ham mo'g'il xoni Tug'liq Temur malaylari tomonidan uldirilgan, natijada Chig'atoy ulisiga qarashli bo'lgan Movarounnahr mayda feodal davlatlarga bo'linib ketgan, ular o'rtasida ziddiyatlar avj olib kitgan. Temur bu feodal urishlarga aralashib, o'zining uddaburonligi bilan elga taniladi, [4] - deb uqtiradi I.M.Muminov. Darhaqiqat, Amir Temur faoliyatida 2 davr ko'zga tashlanadi, 1-davrda 1360-1386-yillarda Movarounnahrni birlashtirish va ichki nizolarni bartaraf etishga bo'lgan intilish bo'lsa, 2-davr Sharoffiddin Ali Yazdiyning ta'biricha, 1386-1402-yillarni qamrab olib, Temurning uch, besh, etti yillik harbiy yurishlari bilan xarakterlanadi. Akademik I.M.Mo'minov manbalarga tayanib, Amur Temur ba'zi hududlarini bosib olishda ko'plab davlatlarni qamrab olib Hindiston, Eron, Kavkaz, Iroq, Turkiya, Misr, Rassiyaning ham bir qator rayonlarini qaram qilib olishda shafqatsiz tarzda kurash olib borgan. Shu sababli ham Temur xalq xotirasida, ushbu mamlakatlar yilnomalarida haqqoniy va obyektiv ravishda zolim, bosqinchi sifatida ifodalangandir [4] - deb ta'kidlaydi. Menimcha o'sha davrda sobiq kommunistik mafkura hukmron bo'lgan sharoitda Amir Temurni faqat ijobiy tomonini ko'rsatish bilan cheklanmasdan, o'zini himoya qilish uchun vaziyat taqozosi bilan xolisona yondashib ba'zi kamchiliklarni ham ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Amir Temur faoliyati va uning yurishlari haqida manbalar ko'p, lekin I.M.Mo'minov fikricha, bu manbalarni mutaxassislar yanada chuqurroq o'rganishini, hamda Temurning Movarounnahr tarixi bilan bog'liq jarayonlar hali sestemali tarzda chuqurroq o'rganish kerakligini qayd qilgan.

Ibrohim Mo'minov Amir Temurning Movarounnahrning mustaqilligini ta'minlashda mug'ullarga qarshi kurashda sarbadorlar harakatidan Husayn Mirzo ularning rahbarlaridan Abubakr Qalaviyni qatl qildirganini, Temur tomonidan Mavlonzodani qutqarib qolganligi faktini keltirgan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Amur Temur faoliyatining birinchi davrida Movarounnahrda tushkinlikka va halokatga yuz tutgan chig'atoy ulusi o'rniga markazlashgan mustaqil davlat tuzishga qarab, qurultoy chaqirib mamlakatni rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqilgan. Risolada Amir Temurning biror masalani hal qilishda shu sohaning bilimdon odamlari bilan maslahatlashib amalga oshirishi ta'kidlangan.

Temur olimlar va ruhoniylarning majlisini chaqirib, unda odatdagidek nutq so'zlagan, mamlakatni, fuqarolarni boshqarishda, turli xil inshootlar va jamoat binolar qurishda unga olimlar, fuzalolar o'z maslahatlari bilan ko'maklashishlari so'ralgan. Temur nutq so'zlab, "Fan va dinning mashxur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqarolarning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishlarni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishga menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste'mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo'yilishi kabi hollar hammadan ko'ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma'lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni, aytangizlar yaxshi bo'lar edi. Agar oldin bizning diqqat e'tiborimizda o'zga mamlakatlarni ishg'ol qilish uchun bo'lgan harbiy yurishlar turgan bo'lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o'rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu oliyjanob ishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman [5]. I.M.Mo'minov Amir Temurning bu fikrlari hozirgi kunda ham mamlakat ravnaqini taminlashda va yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqotchi fikricha, Amir Temur saroyida xizmat qiluvchi fanning ko'plab sohalari bo'yicha, hattoki qurilish, hunar egalarining zo'r qiziqishiga ustalari bilan zo'r munosabatda bo'lgan, hamda musiqa, adabiyot va nazm sohasini chuqur bilgan.

Temur davrida Samarqand shahri yangicha usulda qayta quriladi. Rui Gonzalis ta'kidlashicha, "Unda (Samarqandda) barcha narsalarni tartib bilan sotish uchun katta joy bo'lmaganligi sababli podshoh shahar bo'ylab katta ko'cha (rasta) chiqarishni, uning ikki tomonida esa mol sotish uchun do'konlar qurishni buyurdi. Bu ko'cha –rasta shaharning bir chekkasidan boshlanib, butun shaharni kesib o'tishi va uning ikkinchi chekasiga chiqish kerak edi. Bu ishni podshoh o'zining ikki mirossiga (mirzosiga) topshirdi va agar ular bu vazifani bajarishga astoydil kirishmasalar, odamlarni kechayukunduz ishlashga majbur qilmasalar boshlari ketishlarini uqtirdi. Maroslar ishga tushdilar. Podshoh ko'rsatib bergan yerdan ko'cha rasta qurishga kirishildi. Rasta o'tadigan yerlarda uchraydigan uyjoylar, ular kimniki ekanligidan qat'iy nazar, buzila boshlandi. Bir guruh kishilar buzish ishlarini tugatishlari bilan ularning o'rniga boshqa guruh odamlar kelib qurilishni tezlashtirib yuborardilar. Ko'chani juda keng qilib oldilar, uning ikki tomonidan savdo do'konlari qurdilar. Bu herda ishlovchi odamlar maosh haqlarini shahar hisobidan olardi. Ishga olinishda ham, talabnoma qanchalik ko'p bo'lmasin, shu ish qo'lidan keladigan odamlar tanlanar edi. Kunduz kuni ishlaganlar ketishi hamona kechasi ishlovchilar kelardilar. Birovlar yo'lga tushgan uy joylarni buzsalar, ikkinchilari er tekislar, ular kechayu kunduz shovqin-suron bilan ishlar edilar. Natijada kishini hayratga soladigan ishlar qilindi"[5]. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki. Amir Temur davrida Samarqand shahrini qayta qurishda va bunyodkorlik ishlarini olib borishda qattiqqo'llik, tartib-intizom bilan har bir soha ishlari bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish asosida bunyodkorlik ishlari avj oldirilgan.

I.M.Mo'minov ta'kidlashicha, nima uchun Amir Temur Samarqand shahrini o'z hokimiyatining markazi qilib tanladi. Birovlar bunga sabab qilib birinchi egallagan shahri Samarqand ekanligini ko'rsatsalar, boshqa birlari ob-havosining yaxshiligida, tabiatining go'zalligida, yana boshqalari Samarqandning qadimdan dunyoga ma'lum bo'lganligi, Afrosiyob shu shahardan Turon mamlakatini boshqarganligi Temurning shu shaharni poytaxt qilib tanlashiga sabab bo'lgan, deb taxmin qilingan. I.M.Mo'minov fikricha, Samarqand qulay geografik holatga ega bo'lib, Movaraunnahrning o'rtasiga joylashganligidir. U sersuv bo'lib, uni uch tomondan tog' o'rab olganligi, unda havoning uch oqimi-tog', daryo va keng yaylov, daraxtzor vodiy, adir qo'shib xushmanzarali, xush tabiatli, orombaxsh iqlim barqarorligi, juda katta qurilish materiallari, hamda qimmatbaho rangli va nodir metall konlariga ega ekanligi, undan davlat ishida ma'lum darajada foydalanish mumkin edi. Shu omillar Temur tomonidan Samarqandning o'z davlatining poytaxti qilib olinishiga asos bo'lgandir, [5] -deb uqtiradi. Menimcha, akademik Ibrohim Mo'minov Amir Temurning Samarqand shahrini poytaxt qilib olish sabablarini har tomonlama to'g'ri ilmiy asoslab bergan.

Risolada dastlab Samarqandning haqiqiy nomi Semizkent, badavlat qishloq, ya'ni semiz degani katta - boy, to'la degani, kent esa-qishloq degan ma'noni anglatishini, Samarqand degan nom shundan kelib chiqqan degan g'oyani ilgari surgan. Darhaqiqat, uning boyligi faqat oziq-ovqat bilan o'lchanmasligini, bu yerda ipak, atlas, sendal, shoyi kabi matolar ko'plab chiqarilgani; mo'yna va ipakdan astarliklar, turli xil surgichlar, ziravorlar, shuningdek, tilla rang va zangori buyoqlar ishlab chiqarilgani haqida ma'mumotlarni keltirgan. Bu shuni anglatadiki, o'sha davrlarda shaharlar ichida eng boy shahar Samarqand ekanligi anglanadi.

Risolada Temur davrida qonunbuzarliklarga qarshi vaqti-vaqti bilan reviziya - taftish, tergov qilish, o'z amalini suiste'mol qilish poraxo'rlik, doimiy ichkilik, maishiy buziqlik kabilarga juda qattiq choralar ko'rilgan. Eng muhimi Amir Temur Xalq hurmatini qozonishga harakat qilgani, lekin shunga qaramasdan fuqaroni qo'rqinch va umid orasida saqlagani, yaxshilarga, qaysi millatdan bo'lishidan qat'iy nazar odamlarga yaxshilik qilgani, g'arazli odamlar va sotqinlar davlatdan quvilgani, qo'rqoq va pastkash odamlarga o'zlariga loyiq ishlar bilan ta'minlangani, ular ma'lum chiziqdan chiqishlariga yo'l qo'yilmagani, tobe mamlakatlarda adolat eshigi ochiq bo'lganligi hamda o'g'irlik va talonchilikka juda qattiq kurashilganligi hamda yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash, o'sha davrdagi soliq tizimi masalalarini manbalar asosida yoritib bergan.

Risolda o'sha davrda Temurning tayanchi uning qo'shinlari hisoblanib Osiyoda eng qudratli armiyasiga ega bo'lgan. Ali Yazdiy "Zafarnoma" da Temur vaqti- vaqti bilan musiqa sadolari ostida qo'shinlarning paradini o'tkazib turganligini qayd etadi. Har bir harbiy qisimning kiyimlari turlicha bo'lib, bir-biridan farqlanib turgan. Amir Temur qo'shinlari tomonidan 1402-yilda Boyazidning 200

ming kishilik qo'shinlarini o'rab olinib, tor-mor qilinishi Temur qo'shinlarining nihoyatda qudratli bo'lganligini ko'rsatgan, buning oqibatida, G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida Amir Temurning obro'si oshib ketib, bu mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar ham rivojlangan.

Darhaqiqat, akademik Ibrohim Mo'minov ta'kidlaganidek, "Amir Temur tarixda juda katta iz qoldirdi, Movarounnahrda mustaqil markaziy birlashgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi. Mulkdor sinflar-yirik zamindorlar, savdogarlar, karvonsaroy egalari hamda ma'lum darajada umuman aholi talablariga peshvoz chiqib, mamlakatning ko'p joylarida qurilishlar qildirdi, kamida 120 yil davomida nisbiy osoyishtalik o'rnatdi. Bu shubhasiz, mamlakatda iqtisodiyot, madaniyat, fan, adabiyot va san'atning o'sishida muhim omil bo'ldi. Temurning O'rta Osiyo tarixidagi xizmati, bizningcha, ana shulardan iboratdir" [5]. Sobiq ittifoq davrida Ibrohim Mo'minov tomonidan Amir Temur faoliyati haqida adolatli, xolisona va ilmiy asosda o'z fikrini qo'rqmasdan, dadil bayon qilganligi, o'ziga xos ma'naviy jasorat namunasi deb baholash mumkin.

Darhaqiqat, I.M. Mo'minovning tashabbusi va amaliy faoliyati bilan respublikamizda ijtimoiy fanlarga doir bir nechta institutlar tashkil etilgan va o'sha davrlarda yagona bo'lgan oylik ilmiy-nazariy "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnalining paydo bo'lishi ham u kishining sa'i-harakati bilan amalga oshgan. Bu jurnal 1957 - yildan nashr etila boshlangan, umrining oxiriga qadar jamoatchilik asosida bosh muharrirlik vazifasini ham bajargan. Jurnalda nashr etiladigan maqolalar doimo nazoratida bo'lib, har bir maqola muhokama etilgan, muhokamadan so'ng dolzarb, muhim deb hisoblangan maqolalar nashrga tavsiya etilgan.

Taniqli faylasuf olim Naim G'oyibov, "Ibrohim Mo'minovga tabiat g'oyat ulug' fazilatlarini in'om etgan edi. U kishi yirik faylasuf olim, xalqimiz tarixi va qadriyatlarining chuqur bilimdoni, shu bilan birga buyuk muallim, ajoyib targ'ibotchi, g'oyat beg'ubor va mehribon do'st, betakror, kamtarin, dilkash, olijanob inson. Ana shu fazilatlar u kishining doimiy hamrohi, ayni vaqtda bu fazilatlarini barchisini shogirdlar tarbiyasiga safarbar etar edilar", [6] - deb tavsiflagan edi.

Darhaqiqat, Ibrohim Mo'minov shogirdlari bilan yakkama-yakka yoki birvarakayiga suhbatlar o'tkazar ekan. Shogirdining axborotini diqqat bilan tinglarkan, mavzuning biror joyida shubha yuzaga keladigan bo'lsa, kerakli to'g'ri maslahatini berar ekan. Shogirdlarining kamchiliklarini o'z vaqtida ko'rsatib, u yoki bu masalada yo'l qo'yilgan nuqsonlarni toqat bilan tuzatib borarkan. Bu o'z navbatida yosh olimga muayyan mavzuni tadqiq etishda qat'iyat va o'ziga ishonch paydo bo'lishiga olib kelar ekan.

Xulosa qilib aytganda, akademik I.M. Mo'minovning taniqli faylasuf olim va jamoat arbobi, fan tashkilotchisi, Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasida asoschisi, shu bilan birgalikda, O'zbekistonda falsafa ilmiy maktabining asoschisi sifatida bevosita rahbarligida 20 dan ortiq fan doktorlari, 100 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlangan. I.M. Mo'minov Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasida asoschisi sifatida universitet kafedra jamoasi oddiy o'qituvchilikdan taniqli faylasuf akademik darajasiga etganligidan faxrlanadi va g'ururlanadi.

Darhaqiqat, buyuk allomalar jismonan bu dunyodan o'tgan bo'lsalarda, ma'nan asarlari va g'oyalari bilan xalqi qalbida abadiy yashaydi va bu yo'lda akademik Ibrohim Mo'minovning amalga oshirgan ishlari ibrat namunasi sifatida, yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalashda shubhasiz juda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Shermuhammedov S.Sh. Akademik Ibrohim Mo'minov. O'zbekistonda falsafa ilmiy maktabining asoschisi:// «Ilm-fan va ta'lim-istiqlol poydevori» Respublika ilmiy nazariy seminar materiallari. Samarqand-Toshkent., 2013, 9-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. -T.: "Manaviyat" 2008, 169-170 betlar.
3. Xayrullaev M.M. Ibrohim Mo'minovning katta ilmiy jasorati. Ibrohim Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Asariga so'z boshi o'rnida (ikkinchi nashri). Toshkent "Fan"1993, 9-10- betlar.
4. Mo'minov I.M. Amir Tumor O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – T., 1968. – B.14. I.M. Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. -Toshkent, "FAN", 1968, 14-bet.
5. Mo'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. - Toshkent, "FAN"1993, 22-23 betlar.
6. Naim G'oyibov. "Donishmand", -T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2008, 44-bet.

PROFESSOR ZIYODULLA MUQIMOV YETMISH BESH YOSHDA!

Respublikamizda taniqli huquqshunos olim va o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi SamDU huquqshunoslik fakultetining asoschilaridan biri, «Huquqiy ta'lim» kafedrasining professori, yuridik fanlar doktori Ziyodulla Muqimov tug'ilgan kuniga 75 yil, mehnat faoliyatiga 60 yil to'ldi.

Z.Muqimov 1942 - yilning 10 - mayida Kattaqo'rg'on tumanining Orzi Mahmudov nomli jamoa xo'jaligida, usta Muqim usta Yusuf o'g'li oilasida tug'ildi. 1960 - yilda o'ninchi sinfni tugatgach, dastlab shu yerda kolxozchi bo'lib ishladi. 1962-1963 - yillarda Toshkent shahrida 4-sonli Texnika bilim yurtini imtiyozli tugatib, kabelchi-payvandchi mutaxassisligini egalladi va Samarqand viloyat qurilish montaj boshqarmasida montajchi, so'ng Toshkent temir yo'li yuk saroyida kran haydovchisi, yukchi bo'lib ishladi. Yoshligidan uning ijtimoiy fanlarga qiziqishi ToshDU yuridik fakultetiga yetakladi. 1966 - yilda o'sha davrlarda ushbu fakultetga juda kam talabalar qabul qilinishi, tanlovning yuqori bo'lishiga qaramay, kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, o'qishga qabul qilindi. Bo'lg'usi ustozning tinmay o'qishi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorlanishi, jonkuyar va urinchog'ligi tufayli talabalar orasida hurmatga sazovor bo'ldi. Universitet miqyosidagi anjuman va tadbirlarda faol qatnashib, oliy o'quv yurtini 1971 - yilda huquqshunoslik ixtisosligi bo'yicha imtiyozli diplom bilan muvaffaqiyatli tamomladi. Uning davlat va huquq tarixi fanlariga qiziqishini anglagan mashhur olim X.S.Samatova o'zi rahbarlik qilayotgan «Davlat va huquq tarixi» kafedrasiga o'qituvchilik ishiga taklif etdilar. Bu yerda u besh yil dars bergach, Oliy ta'lim vazirligining yo'llanmasi bilan Samarqand davlat universitetining yangi ochilgan yuridik fakultetiga katta o'qituvchi lavozimiga o'tkazildi va ustoz o'z taqdirini ushbu fakultet bilan bog'ladi. 1978 yilda ustoz X.S.Samatova rahbarligida Olma-Ota shahrida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Kontrol Komissiyasi va Ishchi-dehqon Xalq Komissarligi idoralarining davlat organlarini takomillashtirish borasidagi faoliyati (1924-1929 -yy.)» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, yuridik fanlar nomzodi bo'ldi.

Mehnat faoliyati davomida ustoz ko'plab uslubiy tavsiyalar, o'quv qo'llanmalari hamda darsliklarni yaratdilar. U kishining yaqinlari va shogirdlari mehnatsevar, kamtarin, halol va qat'iy xarakterli inson deb biladilar. Domla o'qituvchilik va rahbarlik faoliyati bilan birga tinmay, ilmiy ish olib borib, 1998 - yilning 18 - yanvarida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Falsafa va huquq instituti qoshidagi maxsus ilmiy kengashda «O'zbekiston huquqining asosiy tarixiy manbalari (VIII-XIX)» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Respublikamiz ilmiy jamoatchiligi ushbu tadqiqotga yuksak baho berib, unga «**Davlat va huquq tarixi fanida yangi yo'nalish**» deb baholadilar.

1976 - yildan 2017 - yilga qadar SamDU yuridik fakultetida 41 yil mobaynida katta o'qituvchi, dosent, professor, partiya tashkilotining kotibi, dekan muovini, kafedra mudiri, fakultet dekani lavozimlarida ishladi. Universitet jamoasi oldida mohir pedagog, talabchan rahbar va olim sifatida tanildi. Eng og'ir vaqtlar fakultet rahbarligi lavozimiga tayinlanib (1980, 1988,1996) har safar uni og'ir ahvoldan olib chiqib, ikki marta uni qaytadan tikladi. O'qituvchi sifatida huquqshunoslik ixtisosligining eng murakkab sohalaridan bo'lgan «Davlat va huquq nazariyasi hamda tarixi» fanlaridan o'zbek va rus tillarida dars berib keldi. Hozirda esa, «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» yo'nalishi talabalariga «Davlat va huquq tarixi», «Davlat va huquq nazariyasi» fanlaridan dars berib kelmoqda.

O'zlarining qirq besh yildan ortiq ilmiy-pedagogik faoliyatlari davomida domla qator shogirdlar chiqarishlari bilan birga, 13 ta monografiya, 4 ta jamoa monografiyasi, 7 ta o'quv qo'llanmasi, 5 ta darslik, jami 350 dan ortiq ilmiy, o'quv-metodik, ommabop ishlarni yozib nashr ettirdilarki, ular respublikamiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuksak baholanib, boshqa oliy yuridik o'quv yurtlarida ham foydalanilmoqda.

Jumladan, prof. Ziyodulla Muqimov «Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Toshkent, Akademi-nashr 2012); «O'zbekiston davlati va huquqi tarixi (Toshkent: Navro'z, 2013) darsliklari va «Davlat va huquq nazariyasi muammolari» o'quv qo'llanmalari bilan «**Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi**» respublika tanlovlarining 2014, 2015 yillar g'olibi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi, Xalq ta'limi vazirliklari, «Iste'dod» jamg'armasining diplomlari va sovrinlariga sazovor bo'lgan. Shuningdek, «Oliy ta'lim muassasining eng yaxshi pedagogi» tanlovi respublika bosqichida huquq ta'limi bo'yicha 2015 - yil uchun «**Mutaxassislik**

bo'yicha eng yaxshi pedagog» nominasiyasida g'olib deb topilib, faxriy diplom va mukofot bilan taqdirlangan.

2015 - yilning 27 - dekabrda viloyat hokimligi tomonidan o'tkazilgan «**Samarqand iftixorlari**» tanlovining «**Ilm-fan fidoiylari**» nominasiyasi bo'yicha g'olib deb topilib, viloyat hokimining tashakkurnomasi hamda mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Bugungi kunda ustoz nafaqa yoshida bo'lishlariga qaramasdan, jamoat ishlarida ham faol qatnashib kelmoqdalar. U kishi hozirda Xalqaro Imom Buxoriy Ilmiy Markazi Ilmiy Kengashining a'zosi, Xalqaro Amir Temur Xayriya fondi Samarqand viloyat bo'limi Prezidiumining a'zosi, SamDU Ilmiy Kengashi hamda SamDU Ilmiy tadqiqotlar Axborotnomasi tahrir hay'atlarining ham a'zosidir.

Faol ijtimoiy faoliyati uchun domla bir necha bor Oliy va o'rta maxsus ta'limi Vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi, SamDU rektoratining qator faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. Ustoz «Mehnat faxriysi», «Musobaqa a'lochisi» ko'krak nishonlari va «O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligi» medali bilan mukofotlangan.

Bugungi kunda o'zining 75 bahorini qarshilayotgan ustozimiz, SamDUda xizmat ko'rsatgan professor Ziyodulla Muqimovni tabarruk yoshlari bilan tabriklaymiz hamda mustahkam sog'lik va uzoq umr, tinchlik, baxt-sodat tilaymiz.

Bir guruh shogirdlari

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekt, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; orientatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi" dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X.Sh. Tashpulatov
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
B. S. G'oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 20.05.2017 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisobtabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 88. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.